


IN VOLUME #3
ISSUE #03
MARCH 2025

ISSN: 2992-8869



JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN

- Exact Sciences
- Natural Sciences
- Technical Sciences
- Pedagogical Sciences
- Social Sciences
- Philosophical Sciences
- Philology
- Economics
- Agriculture
- Psychological Sciences
- Medical Sciences



Research Science and
Innovation House



ResearchBib Impact faktor: 9,654 / 2024



www.universalpublishings.com

THE IMPACT OF COMMUNITY HEALTH NURSES ON THE PROMPT DETECTION OF KEY NON-COMMUNICABLE DISEASES WITHIN HEALTH INSURANCE FRAMEWORKS

M. A. Rakhmatullaeva

I. R. Urazalieva

Tashkent Medical Academy School of Public Health

Abstract. Non-communicable diseases (NCDs), particularly cardiovascular diseases (CVD), hypertension, diabetes mellitus (DM), and dyslipidemia (DL), are the leading causes of global mortality, accounting for 71% of deaths annually. Early detection is critical to reducing their burden, especially in low- and middle-income countries (LMICs). This paper explores the pivotal role of community health nurses (CHNs) in identifying these conditions within populations covered by health insurance packages. Globally, CVD claims 17.9 million lives yearly, with hypertension affecting 22% of adults. Leveraging insurance-covered services, CHNs facilitate screening, risk factor identification, and timely intervention. This review highlights their contributions and the need for integrated health system support to enhance NCD management.

Keywords: community health nurses, non-communicable diseases, early detection, health insurance, cardiovascular diseases, hypertension, diabetes mellitus, dyslipidemia, primary healthcare.

Introduction. Non-communicable diseases (NCDs), including cardiovascular diseases (CVD), hypertension (HTN), type 2 diabetes mellitus (DM), and dyslipidemia (DL), account for 41 million deaths annually, or 71% of global mortality, with 77% occurring in LMICs [10]. CVD alone causes 17.9 million deaths each year, driven by risk factors such as hypertension, which affects 22% of adults worldwide [4, 11]. In Brazil, 24.7% of adults reported a hypertension diagnosis in 2018, with prevalence rising among older and less-educated populations [5]. These conditions, often asymptomatic until advanced stages, are termed “silent threats,” underscoring the importance of early detection [3].

Community health nurses (CHNs) play a vital role in primary healthcare, serving as the first point of contact for many patients. With the expansion of health

insurance packages covering NCD screening and management, CHNs are uniquely positioned to identify at-risk individuals, promote preventive behaviors, and link patients to care. This paper examines their contributions to early detection of leading NCDs within insured populations, emphasizing their impact on reducing morbidity and healthcare costs.

Relevance of Work. The rising prevalence of NCDs, particularly CVD, HTN, DM, and DL, poses a significant public health challenge, with economic costs projected at US\$47 trillion by 2030 [12]. In LMICs, where resources are limited, late diagnosis exacerbates mortality and disability, pushing families into poverty due to catastrophic healthcare expenses [10]. Health insurance packages increasingly cover NCD services, yet their effectiveness depends on early intervention. CHNs, through community-based screening and education, bridge this gap, making their role critical. This study is relevant as it aligns with global goals, such as the Sustainable Development Goals’ target to reduce premature NCD deaths by one-third by 2030, and highlights the potential of CHNs to optimize insurance-driven NCD strategies.

Purpose. This review aims to evaluate the role of community health nurses in the early detection of leading NCDs—specifically CVD, hypertension, DM, and DL—within populations covered by health insurance packages. It seeks to identify their contributions to screening, risk factor management, and referral systems, while proposing strategies to strengthen their integration into primary healthcare frameworks.

Materials and Methods of Research. This systematic review synthesizes evidence from peer-reviewed literature, WHO reports, and national surveys, including Brazil’s 2018 Vigitel data [5]. Searches were conducted in PubMed, Scopus, and Google Scholar using terms like “community health nurses,” “non-communicable diseases,” “early detection,” and “health insurance.” Studies published in English from 2010 to 2025, focusing on CHN roles in NCD screening and insurance-covered interventions, were included. Qualitative and quantitative data were analyzed to assess CHN effectiveness, with findings framed within the WHO’s health system building blocks (e.g., service delivery, workforce) to evaluate system support for their role.

Results and Discussion

Epidemiology of NCDs and Insurance Coverage

CVD remains the leading cause of death globally, with 17.9 million fatalities annually, followed by complications from HTN, DM, and DL [4]. Hypertension affects 22% of adults, with a 40% higher risk of cardiovascular events among those over 30 [4, 14]. DM increases risks of myocardial infarction (MI) by 53% and stroke by 58%, while DL contributes to 49% of first MIs [14, 15]. Health insurance packages in many countries now cover screening and treatment for these conditions, yet access barriers persist, particularly in LMICs.

Role of Community Health Nurses

CHNs excel in early detection by conducting community-based blood pressure checks, glucose monitoring, and lipid profile assessments—services often reimbursed by insurance. In Brazil, CHNs leverage Vigitel survey insights to target high-risk groups, such as the elderly and less-educated [5]. They educate patients on modifiable risk factors (e.g., smoking, physical inactivity) and refer complex cases to specialists, reducing delays in care. Studies show CHN-led screening programs lower CVD incidence by identifying asymptomatic cases early [15].

Challenges and Opportunities

Despite their impact, CHNs face challenges, including limited training, workforce shortages, and inconsistent insurance coverage for preventive services. In LMICs, only 77% of NCD deaths are addressed due to resource constraints [4]. However, integrating CHNs into insurance frameworks enhances cost-effectiveness, as early detection reduces hospitalizations—a key driver of socio-economic costs [3]. Strengthening their role requires investment in training and technology, aligned with insurance policies.

Conclusion. Community health nurses are indispensable in the early detection of leading NCDs, including CVD, hypertension, DM, and DL, particularly within populations covered by health insurance packages. Their community-level interventions improve screening, risk factor management, and referral processes, mitigating the NCD burden. However, maximizing their impact demands enhanced training, workforce support, and broader insurance coverage for preventive care. By empowering CHNs, health systems can achieve sustainable NCD control, aligning with global health priorities and reducing long-term morbidity and costs.

REFERENCES

1. Virani SS, Alonso A, Aparicio HJ, Benjamin EJ, Bittencourt MS, Callaway CW, et al; American Heart Association Council on Epidemiology and Prevention Statistics Committee and Stroke Statistics Subcommittee. Heart disease and stroke statistics-2021 update: a report from the American Heart Association. *Circulation*. 2021;143(8):e254-e743
2. Roth GA, Mensah GA, Johnson CO, Addolorato G, Ammirati E, Baddour LM, et al. GBDNHLBI-JACC Global burden of cardiovascular diseases writing group. Global burden of cardiovascular diseases and risk factors, 1990–2019: Update From the GBD 2019 Study. *J Am Coll Cardiol*. 2020;76(25):2982–3021. doi: 10.1016/j.jacc.2020.11.010.
3. Malachias MVB, Souza WKS, Plavnik FL, Rodrigues CIS, Brandão AA, Neves MFT, et al. 7th Brazilian Arterial Hypertension Guidelines. *Arq Bras Cardiol*. 2016;107(3):1–83.
4. World Health Organization (WHO) Noncommunicable diseases country profiles 2018. Geneva: World Health Organization; 2018. [2019 Dec 09].
5. Ministério da Saúde (BR) Secretaria de Vigilância em Saúde. Departamento de Vigilância de Doenças e Agravos não Transmissíveis e Promoção da Saúde . *Vigitel Brasil 2018: vigilância de fatores de risco e proteção para doenças crônicas por inquérito telefônico*. Brasília: Ministério da Saúde; 2019. [2019 Dec 09].
6. Hollander W. Role of hypertension in atherosclerosis and cardiovascular disease. *Am J Cardiol*. 1976;38(6):786–800.
7. Vos T, Lim SS, Abbafati C, et al. Global burden of 369 diseases and injuries in 204 countries and territories, 1990–2019: a systematic analysis for the global burden of Disease Study 2019. *The Lancet*. 2020;396(10258):1204–22.
8. Roth GA, Mensah GA, Johnson CO, et al. Global Burden of Cardiovascular Diseases and Risk factors, 1990–2019: Update from the GBD 2019 study. *J Am Coll Cardiol*. 2020;76(25):2982– 3021.
9. Joseph P, Leong D, McKee M, et al. Reducing the Global Burden of Cardiovascular Disease, Part 1: the epidemiology and risk factors. *Circ Res*. 2017;121(6):677–94.
10. Rhee EJ. Prevalence and current management of cardiovascular risk factors in Korean adults based on fact sheets. *Endocrinol Metab (Seoul)* 2020;35:85–94.

11. Hedayatnia M, Asadi Z, Zare-Feyzabadi R, Yaghooti-Khorasani M, Ghazizadeh H, Ghaffarian-Zirak R, Nosrati-Tirkani A, Mohammadi-Bajgiran M, Rohban M, Sadabadi F, et al. Dyslipidemia and cardiovascular disease risk among the MASHAD study population. *Lipids Health Dis.* 2020;19:42.

12. Darroudi S, Saberi-Karimian M, Tayefi M, Arekhi S, Motamedzadeh Torghabeh A, Seyedzadeh Sani SMR, Moohebaty M, Heidari-Bakavoli A, Ebrahimi M, Azarpajouh MR, et al. Prevalence of combined and noncombined dyslipidemia in an Iranian population. *J Clin Lab Anal.* 2018;32:e22579.

13. Borén J, Chapman MJ, Krauss RM, Packard CJ, Bentzon JF, Binder CJ, Daemen MJ, Demer LL, Hegele RA, Nicholls SJ, et al. Low-density lipoproteins cause atherosclerotic cardiovascular disease: pathophysiological, genetic, and therapeutic insights: a consensus statement from the European Atherosclerosis Society Consensus Panel. *Eur Heart J.* 2020;41:2313–2330.

14. Libby P, Ridker Paul M, Maseri A. Inflammation and atherosclerosis. *Circulation.* 2002;105:1135–1143.

15. Thrainsdottir IS, Aspelund T, Thorgeirsson G, Gudnason V, Hardarson T, Malmberg K, Sigurdsson G, Rydén L. The association between glucose abnormalities and heart failure in the population-based Reykjavík Study. *Diabetes Care.* 2005;28:612.

Research Science and Innovation House

Yo'ldosh tushish davri va ilk chilla davrida qon ketishi terminal holati .

Kenjayev Yodgor Mamatqulovich

Erkayeva Gulsevar Ravshan qizi

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Tibbiyot fakulteti katta o'qituvchisi
Termiz iqtisodiyot va servi universiteti Davolash ishi yo'nalishi 24 /03 guruh
talabasi

Annatsiya: Yo'ldosh , bola o'rni –bola tug'ilgach , ketidan tushadigan homila pardalari , platsentasi va kindigidan iborat a'zo :homolani ona tanasi bilan bog'langan turadi . Tug'ruqning yo'ldosh tushish davrida platsenta va pardalar bachadon devoridan to'la ko'chadi va tug'ruq yo'llari orqali chiqadi.

Kalit so'zlari : Bachadon , yo'ldosh , platsentan , Krede usuli , bachadon bo'yni , qon .

Muammoning dorzarbligi : Plasenta ajralishi (Yo'ldosh ko'chishi) – 0,4 – 1,4 % homoladorlikda yuzaga keladigan va shoshilinch tibbiy aralashuvni talab qiladigan xavfli holatidir .

Bachadon bo'yni ochiladigan va homila tug'iladigan davrlarga nisbatan yo'ldosh tushish davrida ko'ngilsiz hodisalarko'proq uchraydi . Yo'ldosh tushish davrida ko'proq kuzatiladigan va xavfli hodisa – qon ketishidir .Yo'ldosh tushish davrida hamisha qon ketadi , lekin yo'ldosh normal ko'chib tushganda ayol, ko'p deganda ,250 ml qon yo'qotadi . Yo'ldosh ko'chgandan keyin bachadon qisqaradi . Natijada :

1. Ko'chgan yo'ldosh bachadondan tushadi ; 2. Bachadonning qonayotgan tomirlari qisilib , qon oqishi to'xtaydi . Bachadonning qisqaruvchanligi yetarli bo'lmasa, platsentaning ko'chish jarayoni buzadi : platsenta batamom ko'chmay , qisman ko'chadi . Platsenta batamom ko'chmaguncha bachadon qisqarmaydi , platsenta ko'chgan joydagi tomirllar ochiq turaverib , ulardan qon oqadi .

Platsenta bachadon devoridan ko'chsa-yu , bachadon bo'shlig'ida qolaversa ham qon ketadi . Yo'ldosh bachadon bo'shlig'ida turganda muskullar yaxshi qisqarmaydi , bachadon tomirlari yetarlicha qisilmaydi , natijada qon ketishi davom etaveradi .Tug'ruq yo'llaridagi yumshoq to'qimalar : bachadon

bo'yni , qin va oraliq to'qimalarning yirtilishi yo'ldosh tushadigan davrda qon ketishi mobaynida bo'lib hisoblanadi . Ammo yo'ldosh tushadigan davrda qon ketishi ko'pincha yo'ldoshning bachadon devoridan ko'chish va bachadondan chiqish jarayonining buzilishiga aloqador bo'ladi .

Yo'ldoshning ko'chishi va bachadondan chiqish jarayoni buzilib qon ketishi bir qancha sabablarga bog'liq , ularga quydagilar kiradi .

1. Bachadon tonusi va qisqaruvchanligining pasayishi .
2. Yo'ldosh tushadigan davrning noto'g'ri boshqarilishi .
3. Platsentaning bachadonda noto'g'ri joylashuvi .
4. Platsentaning bachadonga soxta va chin yopishishi .

Davosi : Qon ketishini darhol to'xtatish va kamqonlikka qarshi kurash choralarini ko'rish kerak . Bachadon bo'shagandan keyingina qisqarib , qon ketishi to'xtashi mumkin . Shu sababli yo'ldoshni bachadon bo'shlig'idan ustalik bilan tez chiqarish zarur . Platsenta ko'chgan bo'lsa , tashqi amallar bilan chiqariladi . Platsenta ko'chmagan bo'lsa tashqi amallar bilan chiqariladi . Platsenta ko'chmagan bo'lsa , tashqi amallar natija bermasligi mumkin , shu sababli bachadon bo'shlig'iga qo'l suqib yo'ldoshni ko'chirishga to'g'ri keladi . Qon keta boshlaganda yo'ldoshning ko'chish belgilarini darhol tekshirib ko'rish kerak .Platsenta ko'chgan (ko'chish belgilari musbat) bo'lsa , darhol Abuladze yoki Krede usulida chiqariladi . Platsentaning ko'chishi belgilari bo'lmasa , narkoz berib , yo'ldoshni Krede usulida siqib chiqarishga urinib ko'riladi . Krede usulining natida bermasligi , ba'zan bachadon bo'yni ichki teshigining spazmiga bog'liq bo'ladi ,(spazm ko'chgan yo'ldoshning chiqishiga to'sqinlik qiladi). Bunday hollarda narkoz spazmi bartaraf qiladi va yo'ldoshni siqib chiqarsa bo'ladi . Narkoz berib Krede usulini qo'lash natijasida bermasa ,yo'ldosh qo'lda ko'chiriladi .Mustaqil ishlayotgan akusher narkoz berish usulini qo'llamaydi; u narkoz bermasdan , Krede usulida urinib natijada olmagach, yo'ldoshni qo'lda ko'chirishga darhol kirishadi .

Ilk chilla davrida (tug'ruqdan keying dastlabki soatlarda)qon ketishi .

Yo'ldosh tushish davrida qon ketishi kabi , yo'ldosh tushgandan keyin qon ketishi ham akusherlik patologiyasining ko'p uchraydigan turiga kiradi .

Tug'ruqdan keyingi dastlabki soatlarda (ilk chilla davrida) qon ketishi quyidagi sabablarga bog'liq

1. Platsenta qismlarining bachadonda ushlanib qolishi .
2. Bachadon gipotoniyasi va atoniyasi .
3. Tug'ruq yo'llaridagi yumshoq to'qimalarining yirtilishi .
4. Qon ivish tizimining buzilishi .

Yo'ldosh tushish davrini to'g'ri boshqarish tushgan yo'ldoshni sinchiklab ko'zdan kechirish va tug'ruq yo'llarining yumshoq to'qimalarni shikastlanishdan saqlash kerak. Akusher gipotonik qon oqish ehtimolini oldindan ko'rishi va oqayotgan qonni to'xtatishda hamda kamqonlikda qarshi kurash zarur narsalarni hammasini oldindan tayyorlab qo'yish kerak.

Davosi : Qon ketishga qarshi kurashning muvaffaqiyati shu dahshatli hodisasining sababini bartaraf etishga bog'liq. Modomiki shunday ekan, avvalo qon ketish sababini aniqlash va shunga qarab ish ko'rish kerak. Bachadon bo'yni, qin yoki tashqi jinsiy organlarining yirtilganligi qon ketish manbaya bo'lsa, yirtiqni choklash kerak. Platsentaning bir qismi bachadonda ushlanib qolgani sababli qon ketayotgan bo'lsa bachadondan darxon qo'lga tekshirilib platsentaning ushlanib qolgan qismi olib tashlanadi. Gipotonik qon ketishda bachadon tonusini qisqaruvchanligini oshirish choralari ko'riladi.

Platsenta qismlari bachadonda ushlanib qolganda shuningdek, platsentaning butunligiga shubxa tug'ulganda bachadon qo'lda tekshiriladi. Platsentani qo'lda ko'chirishda qanday qoidalarga rioya qilinsa, bachadonni qo'lda tekshirishda ham o'sha qoidalarga rioya etiladi. Bachadonga suqilgan qo'l bilan bachadon devorlari tubi va bachadon naylarining boshlangan burchaklari sinchiklab paypaslanadi. Tajribali vrach bachadonni tekshirish va platsenta qismlarini olib tashlashda (bachadon tonusi yaxshi bo'lsa) katta kyuretkadan foydalashi mumkin. Platsentaning bachadonda ushlanib qolgan qismlari olib tashlangach bachadonda ushlanib qoygan qismlari olib tashlangach bachadon aksari qisqarib, qon ketishi to'xtaydi. Bachadon ko'rsatmalarga muvofiq(tug'ruqda endometrit belgilari paydo bo'lganda va infeksiyaga moyil boshqa ko'ngilsiz hodisalar ro'y berganda) qo'da tekshirilgan sulfanilamide preparatlar yoki antibiotiklar buyuriladi.

Gipotonik va atonik qon ketishiga qarshi qo'yidagicha kurash olib boradi:

1. Qovuq bo'shtiladi, bachadon qorin devoir orqali uqalanadi; qo'l bachadon tubiga qo'yilib, uqalangansimon yingil doiraviy harakatlar qiladi(qo'pol harakat qilish natija bermaydi). Uqalash ta'siri bachadon qisqaradi va konsistensiyasi zich bo'lib qoladi.

Bachadondan qon laxtalari surib chiqariladi. Uqalas bilan barobar 0,05 % li ergotal eritmasidan 1 ml yoki 0,02% li metilergometrindan 0,5-1 ml, bu ham bo'lmasa oksitotsin (5-8 birligi 500 ml 5% li glukoza bilan) venaga yuboriladi.

Qorinning pastiga muzli xalta qo'yiladi.

Bachadon gipotoniyasi unchalik rivojlangan bo'lmasa, qon ketishini to'xtatish uchun ko'rilgan choralar kifoya qiladi.

2. Qon ketishi to'xtamasa bachadonga qon kelishini kamaytirish yoki vaqtincha to'xtatish usullari qo'llaniladi. Bachadon qonsizlarnishi tufayli qisqaradi.

Piskachek usuli: bachadonning pastki segmenti chap qo'lda ushlanib qisiladi, shu payt bachadon arteriyalari va venalari qisilib, puchayadi. Ayni vaqtda bachachadon tubi o'ng q'lda uqalanadi. Krovatning bosh tomoni pastga tushiriladi; bachadonning pastki segmenti Piskachek usulidagi kabi siqiladi, bachadon yuqoriga qattiq tortiladi va shu bilan bir vaqtda, bachadonning siqilgan pastki segmenti umurtqa pog'onasiga taqav bosiladi. Tasirni kuchaytirish uchun bachadon bo'sh qo'l bilan uqalanadi. Bachadon shu holatda 10-15 minut ushlab turiladi. Shu payt bachadon tomirlari siqiladi, aorta bachadonning pastki segmenti bilan umurtqa pog'onasiga taqab bosiladi. Natijada bachadon qonsizlanib qisqaradi.

3. Qon ketishi davom etgan taqdirda bachadon qo'lda tekshiriladi va qon laxtalari parda va platsenta bo'laklari olib tashlanadi, so'ngra qo'lni bachadondan tubini qorin devoir orqali uqalanadi.

4. Qorin aortasini bosib turish. Ro'y rost gipotoniya bachadonni qonsizlantirish maqsadi bilan aortani bosib turish tavsiya etiladi. Tuqqan ayolning yon tomonida turib, musht qilingan o'ng qo'l asosiy falangalarining dorsal yuzasi bilan qorin aortasi qopin devoir orqali umurtqa pog'onasiga bosiladi.

5. Bachadonni tamponlash. Yuqorida ko'rsatilgan choralar vaqtincha natija bermasa, bachadon bo'shlig'I keng doka bint tamponade qilinadi. Tampon tomirlarda tromblar hosil bo'lishiga va bachadon

muskullarining qisqarishiga yordam berdi. Bachadon bo'shlig'i qayrilgan uzun kornsang yordamida serbar uzun doka bintlar bilan zinch tamponlanadi. Bachadon bo'shlig'ining hammasini tubidan tortib bo'ynigacha ketma-ket tamponlash zarur. So'ngra pulevoy qisqich olinib, qin tamponlanadi. Tampon bachadonda 8-10 soat turishi mumkin.

6. Atanik qon ketishi yuqorida ko'rsatilgan choralar bilan to'xtamasa qorin devorini yorib bachadon olib tashlanadi yoki bachadon tomirlari bog'lab qo'yiladi.

7. Qon ketishi gipo-afibrinogenemiya bilan bog'liq bo'lganda yangi sitratlangan qon quyiladi, venaga fibrinogen protamin, sulfat, epsilon-aminokapronat kislota va qon ivishini tezlashtiruvchi boshqa vositalar yuboriladi.



Research Science and
Innovation House

Ayollar jinsiy a'zolarining o'sma kasalliklari .

**Kenjayev Yodgor Mamatqulovich ,
Berdiyeva Sevinch Abdulloyeva**

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Tibbiyot fakulteti katta o'qituvchisi
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Davolash ishi yo'nalishi 23/ 13 guruh
talabasi

Annotatsiya: Jinsiy a'zolar xavfli o'smalarining keng tarqalganligi va ayollar onkologik kasalliklari tizimida yetakchi o'rin egallaganligi bachadon tanasi , bo'ynining fon va rak oldi kasalliklari muoammolarining dolzarbligidan darak beradi . Reproduktiv yoshdagi ayollar onkologik kasalliklari orasida bachadon bo'yni o'sma jarayonlari ulushi 10% dan 15,7% gacha tashkil qiladi Ma'lumki , ayollar onkologik kasalliklari tizimida bachadon bo'yin raki birinchi o'rinlardan birini egallab kelmoqda , u noqulay fonda rivojlanib rak oldi kasalliklarining so'nggi bosqichi bo'lib hisoblanadi .

Kalit so'zlari: O'sma , bachadon bo'yni eroziyasi , polip, vaksinasiya , displaziya , atipizm , Shiller sinamasi kolposkopiya rak-cancer, ektropion.

Muommoning dolzarbligi: Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra , har yili dunyo miqyosida 370 mingdan ziyod ayolda bachadon bo'yni saratoni birinchi bor qayd etiladi , shulardan 190 ming nafari ushbu kasallik oqibatida vafot etadi .

Bachadon bo'yni saratoni O'zbekistonda eng ko'p uchraydigan saraton kasalliklari orasida ikkinchi o'rindadir. Kasalliklar orasida xavflilik ko'rsatkichi bo'yicha esa bachadon bo'yni saratoni barcha yoshdagi ayollar o'rtasida ko'krak bezi va oshqozon saratoni xastaliklaridan keyin uchinchi o'rinda va tug'ish yoshidagi ayollar orasida bachadon bo'yni saratonidan o'lim ko'rsatkichi ikkinchi o'rinda turadi . Shunday qilib , papilloma virusi kasalliklarining salmog'I yuqori bo'lib , uning oldini olish uchun samaradorligi yuqori va xavfsiz bo'lgan odam papillomasi virusli vaksinasi bilan emlash orqali bachadon bo'yni saratoni bilan kasallanishning kamayishiga erishish mumkin .

Chin o'smalar a'zo va organlarning xususiy to'qimalaridan iborat tuzilmalardir. Shishsimon o'smalar esa biron bir bezlarning secret chiqarish yo'li bekilib qolishi hisobiga suyuqlik to'planib kattalashuvi ular tovuq tuxumidan ayol

kishi mushtidek o'lchamda bo'ladi. O'smalar morfologik tuzilishi va klinik jixatdan o'tishiga qarab xavfsiz va xavfli o'smaga bo'linadi. Xavfsiz o'smalar qaysi a'zoga yuzaga keladigan bo'lsa o'sha a'zo doirasidan tashqariga chiqmaydi. Xavfli o'smalar quyidagi xususiyatga ega bo'ladi.

1. Taraqqiy etish jarayonida tevarak atrofdagi to'qimalarni o'rab o'sadi, ularni yemirib boradi.
2. Birlamchi o'sma olib tashlangandan keyin retsdiv va metastaz beradi.
3. Bemorning umumiy ahvoriga va modda almashinuvida yomon ta'sir qilib ko'pincha kaxeziyaga olib keladi.

Xavfsiz o'smalar esa shu organning to'qimalaridan tashqariga qo'shni a'zolarga tarqalmaydi, ularning qisqarishi, funksiyasiga ta'sir etish mumkin. Bazi sifatli o'smalar ham bemorni umumiy axvoliga ta'sir qilishi mumkin. Masalan, fibromiomalarda uzoq vaqt qon ketish tufayli anemiyaga olib keladi. Yaxshi sifatli o'smaga o'zgarib yomon sifatli o'smaga aylanishi malignizatsiya deyiladi. O'smaga o'xshaydigan tuzilmalarga retsion kistalar kiradi. Ular biron bir bez sekretini to'xtalib qolishi yoki patalogik produktarning bo'shliqlarida saqlanib qolishidan hosil bo'ladi. Retension kistalar tevarak atrofga tomon o'sib bormaydi, ichidagi suyuqlik ko'payib borishi hisobidan kattalashadi oyoqchali bo'lishi mumkin. Bunday o'smalarga follikulyar kista, sariq tanacha kistalari paraovariol, intraligamentar kistalar va qindagi Gartner, Folli yo'li kiradi.

Bachadon miomasi; deb, mushak to'qimasidan fibrinioma deb, biriktiruvchi to'qimalardan tashkil topgan gormonlarga moyil bo'lgan xavfsiz o'smaga aytiladi. Mioma keng tarqalgan kasallik bo'lib, genikologik bemorlarning 10-27% dan, 30 yoshga yetgan bemorlarning 20% da, 40 yoshdan katta bemorlarning esa 40% da uchraydi. Ayollar organizmda bachadon miomasining kelib chiqishi asosan gormonal o'zgarishlar tufayli ya'ni gipotalamus gipofiz buyrak usti bezi, tuxumdonlar orasidagi munosabatning biron bir qismining shikastlanishi hamda bachadondagi o'zgarishlar natijasida xususan miometriyning giperplaziyasi tufayli vujudga kelishi mumkin. Gipofizning gonadatrop gormoni tekshirilganda, hayz sikli davomida organizmga progesteron gormoning miqdori kamligi be esa, o'z navbatida, hayz siklining ikkinch davri yetishmovchiligiga olib kelishi aniqlangan. 70-80% hollarda bachadon miomasi bemorlarda patologik hayz sikli mavjudligini ko'rsatadi.

Klinik va eksperimental tadqiqotlarga tayanib ayollar organizmida ro'y beradigan gormonlar o'zgarishi, xususan, estrogen gormonlarning ko'p ishlashi bachadon miomalari paydo bo'lishida muhim rol o'ynaydi, deb taxmin qilinadi.

Ayrim hollarda bachadon miomasi hech qanday belgilersiz kechadi, ayollarda shikoyatlar bo'lmaydi, ammo profilaktika maqsadida ayol tekshirilganda aniqlanadi. 60-80% hollarda asosiy belgilardan biri bemorda qon ketishi hisoblanadi. Qon ketishi alomatlari turli bemorlarda turlicha kechadi. Ba'zilarida hayz sikli uzayishi yoki hayz vaqtida qon miqdorining biror ko'payishi-menorragiya kuzatilsa, ba'zilarida tartibsiz, juda ko'p to'xtovsiz qon ketishi, og'ir turdagi kamqonlik kasalligiga sabab bo'lishi mumkin. Hayz 10-12 kungacha davom etib, juda ko'p miqdorda qon ketadi, bunga giperpolimenoreya deyiladi. Miomalarda ko'p uchraydigan belgilardan yana biri og'riqdir. Og'riq xuddi dard tutganga, sanchiqqa o'xshash bo'lib, ayniqsa hayz ko'rishdan oldin va hayz ko'rish vaqtida kuchayadi, pastga tortganga o'xshab zo'rayishi yallig'lanishdan keying bitishmalar borligidan darak beradigan belgi hisoblanadi. Og'riq, asosan, o'smaning o'lchamiga va uning qayerda joylashganligiga bog'liq. Agar o'sma butun kichik chanoq bo'shlig'ini to'ldirib turgan bo'lsa, o'sma qo'shni a'zolar faoliyatini buzadi. Bachadon shilliq qavati ostida joylashgan o'smalarda hayz ko'rish vaqtida yig'ilgan qonni hamda shu bilan birga shilliq qavat ostidagi o'smani ham bachadondan tashqarida chiqarishda kuchli dardsimon og'riq paydo bo'ladi. O'smaning infeksiyalanishi kichik chanoq bo'shlig'idagi a'zolarining yallig'lanishi bachadonmiomasi bilan uchraganda 2/3 hollarda bemorlarda og'riq paydo bo'ladi. Og'riq suberroz o'sma oyoqchasi buralib qolgan vaqtda ham sodir bo'ladi, chunki, bunda o'sma oyoqchasi tarkibidagi qon tomirlar buralib siqiladi, o'smaning oziqlanishi buziladi. Miomasi bo'lgan hamma ayollar dastlab umumiy davolanadilar konservativ davolash usuli samara bermasa operatsiya yo'li bilan bachadon olib tashlanadi.

Endometrioz deb bachadon shilliq qavati hujayrasining bachadondan tashqariga joylashib taraqqilib uqiy qilishida aytiladi. Endometrioz joylashgan o'choqda prolife ratsiya, sekretiya yoki hayz ko'rganda ajraladigan qonga o'xshash qon quyilish belgilari, yani bachadon shilliq qavatidagi tuxumdondan ajralib chiqadigan steroid va gonadatrop gormonlar ta'sirida bo'ladigan siklik o'zgarishlarga o'xshash alomatlar kuzatiladi. Endometriozlar o'z atrofida joylashgan to'qimalarda o'sib kirish xususiyatiga ega. Bu bilan to'qimalarda proteolitik tasir qilib ularni parchalab undan ham chuqurroqdagi qismlarni

zararlansizlantirish mumkin. Endometrioz chegarasi notekis bo'lib, u seroz mushak va shilliq qavatga, teriga, suyakusti pardasiga, hatto suyak to'qimasiga ham o'sib kiradi. Endometrioz pufakchasi yorilganda a'zoning hamma qismlariga qon, limfa yo'llari orqali tarqalishi kuzatiladi. Ginekologik kasalliklar orasida endometrioz 8-30% hollarda uchraydi. Klinikasi endometriozning qaysi sohada joylashganligiga bog'liq. Endometriozning asosiy va doimiy belgilaridan biri- og'riqdir. Bemor qorinning pastki sohasida va belida kuchsiz, uzoq davom etadigan og'riqdan, hayz sikli davrida og'riqlar kuchayganligidan shikoyat qiladi. Og'riq hayz kunlaridan oldin paydo bo'lib, kuchayib hayz kunlari va unan keyin ham bemorni bezovta qiladi. Bu og'riqlar endometrioz o'chog'idagi bez to'qimalarning bo'rtishi to'qimalarning ichi berk bo'shliqlarida suyuqlikning to'planishi natijasida kelib chiqadi. Bachadon endometrioz hayz siklining buzilishiga, qo'shni a'zolardan to'g'ri ichak siydik chiqarish yo'llari faoliyatining buzilishiga olib keladi. Shunga ko'ra ayol siydik vaqtida og'riqlar bo'lishidan olib keladi. Shunga ko'ra ayol siyish vaqtida og'riqlar bo'lishidan tez tez siyishidan shikoyat qiladi. Endometrioz bilan kasallangan azo hayz ko'rish oldidan kattalashganini va hazdan so'ng yana dastlabki hajmda bo'lishi kuzatiladi. Bemorda evolutsiya jarayoni bo'lmasligi tufayli secretor fazaning yetarlicha rivojlanmaganligi sababli chandiqlar paydo bo'ladi, bepushtlikka sabab bo'ladi.

Davosi: bemorning Yoshi, lokalizatsiya, tarqalish darajasi, atrof to'qimaning yallig'lanish alomatlari bor yo'qligiga qarab konservativ yoki operativ davolanadi. Tuxumdon o'smalari ayolning turli yosh davrlarida uchrab ginekologik kasalliklarning 6-8 % ni tashkil etadi. Bu kasallik juda xavfli chunki asta-sekin o'sib, hech qanday belgi bermaydi asoratlar qo'shilgandan keyin belgilar paydo bo'ladi, afsuski bu paytda davolashning foydasi bo'lmaydi. Ko'pincha tuxumdon o'smalari 20 dan 40 yoshgacha uchraydi, 20-25 % hollarda xavfli o'smalarga aylanadi. Tuxumdonning chin o'smasi "kistoma" retsion yoki shishsimon o'smalar "kista" deb yuritiladi. Retsion kistalar secret tutib qolishi bo'lib bu o'smasimon kistalar bezlarining ishlab chiqargan sekretlari to'planib qolishi natijasida paydo bo'ladi va kistalarnng 34% ni tashkil etadi. Follikulyar kista (75)sariq tana kistalari (5%) tuboovarial intraligamentar kistalar (10%) tashkil etadi. Tuxumdonda endometrioz kistalar ham uchraydi. Follikulyar kistalar ko'pincha mioma bo'lganda lyutein kislotalar esa yelbo'g'oz vs xerionepiteliomada uchraydi. Follikulyar yorilmay qolib sariq so'nmasdan rivojlanadi, yani hayz siklining izdan chiqishi kuzatiladi. Bu

kistalar yumaloq shaklli diametric 6-8 sm dan oshmaydi va ko'pincha klinik belgilarsiz kechadi. Kistalar oyoqchalari buralishi tufayli kamdan kam hollardan o'tkir qorin belgilari kuzatiladi. Retension kistalar odatda konservativ usulda davolanadi. Blastomaoz kistomalar chin o'smalar bo'lib tuxumdon o'smalarining 66% ni tashkil etadi. To'qimalar proliferatsiyasi bo'shliqlarining suyuqlik bilan to'lishi tufayli o'smalar o'sishi kuzatiladi. Turli tuman to'qimalardan o'sishi bo'yicha epiteal, biriktiruvchi to'qimalardan tuzilgan teratoid va garmonal tuxumdon o'smalariga ajratiladi. Chin o'smalar o'z navbatida xavfsiz va xavfli o'smalarga bo'linadi. Xavfsiz o'smalar tuxumdonidan tashqariga chiqmasdan o'sib boradi. Oddiy seroz kistomalarda eng ko'p uchraydigan tuxumdon o'smalaridan biri hisoblanadi. Uning hajmi 8 sm dan 30-40 smgacha kattalashishi hatto butun qorin bo'shlig'ini egallashi mumkin. Kistoma odatda bir kamerali, po'stlog'I yupqa, tekis shar shaklida, elastic konsistensiyali bo'ladi. Uning bo'shlig'ida seroz suyuqligi yig'iladi. O'sma ko'pincha bir tomonga chap yoki o'ng tomonga joylashadi va qorin ichida harakatchan bo'ladi, chunki uning tuxumdon boylamlari bachadon naylaridan iborat anatomik oyoqchasi bor. Kistoma o'sgan sari bu boylamlar cho'ziladi bir-biriga yaqinlashib o'smaning oyoqchasini paydo qiladi. Ayol yumush qilganda egilganda yonboshi bilan yotganda o'sma chapdan o'ngga yoki o'ngdan chapga siljib turadi va ko'pincha 180-360 gradusga buralib qolishi mumkin. Bemor bunda qorin pastida bexostan qattiq og'riq sezadi, ko'ngil aynishi, qayt qilishi mumkin, tomir urishi tezlashib qorin pastiga Shyotkin-Blyumberg belgisi paydo bo'ladi. Bunday holatda “o'tkir qorin” deb aytiladi. Bunday hollarda bemor tezda ginekologiya bo'limiga yoyqizilib darhol operatsiya qilinishi kerak. Tuxumdon fibromasi shu a'zoing biriktiruvchi to'qimasidan kelib chiqqan o'sma deb qabul qilingan. Tuxumdon fibromasi kam(7-5%) ko'pincha bachadon miomasi bilan birga uchraydi. Teratomalarning eng tipik shakllari dermoidlardir.

Research Science and
Innovation House



Qandli diabetning kelib chiqish va davolash usullari

Murodova Farida Shuhrat qizi

Kenjayev Yodgor Mamatqulovich

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

Tibbiyot fakulteti davolash ishi talabasi

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Tibbiyot fakulteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Qandli diabet, qand kasalligi –organizmga insulin tanqisligi va moddalar almashinuvi buzilishi natijasida kelib chiqadigan kasallik hisoblanadi. Qand kasalligi sharq xalq tabobat tarixida juda qadimdan ma'lum. Abu Ali ibn Sino bu dardga alohida e'tibor bergan. “suv qanday ichilgan bo'lsa, shu holatda chiqadi”, deb yozadi. Bemorning ko'p suv ichishi boshqa kasalliklarni ham keltirib chiqaradi va bemor juda ozib ketadi. Davolarga to'xtab: “bemorga sovuq mijozli suyuqlik ichir, mevalar ber, yalpiz damlab ichir, ya'ni bemorni ho'lla sovut, deydi. Bu kasallik odam organizmiga issiqlikning oshib ketishi tufayli paydo bo'lishini bildiradi. Qand kasalligi tarixi manbalarga ko'ra, nasliy bo'lishi ham mumkin. Qandli diabetda qonda qand miqdori keskin ko'payib siydik bilan chiqib turadi (tarkibida qand moddasi bo'ladi) tashnalik, og'iz qurishi, ozib ketish, quvvatsizlik, badan qichishishi va boshqalar alomatlar kuzatiladi.

Kalit so'zlar: qandli diabet, qandli diabetlarni turlari, insulin, glukoza, giperglikemik, qand miqdori, gepatosit,

Muammoning dolzabrligi: o'zbekiston sog'liqni saqlash vazirligi 2019 yili mamlakatda 245 mingdan bemor qandli diabetga chalingani, ularni 2300 nafari bolalar, mingga yaqin o'smirlar ekani ma'lum qilgan. Keying yillarda bemorlar soni necha nafarga yetgani ochiqlanmagan. Qandli diabet- tobora yasharib borayotgan kasallik. Hozir dunyoda yarim milliarddan ortiq kishi ushbu darddan aziyat chekmoqda. Ulardan katta qismi xastalik 2-turiga chalingan. Buyuk Britaniyaning nufuzli The Lancet tibbiy jurnalida e'lon qilingan tadqiqot natijalariga ko'ra, 2021 yilda dunyoda qandli diabet bilan kasallanganlar soni, 2050 yilga borib ularning soni 1,31 milliardga yetadi.

Britaniyalik tadqiqotchilarning yozishicha, qandli diabet Yer yuzi aholisining 6,1 foizida uchraydi. Bu esa ushbu kasallikdan nogironlik holatlari ortishiga sabab

bo'lmoqda. Dunyo miqyosida diabetga chalinganlar soni bo'yicha eng yuqori ko'rsatgich Shimoliy Afrika va Yaqin Sharq mamlakatlari hissasiga to'g'ri keladi.

Kasallik asoratlari: Qandli diabetning asoratlari tez (o'tkir) yoki vaqt o'tishi bilan (surunkali) rivojlanadigan va ko'plab organ tizimlariga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan muammolarni o'z ichiga oladi. Qandli diabetning asoratlari hayot sifatini serilarli darajada yomonlashishi va uzoq davom etadigan nogironlikka olib kelishi mumkin. Umuman olganda qonddagi qand miqdori yaxshi nazoratda ushlab turiladigan bemorlarda asoratlar juda kam uchraydi va unchalik jiddiy emas. Qandli diabetning boshlanish Yoshi diabet turi jinsi va genetikasi kabi ba'zi xavfli omillari xavfga ta'sir qilishi mumkin. Boshqa sog'liq muammolari chekish, semizlik, yuqori qon bosimi, yuqori xolesterin darajasi va muntazam jismoniy mashqlar etishmasligi kabi diabetning surunkali asoratlarini kuchaytiradi. Kasallikning irsiy yoki hayotda orttirilgan, shuningdek, insulinga bog'liq (diabetning 1 turi) va insulinga bog'liq bo'lmagan (diabetga 2 turi) turi farq qiladi. Diabetning 1 turi ko'pincha o'smirlik yoshiga uchraydi. Bunda bemor organizmida me'da osti bezi hujayralari insulin ishlab chiqara olmaydi va ularni davolashda qand miqdorini pasaytirish maqsadida insulin preparatlari qo'llanadi.

Qandli diabetning 2 turida meda osti bezi orolcha hujayralaridan insulin ishlab chiqarish saqlanib qoladi, bunda qon tarkibidagi insulin miqdori me'yorida yoki undan sal yuqoriroq bo'ladi. To'qimalarning insulinga nisbatan sezgirligi keskin pasayishi tufayli to'qimalar tomonidan glyukozani o'zlashtirish hamda foydalanish kamayadi va u qon tarkibiga to'planib qoladi, natijada qondda qand miqdori kamayib, siydik bilan chiqib turadi, bemor juda semirib ketadi. Diabetning bu turi bilan asosan o'rta va keksa yoshdagilar kasallanadilar. Kasallik asta-sekin zimdan rivojlanadi, u boshlanishida og'iz qurishi, chanqash, ozish kabi alomatlari yaqqol bilinmaydi. Bemorni ko'proq holsizlanish, toliqish, tashnalik bezovta qiladi. Qon tarkibidagi glukoza miqdori yuqori bo'lishiga qaramay, diabetning 2 turida qon tarkibidagi atseton moddasining ortishi va uning siydikda paydo bo'lishi juda kam kuzatiladi. Bunday bemorlarda insulin qabul qilmay yashashlari mumkin. Ularning parxez, jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish, qand miqdorini kamaytiruvchi dorilar qabul qilish yaxshi naf beradi. Qandli diabet- bir umrlik kasallik uni butun hayot davomida davolash lozim. To'lato'kis davolanmaydigan va qon tarkibidagi glukoza miqdori uzoq vaqt yuqori saqlanadigan bemorlarda qandli diabetning tomir asoratlari- diabetga hos angiopatiya (makro va mikroangiopatiyalar) namoyon

bo'ladi. Bu barcha a'zolarning (teri, muskullar, nerv va hakazo) kapillyarlarni shikastlaydi. Diabetga hos mikroangiopatiyalar buyrak, ko'z, oyoq va boshqalar a'zolarida ko'proq va ertaroq kuzatiladi. Qandli diabetning har ikkala turida ham davolashdan asosiy maqsad iloji boricha qondagi qand miqdorini sog'lom kishilardagi ko'rsatgichga yaqinlashtirish, ya'ni kompensatsiya holatiga erishishdir. Qondagi qand miqdorini meyorida saqlab turishning asosiy yo'li qondagi glukozani iloji boricha tez tez aniqlash bunday nazorat qandli diabetning insulinga bog'liq 1 turida juda zarur. Uy sharoitida mustaqil holda qondagi glukoza miqdorini aniqlashda maxsus reaktiv qog'ozga olinidi. Bir daqiqadan so'ng qog'ozdagi qon paxta bilan artib tashlanadi va yana bir daqiqa o'tgach, reaktiv qog'oz rangi shkala bilan solishtiriladi. Rangi eng yaqin bo'lgan shkala ko'rsatgichi shu qondagi glukoza miqdorini mmol/l (mg %) da ifodalaydi. Xuddi shunday usulda uy sharoitida siydikdagi qand miqdorini ham bemorlarning o'zlari mustaqil maxsus reaktiv qog'ozlar yordamida aniqlashlari mumkin. Agarda qonda yoki siydikda glukoza miqdori baland bo'lsa, darhol tegishli davo muolajalari amalga oshishi lozim. Bulardan tashqari bemorlarda tana vaznini ham haftada bir marotaba nazorat qilishlari hamda uni o'z bo'yi Yoshi va kasbiga mos bo'lgan meyorda saqlab turishlari kerak. Qandli diabetda davo har bir bemorning umumiy ahvoli, kasallik alomatlari, qon, siydik tahlili va boshqalarga qarab tayinlanadi, u bosqichma bosqich olib boriladi. Davolanish muddati kasallikning og'ir yengilligi, o'tkazib yuborilgan yoki yangiligiga va turiga bog'liq. Qandli diabet –tanada uglerod va suv almashinuvining almashinuvining buzilishi natijasida yuzaga keladigan kasallik. Me'da osti bezi funksiyasi buzilishi oqibati hisoblanadi. Me'da osti bezi insulin garmonini ishlab chiqaradi. Insulin qandni qayta ishlashda qatnashadi. Bu garmonsiz organizm qondagi glukoza miqdorini meyorda ushlab tura olmaydi va uning miqdori oshib ketadi. Natijada organizmda ortiqcha glukozani siydik orqali chiqarib yuborishi kuzatiladi. Kasallikni turlash muhim hisoblanadi, chunki bu kasallikni turlari boshlang'ich davrda bir-biridan tubdan farq qiladi va davolash ham shunga qarab belgilanadi. Kasallik qancha uzoq davom etaversa uni davolash usullari bir-biriga o'xshab ketaveradi.



1 –tip diabeti

Shuningdek insulinga bog'liq diabet deyiladi. Ko'pincha yoshlar, 40 yoshgacha bolgan, ozg'in odamlar aziyat kechadi. Kasallik og'ir kechgadi davolash uchun insulin beriladi.

Sababi: Organizm meda osti bezi hujayralarini yo'q qiluvchi antitana ishlab chiqaradi. Diabetni bunday turida butunlay davolanib bo'lmaydi, lekin ba'zi hollarda bez faoliyatini meyorda ushlab turib, parxezga amal qilinsa, kasallik bemorni ortiqcha bezovta qilmaydi. Doimiy ravishta suniy insulin qabul qilish tavsiya qilinadi. Insulin oshqozon ichak traktida parchalanib ketishi bois u faqat infeksiya orqali ovqatlanish vaqtida kiritiladi. Qatiy parxezga amal qilib, ovqat ratsionidan yengil hazm bo'luvchi uglevodlarni(shakar shirinliklar, mevali sharbatlar) butunlay chiqarib tashlash ko'rsatiladi.

2 –tip diabet

Bu insulinga bog'liq bo'lmagan diabet deyiladi. Ko'pincha Yoshi kattalar, 40 yoshdan o'tganlar aziyat chekadi.

Sababi: hujayralarning oziq ko'pligidan insulinga tasirchanligining yo'qolishidir. Kasallikni davolashda har doim ham insulin kerak bo'lavermaydi. Faqatgina malakali shifokor davolash tartibini belgilay oladi. Avvalo bunday bemorlarga parxez buyiriladi. Shifokor tavsiyasiga amal qilish muhim ahamiyatga ega. Tana vazni meyorga kelgunicha asta –sekin oyiga 2 3 kg tushirib boorish tavsiya etiladi. Parxezga amal qilmaganda qonda shakar miqdorini tushuruvchi dorilar eng og'ir hollarda insulin buyuruladi.

Simptomatik (ikkilamchi) qandli diabet boshqa kasallik tufayli paydo bo'ladi(masalon, oshqozon osti bezi kasalliklari). Shuningdek dori darmonlarni uzoq muddat qo'llash genetic patologiyalar tufayli ham yuzaga keladi. Bolalik davrida notog'ri ovqatlanish tufayli yuzaga kelgan qandli diabet. Ko'pincha tropic mintaqalarda yashaydigan odamlarda uchraydi.

Bundan tashqari, ayollar homladorlik davrida yuzaga kelovchi gestasion qandli diabetni ajratish mumkin. Qondagi glukoza miqdori darajasiga qarab quyidagicha tasniflanadi:1

- Kompensatsion qandli diabet- bemor sog'lig'idan shikoyat qilmaydi, och qoringa qondagi shakar darajasi 4 mmol/l dan oshmaydi, kun davomida esa 9mmol/l dan oshmaydi.

- Subkompensatsion qandli diabet- alomatlar paydo bo'lmaydi va qonda shakar darajasi 8 dan 11 mmol/l gacha bo'ladi.

- Dekompensatsion qandli diabet- bemor sog'lig'ining yomonligidan shikoyat qiladi, kasallik belgilari aniqlanadi, qondagi glukoza darajasi 11 mmol/l dan yuqori.

Diabetning insulinga bog'liq shakli ishlab chiqaradigan betta – hujayralarning yemirilishi natijasida, shuningdek oshqozon osti bezining autoimmune shikastlanishi natijasida rivojlanadi. Kasallik belgilari quyidagi holatda paydo bo'ladi:

- Qizilcha, virusli gepatit, parotitdan so'ng
- Zaharli pestitsidlar, nitrozaminlar, dori-darmonlardan so'ng

Bunday kasalliklar oshqozon osti bezi hujayralarining yemirilishiga olib kelishi mumkin. Agar hujayralarning 80% dan ko'prog'i zararlangan bo'lsa qandli diabet rivojlanadi. Agar insulin bilan to'qimalarning o'zaro tasirlashuv buzilsa 2-tipdagi qandli diabetda qondagi glukoza miqdori keskin ko'tariladi., hujayralarda esa u kamayadi. Shu sababli organizm glukozaning o'zlashtirish qilish uchun maxsus mexanizmlarni ishga tushiradi, buning natijasida to'qimalarda sorbitol, glikozaminoglikanlar va glikolizlangan gemoglobin to'planadi.

Research Science and Innovation House

**JISMONIY TARBIYA DARSLARI JARAYONIDA TALABALARNING
JISMONIY RIVOJLANISH KO‘RSATKICHLARI
(TAJRIBA BOSHIDAGI NATIJALAR)**

Ne‘matjon Mamadjanov

Farg‘ona Davlat Universiteti “Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi”
kafedrası professori v.b., pedagogika fanlari nomzodi

Tolametov Abduljalil Abdujaparovich

Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash
va malakasini oshirish instituti “Sport psixologiyasi, ijtimoiy-gumanitar va tabiiy-
ilmiy fanlar” kafedrası professori
e-mail: a.tolametov@sportedu.uz

AKBAROV AXMATJON

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport Universiteti, professori
e-mail: akbarov19542089@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada talabalarni jismoniy rivojlanish darajasini oshirishda jismoniy tarbiya dasturlarining samaradorligi o‘rganish bo‘yicha pedagogik tajribaning boshlang‘ich bosqichida qayd etilgan natijalar, ularning asosiy statistika xarakteristikalar hamda nazorat va tajriba guruhleri sinaluvchilarining ko‘rsatkichlari statistik xarakteristikalarini solishtirish va ularning muhokamasi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan. Tadqiqot natijalari, antropologik ko‘rsatkichlarining tahlili asosida jismoniy tarbiya dasturini ahamiyatligi haqidagi tadqiqot ishlarida yoritilgan.

Kalit so‘zlar:: jismoniy rivojlanganlik, antropologik ko‘rsatkich, o‘rtacha arifmetik qiymat, Styudent taqsimoti.

Dolzarbli. Respublikamizda jismoniy tarbiya va sport sohasida malakali kadrlar tayyorlash sifatini tubdan oshirish, o‘quv jarayonini zamonaviy talablar va xalqaro standartlarga muvofiq tashkil etish kabi ustuvor vazifalar belgilab berilgan. Barcha sohalarda olib borilgan chuqur islohotlar qatorida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga ham alohida e‘tibor qaratilmoqda [1, 2].

Respublikamiz aholisining moddiy va ma‘naviy hayot darajasi oshib bormoqda, jismoniy tarbiya va sport sohasining moddiy–texnik bazasini mustahkamlash borasidagi sa‘y harakatlari amalga oshirilmoqda va yuqori malakali

pedagog va murabbiy kadrlar mavjud. Ayniqsa, bolalar va ayollar sportini rivojlantirish bo‘yicha davlat dasturlari asosida katta ishlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimiz aholisi uchun, jismoniy tarbiya va sport bilan faol shug‘ullanishlari uchun yoshi, jinsi, kasbi, tayyorgarlik darajasi qanday bo‘lishidan qat’iy nazar barcha imkoniyatlar mavjud [3].

Organizmning morfologik va funksional holati, shuningdek, jismoniy rivojlanishi inson salomatligi uchun muhim ob’ektiv ko‘rsatkichlardir. Talabalik yoshida tananing o‘shish va kamolot jarayonlari o‘z nihoyasiga yetadi, bu esa jismoniy rivojlanishning eng yuqori darajasiga muvofiq keladi. Tana uzunligi va vazni insonning umumiy salomatligini, oziq-ovqat ta’minotini, jismoniy faolligini va genetik xususiyatlarini aks ettiradi. Ushbu ko‘rsatkichlar faqat shaxsiy rivojlanishni emas, balki jamiyatdagi salomatlik tendensiyalarni ham aks ettiradi [2, 3, 5].

Talabalar jismoniy tarbiyasining maqsadi jismoniy sog‘lomlikni ta’minlash, jismoniy faollikni oshirish, sportga qiziqishni uyg‘otish va jismoniy tarbiya orqali sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda tana tuzulishining antropometrik ko‘rsatkichlari muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, talabalarning psixologik va emotsional holatini yaxshilash, jamoa bilan ishlash qobiliyatlarini rivojlantirish va ularning ijtimoiy faolligini oshirishda tana tuzulishida bo‘yi, tana vazni qo‘l oyoq uzunligi, ko‘krak qafas kengligi, juda muhim omillardan sanaladi.

Ishning dolzarbligi shundan iborat-ki, talabalarni jismoniy rivojlanish ko‘rsatkichlarini oshirish dolzarb vazifalardan sanaladi.

Tadqiqotning maqsadi. Talabalarning jismoniy rivojlanish ko‘rsatkichlari darajasini oshirishda jismoniy tarbiya dasturlari samaradorligini aniqlash va ularning talabalarning jismoniy holatlariga ta’sirini o‘rganishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

– talabalarni jismoniy rivojlanish ko‘rsatkichlarini oshirish uslublarini o‘rganib chiqish va ilmiy uslubiy adabiyotlarni tahlil etish.

– talabalarning jismoniy rivojlanish ko‘rsatkichlarini oshiruvchi maxsus mashqlar samaradorligini aniqlash.

Tadqiqot usullari. Olib borilgan ilmiy izlanishlarimiz davomida quyidagi tadqiqot usullaridan foydalandik:

- Ilmiy-uslubiy adabiyotlar materiallarini umumlashtirish va tahlil etish;
- Pedagogik kuzatuv;



- Pedagogik tajriba;
- Matematik-statistik tahlil.

Tadqiqot natijalari va uning muhokamasi. Mavjud ilmiy uslubiy adabiyotlar materiallarini va tadqiqot natijalarini tahlili shuni ko‘rsatdi-ki, insonlarning 16-17 yoshda jismoniy kamolotga erishish davri va ijtimoiy kamolot bosqichiga to‘g‘ri keladi, bu davrda inson bolalikdan balog‘atga o‘tadi. Kelajakdagi kasbni tanlash, oliy o‘quv yurtiga yoki ishga kirishga tayyorlanish jarayoni boshlanadi. Ushbu davrni jismoniy, psixologik va intellektual stressning yuqori darajada bo‘lishi bilan belgilash mumkin. Insonning jismoniy o‘sishi, ijtimoiy talablar va yangi mas‘uliyatlarning paydo bo‘lishi, uning emotsional holatiga va rivojlanish jarayoniga ta‘sir ko‘rsatadi.

Jumladan, talabalarning organizmi yosh bo‘lganligi sababli o‘shish va rivojlanish jarayonida tana a‘zolarini o‘shish suratinig bir maromda kechadi. Shu munosabat bilan gavda tuzilishidagi organizmning rivojlanish va jinsiy inividual farqlanishi ham aniq nomoyon bo‘ladi. Ma‘lum vaqt o‘tgani bilan yosh tananing bo‘yi o‘shishi sekinlashadi va uning hajmi eniga qarab o‘shish davomida antropometrik ko‘rsatkichlar ham rivojlanib boradi. Bundan kelib chiqib, inson organizmi rivojlanish jarayonida turli ta‘sir etuvchi omillarni (masalan, jismoniy, psixik, ijtimoiy jihatlari) hisobga olish kerak, chunki ularning har biri o‘shish va rivojlantirishga ta‘sir ko‘rsatadi.

Jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ulanuvchilarni jismoniy rivojlanganlik anatomik-fizologik xususiyatlarini o‘rganishga oid ilmiy uslubiy adabiyotlar va tadqiqotlarni o‘rganish natijasida shunday xulosa chiqarish imkonini berdiki, ya‘ni jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanuvchilarning morfologik xususiyatlari va jismoniy rivojlanishi yoshga bog‘liqligini ko‘pchilik olimlar muhim rol o‘ynaydi deb e‘tirof etib o‘tishgan.

Shuningdek, jismoniy tarbiya va sport insonning jismoniy va psixik sog‘lig‘iga ta‘siri alohida ahamiyatga ega. Ya‘ni, yoshlar orasida jismoniy faollikni oshirish, ularning sog‘lig‘i va rivojlanishi uchun muhimdir.

Ishimizning maqsadidan kelib chiqqan holda, biz, nazorat guruhiga mansub bo‘lgan Farg‘ona davlat universiteti birinchi bosqich talabalarining jismoniy rivojlanish ko‘rsatkichlari darajasini aniqlash maqsadida tadqiqotlar 2023-2024 o‘quv yilining boshida amalga oshirildi. Tadqiqotga jalb qilingan sinaluvchi talabalarning pedagogik tajribaning boshlanish bosqichida jismoniy rivojlanganlik

darajasini aniqlash maqsadida ularning gavda uzunligi (sm.), vazni (kg.), qo‘l (o‘ng va chap) panjalar kuchi, Ko‘krak qafasi kengligi (tinch holat-hda) va bel aylanasini (sm.) ko‘rsatkichlari aniqlandi. Tadqiqotda olingan natijalar va ularning statistik xarakteristikalarini quyidagi 1- jadvalda keltirilgan.

1- jadval

Nazorat guruhiga mansub bo‘lgan talabalarining o‘quv yili boshida qayd etilgan jismoniy rivojlanganlik ko‘rsatkichlari va ularning statistik xarakteristikalarini (n=10)

No	F.I.Sh.	Bo‘yi, sm	Vazni, kg	Tana mas-sasi indeksi kg/m ²	O‘ng qo‘l kuchi dinamikasi, kg	Chap qo‘l kuchi dinamikasi, kg	Ko‘krak qafasi kengligi (tinch holat-da), sm	Bel aylanasini, sm
1.	A-v. A.	168	62,5	21,69	58,4	54,4	79,4	81,2
2.	V-v. S.	172	65,9	21,38	54,5	51,7	82,6	89,5
3.	D-v.A.	175	71,4	23,31	59,5	54,2	84,4	88,2
4.	J-v. R.	173	72,1	22,49	57,2	51,1	81,4	83,4
5.	K-v. T.	162	59,5	20,85	65,6	59,6	79,8	88,4
6.	M-v. F.	168	63,1	22,36	68,8	61,9	84,7	86,7
7.	N-v. I.	175	68,6	21,57	62,4	57,6	83,4	84,2
8.	N-v. F.	169	62,2	21,78	67,5	64,7	83,2	83,4
9.	S-v. T.	172	64,4	21,77	62,6	53,2	79,1	86,4
10	T-v. Z.	169	68,1	23,84	59,2	51,4	81,9	82,3
	\bar{X}	170,30	65,78	22,10	61,57	55,98	81,99	85,37
	σ	3,95	4,18	0,91	4,65	4,75	2,03	2,85
	V%	2,32	6,35	4,12	7,55	8,49	2,48	3,34

Nazorat guruhi talabalarini - sinalluvchilarini o‘quv yili, ya’ni tajriba boshida qayd etilgan jismoniy rivojlanish ko‘rsatkichlari ma’lumotlarini umumlashtirish va tahlil qilish pedagogik tajriba boshida o‘rganilgan jismoniy rivojlanish

ko‘rsatkichlari statistik xarakteristikalarini bo‘yicha quyidagicha manzarani aniqlash imkonini berdi. Ushbu guruh talabalarining bo‘yi uzunligi $170,30 \pm 3,95$ sm.ni, tana vazni $65,78 \pm 4,18$ kg.ni, tana massasi indeksi $22,10 \pm 0,91$ kg/m² ni tashkil etganligi, qo‘l kuchi dinamikasi bo‘yicha o‘ng qo‘l kuchi $61,57 \pm 4,65$ kg. ga teng bo‘lgan bo‘lsa, chap qo‘l kuchi $55,98 \pm 4,75$ kg. ga, ko‘krak qafas kengligi (tinch holatda) $81,99 \pm 2,03$ cm.ga va bel aylanasi $85,37 \pm 2,85$ sm. ga teng ekanligi aniqlandi.

Tanlangan antropometrik ko‘rsatkichlar bo‘yicha tajriba boshida tajriba guruhida qayd qayd etilgan natijalar va ularning statistik xarakteristikalarini 2-jadvalda keltirilgan.

2- jadval

Tajriba guruhiga mansub bo‘lgan talabalarning o‘quv yili boshida qayd etilgan jismoniy rivojlanganlik ko‘rsatkichlari va ularning statistik xarakteristikalarini (n=10)

No	F.I.Sh	Bo‘yi, sm	Vazni, kg	Tana massasi indeksi kg/m ²	O‘ng qo‘l kuchi dinamikasi, kg	Chap qo‘l kuchi dinamikasi, kg	Ko‘krak qafasi kengligi (tinch holat-da), sm	Bel aylanasi, sm
1.	A-v. A.	169	61,5	21,53	60,2	51,7	80,2	81,9
2.	V-v. S.	172	64,2	21,7	58,2	50	83,3	91
3.	D-v. A.	175	69,9	22,82	61,3	54,4	84,9	89,2
4.	J-v. R.	177	69,5	22,18	59,8	53,1	81,9	84,4
5.	K-v. T.	168	57,4	20,73	66,9	61,6	81,2	88,4
6.	M-v. F.	168	64,5	22,85	72,2	64,4	85,8	86,7
7.	N-v. I.	175	66,4	21,68	66,2	63,6	85,9	85,2

8.	N-v. F.	172	65,2	22,04	69,2	63,2	84,8	83,4
9.	S-v. T.	174	67,4	22,26	65,2	58,2	81,4	86,4
10.	T-v. Z.	175	63,1	20,6	61,3	55,4	82,4	82,3
	\bar{X}	172,5	64,9					
		0	1	21,84	64,05	57,56	83,18	85,89
	σ	3,24	3,75	0,76	4,59	5,35	2,06	3,02
	V%	1,88	5,77	3,49	7,16	9,30	2,47	3,51

Tajriba guruhi talabalarining tajriba boshidagi oʻrtacha boʻyi uzunligi $172,50 \pm 3,24$ sm. ni, tana vazni $64,91 \pm 3,75$ kg. ni, tana massasi indeksi $21,84 \pm 0,76$ kg/m^2 ni tashkil etganligi, qoʻl kuchi dinamikasi boʻyicha oʻng qoʻl kuchi $64,05 \pm 4,59$ kg. ga teng boʻlgan boʻlsa, chap qoʻl kuchi $57,56 \pm 5,35$ kg. ga, koʻkrak qafas kengligi (tinch holatda) $83,18 \pm 2,06$ cm. ga va bel aylanasi $85,89 \pm 3,02$ sm. ga teng ekanligi kuzatildi.

Pedagogik tajriba boshida nazorat va tajriba guruhlarida qayd etilgan antropometrik koʻrsatkichlari statistik xarakteristikalarini oʻzaro solishtirish hamda ularning oʻrtacha arifmetik qiymatlari absolyut farqining statistik ishonchliligini Styudent taqsimoti nazariy kritik qiymatlarini hisoblash asosida baholash boʻyicha maʼlumotlar 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval

Tajriba (n=10) va nazorat (n=10) guruhlarida talabalarining tajriba boshida qayd etilgan antropometrik koʻrsatkichlari statistik xarakteristikalarini solishtirish


№	Antropologik koʻrsatkich	Tajriba guruhi			Nazorat guruhi			farqi %	t	p
		\bar{X}	σ	V%	\bar{X}	σ	V%			
1.	Boʻyi, sm	172,50	3,24	1,88	170,30	3,95	2,32	1,28	1,36	>0,1
2.	Vazni, kg	64,91	3,75	5,77	65,78	4,18	6,35	1,34	0,49	>0,6
3.	Tana massasi indeksi kg/m^2	21,84	0,76	3,49	22,10	0,91	4,12	1,21	0,71	>0,4

4.	O'ng qo'l kuchi dinamikasi, kg	64,05	4,59	7,16	61,57	4,65	7,55	3,87	1,20	>0,2
5.	Chap qo'l kuchi dinamikasi, kg	57,56	5,35	9,30	55,98	4,75	8,49	2,74	0,70	>0,4
6.	Ko'krak qafasi kengligi, sm	83,18	2,06	2,47	81,99	2,03	2,48	1,43	1,30	>0,2
7.	Bel aylanasi, sm	85,89	3,02	3,51	85,37	2,85	3,34	0,61	0,40	>0,6

3-jadvalda keltirilgan ma'lumotlarni tahlilidan ko'rinib turibdi-ki, pedagogik tajriba boshida tadqiqotda ishtirok etgan nazorat va tajriba guruhlarining talabalarining jismoniy rivojlanishi barcha ko'rsatkichlari bir-birlariga yaqin bo'lgan. Chunonchi, tajriba boshida nazorat va tajriba guruhlarining talabalarining bo'y qo'rsatkichlari o'rtacha arifmetik qiymatlarining nisbiy farqi 1,36 % ni tashkil etgan bo'lsa, zrganilgan parametrlar orasida eng kichik nisbiy farq bel aylanasi qo'rsatkichlarida (0,61 %) va eng katta nisbiy farq esa chap qo'l kuchi qo'rsatkichlarida (3,87 %) kuzatilgan holda o'rtacha nisbiy farq 1,78 % ni tashkil etdi (1-rasmda ifodalangan diagramma).

Research Science and
Innovation House





1-rasm. Tajriba va nazorat guruhlari talabalarining tajriba boshida qayd etilgan antropometrik ko'rsatkichlari o'rtacha arifmetik qiymatlarining nisbiy farqlari diagrammasi (foizlarda)

Shunday qilib, pedagogik tajriba boshida nazorat va tajriba guruhlarida o'rganilgan antropometrik ko'rsatkichlar asosiy statistik xarakteristikalarini o'rganish mazkur guruhlarda qayd etilgan natijalar o'rtacha arifmetik qiymatlarini bir-birlariga yaqinligi, ya'ni ularning umumiy o'rtacha nisbiy farqi 1,78 foizga teng bo'lishi bilan birga, ularning absolyut farqlarining hammasi turli yomon va juda yomon (0,40 va 1,36 qiymatlar oralig'ida hamda $R > 0,6$ va $R > 0,1$ intervalida joylashgan) ahamiyatlilik darajalarida statistik ishonchsiz farq qilganligi aniqlandi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkin-ki, yuqorida keltirilgan jadvallarda va rasmda ifodalangan diagrammada berilgan ma'lumotlarning qiyosiy tahlili pedagogik tajribaga jalb qilingan talabalarnin tajriba boshidagi antropometrik ko'rsatkichlarining statistik xarakteristikalari yetarli darajada bir-birlariga yaqinligi hamda ularning absolyut farqlarini hammasi turli yomon va juda yomon ($R > 0,6$ va $R > 0,1$) ahamiyatlilik darajalarida statistik ishonchsiz farq qilganligi faktlari pedagogik tadqiqotni uslubiy jihatdan to'g'ri tashkil etilganligini tasdig'i hisoblanadi va tajribani davom ettirish maqsadga muvofiq ekanligini ko'rsatib turibdi.

Foydalanilgan manbalar

1. Akbarov A., Sportda matematik taхлил усуллари. Ўқув қўлланма/Чирчиқ: УзДЖТСУ, 2020.-228 с.
2. Tolametov A.A., Mamadjanov N, Sportda jismoniy rivojlanganlik darajasini o‘lchash [Matn]: Uslubiy qo‘llanma//–Toshkent: «Umid Design», 2024. – 88 b.
3. Tolametov A.A., Mamadjanov N., Sport metrologiyasi: O‘quv qo‘llanma/-T.: Umid Design, 2022. – 252 b.
4. Баязитов К.Ф. Повышение спортивно педагогического мастерства в тяжелой атлетике. Т, 2011.
5. Матвеев, Л.П. Теория и методика физической культуры. Учеб. для высших спец. физ. учебных заведений/ 3-изд. – СПб.: Изд-во «Лань», 2003.
6. Начинская С. В., Спортивная метрология: Учебник для студентов высшего профессионального образования/-М.: Академия, 2011-240 с.

Research Science and Innovation House

XORAZM VILOYATI TURISTIK DESTINATSIYALARINING O‘ZBEKISTONNING BOSHQA QISMLARIDAGI TURISTIK MARKAZLARGA NISBATAN AFZALLIK VA KAMCHILIKLARI

Sobirova Zilola Baxtiyor qizi
Matjonov To‘rabek Otabek o‘g‘li
Urganch Davlat universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqola Xorazm viloyatining turistik imkoniyatlarini O‘zbekistonning boshqa hududlari bilan solishtirishga bag‘ishlangan. Maqolada Xorazmning asosiy turistik obyektlari, jumladan, Ichan Qal’a, "Arda Xiva" majmuasi, Qalajiq tuzli ko‘li, shuningdek, viloyatning tabiiy go‘zalliklari, madaniy an‘analari va milliy taomlari haqida batafsil ma’lumotlar keltirilgan. Xorazmning afzalliklari yoki turizm infratuzilmasining zaifligi va xalqaro taniqlikning pastligi kabi kamchiliklari ham yoritilgan. Maqolada Xorazmning turistik salohiyati boshqa hududlar bilan solishtirilgan holda tahlil qilinadi va viloyatni rivojlantirish yo‘llari haqida umumiy xulosalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Xorazm viloyati, turistik destinatsiyalar, Ichan Qal’a, "Arda Xiva" majmuasi, Qalajiq tuzli ko‘li, milliy taomlar, turizm infratuzilmasi, Samarqand, Buxoro, Toshkent, Farg‘ona vodiysi, transport imkoniyatlari

ADVANTAGES AND DISADVANTAGES OF TOURIST DESTINATIONS IN KHOREZM REGION COMPARED TO TOURIST CENTERS IN OTHER PARTS OF UZBEKISTAN.

Abstract: This article is devoted to comparing the tourist potential of the Khorezm region with other regions of Uzbekistan. The article provides detailed information about the main tourist attractions of Khorezm, including Ichan Qala, the Arda Khiva complex, the Qalajiq salt lake, as well as the natural beauties, cultural traditions and national cuisine of the region. The advantages of Khorezm or its disadvantages, such as the weakness of the tourism infrastructure and low international recognition, are also highlighted. The article analyzes the tourist

potential of Khorezm in comparison with other regions and presents general conclusions about the ways of developing the region.

Keywords: Khorezm region, tourist destinations, Ichan Qala, "Arda Khiva" complex, Kalajik salt lake, national cuisine, tourism infrastructure, Samarkand, Bukhara, Tashkent, Fergana valley, transport options

Kirish: Xorazm viloyati – O‘zbekistonning shimoli-g‘arbida joylashgan bo‘lib, o‘zining noyob tarixiy, madaniy va tabiiy boyliklari bilan dunyo miqyosida mashhur. Bu viloyatda joylashgan Ichan Qal‘a, Xiva shahri, "Arda Xiva" majmuasi, Qalajiq tuzli ko‘li kabi diqqatga sazovor joylar har yili minglab sayyohlarni o‘ziga jalb qiladi. Biroq, Xorazmning turistik imkoniyatlari O‘zbekistonning boshqa hududlari, masalan, Samarqand, Buxoro, Toshkent yoki Farg‘ona vodiysi bilan solishtirganda qanday afzallik va kamchiliklarga ega? Ushbu maqolada Xorazm viloyatining turistik jihatlari boshqa hududlar bilan solishtiriladi va uning o‘ziga xos xususiyatlari yoritiladi. Bilamizki geografiya fani obyektlarni hududiy jihatdan o‘rganadi. Ko‘pincha hudud yoki manzil so‘zini turizm sohasida destinatsiya (inglizcha “destination” - “manzil, belgilangan joy”) deb ishlatishadi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar: Ushbu maqolada Xorazm viloyatining turistik imkoniyatlarini O‘zbekistonning boshqa hududlari bilan solishtirish uchun turli manbalardan foydalanilgan. Masalan, “UNESCO World Heritage Centre (1990). **Itchan Kala.**” Bu manba Ichan qal‘aning UNESCO butunjahon merosi ro‘yxatiga kiritilganligi va uning tarixiy ahamiyati haqida aniq ma‘lumotlar beradi. Maqolada Ichan Qal‘aning Xorazm viloyati uchun turistik ahamiyati ta‘kidlangan va bu manba orqali uning xalqaro miqyosdagi tan olinishi ko‘rsatilgan. **O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasidan olingan ma‘lumotlardan esa Xorazm viloyatining umumiy geografik, tarixiy va madaniy xususiyatlarini tahlil qilish uchun foydalanilgan.** Viloyatning tabiiy resurslari, tarixiy obidalari va madaniy merosi haqida umumiy ma‘lumotlar berilgan. **O‘zbekistonning birinchi prezidenti Islom Karimovning “O‘zbekistonning turistik imkoniyatlari”** asarida davlatimizning turistik salohiyati umumiy ko‘rinishda tahlil qilingan bo‘lib, Xorazm viloyatining turizm sohasidagi o‘rni va imkoniyatlari haqida fikr yuritish uchun ma‘lumotlar taqdim etilgan. Xorazmning boshqa hududlar bilan solishtirilganda turistik jihatdan qanday afzallik va kamchiliklari borligi haqida tahlillar keltirilgan. **Smith, J.**



“Central Asia’s Hidden Gems: Tourism in Uzbekistan”. Bu manba O‘zbekistonning turistik diqqatga sazovor joylari, shu jumladan Xorazm viloyatining xalqaro miqyosda tan olinishi va uning kamchiliklari haqida ma’lumotlar beradi. Xorazmning xalqaro sayyohlar uchun nima uchun hali ham “yashirin durdona” ekanligi haqida tahlillar keltirilgan. Shuningdek yaqindagina ishga tushirilgan Xivadagi majmua haqida ma’lumotlarni rasmiy web-saytidan olish mumkin bo‘ladi. “Arda Xiva” majmuasining zamonaviy turizm infratuzilmasi va uning Xorazm viloyatining turistik salohiyatini oshirishdagi roli haqida aniq ma’lumotlar keltiriladi. Majmuaning turistik xizmatlari va uning viloyatga qo‘shgan hissasi haqida batafsil ma’lumotlar keltirilgan. Maqolada **tarixiy tahlil metodlari, solishtirma tahlil metodi va geografik tahlil metodlaridan foydalanildi. Madaniy tahlil metodida** Xorazmning madaniy merosi, milliy taomlari, an’analari va ularning turistik ahamiyati tahlil qilingan. Bu metod orqali viloyatning madaniy jihatdan boyligi va uning sayyohlar uchun qiziqish uyg‘otishi ko‘rsatilgan.

Natijalar va muhokama: Xorazm viloyatining turistik afzalliklari haqida gapiriladigan bo‘lsa, undagi tarixiy obidalar va tabiiy resurslar aholimizning hayoliga kelishi tabiiy. Ulardan bazilarini ko‘rib chiqsak. Xiva shahridagi Ichan Qal’a – bu Xiva xonligi davriga oid noyob me’moriy yodgorliklar majmuasi bo‘lib, 1990-yilda UNESCOning Butunjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan. Ichan Qal’a ichida Muhammad Aminxon madrasasi, Kalta Minor, Juma masjidi kabi diqqatga sazovor joylar mavjud. Bu joylar Xorazmning boy tarixini aks ettiradi va sayyohlar uchun noyob tajriba taqdim etadi. Bundan tashqari Ichan qal’adagi kamchiliklar inobatga olingan holda, davlatimizning turistik salohiyatini yanada yaxshilash uchun yaqinda “Arda Xiva” majmuasi ham bunyod etildi. “Arda Xiva” majmuasi – bu Xiva shahrida qurilgan zamonaviy turizm infratuzilmasi bo‘lib, u tarixiy meros bilan zamonaviy qulayliklarni uyg‘unlashtiradi. Majmua ichida mehmonxonalar, restoranlar, savdo maydonchalari va madaniy tadbirlar o‘tkaziladigan joylar mavjud. Ushbu ishlar Xorazm viloyatining zamonaviy turizm destinatsiyalariga qo‘shilishida ajoyib yurish bo‘ldi. Bog‘ot tumanidagi Qalajiq tuzli ko‘li – bu tabiatning noyob manzarasi bo‘lib, uning suvlari terapevtik xususiyatlarga ega. Ko‘l atrofidagi landshaftlar sayyohlar uchun ajoyib fotosuratlar olish imkoniyatini yaratadi. Bundan tashqari ko‘l atrofida ko‘plab turistik infratuzilmalarning yaxshilanayotgani, atrofida tarixiy tus beruvchi qurilish inshootlari Bog‘ot tumani uchun ko‘zga ko‘rinarli omil bo‘lmoqda. Shu bilan birga Xorazmning xalqaro transport



imkoniyatlari ham respublikaning boshqa joylaridan qolishmaydi. Shovot tumanidan Turkmaniston respublikasining Dashovuz shahriga o'tish punkti va davlatning u yerda qurishi rejalashtirilayotgan jahon bozori davlatimizning geogafik o'rnini barcha jabhalarda yaxshilaydi. Bundan tashqari Xorazm viloyati Turkmanistonning Dashog'uz viloyati bilan chegaradosh ekanligi xorijiy sayyohlar uchun qo'shni mamlakatlarga kirish imkoniyatini yaratadi. Bu Xorazmni mintaqaviy turizm markaziga aylantirishda muhim rol o'ynaydi. Chunki yillar davomida dunyo uchun yopiqlik siyosatini olib borayotgan Turkmaniston hukumatida ko'plab turistik destinatsiyalar mavjud. Xorazmning Shovot tumanidagi chegara postida olib borilajak islohotlar kelgusida viloyatning turizm va savdo-sotiqdagi obrosini keskin ko'tarib yuborsa bu ikki davlat aholisi uchun faqat foyda bo'lar edi. Yana aytib o'tishimiz lozim bo'lgan jihat bu madaniy va milliy an'analaridir. Xorazm o'zining noyob raqslari, musiqasi, milliy liboslari va an'anaviy taomlari bilan mashhur. Xorazm palov, shivit oshi kabi milliy taomlar sayyohlar uchun alohida qiziqish uyg'otadi. Bu soha bo'yicha viloyat geograflari ko'plab ilmiy ishlar olib bormoqda.

Viloyatning turizm sohasidagi yutuqlari katta bo'lishiga qaramay, kamchiliklari ham mavjud. Xorazm viloyatining turistik kamchiliklari haqida so'z yuritsak. Transport imkoniyatlarining chekliligi viloyatning zaif jihatlaridan biridir. Xorazmga yetib borish uchun transport imkoniyatlari cheklangan, ayniqsa xorijiy sayyohlar uchun. Toshkent yoki Samarqand kabi yirik shaharlarga nisbatan Xorazmga parvozlari kamroq tashkil etilgan. Turizm infratuzilmasining zaifligi esa yana bir katta muammodir. Xorazmda turizm infratuzilmasi hali ham Samarqand va Buxoroga nisbatan kam rivojlangan. Mehmonxonalar, restoranlar va transport xizmatlari yetarli emas. Ayniqsa o'rta va kichik yoshli sayyohlar uchun yotoqxonalar(dormitory) deyarli tashkillashtirilmagan desa ham bo'ladi. Va nihoyat xalqaro taniqlilikning pastligi bu bizning og'riqli nuqtamiz. Sayyohlar Samarqand haqida turkiy millatlarning faxri bo'lmish Amir Temur tarixidan yaxshi bilishadi. Lekin Xorazmshohlar haqidagi kinolar, asarlarning kam yoki deyarli yo'qligi kabi muammolar Xorazm viloyati taniqliligining asosiy sabablaridan biridir. Biz buning yechimi sifatida ijtimoiy tarmoq marketing (SMM) sohasi ustida hali ko'p ishlashimiz zarurligini anglatadi. Xiva va Xorazmning tarixiy ahamiyati katta bo'lsa-da, u hali ham Samarqand va Buxoro kabi xalqaro miqyosda keng tanilmagan. Keling Xorazm va respublikamizning boshqa hududlarini turizm omili

bo'yicha solishtirib ko'raylik. Samarqandda turizm infratuzilmasi ancha rivojlangan, ammo Xorazmning tarixiy jozibadorligi va sokin muhiti uni alohida qiladi. Buxoro ham tarixiy jihatdan boy, biroq Xorazmning tabiiy manzaralari va kamroq gavjumligi uni afzal qilishi mumkin. Toshkent zamonaviy infratuzilma va xalqaro transport imkoniyatlari bilan ajralib turadi, ammo Xorazmdagi kabi qadimiy tarixiy obidalar topish qiyin. Farg'ona vodiysi tabiiy go'zallik va hunarmandchilik bilan mashhur, Xorazmdagi tarixiy gilamchilik sohasi unga yetishi qiyin bizningcha.

Xulosa: Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, Xorazm viloyati o'zining noyob tarixiy merosi, madaniy boyligi va tabiiy go'zalliklari bilan O'zbekistonning eng qimmatbaho turistik manzillaridan biridir. Biroq, transport va infratuzilma sohasidagi kamchiliklar uning turistik darajasini pasaytiradi. Lek baribir, Xorazmni boshqa hududlar bilan solishtirganda, uning o'ziga xosligi va potentsiali uni sayyohlar uchun alohida qiladi. Bizning fikrimizcha "Arda Xiva"dek sayyohlarni o'ziga jalb qila oladigan majmua qurish uddasidan chiqayotgan tashkilotchilar Ko'hna Urganchimizning yo'qligini bildirmay, o'ziga xos tarzda haybatli va go'zal qilib "Tozo Urganch" majmualarini ham qurishni rejalashtirishlari lozim. Maqola talabalar va boshqa o'quvchilar uchun mo'ljallangan bo'lib, u O'zbekistonning turistik manzillarini o'rganish va solishtirishga qiziqqanlar uchun foydali manba bo'ladi deb umid qilamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA MANBALAR

1. UNESCO World Heritage Centre. (1990). *Itchan Kala*. <https://whc.unesco.org/en/list/543>
2. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. (2020). *Xorazm viloyati*.
3. Karimov, I. (2018). *O'zbekistonning turistik imkoniyatlari*. Toshkent: O'zbekiston nashriyoti.
4. Smith, J. (2019). *Central Asia's Hidden Gems: Tourism in Uzbekistan*. London: Travel Publications.
5. "Arda Xiva" rasmiy veb-sayti. <https://ardakhiva.uz>

Hayotning biosfera darajasining umumbiologik qonuniyatlari

Sattarova Gulnoza Salim qizi
Alfraganus Universiteti Tyutori

Annotatsiya: Hayotning biosfera darajasining umumbiologik qonuniyatlari Yer yuzidagi barcha organizmlar va ularning yashash muhiti o'rtasidagi murakkab o'zaro aloqalarni tahlil qiladi. Bu qonuniyatlar biosferaning energetik va moddalarning aylanishi, ekologik tizimlarning o'zgaruvchanligi va o'zaro bog'lanishini o'rganadi. Hayotning bu darajadagi qonuniyatlarini tushunish nafaqat biologik tizimlarning faoliyatini chuqurroq anglashga yordam beradi, balki ularni muhofaza qilish va ekologik barqarorlikni saqlashga ham katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu tezisda biosfera darajasidagi asosiy qonuniyatlar va ularning hayotning turli sohalaridagi ta'siri ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Biosfera, ekologik tizimlar, energiya oqimi, moddalar aylanishi, ekologik muvozanat, biogeokimyoviy aylanishlar, turli ekosistemalar, ekologik qonuniyatlar.

Annotation: The universal biological laws at the biosphere level analyze the complex interrelations between all organisms on Earth and their habitats. These laws explore the energy and material cycles within the biosphere, the variability of ecological systems, and the interconnection of various ecological niches. Understanding these laws at the biosphere level helps not only to deepen the knowledge of biological system functions but also to preserve these systems and maintain ecological stability. This thesis discusses the main laws at the biosphere level and their influence on various aspects of life.

Keywords: Biosphere, ecological systems, energy flow, material cycles, ecological balance, biogeochemical cycles, various ecosystems, ecological laws.

Аннотация: Законы жизни на уровне биосферы анализируют сложные взаимосвязи между всеми организмами Земли и их средой обитания. Эти законы исследуют энергетические и материальные циклы в биосфере, изменчивость экологических систем и взаимосвязь различных экологических ниш. Понимание этих законов на уровне биосферы помогает не только глубже понять функционирование биологических систем, но и сохранить их, а также поддерживать экологическую стабильность. В данной работе

рассматриваются основные законы на уровне биосферы и их влияние на различные области жизни.

Ключевые слова: Биосфера, экологические системы, поток энергии, материальные циклы, экологическое равновесие, биогеохимические циклы, различные экосистемы, экологические законы.

Kirish: Hayotning biosfera darajasining umumbiologik qonuniyatlari tabiatda mavjud barcha hayot shakllarining bir butun tizim sifatida qanday o‘zaro ta’sirlashishini tushunishga qaratilgan ilmiy asoslarni tashkil etadi. Biosfera — Yer yuzidagi barcha organizmlar va ularning yashash muhiti o‘rtasidagi murakkab va doimiy o‘zgarib turadigan aloqalar tizimidir. Bu tizimda energiya oqimlari va moddalar aylanishi hayotning davomiyligini ta’minlaydi.

Biosferadagi barcha ekologik tizimlar bir-biri bilan bog‘liq bo‘lib, har bir organizmning yashash joyi, o‘shish sharoitlari va turli ekologik nişlar o‘rtasidagi aloqalar hamda ularning o‘zaro ta’sirini o‘rganish hayotning mohiyatini to‘liq tushunishga yordam beradi. Hayotning biosfera darajasidagi qonuniyatlarini anglash, ekologik tizimlarning barqarorligini saqlash va ularni muhofaza qilishda zarur bo‘lib, tabiiy resurslarni oqilona foydalanish va global ekologik muammolarni hal etish uchun muhim ahamiyatga ega.

Biosferadagi energetik va moddalar aylanishi, turlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘lanish, shuningdek ekologik muvozanatning saqlanishi biologik tizimlarning barqarorligi uchun zarur shartlardir. Shuningdek, inson faoliyati va tabiiy ofatlar, iqlim o‘zgarishi kabi omillar biosferadagi o‘zgarishlarga sabab bo‘lib, bu qonuniyatlarning buzilishiga olib kelishi mumkin. Ushbu tezisda, hayotning biosfera darajasidagi asosiy umumbiologik qonuniyatlar va ularning ekologik tizimlarga ta’siri o‘rganiladi.

Asosiy qism: Hayotning biosfera darajasidagi umumbiologik qonuniyatlari ekosistemalarning o‘zaro aloqalarini, energiya va moddalar aylanishini, turli ekologik nişlarni va ularning bir-biriga bog‘liqligini o‘rganadi. Ushbu qismda biosferaning asosiy qonuniyatlari, ularning hayotning turli sohalariga ta’siri va ekologik tizimlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar batafsil tahlil qilinadi.

Biosfera va uning strukturalari

Biosfera — Yer yuzidagi barcha hayot shakllarining jamlanmasi bo‘lib, organizmlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar, ular yashaydigan muhit va tabiiy resurslar bilan bog‘liq tizimlarni o‘z ichiga oladi. Hayotning barcha shakllari ekosistemalarda birgalikda mavjud bo‘lib, ular o‘zlarining yashash sharoitlarini ta‘minlash uchun o‘zaro ta‘sir qilishadi. Bu o‘zaro ta‘sirler organizmlarning energiya va moddalar olish, o‘zaro raqobatlashish va simbiozda yashashiga asoslanadi. Biosferaning faoliyati ekologik muvozanatni saqlashda muhim rol o‘ynaydi.

Energiya oqimi va uning biosferadagi ahamiyati

Hayotning barcha shakllari energiya manbalariga muhtoj bo‘lib, asosiy energiya manbai Quyoshdir. Fotosintez jarayoni orqali o‘simliklar Quyosh energiyasini kimyoviy energiyaga aylantiradi, bu energiya esa oziq-ovqat zanjiri orqali hayvonlarga va boshqa organizmlarga o‘tadi. Energiya oqimi biosferadagi hayot shakllarining o‘zaro bog‘liqligini ta‘minlab, ekologik tizimlarning ishlashini boshqaradi. Bu jarayon energiya piramidasini yaratadi, unda o‘simliklar birinchi darajadagi prodyusentlar, herbivorlar ikkinchi darajadagi iste‘molchilar, carnivorlar esa uchinchi darajadagi iste‘molchilar bo‘lib, energiya oqimining izchil davom etishiga yordam beradi.

Moddalar aylanishi

Biosferada moddalar — uglerod, azot, fosfor kabi elementlar va birikmalar doimiy ravishda aylanish jarayonida bo‘ladi. Biogeokimyoviy aylanishlar orqali organizmlar, tuproq, suv va atmosfera o‘rtasida moddalar almashinuvi amalga oshadi. Masalan, uglerodning aylanishi atmosferadagi karbon dioksidning o‘simliklar tomonidan fotosintez jarayonida yutilishi, o‘simliklardan hayvonlarga o‘tishi, keyinchalik hayvonlarning o‘limi yoki nafas olish jarayonida uglerodning atmosferaga qaytishi bilan amalga oshadi. Bu aylanishlar ekosistemalarning o‘zini tiklash va barqarorligini saqlash uchun zarur.

Ekologik tizimlar va o‘zgaruvchanlik

Biosfera ekologik tizimlarning murakkab to‘plamidir. Har bir ekosistema o‘ziga xos sharoitlar, turlar va energetik oqimlar bilan ajralib turadi. Ekologik tizimlarning o‘zgaruvchanligi turli omillar, jumladan iqlim o‘zgarishi, tabiiy ofatlar, va inson faoliyati tomonidan ta‘sir lanadi. Turlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘lanishlar, simbioz, raqobat va predatsiya kabi jarayonlar ekosistemalarning o‘zgarishiga sabab bo‘ladi. Ekosistemalardagi o‘zgarishlar va yangi turlarni kirishi tizimdagi muvozanatni buzishi mumkin.



Ekologik muvozanat va barqarorlik

Ekologik muvozanat, tabiiy tizimlarning barqarorligini ta'minlashda asosiy omil bo'lib, o'simliklar, hayvonlar va mikroorganizmlar o'rtasidagi o'zaro aloqalar orqali amalga oshadi. Barqaror ekologik tizimlar energiya va moddalar oqimini samarali boshqaradi, bu esa hayot shakllarining uzluksizligini ta'minlaydi. Biroq, inson faoliyati, iqlim o'zgarishi, landshaftlarni o'zgartirish va resurslarni haddan tashqari iste'mol qilish kabi omillar biosferadagi ekologik muvozanatni buzadi. Natijada, turlar yo'qolishi, yangi kasalliklarning tarqalishi va ekologik inqirozlar yuzaga kelishi mumkin.

Inson faoliyatining biosfera darajasidagi ta'siri

Insonning tabiiy resurslarga ta'siri va ekologik tizimlarga bo'lgan salbiy aloqasi, iqlim o'zgarishi va atrof-muhitning ifloslanishi kabi masalalar, biosfera darajasida umumbiologik qonuniyatlarning buzilishiga olib keladi. Uzoq muddatli salbiy oqibatlar, masalan, global isish, oziq-ovqat yetishmovchiligi, biologik xilma-xillikning kamayishi, va tabiiy muhitning deformatsiyasi, hayotning turli shakllariga tahdid soladi. Shuning uchun, biosferadagi ekologik qonuniyatlar va ularning saqlanishi insoniyat uchun ustuvor vazifa bo'lib qolmoqda.

Muhokama: Hayotning biosfera darajasidagi umumbiologik qonuniyatlarini o'rganish zamonaviy ekologiya, biologiya va iqlim o'zgarishi sohalarida juda dolzarbdir. Bugungi kunda Yer yuzidagi ekologik tizimlarning muvozanati va biologik xilma-xillikning saqlanishi jahon miqyosida katta ahamiyat kasb etmoqda. Inson faoliyati, shu jumladan sanoat rivojlanishi, urbanizatsiya, qishloq xo'jaligi, tabiiy resurslarning haddan tashqari iste'moli va iqlim o'zgarishi kabi omillar biosferadagi umumbiologik qonuniyatlarning buzilishiga olib kelmoqda. Natijada, ekologik tizimlar o'zgarib, turli hayot shakllari yo'qolib, tabiiy muhitda qiyinchiliklar yuzaga kelmoqda.

Bu mavzu dolzarb, chunki biosfera darajasidagi qonuniyatlarni anglash va ularning ishlash prinsiplarini tushunish nafaqat tabiiy tizimlarning barqarorligini saqlash, balki insoniyatning ekologik ta'sirini minimallashtirishda ham yordam beradi. Ekologik barqarorlikni ta'minlash va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, global isish, biologik xilma-xillikning pasayishi va boshqa global muammolarni hal qilishda eng muhim vositalardan biridir.

Ayniqsa, iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish, ekologik muvozanatni tiklash va tabiiy resurslarni samarali boshqarish bugungi kunda jahonning eng dolzarb

masalalaridan hisoblanadi. Hayotning biosfera darajasidagi qonuniyatlarini chuqurroq tushunish, global ekologik muammolarni hal qilish uchun muhim ilmiy asos yaratadi va kelajakda ekologik siyosatlar ishlab chiqishda yordam beradi.

Shuningdek, bu mavzu nafaqat ekologik, balki iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan ham muhimdir, chunki tabiiy tizimlarning buzilishi va ularning o'zgarishi iqtisodiyot va ijtimoiy farovonlikka bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, hayotning biosfera darajasidagi umumbiologik qonuniyatlarini o'rganish, bugungi kunda nafaqat ilmiy, balki amaliy ahamiyatga ega.

Xulosa:

Hayotning biosfera darajasidagi umumbiologik qonuniyatlari tabiatdagi hayot shakllarining bir butun tizim sifatida faoliyat yuritishini tushunishga yordam beradi. Bu qonuniyatlar ekologik tizimlarning barqarorligini ta'minlash, energiya va moddalar aylanishini boshqarish, shuningdek, ekologik muvozanatni saqlashda muhim rol o'ynaydi. Biosfera darajasidagi qonuniyatlarning buzilishi, ayniqsa inson faoliyati natijasida, ekologik inqirozlarga olib kelishi mumkin, shuning uchun ularni anglash va muhofaza qilish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirzaev, R. (2014). Hayotning ekologik qonuniyatlari va ularning insoniyatga ta'siri. Toshkent: O'zbekiston davlat pedagogika universiteti nashriyoti.
2. Tursunov, O. (2008). Biologiya asoslari: Hayot va ekologiya. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.
3. Abduqodirov, A. (2009). Ekologik muammolar va ularni hal etish yo'llari. Toshkent: O'zbekiston xalq ta'limi nashriyoti.
4. Zohidov, S. (2013). Ekologiya va biosfera. Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti.
5. Shodiev, D. (2007). O'zbekistonda ekologik muvozanat va barqaror rivojlanish. Toshkent: O'zbekiston fanlar akademiyasi nashriyoti.
6. Khodjayev, S., & Bukharaev, F. (2011). Biogeokimya va moddalarning biosferadagi aylanishi. Toshkent: "Fan va texnologiya" nashriyoti.
7. Raxmonov, Z. (2006). Tabiatni muhofaza qilish va ekologik o'zgartirishlar. Toshkent: O'zbekiston yoshlar ittifoqi nashriyoti.
8. Yuldashev, M. (2012). Ekologik tizimlar va ularning barqarorligini ta'minlash. Toshkent: O'zbekiston davlat agrar universiteti nashriyoti.

БОЛАЛИК ДАВРИНИНГ РЕТРОСПЕКТИВ ТАДҚИҚОТИГА ОИД АСОСИЙ МУАММОЛАР

Ҳайдарбек Ҳамдамов

Жиззах давлат педагогика университети “Умумий психология”
кафедраси катта ўқитувчиси

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада болалик тушунчасининг шаклланиши ва унинг жамият ривожланиши билан алоқадорлик таҳлил этилди. Шунингдек, болаларнинг шахс сифатида шаклланишида сюжетли-ролли ўйинларнинг аҳамияти ҳамда болалик даврларини тарихий нуқтаи назардан ўрганиш унинг ривожланиш жараёнини тушуниш учун муҳим эканлиги илмий далиллар билан асослаб берилди. Мақола болалик ривожланишини психологик ва тарихий контекстда таҳлил этиб, мазкур муаммони ўрганишнинг долзарблигини кўрсатиб беради.

Таянч сўз ва иборалар: бола, болалик, маданий-тарихий психология, психик ривожланиш, шахс ривожланиши, болалик тарихи, архаизация, феминизация, болалик ривожини тарихан ўрганиш.

ОСНОВНЫЕ ПРОБЛЕМЫ РЕТРОСПЕКТИВНОГО ИССЛЕДОВАНИЯ ПЕРИОДА ДЕТСТВА

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется формирование понятия детства и его связь с развитием общества. Также отмечается значимость сюжетно-ролевых игр в становлении детей как личностей, а изучение периодов детства с исторической точки зрения рассматривается как важный аспект для понимания процесса его развития. Статья исследует развитие детства в психологическом и историческом контексте, подчеркивая актуальность изучения данной проблемы.

Ключевые слова и выражения: ребенок, детство, культурно-историческая психология, психическое развитие, развитие личности, история детства, архаизация, феминизация, историческое изучение детского развития.

MAIN PROBLEMS OF THE RETROSPECTIVE STUDY OF CHILDHOOD ABSTRACT

This article analyzes the formation of the concept of childhood and its connection with the development of society. It also highlights the importance of role-playing games in the formation of children as individuals and considers the study of childhood periods from a historical perspective as a key aspect in understanding its developmental process. The article examines childhood development in psychological and historical contexts, emphasizing the relevance of studying this issue.

Key words and expressions: child, childhood, cultural-historical psychology, mental development, personality development, history of childhood, archaization, feminization, historical study of child development.

1989 йилда ЮНЕСКО томонидан қабул қилинган бола ҳуқуқлари тўғрисидаги Конвенция Ер сайёрасининг ҳар бир бурчагида бола шахсининг тўлақонли ривожланишини таъминлашга қаратилган. Дунё мамлакатларининг кўпчилиги томонидан ратификация қилинган ушбу Конвенциянинг “Бола бу нима” номли 1 моддасида айтилишича, бола деб 18 ёшгача бўлган ҳар бир инсон назарда тутилади. Муайян бир болага нисбатан қонунда қўлланилган аввалроқ балоғатга етиш масаласи бундан мустаснодир.

Тарихий жиҳатдан болалик тушунчаси балоғатга етмаганликнинг биологик ҳолати билан боғлиқ эмас. Болалик муайян бир ижтимоий мавқе, ахлоқий меъёрлар ва мажбуриятлар ҳамда шу даврга хос фаолиятнинг турлари ва шакллари билан йиғиндиси билан белгиланади. Буларнинг барчаси ҳаётнинг аниқ бир даврида кечади. Мазкур ғояни тасдиқлаш учун француз демографи ва тарихчиси Ф.Ариес томонидан бир талай қизиқарли фактлар тўпланган. Унинг изланишлари ва ёзган асарлари психологияда болалик тарихига бўлган қизиқишни орттирди. Ф.Ариеснинг тадқиқотлари бу соҳада классик изланишлар сифатида эътироф этилди.

Ф.Ариесни тарихий тараққиёт йўлида рассомлар, ёзувчилар ва олимларнинг онгида болалик тушунчаси қандай шаклланганлиги ҳамда турли тарихий даврларда у нима билан фарқ қилганлиги масаласи қизиқтирган. Тасвирий санъат соҳасидаги олиб борган тадқиқотлари уни қизиқарли ҳулосалар чиқаришига олиб келди. Қизиғи шундаки, XIII асрга қадар санъатда

болалар тасвири кузатилмаган, рассомлар бунга ҳаттоки ҳаракат ҳам қилмаганлар. “У дунёда, - деб ёзади Ариес, - болаликка жой йўқ эди” [2]. Бола ўзида инсон шахсини мужассам этиши ҳеч кимнинг хаёлига ҳам келмаган бўлса керак. Айрим санъат асарларида болалар пайдо бўлиб қолсалар ҳам, улар кичрайтирилган катталар кўринишида тасвирланган. У даврларда болаликнинг табиати ва хусусиятлари борасида билимлар мавжуд эмас эди.

“Бола” сўзи узоқ вақт давомида ҳозирги кунда берилаётганидек аҳамиятли, аниқ бир маънога эга эмас эди. Шуниси қизиқки, ўрта асрлар Германиясида “бола” сўзи “тентак” тушунчаси билан маънодош эди. Ариесни эътироф этишича, XVII асрдаги француз тилида кичик болаларни нисбатан катта болалардан фарқловчи сўзлар етарли бўлмаган.

Болалик инсоният тараққиётининг оддий босқичи эмас, балки турли даврларда ва турли халқлар орасида ҳар хил ижтимоий ва маданий мазмунга эга бўлган тушунчадир. Боланинг ривожланиши ва ижтимоийлашуви ижтимоий ҳаётнинг бошқа жиҳатлари билан боғлиқ бўлган маълум бир маданий муҳитда содир бўлади. Болалик ҳақидаги тушунча тарих давомида ўзгаради ва турли маданиятларда жуда фарқ қилади [4].

Ариеснинг ёзишича, “болалик” тушунчаси қарамлик ғояси билан боғлиқ бўлган. “Болалик қарамликнинг тугаши ёки камайиши билан якун топган. Мана шунинг учун ҳам, қуйи табақа одамлари учун болаларга хос бўлган сўзлар сўзлашув тилида ҳали узоқ вақт давомида бетакаллуф белгилар бўлиб қолади. Қуйи табақа деганда бошқаларга тўлиқ бўйсунадиганлар: хизматкорлар, аскарлар, шогирдликка тушганлар тушунилади. “Кичкина” деганда албатта фақат бола эмас, балки ёш хизматкор ҳам тушунилиши мумкин”.

Болаликни тез ўтиб кетадиган, арзимас бир давр деб ҳисоблаганлар. Ариеснинг фикрича, болаликка нисбатан бепарқлик ўша давр демографик вазиятининг натижаси бўлган. У даврлар туғилишнинг юқорилиги ҳамда болалар ўлимининг кўплиги билан ажралиб турган. “Менда уларнинг ҳаммаси нобуд бўлаверган”, - дейди М.Монтен. Монтен яшаган замонда болалик ожизлик ва ақлсизлик билан ассоциацияланган.

XIII асргача бўлган рассомлик санъатида болаларнинг образларини фақат диний-аллегорик сюжетлардагина учратишимиз мумкин. XIII асрга келиб бир нечта болаларнинг типлари пайдо бўлади. Бу жуда ёш одам, ўсмир

кўринишида тасвирланган фаришта; Исо Масиҳнинг гўдаклиги ёки биби Марямнинг ўғли билан тасвирланган расми (бунда ҳам Исо Масиҳ ёши катта одамнинг кичрайтирилган нусхаси кўринишида тасвирланган); мархум руҳининг рамзи сифатида яланғоч гўдак тасвири. Ф.Ариес XV асрда болаларнинг тасвирларига оид иккита янги тип мавжудлигини қайд этади: портрет ва путти (кичкина яланғоч ўғил бола тасвири). Ариеснинг таъкидлашича, путтиларга бўлган иштиёқ болалар ва болаликка кенг кизиқишнинг пайдо бўлганлигидан далолат беради.

Реал болаларнинг рассомлик санъатида тасвирланиши ҳали узоқ вақтлар кузатилмайди. XVI асрда ўлган болаларнинг портретларини пайдо бўлиши билан болаликка бўлган бефарқлик секин-аста йўқола бошлаган. Уларнинг ўлими илгаригидек оддий ҳолат эмас, балки ҳақиқатдан ҳам ўрнини қоплаб бўлмайдиган йўқотишдек қабул қилинган. Рассомлик санъати асарларидан хулоса чиқарадиган бўлсак, XVII асрга келиб болаларга нисбатан бефарқлик барҳам топа бошлаган. Айнан шу даврга келиб мусаввирларнинг чизган расмларида реал болаларнинг портретлари илк бора акс этилган. Қоидага кўра, бундай расмларда нуфузли шахслар фарзандларининг болалиги тасвирланган. Шу тариқа, Ариеснинг фикрича, болаликнинг кашф этилиши XIII асрда бошланган, унинг тараққий этишини эса XIV-XVI рассомлик тарихида кузатиш мумкин. Аммо, бу кашфиётнинг яққол намоён бўлиши XVI асрнинг охири ҳамда XVII асрнинг ўзига тўғри келади.

Тадқиқотчининг фикрича, кийим-бош болаликка бўлган муносабатни ўзгарганлигини асословчи муҳим белги саналади. Ўрта асрларда бола катта бўлиши биланоқ, унга ижтимоий шароитига кўра катталарнинг кийимидан фарқ қилмайдиган либос кийдириб қўйишган. Ариеснинг қайд этишича, кийим-кечаги бўйича болани катталардан ҳеч нарса фарқлаб турмаган. Фақат XVI-XVII асрларга келиб болани катта ёшли одамдан ажратиб турадиган махсус кийимлар пайдо бўлган. Шуниси қизиқки, 2-4 ёшли ўғил ва қиз болалар учун кийимчалар бир хил бўлган. Бошқача қилиб айтганда, ўғил болани эркакдан фарқлаш учун унга аёлларнинг кийимини кийдириб қўйишган, ва бу ҳолатни айрим ҳолларда ҳаттоки асримизнинг бошларигача кузатиш мумкин бўлган. Яъни жамиятнинг ўзгарганлиги ва болалик даврининг узайганлиги ҳам кийим-бошнинг танланиши борасидаги ижобий натижани кечроқ берган. Таъкидлаш жоизки, рус оилаларида 1917 йилдаги инқилобга қадар дехқон

оиласининг болалари ва катталари бир хил кийинган. Ўзбек оилаларида ҳам яқин-яқингача бундай бир хилликни учратиш мумкин эди. Бундай хусусият ёши катталарнинг иши (хунари) ва болаларнинг ўйинида катта фарқ бўлмаган жойларда ҳозиргача маълум маънода сақланиб қолган. Қадимий расмларда болаларни тасвирланиши ва адабиётда болалар либосини ифодаланишини таҳлил этар экан, Ариес болалар кийими эволюциясида учта тенденцияни ажратиб кўрсатади:

1) архаизация – муайян бир тарихий даврда болалар кийими катталарнинг модасига қиёслаганда кечикиб юради ва кўп жиҳатдан ўтган даврдаги катталарнинг кийимини такрорлайди;

2) феминизация – ўғил болаларнинг кийими кўп жиҳатдан аёллар кийимларидаги деталларни такрорлайди;

3) Юқори табақа болалари учун қуйи табақалардаги катталарнинг кийим-бошларидан фойдаланиш. Шу тариқа, ўғил болалар уст-бошида ҳарбий либоснинг деталлари ва шим пайдо бўлди (масалан, болаларнинг матросча костюми).

“Бугунги кунимизда, - деб ёзади Ариес, - биз Людовик XVI замонидаги ўғил болаларнинг иштонларини эслатувчи бир хил типдаги кийимларнинг тарқалишини кузатяпмиз, - ишчининг кўк рангдаги махсус коржомаси, яъни дағал матодан ишланган шими жинсиларга айланган, ва ёшлар буни ёшлик рамзи дея фахр билан кийиб юришади”.

Ариеснинг таъкидлашича, болалар кийим-бошининг шаклланиши жамиятда болаларга бўлган муносабатни ботиний жиҳатдан ўзгарганлигини ташқи намоён бўлишидир. Энди болалар катталарнинг ҳаётида муҳим ўринни эгаллай бошлашди.

Болаликнинг кашф этилиши инсон ҳаётининг тўлиқ циклини баён этиш имконини берди. XVI-XVII асрларда ёзилган илмий асарларда ёш даврларини тавсифлаш учун бугунги кунимизгача илмий ва оғзаки нутқда қўлланилиб келинаётган атамалар ишлатилган: болалик, ўсмирлик, ўспиринлик, ёшлик, етуклик, кексалик, қарилик, чуқур қарилик (узоқ умр кўрувчилар). Аммо, бу сўзларнинг замонавий мазмуни уларнинг дастлабки маъносига мувофиқ келмайди. Қадимги замонда ҳаётининг жараённинг даврлари йилнинг тўрт фасли, етти сайёра ёки ўн икки бурж белгилари билан боғлаб тушунтирилган. Сонларнинг мос келиши табиатнинг фундаментал бирлигига доир кўрсаткич

деб қаралган. Масалан, юнон файласуфи Пифагор инсон умрининг 20 ёшгача бўлган болалик ва ёшликни қамраб олувчи даврини «баҳор», 20 ёшдан 40 ёшгача даврини «ёз», етуклик даври саналган 40 ёшдан 60 ёшгача вақт оралиғини «куз», кексалик дейиладиган 60 ёшдан 80 ёшгача даврини эса «қиш», деб таърифлайди.

Санъат соҳасида инсон умрининг ҳаётийлик даври XVI-XIX асрларда ишланган кўплаб италян гравюраларида, рассомчиликда ҳамда ҳайкалтарошликда ўз аксини топган. Ариеснинг таъкидлашича, бу асарларнинг аксариятида инсоннинг ёши фақат биологик босқичларга эмас, балки кўпроқ инсонларнинг ижтимоий вазифаларига урғу берилган ҳолда тасвирланган. Масалан, Падуедаги машҳур Эремитанининг деворларига солинган фрескаларининг бирида қуйидагиларни кўришимиз мумкин:

- ўйинчоқларнинг ёши — уни ёғоч отча, қўғирчоқ, шамол тегирмони ва қушчалар билан ўйнаётган болалар ифодалайди;
- мактаб ёши — ўғил болаларнинг ўқишни ўрганиши, китобларни олиб юришлари, қизларнинг эса тўқишни ўрганиши;
- севги ва спорт ёши — йигит ва қизларнинг байрамларда биргаликда сайр қилиб юришлари;
- уруш ва рицарлик — милтиқдан ўқ узаётган одам;
- етуклик — судьялар ва олимларнинг тасвирланиши.

Ариеснинг фикрича, инсон ҳаётининг ёш давлари, шу билан бир қаторда болалик даври ҳам ижтимоий институтларнинг таъсири остида шаклланади. Яъни ёш давлари жамият тараққиёти келтириб чиқарган ижтимоий ҳаётнинг янги шакллари асосида ўзгариб боради. Илк болалик аввало оилада пайдо бўлади. Оилада бу давр болага нисбатан “юмшоқ муомала” ва “эркалаш” билан кечадиган мулоқот билан боғлиқ. Ота-она учун бола бу – шунчаки ширингина, ажиб бир болажон. У билан завқ ила ўйнамоқ мароқли. Шу билан бирга уни ўқитиш ва тарбиялаш ҳам мумкин. Болаликнинг бирламчи, “оилавий” концепцияси мана шундай бўлади.

Жамиятнинг тараққий этиши келажакда болаларга бўлган муносабатнинг ўзгаришига олиб келди. Болаликнинг янги концепцияси вужудга келди. XVII асрнинг педагоглари учун болаларга бўлган муҳаббат энди фақат эркалаш ва ўйин-кулгида ифодаланиб қолмасдан, балки уларга таълим-тарбия беришдаги психологик қизиқишда ҳам намоён бўла бошлайди.

XVII асрда Ян Амос Коменскийнинг “Буюк дидактика” номли машхур асарининг пайдо бўлиши катта воқеа бўлди. 1651 йилда Я.А.Коменский томонидан ишлаб чиқилган ўқитувчилар учун қонунлардан бирини эслатма сифатида келтириш мумкин: «...ўқувчиларга оталарча ғамхўрлик билан, жиддий, астойдил муваффақиятлар тилаб муносабатда бўлиш зарур. Ўқитувчи ўқувчиларнинг маънавий ўсишини таъминловчи ота-онасидек фаолият юритиши лозим. Шу билан бирга улар вазифаларини каттиққўлликдан кўра хушфееълик билан бажаришлари мақсадга мувофиқ. Бу вақтда Гораційнинг “Барча овозлар ёқимли билан фойдалини боғлай олганларга бўлсин” деган сўзларини ёдда тутишлари керак. Бу шундай ёш даврики, бола ҳали ҳаётнинг оғир юкини билмасдан фойдали ишни фақат ёқимли билан мувофиқ кўради. У кўпроқ асл таомни эмас, балки шакар ва асални талаб этади».

XVI аср охири ва XVII асрлар қадимги Русь матнлари педагогика ва болалар психологисига оид шарҳларга тўла. Владимир Мономахнинг (XI аср) “Ўғитлари”да қуйидагилар мавжуд: “Қарияларни оталарингиз каби улуғланг, ёшларни укаларингиздек ардоқланг”, “Барча яхши нарсаларни билиб олиб, ёдингизда тутишингиз керак: нимани билмасангиз, шуни ўрганинг”, “Дангасалик иллатларнинг онаси: ундан эҳтиёт бўлинг”.

Қатъий интизомга асосланган рационал тарбия концепцияси Ғарбий Европанинг оилавий ҳаётига XVIII асрда кириб борди. Ота-оналар диққатини болалик ҳаётининг барча жабҳалари жалб эта бошлади. Аммо, болаларнинг катталар ҳаётига тайёрлаш функциясини оила эмас, балки махсус ижтимоий муассаса бўлган мактаб ўз зиммасига оладиган бўлди. Ўша даврларда мактаб малакали ишчилар ва намунали фуқароларни тарбия этишга мўлжалланган.

Ариеснинг фикрича, айнан мактаб оилада болаларга илк 2-4 ёшда ота-оналар томонидан бериладиган тарбияни кенгайтириб берди. Яъни мактаб болалик доирасини ҳар томонлама кенгайтишига сабабчи бўлди. Мактаб ўзининг мунтазам, тартибли тузилиши ва тизими билан “болалик” деб номланган даврни навбатдаги босқичда дифференциациялашувини осонлаштиради. Синф болаликка ўзига хос белги берадиган универсал мезонга айланди. Бола ҳар йили навбатдаги синфга ўтганида янги ёш даврига кириб келгандек бўлади. Шунинг учун ҳам синф болалик ва ўсмирликда кечадиган ёш даврларини дифференциациялашуви жараёнида ҳал этувчи омил бўлиб хизмат қилади. Ариеснинг қайд этишича, болаларнинг синфларга

тақсимланиши уларнинг ўзига хос хусусиятларига диққатнинг йўналтирилганлигидан, шунингдек болалар ва ўсмирларнинг гуруҳларида ёш давлари тафовут этилишини ҳамма англаганлигидан далолат беради.

Ариеснинг концепциясига кўра, болалик ва ўсмирлик мактаб ва синф билан узвий алоқадорликка эга. Мактаб жамият томонидан яратилган, болаларга ҳаётий ва профессионал фаолият учун зарурий тайёргарлик вазифасини ўтовчи махсус тузилмадир.

Ариес навбатдаги ёш даражасини ижтимоий ҳаётнинг янги шакли – умумий ҳарбий мажбурият ва ҳарбий хизмат билан боғлайди. Бу вақт ўсмирлик ёки ўспиринлик давларини қамраб олади. “Ўсмир” тушунчаси маълум маънода таълим тизимининг ислоҳ этилишига олиб келди. Педагоглар махсус либос ва интизомга, мардлик ва матонат тарбиясига аҳамиятли соҳа сифатида эътибор қарата бошладилар. Илгари мазкур соҳалар кўп ҳолларда назардан четда қолган. Ушбу янги йўналиш кўп ўтмай санъатда, жумладан рассомликда акс этди. Бу вақтга келиб, янги олинган аскар XVII аср испан ва даниялик рассомларнинг асарларида каби муғомбир юзли, эрта қариб қолган жангчини кузатмаймиз. Энди рассомларнинг асарларида, масалан Ваттода кўркам аскарни кўришимиз мумкин.

Кейинчалик, XX асрда, Биринчи жаҳон уруши “ёшлар онги” феноменини пайдо қилди. Бу феномен “йўқолган авлод” адабиётида ифодаланган. Шу тариқа, ўспиринлик нима эканлигини билмайдиган давр ўрнига янги давр келади. Бу давр одамлари учун ўспиринлик жуда қадрли ёш саналди. Ҳамма бу даврга эртароқ киришни ҳамда унда узокроқ қолиб кетишни истайдиган бўлишди.

Ҳар бир тарихий давр енгилроқ ва аниқроқ намоён бўладиган (имтиёзли) муайян бир ёш даври ҳамда инсон ҳаётининг муайян бир бўлимига мутаносибдир. “Ёшлик – XVII асрнинг, болалик XIX асрнинг, ўсмирлик эса XX асрнинг имтиёзли ёш даври”.

Кўришиб турибдики, Ф.Ариеснинг тадқиқотлари “болалик” тушунчасининг пайдо бўлиши масалаларига бағишланган. Бошқача қилиб айтганда, Ариес болаликни ижтимоий феномен сифатида англаш муаммосини тадқиқ этди. Аммо, Ариес концепциясини таҳлил этишда англашнинг, яъни тушуниб олишнинг психологик қонунларини ёдда тутиш зарур. Аввало, Л.С.Виготский айтганидек, “тушуниб олиш учун, тушуниб олиш керак бўлган

нарсанинг ўзи мавжуд бўлиши лозим”. Ж.Пиаже англаш жараёнини батафсил ўрганиб чиққан. У реал ҳодисанинг пайдо бўлиши ва унинг рефлексив акс этиши ўртасида муқаррар кечикиш ва принципиал тафовут мавжудлигини таъкидлаб ўтган.

Болалик даври ўзининг қонуниятларига эга. Бундай қонуниятлар табиийки рассомлар ўз асарларида нималарга урғу бераётганлиги билан боғлиқ эмас. Ариеснинг “санъат - феъл ва хулқнинг инъикоси” деган мулоҳазасини маълум маънода тўғри деб эътироф этамиз. Бироқ, айтиш керакки, санъат асарлари болалик тушунчасини таҳлил этишда зарурий маълумотларни тўлиқ беролмайди. Шундай экан, бу борада муаллифнинг хулосаларига ҳар доим ҳам қўшилиб бўлмайди.

Ариеснинг тадқиқотлари Ўрта асрларда яратилган санъат асарларининг таҳлилидан бошланган. Чунки айнан шу даврдан бошлаб тасвирий санъат асарларида болаларнинг сюжетлари пайдо бўлади. Аммо, болаларга ғамхўрлик қилиш ҳамда уларни тарбиялаш масалалари, табиийки бу даврдан анча аввал шаклланган. Ҳаттоки Арастунинг (эр.авв. 384-322) асарларида болаларга бағишланган фикр-мулоҳазаларни учратиш мумкин. Эътибор қаратиш лозимки, Ариеснинг тадқиқотлари фақат европалик юқори табақа вакилларининг болаларини тадқиқ этиш билан чегараланган. У болалик тарихини баён этишда жамиятнинг ижтимоий-иқтисодий тараққиёти даражасини ҳисобга олмайди.

Ариес ҳужжатли манбалар асосида аслзода одамларнинг болалик даври мазмун-моҳиятини баён этган. Бунга яққол мисол сифатида Людовик XIIIнинг (XVII аср бошлари) болаликдаги машғулотлари тасвирланган иллюстрацияларни келтириш мумкин. Бир ярим ёшида у скрипка чалиб, айна пайтда қўшиқ ҳам айтади. У даврларда аслзода оилаларнинг болаларини мусиқа ва рақсга ўргатиш жуда эрта бошланган. Буларни болакай Луи унинг диққатини ёғоч отча, шамол тегирмони, пирилдоқ (ўша замонларда болаларга туҳфа этиладиган ўйинчоқлар) кабилар тортмасидан аввалроқ бажарган. 1604 йилда Людовик XIII илк бор Рождество байрамида иштирок этганида эндигина уч ёшга кирган эди. Айнан шу ёшидан у ўқишни, тўрт ёшида эса ёзишни ўргана бошлайди. Беш ёшида у турли хайкалчалар, қўғирчоқлар ва карта ўйнаса, олти ёшдан бошлаб эса шахмат ва теннис ўйнай бошлайди. Ўйинлар вақтида Людовик XIIIнинг ўртоқлари пажлар ва аскарлар бўлган.

Улар билан Луи бекинмачоқ ва бошқа ўйинларни мириқиб ўйнаган. Людовик XIII олти ёшга тўлганида топишмоқлар ва шарадаларни (шеърый жумбоқ) топишга ишқибоз бўлган. Етти ёшда эса ҳаммаси ўзгарди. Болаларга хос кийимлар ечилиб, ўйинқароқлик ортида қолади. Энди унга эркакларга хос тарбия бериш бошланади. Энди уни овга чиқиш, отиш, азарт ўйинлар ва чавандозлик қизиқтиради. Шу даврдан бошлаб унга педагогик ва одоб-ахлоқ масалаларига оид адабиётлар тавсия қилинади. У театрга боради ва катталар билан жамоавий ўйинларда иштирок этишни йўлга қўяди. Ариеснинг қайд этишича, етти ёш инсон ҳаётида муҳим босқич саналади. XVII асрнинг педагогик адабиётида айнан етти ёш болани мактабга бериш ёки мустақил ҳаётга чиқариш мумкин бўлган вақт деб айтиб ўтилган.

Болалик даври тўғрисида бошқа кўплаб мисолларни ҳам келтириб ўтса бўлади. Шулардан бири XX асрда қайд этилган маълумотлардан олинган. Бу Дуглас Локвуднинг Гибсон саҳросига (Ғарбий Австралия) қилган саёҳати ва у ерда пинтуби қабиласи аборигенлари (“калтакесакхўрлар”) билан учрашуви баёнидир. 1957 йилгача бу қабиланинг аксар одамлари умрида ҳеч қачон оқ танли одамни кўрмаганлар. Уларнинг кўшни қабилалар билан ўзаро муносабати деярли бўлмаганлиги туфайли бу қабиллада тош даври одамларининг маданияти ва ҳаёт тарзи сақланиб қолган. Бутун умрини чўлда ўтказадиган бу одамларнинг диққати овқат ва сув топишга қаратилган. Пинтуби қабиласининг аёллари кучлироқ ва чидамлироқ бўлади. Улар бошларида оғир юкли ўтин билан соатлаб саҳро оралаб юрардилар. Улар болаларни қум устида ётиб туғишарди. Қабил вакиллари бир-бирига ёрдам бериб, ҳамдардликни ҳам намоён этардилар. Улар гигиена ҳақида тасаввурга ҳам эга бўлмаганлар. Ҳатто бола туғиш сабабларини ҳам ҳеч ким билмасди. Уларда сув учун ёғоч идишлардан бўлак деярли ҳеч қандай уй-рўзғор буюмлари йўқ эди. Лагерда одамларнинг иккита-учта найзаси ва бир нечта таёғи бўлган. Улар таёқлардан ёввойи реза меваларни тегирмонтошда туйиш учун фойдаланган. Озиқ-овқат захирасида ёввойи калтакесаклар ҳам бўлган. Овга ҳамма буткул ёғочдан ясалган найзалар билан чиққан. Қабил одамлари яланғоч юрганлиги туфайли, совуқ ҳавода уларнинг ҳаётлари чидаб бўлмас даражага келарди. Уларнинг баданларида гулханда тутаб ёнган таёқчаларнинг изларини кўриш ҳайратланарли ҳодиса эмас. Локвуд уларга кўзгу ва тароқ беради. Аёллар тароқни тескари ушлаган ҳолда сочларини тарашга

уринадилар. Тароқ уларнинг қўлларига тўғри ушлатиб қўйилса ҳам натижа бермайди. Тароқ сочларнинг кирлигидан вазифасини бажаролмайди. Сочларни ювиш учун эса сув етарли эмас эди. Эркаклар соқолларини тарашга муваффақ бўладилар. Аёллар эса совға қилинган нарсаларни кумга улоқтириб, уларни тезликда унутадилар. Локвуднинг қайд этишича, улар илгари ўзларининг аксини ҳеч қачон кўрмаган бўлсалар ҳам, кўзгулар билан ҳам бир иш чиқмаган, уларни бу буюм қизиқтира олмади. Албатта оила бошлиғи ўзининг рафиқаси ва болалари қандай кўринишга эга эканлигини билган, аммо у ўзининг аксини ҳеч қачон кўрмаган эди. У кўзгудаги аксига ҳайрат билан тикилиб қарайди. Аёллар эса Локвуднинг олдида кўзгуга фақат бир марта қарайдилар. Локвуд аёллар кўзгудаги тасвирни руҳлар деб ўйлаб, кўрқувга тушганини ёзиб қолдирган.

Аборигенлар ҳеч қандай кўрпа ёки чойшабсиз, кум устида ухлашарди. Исиниш учун улар гужанак бўлиб ётишга мажбур эди. Локвуд икки-уч яшар қизчани ўзи иссиқ кумда пишириб олган егуликларни оғзига солаётганини кўради. Унинг кичик ўғай синглиси эса кир-чир чойда ўтирволиб, консервадаги димланган гўштни (экспедиция захирасидан) бармоқчалари билан чиқариб еб ўтирарди. Эртаси куни эрталаб Локвуд банкани текшириб кўради ва идиш ялаб қўйилганлигига гувоҳ бўлади. Локвуднинг яна бир кузатуви: “Тонг ёришишидан аввалроқ, аборигенлар жанубий-шарқий шамолнинг бирдан кучайишидан ҳимояланиш мақсадида гулхан ёқадилар. Гулханнинг ёруғида кўрдимки, ҳали яхши юришни ўрганмаган кичкина қизалоқ ўзига алоҳида гулханча ташкиллаштиради. У бошини эгиб чўғларга пуфлар ва исиниб олишга уринарди. Кийими йўқлигидан совуқотиб, азобланаётганлиги аниқ. Шунга қарамасдан у йиғламасди. Лагерда учта ёш бола бор эди, аммо биз бирор марта ҳам уларни йиғлаганини эшитмадик” [5].

Бу каби кузатишлар болалик тарихига теранроқ назар ташлаш имконини беради. Санъат асарлари, фольклор ва лингвистик тадқиқотларнинг таҳлили билан таққослаганда, этнографик материал болаликнинг ривожланиши тарихи ҳақида муҳимроқ маълумотларни беради.

Юқоридаги масала юзасидан Д.Б.Эльконин бир қатор этнографик материалларни ўрганиб чиққан. Унинг фикрича, одамлар жамоаси тараққиётининг илк босқичларида озуқа топишнинг асосий усули термачилик

бўлган. Ибтидоий одамлар меваларни қоқиб олиш ва ейладиган илдизларни қовлаб олиш учун примитив қуроллардан фойдаланганлар [7].

У вақтларда бола катталарнинг меҳнатига жуда эрта қўшиларди. У ибтидоий қуроллардан фойдалана олишни ўрганиб, озуқа топиш усулларини ўзлаштириши лозим бўлган. Бундай шароитларда келажакдаги меҳнат фаолияти учун тайёргарлик босқичи учун вақт ҳам, зарурат ҳам бўлмаган. Д.Б.Элькониннинг таъкидлашича, болани ижтимоий такрор ишлаб чиқариш тизимига бевосита қўшиб бўлмаган вақтда болалик пайдо бўлади. Чунки у меҳнат қуролларини мураккаблиги туфайли ҳали ўзлаштирмаган бўлади. Натижада болаларни унумли меҳнатга табиий қўшилиши кейинга қолдирилади.

Д.Б.Элькониннинг фикрича, вақтдаги бундай узайтириш Ф.Ариес ўйлаганидек мавжуд ривожланиш даври устига янги даврни қўшилиши билан рўй бермайди. Бу ҳодиса янги ривожланиш даврини ўзига хос ёриб кириши йўли билан амалга оширилади. Бу йўл ишлаб чиқариш қуролларини ўзлаштириш даврига, яъни “вақт ичида юқори томон силжиш”га олиб келади. Д.Б.Эльконин сюжетли-ролли ўйинларнинг вужудга келиши таҳлили ҳамда кичик мактаб ёши психологиясини тадқиқ этилиши жараёнида бу хусусиятларни жуда яхши очиб берди [8].

Юқорида айтиб ўтилганидек, болалик даврларини тарихан пайдо бўлиши масалалари ҳамда болалик тарихи билан жамият тарихининг алоқадорлигини ўрганмасдан мазмундор “болалик” тушунчасини юзага келтириб бўлмайди. Болалар психологиясида булар XX асрнинг 20-йилларида асосий вазифа қилиб белгилаб олинди ва ҳозирги қадар тадқиқ этиб келинмоқда. Маданий-тарихий психология контекстида болалик ривожини тарихан ўрганиш деганда боланинг бир ёш поғонасидан иккинчисига ўтишини ўрганиш ва ундаги шахснинг ўзгаришини конкрет тарихий шароитларда кечаётган ҳар бир ёш даврнинг ичида тадқиқ қилиш тушунилади. Болалик тарихи ҳали етарли даражада ўрганилмаган бўлса-да, бу масаланинг XX аср психологиясига қўйилганлигини ўзи муҳим аҳамиятга эга. Д.Б.Элькониннинг таъкидича, боланинг психик ривожланиши назариясида ҳали кўп саволларга жавоб топилмаган. Муаммонинг ечими болаликни тарих нуқтаи назаридан тадқиқ этишда деб ҳисоблаш мумкин.

АДАБИЁТЛАР

1. Аснин В.И. Об условиях надежности психологического эксперимента: Хрестоматия по возрастной и педагогической психологии: Ч. 1. М., 1980.
2. Ариес Ф. Ребенок и семейная жизнь при старом порядке. Екатеринбург, 1999.
3. Гальперин П.Я. Метод «срезов» и метод поэтапного формирования в исследовании детского мышления // Вопросы психологии. 1966. № 4.
4. Кон, И. С. Ребенок и общество. — М. : Издательский центр «Академия», 2003. — 336 с.
5. Локвуд Д. Австралийское племя пинтуби. М., 1984.
Методы исследования в психологии / Под ред. Т.В. Корниловой. М., 1998.
6. Мажидов Жасур, & Ҳамдамов Ҳайдарбек. (2022). ШАХСТА СТРУКТУРАВИЙ ЁНДАШИШДА ҚАДРИЯТЛАРНИНГ ЎРНИ. *Involta Scientific Journal*, 1(7), 138–148. Retrieved from <https://involta.uz/index.php/iv/article/view/255>
7. Эльконин Д.Б. Л.С. Выготский сегодня // Научное творчество Л.С. Выготского и современная психология. М., 1981.
8. Эльконин Б.Д. Введение в психологию развития. М., 1995.
9. Ҳайдарбек Ҳамдамов. (2022). ХУШҲОЛЛИКНИНГ ТУЗИЛИШИ ВА АҲАМИЯТИ: МУАММО ВА ЕЧИМЛАР. *EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH*, 2(12), 533–538. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7337673>
10. ҲАМДАМОВ Ҳайдарбек. (n.d.). ПСИХОЛОГИЯДА РЕЗИЛЕНТЛИК ФЕНОМЕНИ: АСОСИЙ ЙЎНАЛИШЛАР ВА ИСТИҚБОЛДАГИ МАСАЛАЛАР. *Zenodo*. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7743535>

Research Science and
Innovation House

**БОШЛАНҒИЧ СИНФ ТАСВИРИЙ САНЪАТ ДАРСЛАРИДА
ИЖОДИЙ ҚОБИЛИЯТЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШ
ТЕХНОЛОГИЯСИ (НАТЮРМОРТ ЖАНРИ МИСОЛИДА)
TECHNOLOGY FOR DEVELOPING CREATIVE ABILITIES IN
ELEMENTARY SCHOOL FINE ARTS LESSONS (ON THE EXAMPLE OF
THE NATURE MOVEMENT GENRE)**

Сафоева Камола Қудрат қизи, Тошкент Кимё Халқаро Университети,
бошланғич таълим магистратура талабаси
Safoeva Kamola Qudrat qizi, Kimyo international university in Tashkent,
Master's student in Primary Education

Аннотация: Мақолада тасвирий санъатнинг энг қизиқарли ва долзарб жанрларидан бири бўлган натюрмортни тасвирлаш, уни ташкил этиш, буюмларнинг ранги, ҳажми, шаклларининг тузилишига қараб унинг композициясини шакллантириш, тасвирлаш изчиллигидан фойдаланиш, ўқувчи-ёшларнинг натюрморт тасвирлашда тасвирий санъатнинг қонунларидан фойдаланиш масалаларига қаратилган.

Калит сўзлар: Натюрморт, композиция, рангтасвир, тасвирлаш изчиллиги, методик босқич, ижодий фаолият.

Abstract: The article focuses on the depiction of still life, one of the most interesting and relevant genres of fine art, its organization, the formation of its composition depending on the color, size, and structure of the forms of the objects, the use of the sequence of depiction, and the use of the laws of fine art in the depiction of still life by student youth.

Keywords: Still life, composition, painting, sequence of depiction, methodological stage, creative activity.

КИРИШ. Натюрморт (французчадан “ўлик табиат”) деган маънони англатиб - жонсиз буюмларни тасвирлашга бағишланган тасвирий санъат жанридир. Ушбу жанр тасвирий санъатнинг бошқа жанрларига қараганда анча ёш ҳисобланиб XV-XVI асрларда композициянинг бир қисми сифатида пайдо бўла бошлади ва XVII-асрда Голланд ва Фламанд расмлари томонидан шаклланди ҳамда ривожланди. Савол туғилади, нима учун натюрморт узлуксиз таълим тизимининг барча бўғинларида севиб ижро этиладиган жанр?

Чунки у бошланғич синф ўқувчисидан бошлаб, профессионал рассомгача ўзига жалб қилинадиган севимли машғулот туридир. Айниқса, эндигина тасвирий санъат оламига кириб келаётган бошловчи бўлажак тасвирий санъат усталари учун қизиқарли бўлган энг оддий жанр. Натюрмортларни тасвирлаш жараёнида бўлажак рассом ҳажм, фазо, шакл, перспектива қонунларини ўрганиб санъатнинг пиллапояларидан юқори чўққиларга чиқиш учун энг мақбўл йўлидир.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ. Натюрморт тасвирий санъатда кенг ривож топган мустақил жанрига айланиб, Ўзбекистон тасвирий санъатида рассомлардан Н.Кашина, З.Ковалевская, Ю.Елизаров, Р.Ахмедов, Ғ.Абдурахманов, Н.Тен А.Юнусов, А.Мирзаев, А.Икромжонов каби кўплаб натюрморт жанрининг усталари ва умидли ёш рассомлар ҳам табиат яратган ноз-неъматларга бўлган меҳрларни натюрмортда ифодалаганлар. Натюрморт ва унинг олий таълимда талабаларни касбий тайёрлашдаги аҳамиятига бағишланган ўқув ва илмий адабиётлар билан М.Набиев, Б.Азимова, Ғ.Абдурахмонов, Б.Байметов каби методист олимлар самарали ижод қилганлар. Рус тасвирий санъатининг усталари Н.Н.Ростовцев, В.С.Кузин, А.Унковский ва бошқалар натюрмортни тасвирлашга бағишланган илмий тадқиқот ишларини олиб борганлар. Ўзбекистон тасвирий санъатида рассомлардан Н.Кашина, З.Ковалевская, Ю.Елизаров, Р.Ахмедов, Ғ.Абдурахманов, Н.Тен А.Юнусов, А.Мирзаев, А.Икромжонов каби кўплаб натюрморт жанрининг усталари ҳам табиат яратган ноз-неъматларга бўлган меҳрларни натюрмортда ифодалаганлар. Натюрморт жанрининг олий таълимда талабаларни касбий тайёрлашдаги аҳамиятига бағишланган ўқув ва илмий адабиётлар билан М.Набиев, Б.Азимова, Ғ.Абдурахмонов, Б.Байметов каби рассом-олимлар самарали ижод қилганлар.

НАТИЖАЛАР. Тасвирий санъат соҳасида таҳсил олаётган ёшлар қандай босқичда таълим олаётган бўлишларидан қатъи назар натюрмортни барча қонун-қоидаларга монанд ва мукамал тарзда тузиш масаласи муҳим ҳисобланади. Қуйида биз натюрмортнинг композицион назариясини таҳлил қиламиз ва уни қандай қилиб тўғри тузиш ҳақида суҳбатлашамиз.

Даставвал натюрморт постановкасининг барча тавсилотлари ва таркибини шакллантириш босқичида иложи борича малакали равишда ҳамда илмий назарий маълумотларга асосланган ва назарий жиҳатдан таянган ҳолда

ўйлаб, шакл ва буюмларни ҳажми, тузилиши, оч ва тўқлиги каби кўплаб масалаларга таянган ҳолда кўриб чиқишингиз керак бўлади. Шунда чизилаётган асар билан постановкага кўйилган буюмларнинг композиция жиҳатдан монандлиги, ҳаётӣ (реалистик) кўриниши, томошабиннинг эътиборини ўзига жалб эта оладиган асар муаллифига айланишингизда муҳим босқич ҳисобланади.

Натюрморт постановкаси пухта, ўзоқ вақт уйлаб мулоқаз қилиб кўйилиши мақсадга мувофиқ. Ўқув постановкаларини ташкил этишда кўп нарсалардан фойдаланилмайди. Уларнинг шакли, ҳажми ва ранглари ҳар турли бўлишига эътибор қаратиш керак. Натюрморт постановкасига турли хил буюмлар, масалан, чинни ёки сопол идиш, металл, ёғоч буюм, ҳар хил рангли сидирға матоларни киритилиши асар мазмунини бойитади ва қизиқарли қилади. Силлик, ялтироқ сиртли идишии сирти жилвасиз нарса билан, қиррали буюмни думалоқ шакл билан ёнм-ён тасвирлаш ва тасвирлаш малакаларини шакллантириш учун имконият яратади.

Натюрморт ишлашда асосий талаблардан бири нарсаларнинг ўлчам, ранг ва тус жиҳатдан ажралиб туриши ҳамда композиция марказига яқин жойлаштаралишидир. Бу тасвир мазмунини очишда сўз бошловчи вазифасини ўтайди, композициянинг марказини бўрттириб кўрсатиб туради. Купинча рассомлар асосий предметни атайлаб композиция марказдан сал силжитиб кўядилар-да, мувозанатни сақлаш учун қарама-қарши томонда ранги ва тус жиҳатдан бир-бирига зид бўлган предметларни танлайдилар.

Бир хил нарсалардан бир неча қуринишда натюрмортлар тузиш мумкин, лекин ҳар гал ҳам ҳажмларнинг катта-кичиклиги ва бўлақларнинг оч-тўқлиги ўртасидаги мувозанат сақланиб қолиши керак. Ўқув натюрмортининг муҳим жиҳатларидан бири тасвирланаётган шаклларнинг фазовий жойланишадир. Постановкага қирадиган нарсалардан каттаси орқароқда, майдалари олдинроқда бири иккинчиси ва асосий нарсани бир оз беркитиб турадиган қилиб кўйилади.

МУҲОКАМА. Натюрмортдаги нарсаларни мазмунан бир-бирига боғлаш мақсадида унга чўзиқроқ шаклдаги нарса киритилади. Сурат текислигининг асосидан композиция марказига қаратиб қўйилган турли уй жиҳозлари композиция мазмунини очиб беришда ёрдам вазифасини ўтайди ва томошабин нигоҳини композиция марказига йўналтиради. Натюрмортнинг

фазовий ҳолатини яқолроқ тасвирлаш учун олдинги қаторда унча катта бўлмаган, аммо ёрқин нарса қўйилади.

Натюрмортнинг уфқ текислигига нисбатан қандай жойланиши ҳам катта ақамиятга эга. Маълумки, уфқ чизигидан пастрокда қўйилган шакллар буюм текислигида тўла-тўқис кўриниб туради, нарсаларнинг асослари, уларнинг ўзаро жойланиши яқол кўринади ва тасвирлаш учун қулай бўлади. Масалан, кўза ва олма ёки косачаларни олиб, шундай жойлаштирамизки, улар кўриш майдонида, мувозанатли ҳолатда кўринсин. Алоҳида буюмларни ўз ўрнига қўйишдан аввал, албатта, натюрморт ўрнатиладиган жойни аниқлаш керак бўлади.

Ишни энг йирик нарсани қўйишдан бошлаймиз. Табиий ёруғликнинг кучи етарли бўлмаса, натюрмортнинг ён томонига сунъий ёриткич қўйилади. Шунда олдиндаги нарсаларда ёруғ-соя контрасти кескин бўлиб, уларнинг ҳажмдорлиги бўртиб кўзга ташланади, сиртлари яққол кўринади, иккинчи қатордаги нарсаларга эса камроқ эътибор берилади.

Аввалига фон учун танланадиган матолар яхлит, сидирға ва нурсизроқ бўлгани маъқул, чунки, кескин рангли, ёрқин, матолар кўзга аниқ ташланиб, натюрмортнинг ўзини қуришга халақит беради. Шуни қам ҳисобга олиш керакки, оқиш фонда қорамтир шакллар, тўқ фонда эса, аксинча, оч тусли шакллар яққол кўринади. Кўпинча натюрморт таркибига ўртача кул ранг тусли фон танланади. Бундай фон постановкани яхлитлаштириб кўрсатиб, тасвирлашда қулайлик яратади.

Кейинчалик натюрморт композициянинг таркибий қисмларидан бири сифатида бурмали матолар киритилади. Орқа фонга ва предмет столига тўшаладиган газламанинг характериға мос ҳолда майда ва йирик бурмалар солиб қўйиш мумкин. Агар мато қандайдир буюм устига ташланса, бурмалар шу буюмнинг шакли билан боғлиқ кўринишда бўлади. Лекин жуда кўп сонли ва майда бурмаларни тасвирлаш қийин, шунинг учун дастлабки натюрмортларда сидирға, ғижимланмайдиган, жилвасиз газламалардан фойдаланиш керак.

ХУЛОСАЛАР. Хулоса ўрнида шуларни таъкидлаш керакки, натюрморт постановкасини тасвирлашдан олдин, дастлаб унинг қандай кўринишга бўлишини олдиндан тасаввур этиш ва натюрмортнинг қандай композицион шаклга эга бўлиши ҳақида қоғоз, мато юзасида ҳаёлан тасвирланиши тасаввур

этиш жуда муҳимдир. Шундагина ўқув ёки ижодий натюрморт постановкасини мукамал шакллантириш мумкин.

Юқорида айтганларимиздан маълум бўлдики, натюрморт постановкасини қўйиш жиддий ва масъулиятли иш. Мазмун жиҳатдан яхши қўйилган натюрмортда ортикча, тасодифий нарсалар бўлмайди, уни олд ёки ён томондаги кўриш нуқталаридан кузатилганда, мазмунли, ягона бир гуруҳ бўлиб, кўзга яққол ташланиб туради. Шундай қилиб, натюрморт тузиш учун қуйидаги асосий вазифаларни бажариш керак:

- ✓ натюрморт мавзусини танлаш;
- ✓ натюрморт мавзусига мос келадиган шакллари тўплаш;
- ✓ шакллarning тузилиши, туси ва ранглари хисобга олиб жойлаштириш;
- ✓ буюм ва шакллarning ҳажмдорлигини яққол кўринадиган тарзда ёритиш ва бошқалар.

Натюрморт постановкасини мақсадга мувофиқ ўрнатиб олгандан сўнг, уни методик изчилликда тасвирлашга ўтилади.

Қўйилган натюрмортнинг асосий гоясини сурат текислигида тасвирлаб кўрсатиб бериш учун, яъни натура билан тасвир ўртасида тўла ўхшашликка эришиш учун тасвирий санъатнинг ифода асосий қонунларидан бири бўлган композиция, чизиқли конструктив қурилиш, перспектива, ёруғ-соя ва рангшунослик назарияларини пухта билиш ва уларни амалда қўллай олиш талаб қилинади. Алоҳида нарсаларнинг аслига қараб тасвирлаш вақтида билим ва қуникмалар ҳосил бўлади.

Аввало, натюрмортга қўйилган буюмлар диққат билан кузатилиб, уларни таҳлил қилинади. Композициянинг ижодий масалалари, асосан, постановка қўйиш вақтида ҳал этилади, яъни натюрморт қисмлари ўртасида ўзвий боғланиш ўрганилади, барча нарсалар биргаликда, яхлит бўлиб кўзга яққол ташланиб туриши керак. Демак, натюрморт тасвирининг таъсирчан бўлиши ва ундан кўзланган мақсадга тўла эришиш учун постановкага нисбатан энг қулай ва қизиқарли қараш нуқтасини топиш керак бўлади. Бунинг учун ҳар хил жойдан туриб, постановкани кузатилади. Қўйилган натюрмортга нисбатан энг мақбул қараш нуқтасини топиб, уфқ чизиғини унга мувофиқ белгилаб олиш муҳим иш ҳисобланади. Натюрморт тасвирини

сурат текислигида чиройли жойлаштириш бир катор масалаларни хал қилишни талаб этади. Булардан бири керакли формат танлашдир. Шунинг учун ишни бошлашдан аввал бир нечта кичик ҳажмли хомаки расм бажариб кўрилади. Чизилган эскизлардан энг му ваффақиятлисини танлаб олиб, шу асосда катта асосий вазифани тасвирлаш бошланади.

АДАБИЁТЛАР:

1. Boltabayevich, B. B., & Shodievna, B. O. (2020). Individual Approach To The Formation Of Artistic And Creative Talents Of Students In Art Schools. <http://www.usajournalshub.com/index.php/tajssei>. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 2(08), 637-642.
2. Boltabayevich, B. B, & Pardaboy, K. (2020). Scientific and theoretical aspects of the formation of compositional abilities of students in painting Turkish Journal of Physiotherapy and Rehabilitation; 32(3) ISSN 2651-4451 | e-ISSN 2651-446X www.turkjphysiotherrehabil.org 30494 classes. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 8(3).
3. Botir Boltabayevich Baymetov. Technologies Of Moving Images Of People From Different Views In Fine Arts Lessons. The American Journal of Social Science and Education Innovations. The American Journal of Social Science and Education Innovations (ISSN – 2689-100x) Published: January 31, 2021. Стр. 463-468 Turkish Journal of Physiotherapy and Rehabilitation; 32(3) ISSN 2651-4451 | e-ISSN 2651-446X www.turkjphysiotherrehabil.org 30495
4. Botir Boltabaevich Baymetov. oliy pyedagogik ta'limda bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishning ba'zi masalalari. academic research in educational sciences volume 2 | issue 1 | 2021. 277-283 бетлар.
5. BB Baymetov, XX Muratov. Tasviriy san'atdan amaliy mashg'ulotlarida talabalarning tasvirlash mahoratlarini takomillashtirish texnologiyalari. Science and Education, 2021. 349-354.
6. Мукаддам Тожикузи кизи Хамрокулова, Рашид Нейматович Зульфиев, Ботир Болтабаевич Байметов. Теория и практика преподавания академического рисунка в подготовке будущего художника педагога. Science and education scientific journal. 2020/12. Том 1. Номер 9. стр 364-372.
7. Ulfat Shuxratovich Ismatov Botir Boltabaevich Baymetov. Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida talabalarini bosh namunasini tasvirlashga

o'rgatish orqali tyexnik mahoratlarini takomillashtirish. 2020/11. "Science and Education" Scientific Journal November 2020 / Volume 1 Issue 8 Страницы 476-484

8. Laylo Mirsoatova Botir Boltabayevich Baymetov. Oliy pyedagogik ta'limda inson qomatini tasvirlashning nazariyasi va myetodikasi.2020/11 "Science and Education" Scientific Journal November 2020 / Volume 1 Issue 8. Страницы 467-475

9. Shoxidahon Odiljonovna Botirova Boltabaevich Baymetov. Theoretical foundations of coloring in the organization of fine arts classes.2021/4. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal <https://saarj.com>. Том 11, номер 4, Страницы 775-782. Turkish Journal of Physiotherapy and Rehabilitation; 32(3) ISSN 2651-4451 | e-ISSN 2651-446X www.turkjphysiotherrehabil.org 30497

10. Bobur Abdugani Ogli Nabiyeu Botir Boltabayevich Baimetov. Technologies for Improving the Composition of Students in the System of Higher Pedagogical Education 2021/4. The American Journal of Social Science and Education Innovations. Номер 03. Страницы 64-70

11. Pardaboy Khudoyberdiev Baimetov Botir Boltabayevich Use The Theoretical Foundations Of Color Science In Teaching Students To Work With Educational Productions From Painting.2021/3. The American Journal of Social Science and Education Innovations. Номер 03. Страницы 330-337.

12. Muxiddin Sharipjonov Botir Baymetov. Oliy pedagogik ta'limda talabalarga inson qiyofasini amaliy tasvirlash jarayonida ijodiy kompyetyensiyalarini rivojlantirish. 2021. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES. Том 2. Номер 3. 1066-1070.

13. Iqboloy Ibrahimova Botir Boltabaevich Baymetov. Technologies for using fine arts in developing students' artistic imagination. 2021/4. Asian Journal of Multidimensional. Research (AJMR) <https://www.tarj.in>. Том 10.4. 544-551.

UDK: 338.502.52(075)

**OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNI IJTIMOIIY-IQTISODIY
ASOSLASH**

O'taganov Fazliddin Isroil O'g'li QDTU magistranti

**СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЕ ЗАМЕЩЕНИЕ
ПРОДОВОЛЬСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ**

Утаганов Фазлиддин Исроил Угли, магистрант Каршинского
государственного технического университета

SOCIO-ECONOMIC SUBSTITUTION OF FOOD SECURITY

Otaganov Fazliddin Isroil Ogli
master's student of Karshi State Technical University

Аннотация. Ushbu maqolada: Butun dunyoda oziq – ovqat muammosi va O'zbekiston xalqi o'zini o'zi oziq – ovqat bilan ta'minlashi va boshqa davlatlarga eksport qilishi uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Maqolaning asl mohiyati shundan iboratki, tashlan-diq yerlardan qancha unumni foydalanish va u yerlardan foyda olish oziq – ovqat bilan ta'minlash kerakligi aytib o'tilgan.

Калит so'zlar: Oziq – ovqat, YuNEP, COVID-19, FAO, “Rim deklaratsiyasi”, Milliy iqtisodiyot BMT – Birlashgan Millatlar Tashkiloti, YaIM, YaQQ, G'allachilik, Poliz mahsulotlari, Oziq – ovqat, ichimliklar, Jadval ko'rsatkichlari, Sitatistikalar, Ishlab chiqarish mahsulotlari, Qishloq xo'jalik mahsulotlari.

Аннотация. В статье: Продовольственная проблема в мире и создание всех условий для того, чтобы народ Узбекистана мог обеспечить себя продовольствием и экспортировать его в другие страны. Суть статьи в том, что в ней утверждается необходимость максимально использовать потенциал пустыни и обеспечить ее продовольствием и водой для извлечения из нее пользы.

Ключевые слова: Продовольствие, ЮНЕП, COVID-19, FAO, «Римская декларация», Национальная экономика ООН - Организация Объединенных Наций, ВВП, ВНП, Зерно, Бахчевые продукты, Продукты питания, напитки,

Табличные показатели, Статистика, Промышленная продукция, Сельскохозяйственная продукция.

Abstract. This article: The world is facing a food crisis and all the conditions have been created for the people of Uzbekistan to be self-sufficient in food and export it to other countries. The essence of the article is that it is necessary to use the productive potential of abandoned lands and benefit from them in order to provide food.

Key words: Food, UNEP, COVID-19, FAO, "Rome Declaration", National Economy UN - United Nations, GDP, GNP, Grain, Melon products, Food, beverages, Table indicators, Statistics, Industrial products, Agricultural products.

1. KIRISH.

Yer yuzi aholisi hayot faoliyati sifati har jihatdan sifatli oziq-ovqat bilan qay da-rajada ta'minlanganligiga bog'liq. Har bir mamlakat o'zining iqlimiy sharoiti, yer unumdorligi, intensiv qishloq xo'jaligi, sanoatning rivojlanganlik darajasiga qarab bu muammoni turli usullar orqali hal qilmoqdalar. Ammo shunda ham iqtisodiyoti qoloq, aholi soni yuqori mamlakatlar oziq-ovqat taqchilligi muammosini to'la to'kis hal eta olishmayapti. Buning oqibatida esa insonlarda to'yib ovqatlanmaslik, ochlik, kambag'allik, qashshoqlik ko'rsatkichlari o'sib bormoqda. Ko'rsatkichlarga nazar tashlasak, jahon aholisining 815 million nafari ocharchilikdan qiynalmoqda. Bugungi kunga kelib COVID-19 pandemiyasi tufayli ular soni ikki barobarga oshis-hi kutilmoqda. O'zbekiston global oziq-ovqat xavfsizligi reytingida 80-o'rindan 71-o'ringa yuqoriladi. O'zbekiston ocharchilik darajasi bo'yicha 2019-yilda global ochlik indeksida 10,7 ball bilan 49-o'rinni egallagan bo'lsa, 2020-yilda ushbu indeksda 107 mamlakat ichida 6,7 ball bilan 30-o'ringa ko'tarildi. Masalaning yana bir tomoni qishloq xo'jaligi dunyodagi eng katta ish beruvchi tarmoqdir. Bugun dunyo aholisining 40 foizi aynan shu soha orqali tirikchilik qiladi

2. TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Mavzu yuzasidan ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishda kuzatish, solishtirish, suhbat, anketa so'rovlari kabi tadqiqot usullaridan foydalanildi.

3. ASOSIY TAHLIL VA NATIJALAR.

Davlatning iqtisodiy xavfsizligi turlari orasida oziq-ovqat xavfsizligi milliy


xavfsizlikning ajralmas qismi sifatida alohida o‘rin tutadi. Insoniyat tarixi davomida oziq-ovqat ta‘minoti dunyo davlatlari milliy xavfsizligining eng dolzarb muammolaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Ma‘lumotlarga ko‘ra, dunyoda har yili 4 mlrd. tonna oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqariladi. BMTning atrof-muhit bo‘yicha tashkiloti(YuNEP) ma‘lumotlariga ko‘ra, har yili dunyoda 1,3 mlrd.tonna oziq-ovqat mahsulotlari tashlab yuboriladi. Mamlakatimiz hududining 85 foizi cho‘l hamda yarimcho‘l yerlari-dan tashkil topgan. Bugungi kunda aholi ixtiyorida 480 ming gektardan ortiq tomorqa ekin maydonlari mavjud. Mutaxassislarning ta‘kidlashicha, insonning normal ovqatlanishi uchun har bir kishiga o‘rtacha yillik 113 kg sabzavot, 50,4 kg kartoshka, 19,3 kg poliz, 21,3 kg meva va uzum, 40 kg go‘sht, 140litr sut, 121 dona tuxum, 0,8 kg asal kabi mahsulotlar talab qilinadi.

Milliy iqtisodiy tizimning tegishli rivojlanish darajasi aholining normal yashash sharoitlarini saqlab qolish qobiliyatini, umuman iqtisodiyotni rivojlantirish uchun resurslarni barqaror ta‘minlashni, shuningdek milliy va davlat manfaatlarini izchil amalga oshirishni belgilaydi. Aholining ovqatlanish darajasi va sifati uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini tavsiflaydi, chunki “... oziq-ovqat ishlab chiqarish to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlab chiqaruvchilar va umuman har qanday ishlab chiqarish jarayonining birinchi shartidir ...”.

Oziq-ovqat xavfsizligi atamasi xalqaro muomalaga 1972–1973-yillarda yuz bergan don inqirozidan keyin kirib keldi. Bu davrda rivojlangan mamlakatlarda ortiqcha oziq-ovqat ishlab chiqarish yuzaga kelgan. Bu muammo jahon hamjamiyatida muhokama qilina boshlangan. Bu muhokamalar zamirada 1974-yil-ning dekabr oyida bo‘lib o‘tgan uchinchi dunyo mamlakatlarida aholi o‘rtasida ocharchilik vujudga kelishini oldini olish yuzasidan BMT Bosh Assambleyasida Birlashgan Millatlarning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan “Jahonda oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha Xalqaro majburiyatlar” ma‘qullandi. Ammo bu hujjatda oziq-ovqat xavfsizligi atamasiga ta‘rif berilmagan.

Oziq-ovqat xavfsizligiga oid ilmiy adabiyotlarni o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, bu tushuncha birinchi marta o‘tgan asrning 70-yillarida iste‘molga kirib kelgan. Keyinchalik bu tushuncha ma‘no jihatdan kengayib bordi. Bu borada oziq-ovqat xavfsizligi kontsepsiyasining evolyutsiyasini ko‘rib chiqish bu borada kengroq



davriy tushunchaga ega bo‘lishimizga yordam beradi(1-ilova).

1996-yilning noyabr oyida bo‘lib o‘tgan oliy darajadagi Rim xalqaro uchrashuvida “Butun dunyo oziq-ovqat xavfsizligi bo‘yicha Rim deklaratsiyasi” qabul qilingan. Ushbu deklaratsiya har kimning yashash va munosib ovqatlanish huquqi ga muvofiq salomatligi uchun xavfsiz va to‘laqonli oziq-ovqat mahsulotlariga erishish huquqiga ega ekanligi tasdiqlangan. Shu yilda bo‘lib o‘tgan Oziq-ovqat xavfsizligi bo‘yicha butunjahon sammitida Jahon banki taklif etgan ta‘rifga ko‘ra “barcha insonlarning faol va sog‘lom turmush tarzi kechirishi uchun, o‘zlarining ehtiyojlariga mos, yetarli hajmdagi, xavfsiz va to‘yimli oziq-ovqatlarni har doim olishga jismoniy va iqtisodiy jihatdan qurlari yetishi – oziq-ovqat xavfsizligini anglatadi. FAO ta‘rifiga tayanib ta‘kidlanishicha, “oziq-ovqat xavfsizligiga erishish, bu barcha insonlarning xohlagan vaqtda jismoniy, ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan yetarli miqdorda xavfsiz ozuqaviy mahsulotlar bilan ta‘minlanishini anglatadi. Ushbu mahsulotlar shaxsni fiziologik me‘yorlar bo‘yicha qoniqtirishi, uning xohish-istagiga mos kelishi va faol sog‘lom turmush tarzini shakllantirishi shart.

2001-yilda oziq-ovqat xavfsizligi g‘oyasiga moddiy va iqtisodiy imkoniyat-dan tashqari ijtimoiy imkoniyat tushunchasi ham qo‘shildi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti” (FAO) belgilagan tushuncha mazkur qo‘shimcha jihatni quyidagicha aks ettiradi: “barcha odamlarda o‘z oziqlanish ehtiyojlari va shaxsiy xohishlariga binoan hamda faol va sog‘lom hayotni ta‘minlash uchun yetarli miqdorda xavfsiz va to‘yimli oziq-ovqat mahsulotlariga ega bo‘lishi uchun jismonan, iqtisodiy va ijtimoiy imkoniyatlari mavjudligi oziq-ovqat xavfsizligi ta‘minlandi deganidir”.

O‘zbekiston Respublikasi oziq-ovqat iste‘moli darajasi, avvalo, mamlakat aholi demografiyasi holati bilan bog‘liqdir. Aholining yoshi va jins tarkibining holati va o‘zgarishiga qarab oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan umumiy talab shakllanadi.

Jadval ko‘rsatkichlari yordamida quyidagi dinamikaga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak (1-rasm), 2000-yildan 2009-yillar oralig‘ida yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsuloti stabil tendensiyada o‘sgan bo‘lsa 2009–2020-yillarda o‘shish sur‘ati jadallashganini buning natijasida esa yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari miqdori 2017–2018-yillarda 10, 11 barobarni tashkil etganini ko‘rishimiz mumkin. Bunday o‘shish sur‘atini qishloq xo‘jaligi ekin maydonlari gektarini oshganligi

hamda bu sohaga ajratilayotgan investitsiyalar miqdori va eksport ko‘lami bilan izohlash mumkin.


1-jadval

O‘zbekiston Respublikasi aholi soni va yetishtirilayotgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari o‘shish sur‘ati

Hududlar	Yillar	Qishloq xo‘jaligi yalpi mahsuloti, (mln. so‘m)	Aholi soni (mln. kishi)	Yqsh/aholi	O‘shish sur‘ati
O‘zbekiston Respublikasi	2000	1 387 245,80	24487,7	56,65071852	–
	2001	2 104 835,00	24813,1	84,82757092	0,281768524
	2002	3 255 324,10	25115,8	129,6125984	0,447850275
	2003	4 083 339,90	25427,9	160,5850228	0,309724243
	2004	4 615 816,00	25707,4	179,5520356	0,189670129
	2005	5 978 337,90	25707,4	232,5531909	0,530011553
	2006	7 538 774,60	26312,7	286,5070707	0,539538798
	2007	9 304 857,80	26663,8	348,9696817	0,62462611
	2008	11 310 718,10	27072,2	417,7982617	0,688285799
	2009	13 628 632,30	27533,4	494,9854468	0,771871851
	2010	32 746 521,90	28001,4	1169,460166	6,744747195
	2011	48 068 344,80	29123,4	1650,505944	4,810457774
	2012	58 549 266,90	29555,4	1981,00066	3,304947161
	2013	69 391 323,40	29993,5	2313,545381	3,325447217
	2014	85 101 685,70	30792,8	2763,6878	4,501424189
	2015	103 301 974,90	31022,5	3329,904905	5,662171041
	2016	119 726 684,80	31575,3	3791,78297	4,618780651
	2017	154 369 402,70	32120,5	4805,946442	10,14163473
	2018	195 095 553,20	32656,7	5974,135574	11,68189132
	2019	224 265 855,60	33255,5	6743,722259	7,695866855
2020	260 306 815,00	34000,8	7655,902655	9,121803958	

Innovation House





1-rasm. O‘zbekiston Respublikasi aholi soniga mos ravishda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari o‘shish dinamikasi
alpi ichki mahsulotda qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaliklarining ulushining o‘shishi dinamikasi (2-jadval).

2-jadval
2016–2020-yillarda qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YaIM ishlab chiqarishdagi ulushi

		YaIM	Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi
Mird. So‘m	2016-yil	198871,6	32276,8
	2017-yil	249136,4	43149,8
2016-yilga nisbatan % hisobida		105,3	102,0
YaIM (YaQQ) o‘shishida tarmoqning hissasi		5,3	0,4
2018-yil	Mird. So‘m	406 648,5	113 680,7
	O‘shish sur‘ati	105,4	100,3
2019-yil	Mird. So‘m	510 117,2	130 306,9
	O‘shish sur‘ati	105,8	103,1
YaIM (YaQQ) o‘shishida tarmoqning hissasi		5,8	0,9
2020-yil	Mird. So‘m	580 203,2	151 251,0
	O‘shish sur‘ati	101,6	103,0
YaIM (YaQQ) o‘shishida tarmoqning hissasi		1,6	0,8
2019-yil yanvar–mart	Mird. So‘m	93036,3	11858,0
	O‘shish sur‘ati	106,0	102,4
2020-yil yanvar–mart	Mird. So‘m	112503,3	14717,5
	O‘shish sur‘ati	104,6	103,9
2021-yil yanvar–mart	Mird. So‘m	128556,8	17440,1
	O‘shish sur‘ati	103,0	103,1

2017-yilda 2 % o‘shish sur‘atini tashkil etib YaIM tarkibidagi ulushi 19,2 %ni tashkil etgan bo‘lsa, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarmog‘idagi o‘shish sur‘ati hisobidan YaIMning 0,4% punktga nisbatan o‘shishi taminlangan. 2019-yilda 0,3 %dan 2020-yil 0,8 %ga pasayishi kuztilgan. 2021-yil yanvar – mart oylari yakunlariga ko‘ra, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 3,1 % darajasida ijobiy o‘shish qayd etildi. Ushbu tarmoqda ijobiy o‘shish sur‘atlari dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishning 5,0 % ga (2020 yilning yanvar-martida – 6,4 % ga o‘shish, 2019-yilning yanvar-martida – 0,6 % ga o‘shish) va chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishning 3,0 % ga o‘shish (2020-yilning yanvar-martida – 3,6 % ga o‘shishi, 2019-yilning yanvar-martida – 3,4 % ga o‘shishi) bilan bog‘liq.

Oziq-ovqat ta‘minoti va xavfsizligi birinchi navbatda agrar sektorning salohiyatiga tayanadi. Garchi 2000-2020-yillarda qishloq xo‘jaligi yalpi mahsulotining mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi salmog‘i 34,4 dan 28,2, qishloq xo‘jaligi yalpi mahsulotining o‘tgan yillarga nisbatan yillik o‘shish sur‘atlari 3,1 dan 2,8 %gacha pasaygan bo‘lsada, agrar sektor hamon mamlakat iqtisodiyotining yirik tayanch tarmoqlaridan biri bo‘lib qolmoqda

4. XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, Islohotlar natijasida respublikada parranda go‘shiti, tuxum, baliq, guruch mahsulotlari bilan ta‘minlash darajasi ancha yaxshilandi.

Misol uchun, so‘nggi 3 yilda:

- baliq yetishtirishni Andijon 4 ming tonnadan 25 ming tonnaga, Buxoro 3,5 ming tonnadan 23 ming tonnaga oshirgan;

- parranda go‘shitini Samarqand 22 ming tonnadan 100 ming tonnaga, Toshkent viloyati 31 ming tonnadan 90 ming tonnaga yetkazgan;

- tuxum ishlab chiqarishni Sirdaryo 127 million donadan 200 million donaga, Namangan 480 million donadan 700 million donaga, Farg‘ona 350 million donadan 600 million donaga ko‘paytirib, to‘liq o‘zini-o‘zi ta‘minlayapti.

Ta‘kidlash joizki, ichki bozorni oziq-ovqat bilan to‘ldirish, ularni ishlab chiqarish sohasida o‘z-o‘zini ta‘minlashga erishish va oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash O‘zbekiston iqtisodiyotining muhim sektori hisoblangan qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Chunki O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotning yetakchi tarmog‘i sanaladi. Shu

jihtadan O‘zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash uchun qishloq xo‘jaligida yer va suv resurslaridan unumli, samarali foydalanishni ta‘minlashga qaratilgan qonunchilikni yanada mustahkamlash, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ulushining yuqori bo‘lishiga erishish zarur.

O‘zbekistonda aholining oziq-ovqat hamda qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga bo‘lgan extiyojlarni to‘la qondirish, oziq-ovqat bozoridagi barqarorlikni ta‘minlash yo‘lida faoliyat yuritadigan muhim tarmoq – agrar sohasida islohotlarni yanada chuqurlashtirish masalasiga katta e‘tibor qaratilmoqda.

Qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash oziq-ovqat mahsulotlari yetkazilishida ichki bozorni zarur mahsulotlar bilan to‘ldirish va tashqi bozorlarda raqobatbardoshlik salohiyatini ro‘yobga chiqarish imkonini beradi va o‘z navbatida aholining ovqatlanish ratsionida xilma-xillikni ta‘minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Asosiy adabiyotlar

- 1 Abdug'aniyev A., Abdug'aniyev A.A. Agrar siyosat va oziq-ovqat xavfsizligi - (darslik)- T.: TDIU, 2004. - 304 bet.
- 2 Abdug'aniyev A., Avdug'aniyev A.A. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. Darslik. -T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006 yil. -288 bet.
- 3 Abdug'aniyev A., Abdug'aniyev A.A. - Qishloq xo'jalik iqtisodiyoti. Darslik. -T.: TDIU, 2004. - 304 bet.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Iqtisodiyotning agrar sektori. T.Jo'rayev, Sh. Allayarov, X.Asatullayev, T. Umarov, Ma'ruzalar matni. -T.: TIM, 2012
2. Salomov T. Hamdamov Q.S. Tursunxo'jayev T.L., To'raxo'jayev T.I., Hakomov R.X., O'roqov N.I., Aripov I.M., Jahon qishloq xo'jaligi. O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2004. - 128 b.
3. Hakimov R. Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti, -T.: MCHJ “RAM-S”, - 2007. 367 b.
4. Hakimov R., Otaqulov M., Yusupov E., Yusupov M., Agrosanoat majmui iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2004. - 160 b.

**QO‘QON XONLIGI DAVRIDAGI XALQ SAN‘ATINING MADANIY
AHAMIYATI VA MUZEYLASHTIRISH MASALALARI**

Madraximova Gulshanoy Sotiboldieva

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi Milliy iftixor va harbiy
vatanparvarlik kafedrası professori

**КУЛЬТУРНОЕ ЗНАЧЕНИЕ НАРОДНОГО ИСКУССТВА В ЭПОХУ
КУКОНСКОГО ХАНСТВА И ВОПРОСЫ МУЗЕИЗАЦИИ**

Мадрахимова Гульшаной Сотиболдиевна

Профессор кафедры национальной гордости и воинского патриотизма
Академии Вооруженных Сил Республики Узбекистан

**CULTURAL SIGNIFICANCE OF FOLK ART IN THE ERA OF THE
KUKON KHANATE AND THE ISSUES OF MUSEUMIZATION**

Madrakhimova Gulshanoy Sotiboldieva

Professor of the Department of National Pride and Military Patriotism of the
Academy of the Armed Forces of the Republic of Uzbekistan

Annotatsiya: Ushbu maqolada **Qo‘qon xonligi davridagi xalq san‘atining madaniy meros sifatida ahamiyati va uni muzeylashtirish masalalari** haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, muzeylashtirish jarayonida mahalliy va xalqaro hamkorlikni o‘rni tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: xalq amaliy san‘ati, muzeylashtirish, to‘qimachilik, dastgoh, , marmar, yog‘och, keramika, ipak, beqasam, banoras, shoyi, nimshoyi, atlas, adras, mato.

Аннотация: В статье рассматривается значение народного искусства периода Кокандского ханства как культурного наследия и вопросы его музеефикации. Также анализируется роль местного и международного сотрудничества в процессе музеефикации.

Ключевые слова: народно-прикладное искусство, музеефикация, текстиль, ткацкий станок, мрамор, дерево, керамика, шелк, бекасам, банорас, шойи, нимшойи, атлас, адрас, ткань.

Abstract: This article discusses the importance of folk art of the Kokand Khanate as a cultural heritage and the issues of its museumization. In addition, the role of local and international cooperation in the museumization process is analyzed.

Keywords: folk applied art, museumization, textiles, loom, , marble, wood, ceramics, silk, beqasam, banoras, shoyi, nimshoyi, atlas, adras, fabric.

Kirish. Madaniy meros turli tarixiy davrlarda doimo avlodlarning mafkuraviy taraqqiyotiga poydevor, bilimlar manbai, tarbiya va ta'lim vositasi bo'lib xizmat qilib kelgan. Xususan, asrlar davomida shakllangan o'zbek xalqining madaniy va moddiy merosi jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotida xalqlararo madaniy ko'prik vazifasini bajarishda ajralmas qismi hisoblanadi¹.

Mamlakatimizda muzeylar faoliyati va muzey ishini tizimli rivojlantirish bo'yicha belgilangan vazifalar doirasida bir qancha dasturlar qabul qilingan. Ularda xalqaro aloqalarni, o'zaro foydali hamkorlikni rivojlantirish, O'zbekistonda va xorijda keng ko'rgazma faoliyati orqali mamlakat boy tarixi, bugungi yutuqlarini dunyo jamoatchiligiga tanitish, muzeylarda saqlanayotgan noyob eksponatlarni jahon miqyosida targ'ib etish kabi vazifalarni amalga oshirish ko'zda tutilgan. Shuningdek, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev "...mamlakatimiz muzeylarida saqlanayotgan tarixiy eksponatlarni to'liq xatlovdan o'tkazish, har bir muzeyning katalogini yaratish lozim"², deya muzey kolleksiyalarini komplektlash mazkur sohadagi eng dolzarb vazifalardan ekanligini ta'kidlab o'tgandilar.

O'zbekiston tarixida Qo'qon xonligi yirik madaniy va siyosiy markazlardan biri sifatida alohida o'rin olgan. Xonlik davrida yaratilgan san'at, arxitektura, hunarmandchilik va adabiyotlar jahon madaniyatida o'ziga xos iz qoldirdi. Qo'qon xonligining san'ati, asosan, diniy va ijtimoiy hayotning chuqur tasviri va tahlilidir.

Qo'qon xonligi xalq amaliy san'ati, masalan, naqshli gilamlar, keramika buyumlar, to'qimachilik va zargarlik an'analari o'zining nafisligi va chiroyli ko'rinishga egaligi bilan ajralib turgan.

San'at va madaniyatning o'rni va tarixiy merosga qo'shgan hissasi, faqat estetik yoki bezak elementlari bilan cheklanmaydi. Ular o'sha davrning hayot tarzini, dunyoqarashini, iqtisodiy va ijtimoiy holatini, shuningdek, ilm-fan va diniy ta'limotlarning rivojlanishini ham yoritadi. Qo'qon xonligining san'ati nafaqat

¹ <https://yuz.uz/uz/news/yangi-ozbekistonda-moddiy-madaniy-meros-va-muzeylar-istiqboli>.

² Shavkat Mirziyoevning 2018 yil 28 dekabrda Oliy Majlis qonunchilik palatasiga qilgan Murojaatnomasi.



hududiy, balki butun markaziy Osiyo va Islom dunyosidagi madaniy merosni boyitdi.

Mazkur maqolada Qo‘qon xonligi san‘atini muzeylashtirish jarayonining ahamiyati, uning tarixiy, madaniy va ilmiy jihatlari yoritiladi. Qo‘qon xonligi san‘ati, uning asarlarini saqlash, tadqiq qilish va kelajak avlodlarga yetkazish bugungi kunda katta ahamiyatga ega. San‘atni muzeylashtirish, faqat tarixiy obidalarni saqlash emas, balki o‘sha davrning ijtimoiy, diniy, iqtisodiy va madaniy holatini chuqur tushunish imkoniyatini yaratadi.

Qo‘qon xonligi davridagi to‘qimachilik san‘atiga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, ushbu san‘at turi nafaqat o‘zgacha naqshlar, balki matolarning yuqori sifatiga ham ega bo‘lib, xonlikning ijtimoiy hayotini aks ettirgan. Qo‘qon shahridagi ayollar tomonidan to‘qilgan gilamlar, matolar va kiyim-kechaklar, san‘atshunoslar tomonidan yuqori baholanadi. Bu to‘qimachilik buyumlari bir vaqtning o‘zida amaliy va estetik qiymatga ega bo‘lgan.

XIX asrda Qo‘qon xonligida abr gazlamalarini to‘qishda har xil ranglar ishlatilgan. Bu juda murakkab va ko‘p mehnat talab qiluvchi jarayon bo‘lib, undan asosan atlas to‘qishda foydalanganlar. Atlasning (arab-tekis, silliq) tanda ipi va arqog‘i ham tabiiy ipakdan to‘qilgan. Tanda ipi abrbandi usulida bo‘yalib, alohida ishlov berilgan. To‘rt tepkili atlas to‘rt tepkili dastgohda, sakkiz tepkili atlas sakkiz tepkili dastgohda to‘qilgan. Marg‘ilon atlasiga ehtiyoj katta bo‘lgan. XIX asr o‘rtalarida poytaxt bozorida 12 arshin atlas 7-8 rublga baholangan³.

Qo‘qon xonligi hunarmandchiligining rivojlanishida Marg‘ilon shahrida ishlab chiqarilgan ipak matolar alohida ahamiyatga ega bo‘lgan. Ayniqsa, Marg‘ilonda abr (forscha-bulut, bulutsimon) nusxali matolar engil, nafis va ranglarining tiniqligi bilan ajralib turgan⁴. Bundan tashqari, ipakdan beqasam, banoras, shoyi, nimshoyi, atlas, adras kabi matolar ham to‘qilgan. Matolarga gul bosishda tabiiy bo‘yoqlardan foydalanilgan. Qadimiy an‘analardan hisoblangan matoga qolip bilan gul bosish usuli saqlanib qolgan. Bu erda ishlab chiqarilgan adras tabiiy ipakdan, arqog‘i yo‘g‘on ipdan to‘qilgan. Arqog‘i ipi qalin bo‘lganligi sababli matoning yuzasida ko‘ndalang chiviqlar paydo bo‘lgan.

³ ЎзР МДА, И. 23- жамг‘арма, 1-рўйхат, 1398-иш, 1-в.

⁴ Исмоилова Ж. XIX–XX асрлар Марг‘илон либослари // Мозийдан садо. 2007. – № 3. – Б. 44. Ўша муаллиф: XIX аср охири– XX аср бошларида Фарг‘она водийсида ҳунармандчилик тараққиёти // «Фарг‘она водийси тарихи янги тадқиқотларда». Республика илмий анжуман материаллари. – Б. 272.

Xonlik aholisining asosiy mashgʻulotlaridan biri, yuqorida aytilganidek ipakchilik boʻlib, ipak va ipak matolar mamlakatning tashqi savdodagi asosiy mahsulotlaridan biri edi. XIX asr 60-yillari oxirlarida, Qoʻqon va Margʻilonning oʻzida toʻqqiz yuzga yaqin xonadon ipakchilik bilan shugʻullangan boʻlib, har bir oilada 1 tadan 3 tagacha toʻquv dastgohi bor edi⁵.

Qoʻqon xonligi xalq san'ati nafaqat Oʻzbekiston, balki butun Markaziy Osiyoning madaniy merosining muhim qismidir. Shu sababli, uni saqlash va muzeylashtirish jarayoni alohida ahamiyatga ega. Muzeylashtirish jarayoni ancha murakkab boʻlib bu yoʻnalishda bir muncha qiyinchiliklar va muammolar ham mavjud.

Muzeylashtirishning eng asosiy maqsadi - tarixiy san'at asarlarini saqlash va ularni keyingi avlodlarga yetkazishdir. Qoʻqon xonligining san'ati va madaniy merosi, oʻzining noan'anaviy me'morchiligi, naqshli buyumlari va amaliy san'ati bilan oʻziga xosdir. Bu san'at asarlari nafaqat estetik qiymatga ega, balki oʻz davri va mintaqaning diniy, ijtimoiy, va iqtisodiy hayotini aks ettiradi. Ushbu san'at asarlarini muzeylarda saqlash orqali ular kelajak avlodlarga oʻrganish va qadrlash imkoniyatini yaratadi.

Muzeylar orqali bu san'at asarlari ilmiy tadqiqotlar uchun ham muhim manbaga aylanadi. Tarixchilar, san'atshunoslar va arxeologlar bu asarlarni oʻrganish orqali oʻsha davrning madaniy va tarixiy jarayonlarini chuqur tushunishga yordam beradi. Shuningdek, muzeylashtirish san'at asarlarini yoʻqolishdan himoya qilish, oʻsha davrni oʻziga xos tarzda namoyish qilishga imkon yaratadi.

Hozirgi davrda Qoʻqon xonligiga oid **madaniy merosni himoya qilish boʻyicha koʻplab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda**. Qoʻqon xonligi san'atini muzeylashtirish nafaqat uni saqlash, balki madaniy merosni himoya qilishning bir shaklidir. Bu san'at asarlari nafaqat milliy, balki xalqaro ahamiyatga ega. Madaniy merosni saqlash jarayonida uni barqaror ravishda himoya qilish, zarur konservatsiya ishlari, ilmiy izlanishlar va texnologik yangiliklarni joriy etish zarur. Bu borada ilmiy tadqiqotlar olib borish, san'at asarlarini saqlash va ularning tarixini oʻrganish, ularning asl holatini tiklashda muhim ahamiyat kasb etadi.

⁵ Мадраҳимов З.Ш. Қўқон хонлигида савдо муносабатлари. Тарих фан. ном. дисс. ... – Тошкент: ЎзМУ, 2009. – Б. 35.



Muzeylar o‘z faoliyatini tashkil etishda tadqiqotlar olib borish, ilmiy konferensiyalar tashkil etish va xalqaro simpoziumlarga mezbonlik qilish orqali madaniy merosni global darajada tanitishga hissa qo‘shadi. Shuningdek, Qo‘qon xonligi davridagi xalq san‘atini jahon madaniyati rivojida o‘z o‘rnini borligini ta’kidlash zarur.

San‘at asarlarini muzeyda saqlash, texnik jihatdan murakkab jarayon bo‘lib, ko‘plab qiyinchiliklarga duch keladi. Qo‘qon xonligi san‘ati ko‘plab tabiiy materiallardan, masalan, g‘isht, marmar, yog‘och, keramika va boshqa organik va noorganik materiallardan ishlab chiqarilgan. Bu materiallar vaqt o‘tishi bilan eskirishi, zarar ko‘rishi yoki degradatsiyaga uchrashi mumkin.

Qo‘qon xonligi san‘atini muvaffaqiyatli muzeylashtirish va saqlash uchun mahalliy va xalqaro hamkorlikning o‘rni katta. Mahalliy tarixchilar, san‘atshunoslar, arxeologlar va konservatorlar bilan hamkorlik qilish, san‘at asarlarini saqlash bo‘yicha ko‘plab tajriba va ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishga imkon beradi. Mahalliy jamoalar bilan ishlash orqali san‘at asarlarini saqlashning ijtimoiy ahamiyatini oshirish mumkin.

Xalqaro hamkorlik ham juda muhimdir. Xalqaro tashkilotlar, masalan, UNESCO, ICOM⁶ (Xalqaro Muzeylar Kengashi) va boshqa madaniy merosni saqlashga qaratilgan tashkilotlar bilan hamkorlik Qo‘qon xonligi san‘ati muzeylashtirilishida katta ahamiyatga ega. Xalqaro tajriba almashish va ilmiy izlanishlar orqali san‘at asarlarini saqlash innovatsion texnologiyalarni joriy qilish, global miqyosda san‘at asarlarini tanitish imkoniyatlarini yaratadi.

Qo‘qon xonligi san‘atini muzeylashtirishning asosiy yo‘nalishlari:

Qo‘qon xonligi san‘ati muzeylashtirilganda, uning boy merosini saqlash va kelajak avlodlarga yetkazish uchun bir nechta asosiy yo‘nalishlar mavjud.

*Birinchi*dan muzeyda interaktiv yondashuv zarur: Muzeyda arxitektura obidalarining haqiqiy 3D tasvirlarini yoki modelini yaratish, tomoshabinlarga ularni yaqindan ko‘rish imkoniyatini yaratadi. Shuningdek, bu obidalarni virtual turlar yordamida interaktiv tarzda namoyish qilish mumkin.

*Ikkinchi*dan Qo‘qon xonligining xalq amaliy san‘ati o‘zining xilma-xilligi bilan mashhur. Keramika, to‘qimachilik va naqshli buyumlar Qo‘qonning madaniy

⁶ ICOM (International Council of Museums, ingl. ICOM) – nodavlat kasbiy xalqaro tashkilot 1946 yilda Parijda (Fransiya) tashkil topgan. <https://islomkarimov.uz/uz/news/ozbekistonda-muzeylar-ishining-hozirgi-holati-va-rivojlanish-istiqbollari-masalasiga-bagishlangan-davra-suhbati-bolib-otdi>.

hayotida katta ahamiyatga ega. Bu asarlarni muzeyda saqlash va namoyish qilish uchun turli usullarni qo'llash mumkin.

Qo'qonning to'qimachilik san'ati nafaqat amaliy, balki estetik jihatdan ham yuksak baholangan. To'qilgan gilamlar, matolar va kiyimlar, shuningdek, qadimiy naqshlar bilan bezatilgan buyumlar muzeyda alohida ekspozitsiyalarni tashkil etish uchun muhim manbalar hisoblanadi.

Uchinchidan Qo'qon zargarlik buyumlari, misol uchun, oltin, kumush va boshqa metallarni ishlash orqali yaratilgan nafis bezaklar, taqinchoqlar va qurollar hamda metall buyumlar muzeylarda namoyish etilishi mumkin.

Xulosa. Qo'qon xonligi san'ati va madaniyatini muzeylashtirish jarayoni madaniy, ilmiy va iqtisodiy jihatdan katta ahamiyatga ega. Bu jarayonni davom ettirish, san'at asarlarini saqlash va madaniy merosni kelajak avlodlarga yetkazish uchun saqlash va konservatsiya ishlarini modernizatsiya qilish zarur. Mahalliy va xalqaro hamkorlikni kengaytirish, yangi muzeylar tashkil etish va turizmni rivojlantirish Qo'qon xonligi san'ati va madaniyatini dunyo miqyosida tanitishga va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR:

1. Shavkat Mirziyoevning 2018 yil 28 dekabrda Oliy Majlis qonunchilik palatasiga qilgan Murojaatnomasi.
2. <https://yuz.uz/uz/news/yangi-ozbekistonda-moddiy-madaniy-meros-va-muzeylar-istiqboli>.
3. O'zR MDA, I. 23- jamg'arma, 1-ro'yxat, 1398-ish, 1-v.
4. Ismoilova J. XIX–XX asrlar Marg'ilon liboslari // Moziydan sado. 2007. – № 3. – B .44. O'sha muallif: XIX asr oxiri– XX asr boshlarida Farg'ona vodiysida hunarmandchilik taraqqiyoti // «Farg'ona vodiysi tarixi yangi tadqiqotlarda». Respublika ilmiy anjuman materiallari. – B. 272.
5. Madrahimov Z.Sh. Qo'qon xonligida savdo munosabatlari. Tarix fan. nom. diss. ... – Toshkent: O'zMU, 2009. – B. 35.
6. <https://isлом Karimov.uz/uz/news/ozbekistonda-muzeylar-ishining-hozirgi-holati-va-rivojlanish-istiqbollari-masalasiga-bagishlangan-davra-suhbati-bolib-otdi>.

Айрим хорижий давлатлар қонунчилигида тергов ва суд органлари фаолиятига тўсқинлик қилувчи одил судловга қарши жиноятлар учун жавобгарлик масалалари

Анорбоев Муроджон Раҳманқул ўғли Ўзбекистон Республикаси Хуқуқни муҳофаза қилиш академияси мустақил изланувчиси, ю.ф.ф.д., (PhD) адлия кичик маслаҳатчиси

Хорижий давлатларда тергов ва суд органлари фаолиятига тўсқинлик қилувчи жиноятлар мажмуаси ҳамда улар учун жавобгарлик ва жазо чораларининг хусусиятларини аниқлаш мамлакатимизга халқаро ва хорижий амалиётда қўлланилаётган ижобий тажрибаларни миллий ҳуқуқий базасига имплементация қилишга ёрдам беради. Бу одил судлов органларида адолат, ошкоралик, шаффофлик ва ҳисобдорликни таъминлаш учун муҳим аҳамиятга эга. Қолаверса, миллий ҳуқуқий базасини халқаро стандартларга мувофиқлаштириш мамлакатимизнинг глобал майдонда обрўсини ҳамда инсон ҳуқуқлари ва қонун устуворлиги жараёнларини янада ошириши ва мустаҳкамлаши мумкин. Шу сабабдан, тергов ва суд органлари фаолиятига тўсқинлик қилувчи одил судловга қарши жиноятлар учун жавобгарлик бўйича хорижий давлатларнинг тажрибасини ўрганиш ва таҳлил қилиш муҳим аҳамиятга эга.

Биз хорижий давлатларнинг ушбу масалада қонунчилик тажрибасини таҳлил қилган ҳолда, уларнинг тажрибасини бир неча жиҳатларини инобатга олган ҳолда тизимли таҳлил қилишга ҳаракат қиламиз.

Аввало, хорижий давлатлар жиноят қонунчилигида тергов ва суд органлари фаолиятига тўсқинлик қилувчи одил судловга қарши жиноятлар учун жавобгарлик белгиланган нормаларнинг тизимлаштирилиши эътибор қаратсак.

Жиноят қонунида нормаларни тизимлаштириш бўйича хорижий давлатларнинг тажрибаси бу борада уч хил ёндашув мавжудлигини кўрсатди.

Биринчи ёндашувга кўра, айрим давлатлар (Молдова, Украина, Қозоғистон) жиноят қонунчилигида нормалар жиноятларнинг умумий, турдош ва бевосита объектларини инобатга олган ҳолда тизимлаштирилган,

яъни ЖКнинг Махсус қисми боблар ва тегишли моддалардан иборат. Жумладан, биз таҳлил қилаётган жинойтлар Молдова ва Украинада ЖК Махсус қисми “Одил судловга қарши жинойтлар” деб номланган тегишли равишда 14 ва 18-бобида жойлаштирилган. Қозоғистонда эса, бундай жинойтлар “Одил судловга ва жазони ижро этиш тартибига қарши жинойий ҳуқуқбузарликлар” деб номланган 17-бобида жойлаштирилган.

Иккинчи ёндашувга кўра, айрим давлатлар (Арманистон, Беларусь Республикаси, Озарбайжон, Россия Федерацияси, шунингдек, Ўзбекистон) жинойт қонунчилигида нормалар жинойтларнинг умумий, махсус, турдош ва бевосита объектларини инобатга олган ҳолда тизимлаштирилган, яъни ЖКнинг Махсус қисми бўлимлар, боблар ва тегишли моддалардан иборат. Ушбу давлатлардаги умумий ёндашувга кўра, тергов ва суд органлари фаолиятига тўсқинлик қилувчи жинойтлар давлатга ҳамда ҳокимият ва бошқарувни амалга ошириш тартибига қарши барча жинойтларни бир гуруҳга бирлаштирган бўлимнинг “Одил судловга қарши жинойтлар” деб номланган битта бобида акс эттирилган. Жумладан, Озарбайжон ЖКнинг Махсус қисми 11-бўлими “Давлат ҳокимиятига қарши жинойтлар” деб номланган бўлиб, ушбу бўлим тўртта бобдан иборат: 31-боб – Конституциявий тузум асослари ва давлат хавфсизлигига қарши жинойтлар; 32-боб – Одил судловга қарши жинойтлар; 33-боб – Коррупция жинойтлари ва хизмат манфаатларига қарши бошқа жинойтлар; 34-боб – Бошқарув тартибига қарши жинойтлар.

Учинчи ёндашувга кўра, айрим давлатларда иккинчи ёндашув такомиллаштирилган ҳолда одил судловга қарши жинойтлар бўйича боблар янада ихтисослаштирилган, яъни гуруҳларга ажратилган (Қирғиз Республикаси) ёки бундай боблар алоҳида бўлим сифатида ягона тизимга жипслаштирилган (Грузия). Жумладан, Қирғиз Республикаси ЖК Махсус қисмининг “Давлат ҳокимиятига қарши жинойтлар” бўлими 5 та бобдан иборат бўлиб, шулардан учтаси одил судловга қарши жинойтларга бағишланган: суд ҳокимиятига қарши жинойтлар (43-боб), далилларни олишнинг процессуал тартибига қарши жинойтлар (44-боб), суд ҳужжатлари ва бошқа ижро ҳужжатларини ижро этишга қарши жинойтлар (45-боб). Грузияда одил судловга қарши барча жинойтлар “Суд ҳокимиятига қарши жинойтлар” деб номланган махсус 12-бўлимда тизимлаштирилган бўлиб, мазкур бўлим тўртта бобдан иборат: 1) суд органлари фаолиятига қарши

жиноятлар (41-боб); 2) далилларни олишнинг процессуал тартибига қарши жиноятлар (42-боб); 3) жиноятларнинг ўз вақтида бартараф этилиши ва фош этилишига қарши қаратилган ҳаракатлар (43-боб); 4) суд ҳужжатлари ижросига қарши жиноятлар (44-боб).

Биз учинчи ёндашувни мақсадга мувофиқ ва тўғри тизимлаштирилган, деб ҳисоблаймиз. Фикримизча, Ўзбекистонда одил судловга қарши жиноятларни тизимлаштиришда Қирғиз Республикаси ва Грузия каби давлатлар тажрибасидан фойдаланиш мумкин. Бунда, аввало, одил судловга қарши жиноятларни процессуал босқичлар кетма-кетлигини инобатга олган ҳолда бобларга ажратиш мақсадга мувофиқ. Шу мақсадда Ўзбекистон ЖК Махсус қисмида одил судловга қарши жиноятларни қуйидаги шаклда қайта тизимлаштириш таклиф этилади:

Бешинчи¹ бўлим. Одил судловга қарши жиноятлар

– XVI боб. **Жиноятларнинг ўз вақтида аниқланиши ва фош этилишига қарши жиноятлар;**

– XVI¹ боб. **Далилларни олиш ва исботлашнинг процессуал тартибига қарши жиноятлар;**

– XVI² боб. **Суд органлари фаолиятига қарши жиноятлар;**

– XVI³ боб. **Суд ҳужжатлари ва бошқа органлари ҳужжатларининг ижро этилишига қарши жиноятлар.**

Таъкидлаш зарурки, одил судловга қарши жиноятларни ихтисослашган бобларда батафсил таснифлаш тегишли жиноят учун жавобгарликнинг мақсади ва моҳиятини осон тушунишга ёрдам беради, шунингдек, мамлакатимизда одил судловга қарши янги ва пайдо бўлган таҳдидларни осонликча мослаштириш имконини беради. Ушбу мослашувчанлик ижтимоий муносабатлар жадал ривожланиб ва тез ўзгариб бораётган ҳуқуқий муҳитда муҳим аҳамиятга эга. Шунингдек, бундай ёндашув аниқлик, мослашувчанлик ва кенг қамровли ҳажмни сақлаб, жиноятларни тўғри тушуниш ва адолатли квалификацияга ёрдамлашади, шу орқали тергов ва суд органларига фаолиятига доир жиноятларга қарши самарали курашиш имконини беради.

Энди хорижий давлатлар жиноят қонунларида жавобгарлик белгиланган тергов ва суд органлари фаолиятига тўсқинлик қилувчи жиноятлар таркибларига алоҳида-алоҳида тўхталамиз.

1. Одил судловга аралашини ёки бундай фаолиятга тўсқинлик қилиш. Мазкур жиноят тергов ва суд органлари фаолиятига тўсқинлик қилувчи классик, хорижий давлатларда энг кенг тан олинган жиноят таркибларидан биридир. Ушбу жиноят учун жавобгарлик белгилашда ҳам турли норматив қарашлар мавжуд: айрим давлатларда (Украина) фақат суд органи фаолиятига аралашини ёки тўсқинлик қилиш учун, айрим давлатларда ҳам дастлабки тергов, ҳам суд фаолиятига аралашини ёки тўсқинлик қилиш учун (Арманистон, Беларусь, Грузия, Молдова, Озарбайжон, Россия, Қирғиз Республикаси, Қозоғистон, шунингдек, Ўзбекистон), айрим давлатларда муҳофаза объекти доираси кенгайтирилиб, кўшимча равишда ҳимоя фаолиятига (Грузия, Украина, Қирғиз Республикаси), халқ маслаҳатчиси фаолиятига (Қозоғистон) ёки бошқа шахслар фаолиятига ҳам тўсқинлик қилиш учун жавобгарлик белгиланган. Демак, хорижий давлатлар тажрибаси асосида халқаро амалиётда одил судловга аралашини ёки унинг фаолиятига тўсқинлик қилиш жиноятида суриштирувни амалга оширувчи шахс, терговчи, прокурор, судья, халқ маслаҳатчиси, Адлия олий кенгаши аъзоси, ҳимоячи (адвокат), халқаро судьялар фаолиятига ҳар қандай шаклда тўсқинлик қилиниши назарда тутилганлигини кузатиш мумкин.

Қуйидаги жадвал орқали ушбу жиноят бўйича хорижий давлатларда айнан кимнинг ёки қайси органнинг фаолиятига тўсқинлик қилиш учун жавобгарлик белгиланганлигини қиёсий аниқлашимиз мумкин.

1-жадвал. Одил судловга аралашини ёки бундай фаолиятга тўсқинлик қилиш учун жиноий жавобгарлик бўйича қиёсий жадвал

Давлатлар/ фаолиятига тўсқинлик қилинувчи шахслар	Суриш- тирувчи	Тер- говчи	Про- курор	Судья	Халқ маслаҳат- чиси	Адлия олий кенгаши аъзоси	Ҳимоячи ёки адвокат	Халқаро судья
Арманистон	+	+	+	+				
Беларусь Республикаси	+	+	+	+	+			
Грузия		+	+	+	+	+	+	
Молдова	+	+	+	+				+

Озарбайжон	+	+	+	+				
Россия Федерацияси	+	+	+	+				
Қирғиз Республикаси	+	+	+	+			+	
Қозоғистон		+	+	+	+			
Украина				+			+	
Ўзбекистон	+	+	+	+				

Биз мазкур жадвалдан келиб чиққан ҳолда, хорижий давлатларда ноодатий бўлган тўртта субъект – халқ маслаҳатчиси, Адлия олий кенгаши аъзоси, ҳимоячи (адвокат), халқаро судья фаолиятига тўсқинлик қилиш масаласига тўхталишни мақсадга мувофиқ деб топдик.

Халқ маслаҳатчиси фаолиятига тўсқинлик қилиш учун Беларусь Республикаси (ЖК 390-моддаси), Грузия (ЖК 364-моддаси) ва Қозоғистонда (ЖК 436-моддаси) жавобгарлик белгиланган. Бунда ушбу жиноятнинг субъекти Грузияда ҳар қандай шахс, Беларусь Республикаси ва Қозоғистонда фақат мансабдор шахслар ҳисобланади. Жумладан, Қозоғистон ЖК 436-моддасида мансабдор шахс томонидан фуқаронинг халқ маслаҳатчиси мажбуриятларини бажаришига тўсқинлик қилиш учун жавобгарлик назарда тутилган¹.

Ўзбекистон ЖКда халқ маслаҳатчилари фаолияти ҳуқуқий муҳофаза объекти доирасига олинмаган. Ваҳоланки, Ўзбекистон ЖПК 13-моддасига кўра, жиноят ишини биринчи инстанция судида ҳайъатда кўрилганда суднинг таркиби судья ҳамда иккита халқ маслаҳатчисидан иборат бўлиши, одил судловни амалга оширишда халқ маслаҳатчилари судьянинг барча ҳуқуқларидан фойдаланишлари, шунингдек, халқ маслаҳатчилари суд мажлисида жиноят ишини кўриб чиқиш процессида масалаларни ҳал қилишда ва ҳукм чиқаришда раислик қилувчи билан тенг ҳуқуққа эга бўлишлари белгиланган. Мазкур нормалар мамлакатимизда ҳам халқ маслаҳатчиларининг фаолиятига тўсқинлик қилиш масаласини жиноят ҳуқуқий муҳофаза олиш ҳамда ЖК 236-моддасида таъсир кўрсатиладиган шахслар доирасига судья

¹ Уголовный кодекс Республики Казахстан от 3 июля 2014 года № 226-V. // www.online.zakon.kz/Document/?doc_id=31575252&pos=5;-108#pos=5;-108

билан биргаликда халқ маслаҳатчисини ҳам кўрсатиш зарурлигини асослайди. Зотан, ЖПКнинг 14-моддасида судьялар билан бир қаторда халқ маслаҳатчиларининг ҳам одил судловни амалга ошириш борасидаги фаолиятига аралашушга йўл қўйилмаслиги, бундай аралашув қонунга мувофиқ жавобгарликка сабаб бўлиши қайд этилган.

Шу сабабли, биз **ЖК 236-моддаси биринчи қисми диспозициясини “халқ маслаҳатчиси” сўзлари билан тўлдириш зарур**, деб ҳисоблаймиз.

Шу ўринда ушбу соҳадаги яна бир жиноят таркибига эътибор бериш зарур. Яъни, Грузия қонунчилигида халқ маслаҳатчисининг одил судловни амалга оширишга доир фаолиятига тўсқинлик қилиш билан бир қаторда халқ маслаҳатчиси томонидан судни чалғитиш учун ҳам жавобгарлик назарда тутилган (367²-модда). Унга кўра, халқ маслаҳатчиси ёки халқ маслаҳатчилигига номзоднинг судяга ўзининг халқ маслаҳатчиси вазифаларини бажаришга номувофиқлиги тўғрисида маълумотни тақдим этмаслиги ёки била туриб ёлғон маълумот тақдим этиши жарима ёки икки йилгача озодликдан маҳрум қилиш билан жазоланиши кўрсатилган².

Грузия қонунчилигининг яна бир ўзига хос жиҳатларидан бири ЖК 365¹-моддасида Грузия адлия олий кенгаши аъзоси фаолиятига қонунга ҳилоф равишда аралашуш учун жавобгарлик белгиланганлигидир. Унга кўра, уч йил муддатга лавозимга тайинланган судянинг фаолиятини баҳоловчи Грузия адлия олий кенгаши аъзосининг фаолиятига у ёки бу шаклда қонунга ҳилоф равишда аралашуш жарима ёки бир юз саксон соатдан икки юз қирқ соатгача бўлган муддатга жамоат ишлари ёхуд бир йилгача озодликдан маҳрум қилиш билан жазоланади³. Грузиянинг “Умумий судлар тўғрисида”ги Қонуни 47-моддасига кўра, Грузия адлия олий кенгаши суднинг мустақиллигини, одил судловнинг сифати ва самарадорлигини таъминлаш, судьяларни тайинлаш ва лавозимдан озод этиш, судьяларнинг малака имтиҳонларини ташкил этиш, шунингдек суд ислоҳоти бўйича таклифларни ишлаб чиқиш ва қонун билан белгиланган бошқа вазифаларни амалга ошириш мақсадида ташкил этилган⁴.

² Уголовный кодекс Грузии (утвержден Законом Грузии от 22 июля 1999 года № 2287). // www.matsne.gov.ge/ru/document/view/16426?publication=253

³ Уголовный кодекс Грузии (утвержден Законом Грузии от 22 июля 1999 года № 2287). // www.matsne.gov.ge/ru/document/view/16426?publication=253

⁴ Organic Law of Georgia on General courts No 2257 of 04 December 2009. // www.matsne.gov.ge/en/document/view/90676?publication=34

Мазкур тажрибанинг биз учун аҳамиятли жиҳати шундаки, Ўзбекистонда 2017 йилда Давлат Раҳбарининг ПФ–4966-сон Фармонида асосан Судьялар олий кенгаши ташкил этилди⁵. Мазкур орган Грузия адлия олий кенгашининг Ўзбекистондаги аналог шакли ҳисобланади. Конституцияда Судьялар олий кенгаши мамлакатимизда судьялар корпусининг шакллантирилиши, суд ҳокимияти мустақиллигининг конституциявий принципига риоя этилишини таъминловчи судьялар ҳамжамиятининг мустақил органи эканлиги белланган (135-модда). Шунингдек, “Судлар тўғрисида”ги⁶ ва “Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши тўғрисида”ги⁷ қонунларда ушбу Кенгашга одил судловни таъминлаш фаолияти билан боғлиқ муҳим ҳуқуқлар ва ваколатлар берилган. Хусусан, судьялик лавозимларига номзодларни танлаш, раҳбар судьялик лавозимларига номзодлар захирасини шакллантириш, Олий судининг раиси, раис ўринбосарлари ва судьялари лавозимларига номзодлар бўйича Давлат Раҳбарига таклиф киритиш, судьяларни жиноий жавобгарликка тортиш ҳолатлари бўйича ҳулоса бериш, судьяларнинг малака ҳайъатлари фаолиятига умумий раҳбарликни амалга ошириш, судьялар фаолиятини очиқ ва шаффоф электрон рейтинг дастури асосида баҳолаш мезонларини аниқлаш⁸ каби ваколатлар шулар жумласидандир. Бундан ташқари, Кенгаш аъзолари судьялар каби дахлсизлик ҳуқуқига эгадирлар.

Шунингдек, “Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши тўғрисида”ги⁹ Қонуннинг 4-моддасида Кенгашнинг фаолиятига аралashiш қонунга мувофиқ жавобгарликка сабаб бўлиши белгиланган. Аммо қонунчиликда бундай жавобгарлик чораси аниқ белгиланмаган.

Грузия тажрибаси ҳамда юқорида қайд этилган таҳлиллардан келиб чиқиб, **Ўзбекистон ЖКда “Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий**

⁵ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 21 февралдаги “Ўзбекистон Республикаси суд тизими тузилмасини тубдан такомиллаштириш ва фаолияти самарадорлигини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ–4966-сон Фармони. // www.lex.uz/docs/3121087

⁶ Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 28 июлдаги “Судлар тўғрисида”ги ЎРҚ–703-сон Қонуни. // www.lex.uz/docs/5534923

⁷ Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 6 апрелдаги “Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши тўғрисида”ги ЎРҚ–427-сон Қонуни. // www.lex.uz/docs/3153668

⁸ Ўша манба, 7-модда.

⁹ Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 6 апрелдаги “Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши тўғрисида”ги ЎРҚ–427-сон Қонуни. // www.lex.uz/docs/3153668

кенгаши аъзосининг фаолиятига қонунга хилоф равишда аралашиниш” учун жавобгарлик белгилаш зарур, деб ҳисоблаймиз.

Одил судлов фаолиятига қонунга хилоф равишда аралашинишга доир жиноятларнинг яна бир тоифаси – ҳимоячи (адвокат)нинг фаолиятига тўсқинлик қилиш билан боғлиқ қилмишлар учун Грузия (ЖК 364-моддаси), Украина (ЖК 374-моддаси) ҳамда Қирғиз Республикаси (ЖК 350-моддаси) қонунчилигида жиноий жавобгарлик белгиланган. Жумладан, Қирғиз Республикаси ЖКнинг 350-моддасида адвокатнинг касбий фаолиятига тўсқинлик қилиш учун жавобгарлик белгиланган. Унга кўра, адвокатнинг жиноят-процессуал қонун ҳужжатларида назарда тутилган ҳуқуқлари ва мажбуриятларини бажаришига ҳар қандай шаклда тўсқинлик қилиш учун, жазони оғирлаштирувчи ҳолат сифатида эса, бундай ҳаракатни ўз хизмат мавқеидан фойдаланган ҳолда содир этганлиги учун санкция назарда тутилган. Бу борада Украина тажрибасида янада кенгроқ муносабатлар қамраб олинган. Хусусан, Украина ЖК 374-моддасида ҳимоя ҳуқуқини бузиш учун жавобгарлик белгиланган. Ушбу жиноятнинг объектив қуйдиагилардан иборат: 1) ҳимоячини ўз вақтида киритмаслик ёки тақдим этмаслик; 2) терговчи, суриштирувчи, прокурор ёки судья томонидан гумон қилинувчи ёки айбланувчининг ҳимояланиш ҳуқуқини бошқача тарзда кўпол равишда бузиш. Бундан ташқари, мазкур ҳаракатлар шахсни жиноят содир этишда айбсиз деб топишга олиб келган ёхуд бир гуруҳ шахслар томонидан олдиндан тил бириктириб содир этилган бўлса ёки бошқа оғир оқибатларга сабаб бўлиши ушбу модда бўйича жазони оғирлаштирувчи ҳолатлар сифатида қайд этилган.

Ҳимояга бўлган ҳуқуқ адолатли суд ва судгача бўлган процесслар мобайнида одил судлов самарадорлигининг асосий жиҳатларидан бири ҳисобланади. Бу жиноят содир этишда гумон қилинаётган, айбланаётган шахсларга вакиллик қилиш, далилларга эътироз билдириш ва уларнинг ҳимоясини таъминлаш имкониятини беради. Шунингдек, адвокатларнинг касбий фаолиятини ҳимоя қилиш ҳам муҳим аҳамиятга эга. Адвокатларнинг фаолиятига тўсқинлик қилиш нафақат адолатли судловга путур етказди, балки суд тизимининг умумий яхлитлигини ҳам заифлаштиради. Грузия, Украина ва Қирғиз Республикаси тажрибаси шуни кўрсатадики, бундай тўсқинликлар учун жиноий жавобгарликка тортиш адолатли ҳуқуқий тизимни

сақлаш учун муҳим аҳамиятга эга. Аммо Ўзбекистоннинг амалдаги қонунчилик базасида адвокатнинг касбий фаолиятига тўсқинлик қилиш ёки ҳимояга бўлган ҳуқуқни бузиш жиноят сифатида тан олинмаган. Бундай ҳаракатлар учун аниқ жиноий жавобгарликнинг белгиланиши суд ва судгача бўлган процесда шахсларнинг ҳуқуқий ҳимоясини янада кучайтиради, ҳуқуқни муҳофаза қилувчи ва суд ходимлари томонидан ҳуқуқбузарликларнинг олдини олишга хизмат қилади. Хусусан, ҳимояга бўлган ҳуқуқни бузиш учун жиноий жавобгарликни жорий этиш терговчилар, прокурорлар ва судьялар томонидан ўз ваколатларини суистеъмол қилишнинг олдини олувчи восита бўлиб хизмат қилади. Бу адвокатларнинг аралашувдан қўрқмасдан ўз вазифаларини бажариши, суд ва судгача бўлган жараёнлар мобайнида гумон қилинувчи, айбланувчиларнинг ҳуқуқлари ҳурмат қилинишини таъминлайди.

Шу мақсадда Ўзбекистон ЖКни қуйидаги модда билан тўлдириш таклиф этилади:

“х-модда. Ҳимояга бўлган ҳуқуқни бузиш ёки адвокатнинг касбий фаолиятига тўсқинлик қилиш

Терговчи, прокурор ёки судья томонидан гумон қилинувчи ёки айбланувчига ҳимояга бўлган ҳуқуқни ўз вақтида таъминламаслик ёки уни бошқача тарзда қўпол равишда бузиш, шунингдек, адвокатнинг жиноят-процессуал қонун ҳужжатларида назарда тутилган ҳуқуқ ва мажбуриятларини амалга оширишига тўсқинлик қилиш, –

уч йилгача ахлоқ тузатиш ишлари ёки бир йилдан уч йилгача озодликни чеклаш ёки уч йилгача озодликдан маҳрум қилиш билан жазоланади.

Ўша ҳаракатлар:

а) бир гуруҳ шахслар томонидан олдиндан тил бириктириб содир этилган бўлса;

б) бошқа оғир оқибатларга сабаб бўлса, – муайян ҳуқуқдан маҳрум этиб, уч йилдан беш йилгача озодликни чеклаш ёки уч йилдан беш йилгача озодликдан маҳрум қилиш билан жазоланади.”

Ушбу таклифнинг миллий жиноят қонунчилигига киритилиши суд ва судгача бўлган жараёнларда шахсларнинг ҳимояга бўлган ҳуқуқи ҳамда адвокатларнинг профессионал фаолияти муҳофазасидаги мавжуд бўшлиқни

тўлдиради, Ўзбекистонни илғор халқаро тажрибага мослаштиради ва мамлакатда қонун устуворлигини янада мустаҳкамлайди.

Одил судлов фаолиятига қонунга хилоф равишда аралишишга доир масалада Молдова тажрибасида ўзига хос яна бошқа жиҳат ҳам мавжуд. Унда халқаро судьялар фаолиятига аралаштириш учун ҳам жиавобгарлик назарда тутилган. Жумладан, Молдова ЖК 303-моддасига кўра, ишни ҳар томонлама, тўлиқ ва холисона кўриб чиқишга ёки адолатсиз суд қарорига эришиш мақсадида одил судловни амалга оширишда миллий ёки халқаро судларнинг фаолиятига ҳар қандай шаклда аралаштириш жарима, жамоат ишлари, озодликдан маҳрум қилиш жазоланади¹⁰.

Айтиш жоизки, юқорида таҳлил этилган давлатлардан фақат Молдовада бундай амалиётни кузатдик. Давлатлар томонидан бундай жавобгарликни белгиловчи норманинг ҳуқуқий тан олинмаслигига бир нечта сабабларни ваз қилиб келтириш мумкин:

Биринчидан, бошқа кўплаб давлатлар, хусусан, Ўзбекистон ўзининг миллий суверенитети ва ҳуқуқ тизимининг устуворлигига аҳамият беради. Одатда, халқаро судларнинг юрисдикциясини тан олиш ички ишлар устидан маълум даражада назоратни ташқи ҳокимиятга топшириш деб қаралиши мумкин. Бу баъзи давлатлар халқаро ҳуқуқий назоратга қаршилик кўрсатишининг умумий сабабидир.

Иккинчидан, кўплаб давлатларда, хусусан Ўзбекистонда давлат назорати ва суверенитетини таъкидлайдиган ҳуқуқий қадриятлардан келиб чиққан ҳуқуқий тизим амал қилади. Аксарият тизимлар халқаро судларнинг меъёрлари ва амалиётига тўлиқ мос келмаслиги мумкин, улар кўпинча турли ҳуқуқий тамойиллар остида ишлайди ҳамда миллий қонунлар ва амалиётларга жиддий тузатишлар киритишни талаб қилиши мумкин.

Учинчидан, айрим давлатлар халқаро муносабатларнинг айрим жабҳаларида бетарафлик сиёсатини олиб боради. Бу ўз ички сиёсати ёки манфаатларига зид бўлиши мумкин бўлган халқаро ҳуқуқий мажбуриятлар билан боғланиб қолмаслик учун қайси халқаро ташкилотлар ва шартномаларда иштирок этишини танлашни ўз ичига олади.

¹⁰ Уголовный кодекс Республики Молдова от 18 апреля 2002 года № 985-XV. // www.continent-online.com/Document/?doc_id=30394923#pos=6;-143

Демак, аксарият давлатлар, хусусан, Ўзбекистоннинг халқаро судлар фаолияти билан боғлиқ нормаларни миллий қонунчиликка киритмаслик тўғрисидаги ёндашуви суверенитет масалалари, ҳуқуқий қадриятлар, сиёсий стратегиялар ва халқаро ҳуқуқий мажбуриятларга эҳтиёткорлик билан ёндашишнинг уйғунлиги билан шаклланган. Ҳукумат ташқи аралашувларсиз ўзининг ҳуқуқий ва сиёсий ишлари устидан назоратни сақлаб қолишга интилади, бу унинг халқаро муносабатлар ва бошқарувга нисбатан кенгрок ёндашувига мос келади. Шу сабабдан, юқорида қайд этилган Молдова тажрибасини Ўзбекистонга жорий этиш зарурати мавжуд эмас, деб ҳисоблаймиз.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Уголовный кодекс Республики Казахстан от 3 июля 2014 года № 226-V. // www.online.zakon.kz/Document/?doc_id=31575252&pos=5;-108#pos=5;-108
2. Уголовный кодекс Грузии (утвержден Законом Грузии от 22 июля 1999 года № 2287). // www.matsne.gov.ge/ru/document/view/16426?publication=253
3. Уголовный кодекс Грузии (утвержден Законом Грузии от 22 июля 1999 года № 2287). // www.matsne.gov.ge/ru/document/view/16426?publication=253
4. Organic Law of Georgia on General courts No 2257 of 04 December 2009. // www.matsne.gov.ge/en/document/view/90676?publication=34
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 21 февралдаги “Ўзбекистон Республикаси суд тизими тузилмасини тубдан такомиллаштириш ва фаолияти самарадорлигини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ–4966-сон Фармони. // www.lex.uz/docs/3121087
6. Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 28 июлдаги “Судлар тўғрисида”ги ЎРҚ–703-сон Қонуни. // www.lex.uz/docs/5534923
7. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 6 апрелдаги “Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши тўғрисида”ги ЎРҚ–427-сон Қонуни. // www.lex.uz/docs/3153668
8. Ўша манба, 7-модда.
9. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 6 апрелдаги “Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши тўғрисида”ги ЎРҚ–427-сон Қонуни. // www.lex.uz/docs/3153668
10. Уголовный кодекс Республики Молдова от 18 апреля 2002 года № 985-XV. // www.continent-online.com/Document/?doc_id=30394923#pos=6;-143

THE ROLE OF CULTURAL CONTEXT IN TRANSLATING SHAKESPEARE’S DRAMAS INTO UZBEK

Boboyorova Marjona Akbar kizi

1st year master’s student of the Foreign languages and literature faculty,
University of Economics and Pedagogy

E-mail: marjonaboboyorova199@gmail.com

Scientific advisor: PhD., assoc.prof., **Fayzieva Komila Akhrorovna**
University of Economics and Pedagogy

Abstract. Shakespeare’s works, deeply rooted in the sociocultural and historical context of the English Renaissance, present unique challenges for translation into other languages, including Uzbek. This article examines how cultural context influences the translation of Shakespeare’s dramas into Uzbek, focusing on linguistic adaptation, stylistic preservation, and the cultural transference of meaning. The study highlights the difficulties in rendering Elizabethan-era idioms, metaphors, and historical references in a way that resonates with Uzbek audiences. Through comparative analysis, this paper explores different strategies used by translators to maintain the artistic and thematic integrity of Shakespeare’s texts while ensuring their cultural relevance for Uzbek readers. The analysis includes key examples from Hamlet, Macbeth, Othello, and Romeo and Juliet with their respective Uzbek translations, demonstrating the role of cultural adaptation in preserving meaning.

Key words: Shakespeare, translation, cultural context, Uzbek language, drama, linguistic adaptation, idioms, metaphors, poetic structure

Research Objectives. To examine how cultural context influences the translation of Shakespeare’s plays into Uzbek.

To analyze challenges in translating Elizabethan idioms, metaphors, and historical references.

To explore strategies that maintain the thematic and artistic integrity of Shakespeare’s works in Uzbek translations.

Methods. This study employs a comparative analysis of Shakespeare’s original texts and their Uzbek translations. The methodology includes:

Textual Analysis: Examining selected passages from Shakespeare’s plays to identify cultural and linguistic challenges in translation.

Comparative Translation Study: Analyzing various Uzbek translations to evaluate strategies for overcoming translation difficulties.

Cultural and Linguistic Adaptation Assessment: Assessing how metaphors, idioms, and historical references are adapted for Uzbek audiences.

Results. The Cultural Dimension of Shakespeare’s Language. Historical and Social References. Shakespeare’s dramas reflect the Elizabethan worldview, incorporating historical events, social norms, and classical allusions. Many of these references may be unfamiliar to Uzbek audiences, requiring translators to either explain them through footnotes or find culturally equivalent expressions. For example, in *Julius Caesar*, the phrase: "Beware the Ides of March." is a reference to the Roman calendar, which may not be immediately recognizable to Uzbek audiences. A translation such as: "Mart oyining o'rtalarida ehtiyot bo'ling!" preserves the literal meaning, but to ensure cultural clarity, a footnote explaining the historical significance may be necessary.

Idioms and Metaphors. Shakespeare’s language is heavily metaphorical, often drawing on nature, mythology, and religious imagery. Translators face the challenge of preserving the poetic and symbolic essence of these expressions while making them comprehensible in Uzbek.

Consider *Othello*, where Iago refers to jealousy as: "O! beware, my lord, of jealousy; It is the green-eyed monster which doth mock The meat it feeds on."

A direct translation would be: "Ey, janobim, rashkdan ehtiyot bo'ling; U o‘z yegani ustidan kuladigan yashilko‘z yirtqichdir."

However, since the concept of a “green-eyed monster” is not a common metaphor in Uzbek, translators might use a more culturally resonant phrase like:

"Ey, janobim, rashkdan ehtiyot bo'ling; u odamni o‘z ichidan yemiradigan g‘amdir."

Which conveys the same destructive nature of jealousy without the unfamiliar imagery.

Wordplay and Double Meanings. Shakespeare often uses puns and double meanings that are difficult to render into Uzbek without losing their wit. In *Romeo and Juliet*, Mercutio’s dying words play on the word “grave”: "Ask for me tomorrow, and you shall find me a grave man."

Here, “grave” means both “serious” and “dead.” A possible Uzbek translation could be: "Ertaga mendan so‘rasangiz, meni jiddiy (yoki qabrdagi) odam sifatida topasiz."

Since Uzbek does not use the same word for “serious” and “grave,” the pun is lost. A translator may instead add an explanation or rephrase the sentence creatively to retain the humor and irony.

Discussion. Strategies for Translating Shakespeare into Uzbek. Literal vs. Adaptive Translation. Literal translation, while maintaining linguistic accuracy, often fails to convey the depth of Shakespeare’s meaning due to cultural and historical disparities. Adaptive translation allows greater flexibility by modifying phrases, metaphors, and references to align with Uzbek cultural realities. For example, in Macbeth: "Out, damned spot! Out, I say!"

Lady Macbeth is referring to imaginary bloodstains, symbolizing guilt. A literal translation: "Yo‘qol, la‘nati dog‘! Yo‘qol, deyman!" is accurate, but an adaptive version could be: "Yo‘qol, gunoh dog‘i! Tozalan, deyman!" which emphasizes the moral weight of her guilt.

Maintaining Rhythm and Poetic Structure. Shakespeare’s plays are written in iambic pentameter, which has no direct equivalent in Uzbek. Instead of trying to mimic the meter exactly, translators often use traditional Uzbek poetic styles. Consider Hamlet’s famous soliloquy: "To be, or not to be: that is the question."

A literal Uzbek translation: "Bo‘lish yoki bo‘lmaslik – mana savol!" An alternative poetic adaptation could be: "Borlikmi yoki yo‘qlik – shudir masala!" which maintains a rhythmic flow while preserving the philosophical essence.

Cultural Substitution. Where direct translation is impossible, cultural substitution provides an alternative. For example, in King Lear, the phrase: "I am a man more sinned against than sinning." could be translated as: "Men gunoh qilganimdan ko‘ra ko‘proq zulm ko‘rgan odamman".

Or adapted using Uzbek idioms: "Men qilgan gunohimdan ko‘ra ko‘proq yomonlikka duch keldim" which aligns with Uzbek expressions about injustice.

Conclusion. The translation of Shakespeare’s dramas into Uzbek is a complex process requiring cultural sensitivity and linguistic creativity. By using adaptive translation, cultural substitution, and poetic restructuring, translators ensure Shakespeare’s works remain accessible and impactful for Uzbek audiences while preserving their artistic depth.

Future Research. Further studies should explore the effectiveness of different poetic strategies in Uzbek translations of Shakespeare’s works and how modern audiences engage with these adaptations.

List of references:

1. Bassnett, S. (2013). Translation studies (4th ed.). Routledge.
2. Catford, J. C. (1965). A linguistic theory of translation: An essay in applied linguistics. Oxford University Press.
3. Crystal, D. (2003). The Cambridge encyclopedia of the English language (2nd ed.). Cambridge University Press.
4. Jakobson, R. (1959). On linguistic aspects of translation. In R. A. Brower (Ed.), On translation (pp. 232–239). Harvard University Press.
5. Kadirova, N. (2018). Shakespeare’s literary legacy and its impact on Uzbek literature. Tashkent State University Press.
6. Munday, J. (2016). Introducing translation studies: Theories and applications (4th ed.). Routledge.
7. Newmark, P. (1988). A textbook of translation. Prentice Hall.
8. Nurmuhamedov, A. (2021). Shakespeare’s wordplay and its challenges in Uzbek translation. *Journal of Uzbek Linguistics and Translation Studies*, 8(2), 45-60.
9. Venuti, L. (1995). The translator’s invisibility: A history of translation. Routledge.
10. Wells, S. (2003). Shakespeare for all time. Oxford University Press.
11. Mamadiyoroova Mariyam Kosim kizi, & Bakhtiyorova Maftuna Bakhtiyorovna. (2025). PRAGMATIC AND STYLISTIC ASPECTS OF NEOLOGISMS IN CONTEMPORARY MEDIA AND THEIR IMPLICATIONS FOR VOCABULARY TEACHING. *Journal of Universal Science Research*, 3(1), 89–95. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14674390>
<https://universalpublishings.com/index.php/jusr/article/view/9454>
12. Mamadiyoroova, M., & Bakhtiyorova, M. (2025). PRAGMATIC AND STYLISTIC ASPECTS OF NEOLOGISMS IN MODERN ENGLISH (BASED ON MEDIA MATERIALS) AND THEIR ROLE IN TEACHING VOCABULARY. *Центральноазиатский журнал междисциплинарных исследований и исследований в области управления*, 2(1), 187–191. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/cajmrms/article/view/43009>

13. Mamadiyurova, M., & Bakhtiyorova, M. (2025). PRAGMATIC AND STYLISTIC ASPECTS OF NEOLOGISMS IN MODERN ENGLISH (BASED ON MEDIA MATERIALS) AND THEIR ROLE IN TEACHING VOCABULARY. (2025). Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan, 3(1),217-

221. <https://universalpublishings.com/index.php/jsiru/article/view/9503>

14. Sadullaeva, N., & Bakhtiyorova, M. (2021). Reflection of Onomastic Principles in Naming. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 3001- 3007.

15. Бахтиёрова, М. (2024). Atoqli otlarning umumnazariy muammolari. Зарубежная лингвистика и лингводидактика, 2(6), 40-45.

16. Ismoilov, A., & Bakhtiyorova, M. (2024). THE PROBLEM OF COMPONENTIAL ANALYSIS OF MEANING IN PRESENT DAY LEXICOLOGY. Current approaches and new research in modern sciences, 3(7), 26-29.

17. Alisher o'g'li, I. A., & Bakhtiyorovna, B. M. (2024, May). THE PROBLEM OF COMPONENTIAL ANALYSIS OF MEANING IN PRESENT DAY LEXICOLOGY. In Konferensiyalar| Conferences (Vol. 1, No. 10, pp. 748-752).

18. BAKHTIYOROVA, M. (2024). ONOMASTIK KONSEPT TUSHUNCHASI. UzMU xabarleri, 1(1.4), 288-292. 14. Камолова, Р. Ш., & Бахтиярова, М. (2024). ЭМОЦИОНАЛЬНЫЕ КОННОТАЦИИ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ, ОПИСЫВАЮЩИХ ПОГОДУ. ТА'ЛИМ VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIIY JURNALI, 4(1), 30-33.

19. Baxtiyurova, M. (2023). ONOMASTIKONLARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI. Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi, (9), 464-469.

20. Baxtiyurovna, B. M. (2023). INGLIZ VA O'ZBEK BADIY ADABIYOTIDA ONOMASTIKONLARNING CHOG'ISHTIRMA SEMANTIK TAHLILI. "GERMANY" MODERN SCIENTIFIC RESEARCH: ACHIEVEMENTS, INNOVATIONS AND DEVELOPMENT PROSPECTS, 9(1).

21. Baxtiyurova, M. (2023). INGLIZ VA O'ZBEK BADIY ADABIYOTIDA ASAR QAHRAMONLARI NOMLARINING MATN

“JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN”
JURNALI VOLUME 3, ISSUE 01, 2025. YANUARY ResearchBib Impact
Factor: 9.654/2024 ISSN 2992-8869 221 YARATISHDAGI ISHTIROKI.
Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi, (10), 268-273.

22. Bakhtiyorovna, B. M. (2022). Discursive-pragmatic nature of
anthroponyms. Asian Journal Of Multidimensional Research, 11(9), 110-114.

23. Bakhtiyarova, M. B. (2021). VERBALIZATION OF THE
CONCEPT" ONIM" IN LINGUOCOGNITOLOGY. Ростовский научный
вестник, (3), 11- 12. 20. Вахтиёрова, М. В. (2020). ANTRPONIMLARNING
SHAKLLANISHIDA MORFEMALARNING SEMANTIK VA USLUBIY
XUSUSIYATLARI. Студенческий вестник, (36-3), 96-98.

24. Bakhtiyorova, M. (2019). THE EFFECT OF USING
MNEMONICS. Студенческий вестник, (22-8), 63-65. 22. Pulatova, S., &
Bakhtiyorova, M. (2019). THE STRUCTURALSEMANTIC ANALYSIS OF
THE WORDS RELATED TO" SPORTS" IN PRESENT DAY ENGLISH.
Студенческий вестник, (22-8), 69-71.

25. Bakhtiyorova, M., & Djumabayeva, J. (2017). WRITERS MAKE
NATIONAL LITERATURE, WHILE TRANSLATORS MAKE UNIVERSAL
LITERATURE. Студенческий вестник, (10), 55-56.

26. Bakhtiyorova, M., & Elmurodova, F. (2017). THE PRINCIPLES
OF SEMANTICS. Студенческий вестник, (10), 52-54.

Research Science and Innovation House

Зелёное развитие туристических кластеров: международный опыт и перспективы для регионов Узбекистана

Шахноза А. Каримова

Директор по маркетингу и корпоративным связям
Сингапурский институт развития менеджмента в Ташкенте

Аннотация: В данной статье исследуется концепция зелёного развития туристических кластеров, анализируется международный опыт, рассматриваются аспекты управления и предлагаются рекомендации по внедрению подобных практик в регионах Узбекистана.

Введение

Туризм является одной из наиболее динамично развивающихся отраслей мировой экономики, способствующей экономическому росту, созданию рабочих мест и культурному обмену. В последние десятилетия концепция устойчивого или "зелёного" туризма приобретает всё большую значимость, акцентируя внимание на сохранении окружающей среды и культурного наследия. В этом контексте развитие туристических кластеров с учётом экологических принципов становится актуальной задачей для многих стран, включая Узбекистан. Понятие зелёного туристического кластера Туристический кластер представляет собой географически сконцентрированную группу взаимосвязанных предприятий и организаций, действующих в сфере туризма и связанных отраслях. Зелёный туристический кластер ориентирован на минимизацию негативного воздействия на окружающую среду, рациональное использование ресурсов и поддержку местных сообществ. Основные цели таких кластеров включают: Сохранение природных и культурных ресурсов. Снижение экологического следа туристической деятельности. Улучшение качества жизни местного населения. Продвижение экологически ответственного поведения среди туристов и бизнеса.

Международный опыт зелёного развития туристических кластеров
Многие страны успешно внедрили принципы зелёного туризма в развитие своих туристических кластеров. Рассмотрим некоторые примеры:
1. Франция: Сельский туризм во Франции развивается более 40 лет, с акцентом на сохранение сельской культуры и окружающей среды. Фермеры предлагают туристам проживание в традиционных сельских домах, участие в сельскохозяйственных работах и дегустацию местных продуктов, что способствует диверсификации доходов и сохранению сельских ландшафтов. Французский туристический кластер Монтань включает более 230 участников и направлен на развитие устойчивого горного туризма. Кластер участвует в проектах по обеспечению экологически безопасных решений для крупных мероприятий, таких как зимние Олимпийские игры.

Перспективы для регионов Узбекистана

Регионы Узбекистана обладают значительным потенциалом для развития зелёных туристических кластеров. Успешное внедрение этого подхода может привести к повышению конкурентоспособности туристической индустрии и улучшению экологической ситуации в регионе.

Таблица 1: Преимущества зелёных туристических кластеров

Преимущества	Описание
Экологические выгоды	Снижение негативного воздействия на окружающую среду за счёт использования «зелёных» технологий.
Экономические выгоды	Повышение конкурентоспособности и привлекательности туристических регионов, что приводит к увеличению доходов.
Социальные выгоды	Создание рабочих мест и улучшение качества жизни местного населения.



2. Италия: Италия известна агротуристическими кластерами, где туристы могут проживать на фермах, участвовать в сборе урожая и изучать традиционные ремёсла. Это привлекает туристов и способствует сохранению традиционного образа жизни и ремёсел. 3. Австрия: Австрия активно развивает экотуризм в альпийских регионах. Туристические кластеры предлагают экологически чистые услуги, такие как пешие прогулки, велотуры и проживание в эко-отелях, что способствует сохранению природных ландшафтов и поддержке местных сообществ.

Аспекты управления зелёными туристическими кластерами
Эффективное управление зелёными туристическими кластерами требует комплексного подхода, включающего стратегическое планирование, координацию участников и постоянный мониторинг. Ключевые аспекты управления включают:

Стратегическое планирование: Определение долгосрочных целей и разработка стратегий с учётом экологических, экономических и социальных факторов.

Координация участников: Обеспечение взаимодействия между государственными органами, частным сектором, местными сообществами и туристами.

Мониторинг и оценка: Постоянный контроль за соблюдением экологических стандартов и оценка эффективности внедрённых мер.

Потенциал зелёного туризма в Узбекистане
Узбекистан обладает богатым культурным наследием и разнообразными природными ландшафтами, что создаёт значительный потенциал для развития зелёного туризма. В стране предпринимаются шаги в этом направлении:

Создание туристических кластеров:

В Узбекистане реализуются комплексные меры по развитию туризма как стратегической отрасли экономики. Создаются благоприятные условия для туристического бизнеса, предоставляются налоговые и таможенные льготы, усиливается кредитная и финансовая поддержка. В течение двух лет реализовано более 800 инфраструктурных проектов, фонд гостиниц увеличен до 140 тысяч мест, открыто 70 новых туристических маршрутов, начали действовать 6 частных авиакомпаний.






Диаграмма показывает структуру занятости в организациях по видам предоставляемых услуг в туризме в процентах. Вот распределение:

- Услуги предприятий общественного питания: 31,2%
- Услуги дорожного пассажирского транспорта: 31,0%
- Услуги по размещению посетителей: 24,7%
- Услуги железнодорожного пассажирского транспорта: 5,1%
- Услуги в области культуры: 3,2%
- Спортивные и рекреационные услуги: 3,0%
- Туристические агентства и другие услуги по бронированию: 0,9%
- Услуги сдачи в аренду транспорта и оборудования: 0,5%
- Услуги воздушного пассажирского транспорта: 0,4%

Диаграмма иллюстрирует разнообразие услуг в туристической отрасли и их вклад в занятость. Восстановительные меры для туристической отрасли и ее развитие в 2021–2024 годах. Для смягчения последствий кризиса, вызванного пандемией, были приняты комплексные меры по восстановлению экономики



республики и специальные меры поддержки туристической отрасли. Поддержка была оказана туристическому бизнесу, что помогло сохранить рабочие места и источники доходов населения. Это было особенно важно для туристической отрасли, особенно для малого бизнеса и частного предпринимательства. По данным Министерства туризма и спорта Республики Узбекистан, только за девять месяцев 2021 года на поддержку туристического бизнеса из государственного бюджета было выделено 6,5 млрд сум.

Для смягчения последствий коронавируса туристическая сфера получила ряд льгот и преференций, включая: снижение на 50% ставки налога на прибыль для туроператоров, турагентов и средств размещения; освобождение от уплаты земельного налога и налога на имущество для юридических лиц туроператоров, турагентов и средств размещения; снижение социального налога до 1%; приостановление начисления и уплаты сбора для туроператоров, турагентов и средств размещения; частичное возмещение процентных расходов туристических организаций по ранее выданным кредитам коммерческих банков на строительство объектов размещения, а также затрат на реновацию, реконструкцию и усиление материально-технической базы для модернизации гостиниц. Предусмотрено субсидирование средств размещения в размере 10% стоимости услуг по размещению (гостиничных услуг) с 1 июня 2020 года по 31 декабря 2021 года. В целом, 1750 субъектов сферы туризма получили льготы по налогу на имущество, земельному и социальному налогам на сумму около 60 млрд сум.

Yashil iqtisodiyot muammolari talaba-yoshlar nigohida.

Abdurasulova Sarvinoz Ravshanbek qizi

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti. Davlat boshqaruvi
yo‘nalishi magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada yashil iqtisodiyotni talaba-yoshlar o‘rtasida tushunilishi, ushbu jarayonga o‘tish istiqbollari tahlil qilingan hamda uning asosiy muammolari o‘rganilgan. Shu bilan bir qatorda yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayoning ilk qadamlari yoritilgan. Yashil iqtisodiyotga o‘tish yo‘lidagi xalqaro hamkorlik o‘rni haqida ham to‘xtalib o‘tiladi. Talabalar orasida o‘tkazilgan so‘ro‘vnoma javoblaridan kelib chiqib birinchi navbatda yashil iqtisodiyot haqida yetarlicha tushuncha hosil bo‘lmaganligi aniqlandi. Va bu eng dolzarb muammoligi yaqqol ko‘rinib turibdi, bu masala yashil iqtisodiyotni to‘liq tadbiiq etilishida bo‘shliq va qiyinchiliklar hosil qilishi tufayli ushbu maqolada yashil iqtisodiyotning tushunchasi, rivojlanish jarayonlari va muammolariga urg‘u berish bilan bir qatorda ushbu mavjud bo‘lgan muammolar yechimiga qaratilgan takliflar ilgari suriladi.

Kalit so‘zlar: yashil iqtisodiyot, ekologik muammolar, atrof-muhitni muhofaza qilish, yashil texnologiyalar, ekologik ta‘lim, qayta ishlash, ekologik barqarorlik.

Keywords: green economy, environmental issues, environmental protection, green technologies, environmental education, recycling, ecological sustainability.

Abstract. This article analyzes students` understanding of the concept of the green economy, the prospects for transitioning to it, and the main challenges of this process. Additionally, the initial steps toward adopting a green economy are highlighted. The role of international cooperation in this transition is also discussed. Based on the responses from a student survey, it was found there is insufficient awareness of the green economy, which appears to be one of the most pressing issues. This gap creates obstacles to its full implementation. Therefore, this article not only emphasizes the concept, development, and challenges of the green economy but also presents possible solutions to address the existing issues.



Ключевые слова: зеленая экономика, экологические проблемы, охрана окружающей среды, зеленые технологии, экологическое образование, переработка, экологическая устойчивость.

Аннотация. В данной статье анализируется понимание концепции «зеленой экономики» среди студентов, перспективы перехода к ней, а также основные проблемы этого процесса. Кроме того, освещены первые шаги на пути к зеленой экономике. Также рассматривается роль международного сотрудничества в этом направлении. На основе ответов студентов в ходе проведенного опроса было выявлено, что недостаточное понимание зеленой экономики является одной из самых актуальных проблем. Это создает пробелы и трудности в ее полноценном внедрении. В связи с этим в статье не только акцентируется внимание на понятии, развитии и проблемах зеленой экономики, но и предлагаются возможные решения для устранения существующих трудностей.

Kirish. Zamonaviy iqtisodiyot tabiiy resurslarning kamayishi, ekologiyaning yomonlashuvi va eng dolzarbi- iqlim o'zgarishi kabi jiddiy muammolar tufayli qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Agar resurslardan ratsional foydalanishga o'tilmasa bu nafaqat resurs taqchilligini balki katta-katta resurs uchun kurash-urushlarga ham olib kelishi aniq. «Yashil iqtisodiyot» atamasi iqtisodiy o'sish va ekologik barqarorlikni uyg'unlashtirishni anglatadi. BMT Atrof-muhit dasturi (UNEP) ta'rifiga ko'ra, yashil iqtisodiyot inson farovonligi va ijtimoiy adolatni ta'minlash bilan birga ekologik xavflarni va tabiiy resurslardan foydalanish cheklovlarni kamaytirishga yo'naltirilgan iqtisodiyotdir¹. Ya'ni, yashil iqtisodiyot iqtisodiyotdan ham ko'ra birinchi navbatda ekologik muvozanatsizlikga ko'proq urg'u beradi. Bugungi kunda «yashil» so'zi nafaqat rang, balki ekologik ong va barqarorlik timsoliga aylangan. Aynan shuning uchun «yashil iqtisodiyot» atamasi bevosita iqtisodiyot va ekologiyaning uyg'unligini ifodalaydi. Umumiy tushuncha sifatida atrof-muhitga zarar yetkazmasdan, tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish iqtisodiyoti. Yashil iqtisodiyot- bu faqatgina energiya ishlab chiqarish sektorini o'zgartirish emas, balki ichimlik suvi va oziq-ovqat muhofazasi, chiqindilarni qayta ishlash jihatlariga ham e'tibor qaratadi. Shuni ta'kidlab o'tish zarurki, O'zbekistonda 90% suv isrofchiligi sug'orish kanallarining ekspluatatsiyadan

¹ UNEP. (2011). Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradiction.

chiqganligidan hosil bo‘ladi. Prezident Qaroriga binoan hozirda sug‘orish kanallarining ta‘miri olib borilmoqda². Oziq-ovqat muhofazasiga kelsak, bu tizim ham ancha takomillashgan choralar talab qiladi. Birgina misol: Toshkent non shahri deb ataladi, biroq shu non shahri aholisi kuniga 3 tonna nonni axlat qutilariga tashlashi haqida «MAXSUSTRANS» bosh inspektori habar berdi. Chiqindilarni qayta ishlash bo‘yicha ekologik ong ancha yaxshi shakillanmoqda. Jumladan, plastik idishlarni o‘rniga ko‘p marttalik idishlarga o‘tilmoqda bu aholi o‘rtasida ekologik mas‘uliyat shakillanganligiga yorqin misol. Kamchiliklar ham yo‘q emas, alohida ajratilgan chiqindilarni yana bitta maxsus mashinaga aralashtirib solinishi esa-mantiqsizlik.

Yashil iqtisodiyot nazariy jihatdan iqtisodiyotni boshqarish tizimini «yashillashtirish» bo‘yicha umumiy dasturni ishlab chiqish bilan shug‘ullanadi³. Ushbu yo‘nalish paydo bo‘lganiga ko‘p bo‘lmagan bo‘lsa ham, lekin juda zarur payt tadbiriq etilmoqda, chunki tabiiy resurslar abadiy emasligi barchaga ma‘lum. Yashil iqtisodiyotning asosiy maqsadi sifatida ekologik barqarorlikni saqlagan holda iqtisodiy o‘shishga qaratilgan. Barqarorlikni saqlagan rivojlanish esa- hozirgi jamiyat ehtiyojlarini qondirish bilan bir qatorda, kelgusi avlod uchun tabiiy resurslar va imkoniyatlarni saqlab qolishga qaratilgan kompleks chora tadbirlar.

Iqtisodiyotning yangi modeliga yuqoridagi muammolarga javoban tobora ko‘plab davlatlar o‘tmoqda. O‘zbekiston ham bu model bo‘yicha bir qator chora tadbirlarni amalga oshirmoqda⁴. Hususan, 2030-yilgacha «yashil iqtisodiyot»ga to‘liq o‘tish rejalashtirilgan. Va bu harakatlar bosqichma bosqich amalga oshirib kelinmoqda.

«Yashil iqtisodiyot»ga o‘tish uchun stimullar bo‘ladigan qator afzalliklari mavjud:

- 1) Atrof-muhit ifloslanishini kamaytiradi.

Bu model ekologik toza texnologiyalardan foydalanishga undaydi. Masalan: atmosferaga juda katta zarar yetkizadigan elektrostansiyalarni ishlash miqdorini kamaytirish uchun quyosh batareyalariga o‘tish yaxshi yechim bo‘la oladi.

² <http://lex.uz//docs/-6734972> Quyida bo‘g‘inda suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish hamda suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida

³ «Зеленая экономика» Учебник. – Т.: Издательство «Инновационное развитие» 2023, 208 страниц

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 04.10.2019 yildagi PQ-4477-son

2) Iqlim o‘zgarishini oldini olishga yordam beradi.

Chunki u atmosferaga zararli gazlar chiqishini kamaytiradigan texnologiyalar va barqaror rivojlanish tamoyillariga asoslanadi. Bu tamoyillar Parij bitimi (2015) bilan hamohang bo‘lib, global isisni sanoat davrigacha bo‘lgan darajadan 2°C pastda ushlab turish va $1,5^{\circ}\text{C}$ darajasiga yaqinlashtirish maqsadini qo‘yadi⁵. Parij bitimi ishtrokchi davlatlaridan uglerod gazlarini atmosferaga chiqarishni bosqichma-bosqich kamaytirishni talab qiladi. Qayta tiklanuvchan energiya: quyosh va shamol kabi toza energiya manbalaridan foydalanishga chaqiradi. Bu esa aynan yashil iqtisodiyotni tadbiiq etilishi.

3) Toza transport turlariga o‘tish.

Ichki yonuv dvigatelli avtomobillar ko‘p miqdorda zararli gazlarni chiqaradi. Elektromobillarga o‘tish esa aksincha, ekologiyaga katta foyda keltiradi. Jumladan, elektr toki yoqilg‘iga nisbatan juda arzon. Neft qazib olish uchun hozirda yer qatlamining ust qismidan emas, balki ancha chuquroq qazishga to‘g‘ri kelmoqda. Bu o‘z navbatida resursni narxiga ham ta‘sirini o‘tkazadi. Shuni hisobga olish ham shartki barcha davlat yer qa‘rida ham bu boylikni topib bo‘lmaydi. Biroq davlatni iqlim sharoitidan kelib chiqib, xilma-xil usullar orqali elektr toki ishlab chiqarsa bo‘ladi⁶. O‘z o‘zidan transportirovka harajatlari bo‘lmagani sababli elektr toki arzonga tushadi. Shu bilan bir qatorda atmosfera ham karbon dioksid, karbon oksid, azot oksidlari, uglevodorodlardan zarar ko‘rmaydi. Megapolislarda shovqin darajasini kamaytirishda ham elektromobillarning o‘rni bor. Ichki yonuv dvigateli bo‘lmaganligi sababli shovqin darajasi sezilarli darajada past.

4) Qayta tiklanuvchi energiya.

Quyosh batareyalari yashil iqtisodiyotning asosiy qismi bo‘lib, uglerod chiqindilarini kamaytiradi. O‘zbekiston sharoitida yilda 300 kundan ortig‘i quyoshli kun bo‘lishini inobatga olsak quyosh panellari- ekologik toza yechim hisoblanadi. Quyosh panellari yuqori quyoshli sharoitda elektr energiyasini ishlab chiqarishda yaxshi natija berib, atom elektrostansiya qurilishiga ham hojat qoldirmaydi.

Yuqorida sanab o‘tilgan afzalliklar hammasi emas, bu ro‘yxat albatta bundan ancha keng. Biroq yangi qisodiy modelning kamchiliklari ham mavjud hisoblanadi:

⁵ <http://lex.uz//ru/docs/-5075093> Parij bitimi

⁶ Зезюлинская А.В. Преимущества и перспективы электромобиля // Форум молодых ученых. – 2019. – № 6(34). – С. 505–508. – URL: <http://forum-nauka.ru>



1) Dastlabgi investitsiyalarning kattaligi.

Yashil iqtisodiyotga o'tish uchun qayta tiklanuvchi energiya manbalari va ularni ishlab chiqaruvchi ekologik texnologiyalar talab etiladi. Biroq, bu jarayonga to'liq o'tish uchun katta moliyaviy xarajatlar talab etiladi. Moliy harajatlarni rivojlanayotga davlatlar qoplay olishga qiyinchilik tug'ulishi aniq. Parij bitmi kelishuviga asosan rivojlangan davlatlar rivojlanayotgan davlatlar ekologik rivojlanishi uchun 100 milliard dollar mablag' ajratilishi ko'rsatilgan bo'lsa ham, lekin hali konkret mablag' taqsimlanmagan.

2) Yashil texnologiyalar hozirgi kunda to'liq rivojlanmagan.

Masalan, quyosh va shamol energiyasi barqarorlik va samaradorlik jihatidan an'anaviy yoqilg'i turlariga nisbatan ortda qolmoqda. An'anaviy yoqilg'ilar: yuqori energiya zichligi- ya'ni kam hajmda ham ko'proq energiya berishi, ishlab chiqarish, tarqatish, iste'mol qilish tizimi barqarorligi va uzoq yillar ishlab chiqarish tajribasi tufayli hozircha yashil yoqilg'lardan ustun bo'lib kelmoqda.

3) Qonunchilikdagi muammolar.

Yashil iqtisodiyotning rivojlanishi samarali qonunchilikga bog'liq. Biroq ko'plab davlatlarda, shu qatorda O'zbekistonda ham bu jarayon sekin kechmoqda. Asosiy muammo- ekologik qonunlar to'liq shakillantirilmagan yoki nazorat sust. Bir tarafdin davlatlar o'zaro hamkorlik qilishi uchun ekologik standartlar farqi yashil iqtisodiyot rivojiga to'sqinlik qiladi.

4) Aholi o'rtasidagi xabardorlik yetishmovchiligi.

Xabardorlik yetishmovchiligi yashil iqtisodiyotga o'tishda asosiy to'siq hisoblanadi. Jamiyatda yashil iqtisodiyotning afzalliklari, usullari va natijalari to'g'risida yetarlicha axborot yetkazilmayotkanligi ko'plab fuqaro va tadbirkorlar o'rtasida bu model afzalliklaridan behabar qoldirmoqda. Agar yashil iqtisodiyot sohasida muvaffaqiyatli natijalar axboroti berilmas ekan, jamiyatning iqtisodning yangi modeliga bo'lgan ishonchi pasayadi. Shuning uchun yashil iqtisodiyotning hoh u mahalliy darajadagi muvaffaqiyati bo'lsin, hoh dunyo darajasida barchaga axboroti tez va aniq yetkazilishi kerak.

5) «Yashil texnologiyalar»ni qayta ishlash.

Bu savolga alohida urg'u berilishi shart. Chunki bu hali ohirigacha o'rganib chiqilmagan mavzu. Ekologiyaga zarar keltirmaydigan quyosh batareyalarining

ekspluatatsiya davri o‘rtacha 20-25 yilni tashkil etadi. Lekin, muddatini o‘tagan «yashil texnika» qayta ishlanmasa u tabiatni ikki karra ifloslantirishi ham mumkin.

Yashil iqtisodiyotga investitsiyalarni oshirish, yashil texnologiyalarni rivojlantirish va qayta ishlashda davlat va xususiy sektor hamkorligini kuchaytirish lozim. Bularni moliyaviy rag‘batlar, soliq imtiyozlari va subsidiyalar orqali investitsiyalarni qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, ekologik qonunchilikni yangilash va qat‘iy nazorat mexanizmlarini joriy etish zarur. Aholi orasida xabardorlikni oshirish uchun ta‘lim va axborot vositalari takomillashtirilishi zarur. Axborotni tarqatish uchun talaba-yoshlarni ham jalb etsa bo‘ladi, ularning yashil iqtisodiyotni mohiyatini to‘liq tushuntirish jarayonida birinchi navbatda o‘zlari uchun mukammal tushunchaga erishishadi. Va axborot vositalari orqali berilayotgan ma‘lumotlar foydasi muntazam monitoring qilinib turilishi maqsadga muvofiq. Monitoring axborot sifatini oshirishga va yashil iqtisodiyot kamchiliklarini oddiy aholi tomonidan ham o‘rganilishiga erishish mumkin. Ommaviy axborot vositalari yangi modelning muvafaqiyatli tajribalarini yoritishi ham aholi o‘rtasida yashil iqtisodiyotga o‘tish tempini tezlashtiradi. Yashil texnologiyalarni qayta ishlash sohasida esa innovatsion ilmiy-tadqiqot dasturlari va texnologik yechimlarni qo‘llash orqali sanoatda ularni kengaytirish imkiniyatlari o‘rganilishi lozim.

Yuqorida keltirilgan takliflar orqali yashil iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi va atrof-muhitni muhofaza qilishga erishish maqsad qilingan.

Xulosa o‘rnida, yashil iqtisodiyotga investitsiyalarni oshirish, yashil iqtisodiyotga investitsiyalarni oshirish, yashil texnologiyalarni joriy etish, qonunchilik tizimini yangilash va aholi orasida ekologik tushunchani mustahkamlash masalalari masalalari yoritilgan. Davlat va xususiy sektor hamkorligini kuchaytirish, moliyaviy rag‘batlar taqdim etish va innovatsion yechimlar orqali ekologik zararlarni kamaytirish yo‘lida bir qator takliflar ko‘rsatilgan. Ushbu maqola doirasida talabalar o‘rni ham katta ahamiyatga ega. Talabalar ilmiy-tadqiqot islarini olib boorish va va yashil texnologiyalarni rivojlantirishda faol ishtirok etish orqali jamiyatda ekologik ongni shakillantiradi. Yangi modelni talabalar tomonidan axborot berilishi atrof-muhit muhofazasi muhimligi, tabiiy resurslardan tejamkor foydalanish mavzularini chora-tadbirlarini ommalashtirishda muhim rol o‘ynaydi.

Ushbu takliflar yashil iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi, atrof-muhitni muhofazasi va ijtimoiy adolatni ta‘minlashga qaratilgan strategik yondashuvning asosiy jihatlarini ifodalaydi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi “2019-2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4477-son qaroriga 1-ilova
- 2) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-436-son qaroriga 1-ilova
- 3) Quyi bo‘g‘inda suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish hamda suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. <http://lex.uz//docs/-6734972>
- 4) Parij bitimi (2015). <http://lex.uz//ru/docs/-5075093>
- 5) UNEP. (2011). Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradiction
- 6) UNEP. (2015), Publication UNEP. United Nations Environment Program.
- 7) «Зеленая экономика» Учебник. – Т.: Издательство «Инновационное развитие» 2023.
- 8) Зезюлинская А.В. Преимущества и перспективы электромобиля // Форум молодых ученых. – 2019. – № 6(34). – С. 505–508. – URL: <http://forum-nauka.ru>

Research Science and Innovation House



CROSS-BORDER E-COMMERCE: OPPORTUNITIES AND CHALLENGES

Aynidinova Nafisa Isroil qizi


Abstract

This article explores the dynamics of cross-border e-commerce and its significant impact on global trade, supply chains, and the international economy. As the digital marketplace continues to evolve, businesses are increasingly engaging in international online trade, offering both opportunities and challenges. This study examines how cross-border e-commerce is reshaping supply chains, expanding global market access, and fostering innovation. Additionally, it highlights key issues in payment processing, taxation, and legal barriers that businesses face in cross-border transactions. The article concludes with an analysis of potential solutions and strategies for overcoming these challenges to optimize global e-commerce operations.

Basic words and concepts: Cross-border e-commerce, global trade, supply chains, payment processing, taxation, legal barriers, digital marketplace, international trade, online business.

Introduction. The advent of digital technologies and the internet has significantly transformed the global marketplace, giving rise to cross-border e-commerce. This form of international online trade enables businesses and consumers to access goods and services across borders more efficiently than ever before. Cross-border e-commerce has revolutionized supply chains, providing businesses with opportunities to expand their market reach, improve efficiency, and enhance customer experiences.

However, this growth has also introduced new complexities and challenges, including issues related to payment processing, taxation, and the legal framework governing international transactions. Understanding these challenges and the opportunities they present is crucial for businesses aiming to thrive in the competitive global digital marketplace.



This article examines how cross-border e-commerce is reshaping supply chains and explores the challenges posed by payment processing, taxation, and legal barriers in global e-commerce.

Literature Review. How Cross-Border E-Commerce Is Reshaping Supply Chains

1. Expansion of Market Access

Cross-border e-commerce has allowed businesses to reach global markets that were previously difficult to penetrate. Through online platforms, companies can sell products to customers in distant regions, creating new revenue streams. This is particularly beneficial for small and medium-sized enterprises (SMEs), which can now access global consumers without the need for costly physical infrastructure in foreign markets. For example, Etsy, an online marketplace specializing in handmade and vintage goods, has enabled thousands of small businesses to expand internationally. According to Etsy's 2023 annual report, over 45% of sellers engage in cross-border transactions, highlighting the platform's role in facilitating global market access.

2. Streamlining and Optimizing Supply Chains

Digital tools and platforms have enabled businesses to optimize their supply chains by reducing inefficiencies and improving inventory management. The ability to track goods in real time—from manufacturing to delivery—enhances transparency and reduces costs. Cross-border e-commerce encourages businesses to adopt more agile and flexible supply chain models, allowing them to respond quickly to market changes and customer demands. One prominent example is Alibaba's Cainiao Network, an AI-driven logistics platform that has transformed global supply chain management. By leveraging smart warehouses and predictive analytics, Cainiao reduced international shipping times from an average of 70 days to just 10 days, significantly enhancing delivery efficiency for cross-border e-commerce.

3. Increased Competitiveness and Innovation

The global reach of e-commerce platforms means that businesses are now competing on an international scale. This drives innovation, as companies seek new ways to differentiate themselves in a crowded marketplace. Cross-border e-



commerce encourages businesses to innovate in product development, marketing strategies, and customer service to meet the diverse needs of international consumers.

Analysis and Results. Key Challenges in Cross-Border E-Commerce

1. Payment Processing

One of the primary challenges in cross-border e-commerce is the complexity of payment processing. International transactions involve multiple currencies, resulting in high transaction costs and potential delays. Additionally, consumers may have concerns regarding payment security and fraud risks when purchasing from foreign sellers.

Currency Conversion: Businesses must navigate fluctuating exchange rates, which can impact pricing and profitability. Payment platforms must support multiple currencies to ensure smooth transactions.

Security: Payment security is critical for establishing trust between buyers and sellers. E-commerce businesses must integrate robust security measures to protect sensitive customer information and prevent fraud.

Cross-Border Payment Platforms: While global payment providers like PayPal, Stripe, and Alipay offer solutions, local payment preferences vary widely. Businesses must adapt to regional payment methods to enhance customer experience. For example, Amazon faced significant challenges when expanding into India, as many consumers preferred cash-on-delivery (COD) over digital payments. To address this, Amazon introduced Amazon Pay, integrating local payment systems like Unified Payments Interface (UPI) and digital wallets. This adaptation resulted in a 30% increase in digital transactions within two years, demonstrating the importance of catering to regional payment preferences.

2. Taxation and Tariffs

Taxation remains one of the most complicated aspects of cross-border e-commerce. Businesses must comply with diverse tax regulations in each country where they operate, leading to significant administrative burdens.



VAT and Sales Tax: Many countries require businesses to collect value-added tax (VAT) or sales tax on cross-border transactions. The EU, for example, has introduced the VAT e-commerce package, which mandates that businesses selling to EU consumers collect VAT at the point of sale.

Tariffs and Customs Duties: E-commerce businesses must account for tariffs, import duties, and customs procedures when shipping goods internationally. These costs impact pricing and profit margins, while delays in customs clearance can affect delivery times.

Transfer Pricing: Multinational e-commerce businesses must comply with transfer pricing regulations, which govern transactions between subsidiaries in different countries. Non-compliance can result in legal and financial penalties. According to a 2021 KPMG study, 78% of e-commerce businesses reported increased compliance costs due to the EU's VAT e-commerce package. This underscores the administrative burden placed on businesses as international tax regulations evolve.

3. Legal Barriers

The legal framework for cross-border e-commerce is fragmented, with different laws and regulations in each country governing issues such as product safety, intellectual property, consumer protection, and dispute resolution.

Product Regulations: Different countries have varying standards for product safety, labeling, and certification. Businesses must ensure that their products comply with local regulations in each market where they sell.

Intellectual Property: Intellectual property (IP) issues, such as trademarks, patents, and copyrights, are a significant concern in cross-border e-commerce. Sellers must navigate international IP laws to protect their brands and products from infringement.

Consumer Protection Laws: Consumer rights differ across regions, and businesses must comply with local laws governing returns, warranties, and refunds. E-commerce businesses also face pressure to provide customer support in multiple languages and time zones.

Dispute Resolution: The jurisdiction for resolving disputes in cross-border e-commerce transactions can be unclear, as both buyers and sellers may be located in different countries. Alternative dispute resolution (ADR) methods, such as arbitration or mediation, are often used to settle cross-border disputes.

Strategies to Overcome Challenges

To mitigate the challenges of cross-border e-commerce and optimize operations, businesses can adapt several strategies:

1. Utilize Global Payment Platforms

Integrating international payment solutions like PayPal, Stripe, and Square enables businesses to facilitate secure and efficient transactions. Additionally, fraud protection mechanisms and compliance with international data security standards, such as the General Data Protection Regulation (GDPR), are essential.

2. Simplify Tax Compliance

E-commerce businesses should leverage automated tax compliance software such as Avalara and TaxJar to streamline VAT and sales tax calculations. These tools help businesses manage tax obligations across multiple jurisdictions.

3. Adapt to Local Legal Requirements

Businesses must stay informed about regional regulations and partner with local legal advisors to ensure compliance. Understanding local consumer protection laws and product standards is critical for avoiding legal complications.

4. Optimize Supply Chain Logistics

Efficient logistics management is crucial for successful cross-border e-commerce. Businesses should collaborate with reliable logistics partners and utilize

real-time tracking systems to enhance delivery efficiency. Additionally, adopting blockchain technology can improve supply chain transparency and security.

Conclusion and Recommendations

Cross-border e-commerce has revolutionized international trade by providing businesses with unparalleled access to global markets. However, it also presents significant challenges related to payment processing, taxation, and legal compliance. By implementing strategic solutions, businesses can overcome these challenges and position themselves for long-term success in the global digital economy.

References

1. OECD (2020). "The Digital Economy: Trade and E-commerce."
2. European Commission (2021). "VAT e-Commerce Package."
3. World Trade Organization (2020). "Cross-Border E-commerce: The Global Trade Impact."
4. International Chamber of Commerce (2019). "Legal Aspects of Cross-Border E-Commerce."
5. KPMG (2021). "Taxation and E-Commerce: International Challenges."
6. PayPal (2020). "The Future of Cross-Border Payments."
7. Etsy. (2023). Annual Report 2023: Cross-Border E-Commerce Growth.
8. South China Morning Post. (2021). Cainiao's AI-Powered Logistics Revolutionizes Cross-Border Trade.
9. The Economic Times. (2022). Amazon Pay and UPI Integration in India: Impact on E-Commerce.
10. KPMG. (2021). The EU VAT E-Commerce Package and Its Business Implications.

Research Science and
Innovation House

**Халқаро савдо низоларини тижорат арбитражида
ҳал этиш йуллари .**

Вахобов Аббос

Тошкент давлат иқтисодийёт университети магистратура талабаси

Исламов Б.А.

Иқтисод фанлари доктори : Профессор

АННОТАТСИЯ

Мазкур мақолада халқаро савдо-иқтисодий битимлар доирасида юзага келадиган низолар ва уларни ҳал этиш механизмлари ҳақида маълумот берилган. Хусусан, халқаро хусусий ҳуқуқнинг аҳамияти, халқаро тижорат арбитражи (ҳакамлик судлари)нинг роли ва уларнинг афзалликлари ёритилган. Арбитраж битимларининг моҳияти ва низоларни ҳал қилишда томонларнинг эркини таъминлаш масалалари муҳокама қилинган. Шунингдек, халқаро тижорат арбитражининг ҳуқуқий асослари, уни тартибга солувчи халқаро конвенциялар ва келишувлар, шу жумладан, Нью-Йорк, Женева, Вашингтон конвенциялари каби муҳим халқаро ҳужжатлар кўриб чиқилган. Мақолада халқаро миқёсда машҳур бўлган арбитраж институтлари, шу жумладан, Халқаро савдо палатаси Арбитраж суди (ICC), Лондон халқаро ҳакамлик суди (LCIA), Стокгольм Савдо палатаси Арбитраж институти каби тузилмалар ҳақида маълумот берилган. Ўзбекистон Республикасида халқаро тижорат арбитражининг шаклланиши ва 2020 йилда қабул қилинган "Халқаро тижорат арбитражи тўғрисида"ги Қонуннинг аҳамияти ҳам ёритилган. Мақолада халқаро арбитражнинг мустақил ва нейтрал жараён сифатида самарадорлиги, унинг халқаро стандартларга мос равишда фаолият юритиши таъкидланган.

Калит сўзлар

Арбитраж , ICC, LCIA, МДХ, Конвенция, ЮНСИТРАЛ, ЛМТС, модда,

Кириш. Турли давлатлар ўртасидаги савдо-иқтисодий битимлар ва уларни бажариш жараёнида кўп ҳолларда келишмовчиликлар, шартнома шартларини бажармаслик ёки талаб қилинган даражада бажармаслик ҳолатлари юз беради. Бундай вазиятларда низо тез, самарали ва, энг муҳими,

адолатли ва оқилона ҳал этилиши керак. Бунинг учун, турли давлатларнинг ҳуқуқий тизимлари ва ҳуқуқий режими ўртасидаги фарқларни ҳисобга олиш муҳим аҳамиятга эга. Бундай низоларни ҳал қилишда халқаро хусусий ҳуқуқнинг коллизия нормаларидан фойдаланиш табиий. Аммо бундай ечимни ким топиши ва низоларни ҳал қилишнинг халқаро ҳуқуқий механизмларининг қандай ишлашини чуқур тушуниш керак бўлади. Хусусий ҳуқуқга оид халқаро ҳуқуқий ҳужжатларга кўра ҳам, кўпчилик давлатларнинг миллий қонунчилик тизимларига мувофиқ ҳам тарафлар эркининг мустақиллиги принципи эътироф этилади. Унга кўра, халқаро савдо-сотиқ шартномасини тузган томонлар бошқа масалалар қаторида миллий қонунчилик ёқлаган даражада келгусида юз бериши мумкин бўлган низоларни ҳал этиш усуллари олдидан белгилаб олишлари (низонинг миллий судларга ёки халқаро судларга тегишлилигини назарда тутиб қўйишлари) мумкин. Бу ҳол шартноманинг арбитражга оид қоидаларида назарда тутилади. [1,327]

Халқаро савдо-сотиқ муносабатлари чоғида юзага келадиган низоларни ҳал этишнинг ҳуқуқий тизимлари яратилган бўлиб, унинг асосий шакли халқаро тижорат арбитражлари (ҳакамлик судлари)дир. Халқаро савдо соҳасидаги низоларнинг тижорат арбитражлари орқали ҳал этилиши, биринчи навбатда, бир қатор афзал жиҳатларга эга бўлганлиги туфайли янада оммалашиб бормоқда. Бунинг асосий сабаби, халқаро тижорат арбитражи мустақил ва нейтрал жараён бўлиб, давлат судларининг юрисдикциясидан ташқарида қарор қабул қилинади. Шу билан бирга, арбитражда қарор чиқариш жараёни тезроқ ва самарали, томонлар ўртасидаги келишмовчиликларни ҳал қилишда юқори даражада профессионал мутахассислар иштирок этади.

- **Мавзуга оид адабиётлар таҳлили (Literature review).** Халқаро тижорат арбитражга тарафлар мурожаат этишлари фақатгина уларнинг розилиги билан амалга оширилади. Бундай розилик тарафлар ўртасида тузиладиган арбитраж келишуви (битими) сифатида намоён бўлади.

Арбитраж битими – бу томонларнинг, улар ўртасида бирон бир аниқ муносабатлар жараёнида содир бўлган ёки содир бўлиши мумкин бўлган ҳуқуқбузарлик оқибатида пайдо бўладиган низоларни арбитраж муҳокамасига топшириш тўғрисидаги битимдир.

Халқаро тижорат арбитражларида иш кўрилиши кўп жиҳатдан савдо-сотиқ битими қатнашчиларининг хоҳиш-иродасига боғлиқ бўлганлиги сабабли, уларнинг ташкил этилиши бериладиган ваколатлар, низони кўриб ҳал этиш тартиби, низо юзасидан чиқарилган ҳал қилув қарорларининг албатта бажарилишини таъминлаш масалалари ҳам низо иштирокчиларининг хоҳиши билан, яъни улар ўртасидаги арбитраж келишувлари ва арбитраж изоҳларига кўра белгиланади. Шу билан бирга, улар фаолиятининг тартибга солинишида миллий ҳуқуқий тизимларнинг аҳамияти ҳам катта бўлиб, кўпчилик давлатларнинг хўжалик ва фуқаролик-процессуал қонунчилигида низоларнинг халқаро арбитражларга тааллуқлилигини белгилаш, улар ишини ташкил қилиш, қабул қилган ҳал қилув қарорларининг мажбурий бажарилишига оид нормалар белгилаб қўйилган (Жумладан, Ўзбекистон Республикаси ХПКнинг 13, 25, 26 ва бошқа моддалари). Булардан ташқари, халқаро тижорат арбитражлари фаолиятининг тартибга солинишида турли савдо-иқтисодий битимлар, кўп томонлама шартномалар, халқаро конвенциялар муҳим ўрин тутди. [3]

- **Таҳлил ва натижалар (Analysis and results).** Халқаро тижорат арбитражлари ва низоларнинг ҳал этилишига оид жаҳоннинг кўпгина мамлакатлари иштирок этадиган энг муҳим конвенция ва ҳужжатлар сифатида куйидагиларни курсатиб утиш мумкин:

– Ташқисавдо арбитражи тўғрисидаги Европа конвенцияси. Женева, 1961 й.;

– Давлатлар ва бошқа давлатлар фуқаролари ўртасидаги инвестиция низоларини ҳал этиш тўғрисидаги Конвенция. Вашингтон, 1965й.;

– Хорижий арбитраж қарорларини тан олиш ва ижро қилиш тўғрисидаги конвенция. Нью-Йорк, 1958й.;

– Европада хавфсизлик ва ҳамкорлик мажлиси доирасида яраштирув ва арбитраж тўғрисидаги конвенция. Стокгольм, 1992й.;

– Ҳамдўстлик иштирокчи давлатлари ҳудудларида арбитраж, хўжалик ва иқтисодий судлар қарорларини ўзаро ижро қилиш тўғрисидаги келишув. Москва 1998й. (МДХ доирасида);

– Хўжалик фаолиятини амалга ошириш билан боғлиқ низоларни ҳал этиш тартиби тўғрисидаги келишув. Киев, 1992й. (МДХ доирасида);

– Халқаро тижорат арбитражи тўғрисидаги Америкаро конвенция. Панама, 1972й. (Америка давлатлари ташкилоти доирасида).

Булардан ташқари қуйидаги муҳим халқаро, тавсиявий характерга эга бўлган ҳужжатларни ҳам кўрсатиб ўтиш керак:

– Халқаро тижорат арбитражи тўғрисидаги ЮНСИТРАЛ намунавий қонуни. 1985 й.;

– ЮНСИТРАЛ арбитраж регламенти 1976 й.;

– ЮНСИТРАЛ келишув регламенти 1980 й.;

– Европа иқтисодий комиссияси арбитраж регламенти 1966 й. Бугунги кунда низолашаётган тарафлар, ўзларининг низоларини нисбатан машҳур ва халқаро миқёсда обрўга эга халқаро арбитражларга топширишга ҳаракат қилади. Бундай машҳур арбитражлар сифатида қуйилгиларни кўрсатиб ўтиш мумкин:

– Халқаро савдо палатасининг арбитраж суди (ИСС) (Париж);

– Стокгольм шаҳри Савдо палатаси Арбитраж институти (ТПС)

– Лондон халқаро ҳакамлик суди (ЛМТС)

– Швейцария Савдо саноат палатаси қошидаги арбитраж (ТПШ ШВЕЙЦАРИИ);

– Австрия иқтисодий Федерал палатаси халқаро арбитраж суди (ВМАС);

– Низоларни ҳал этиш халқаро маркази (МЦРС) (Америка арбитраж ассоциацияси қошида);

– Хитой халқаро иқтисодий ва савдо арбитражи комиссияси (КМЭТАК);

– Инвестиция низоларини ҳал этиш халқаро маркази (МЦУИС) (Вашингтон);

– Россия Федерацияси Савдо саноат палатаси қошидаги Халқаро тижорат арбитражи (МКАС ПРИ ТПП РФ).

Таъкидлаб ўтиш жоизки Ўзбекистон Республикасида ҳам халқаро тижорат арбитражи ташкил этилган бўлиб, у ўз фаолиятини Ўзбекистон Республикаси Савдо саноат палатаси қошида олиб боради. [1,333]

Ўзбекистон Республикасининг Қонуни Халқаро тижорат арбитражи тўғрисида

Қонунчилик палатаси томонидан 2020 йил 5 августда қабул қилинган . Ушбу Қонуннинг мақсади халқаро тижорат арбитражларининг фаолияти соҳасидаги муносабатларни тартибга солишдан иборат. Халқаро тижорат

арбитражи тўғрисидаги қонунчилик ушбу Қонун ва бошқа қонунчилик ҳужжатларидан иборатдир. Ўзбекистон Республикасининг халқаро шартномасида Ўзбекистон Республикасининг халқаро тижорат арбитражи тўғрисидаги қонунчилигида назарда тутилганидан бошқача қоидалар белгиланган бўлса, халқаро шартнома қоидалари қўлланилади. Ушбу Қонун нормаларини шарҳлашда унинг халқаро мансублигини ҳамда унинг қўлланилишида бир хилликка эришишга ва ҳалолликка риоя этилишига кўмаклашиш заруратини ҳисобга олиш лозим. Ушбу Қонунни тартибга солиш предметига тааллуқли бўлган ва унда тўғридан-тўғри ҳал этилмаган масалалар ушбу Қонун асосланган умумий принципларга мувофиқ ҳал этилиши лозим. [2]

Халқаро тижорат арбитражи, турли давлатлар ўртасидаги савдо-иқтисодий муносабатларда пайдо бўладиган низоларни ҳал қилишда муҳим механизм сифатида аҳамиятга эга. Арбитражнинг асосий афзаллиги шундаки, у мустақил ва нейтрал жараён бўлиб, давлат судларидан ташқарида иш кўрилади. Арбитраж томонларнинг эркига боғлиқ бўлиб, улар арбитраж келишуви асосида иш юритадилар, ва арбитраж қарорларининг бажарилиши томонларнинг келишувларига кўра амалга оширилади. Халқаро арбитражларнинг фаолияти кўплаб халқаро конвенциялар ва ҳужжатлар билан тартибга солинади. Бу конвенциялар давлатлар ўртасида ўзгаришлар ва низоларни ҳал қилишда адолатли ва самарали механизмни яратади. Халқаро арбитраж, шунингдек, миллий қонунчилик тизимлари билан ҳам уйғунлашган бўлиб, ўз фаолиятини аниқ ва бир хил ҳуқуқий асосларда амалга оширади. Ўзбекистон Республикасида ҳам халқаро тижорат арбитражи фаолият юритмоқда. У Ўзбекистон Республикаси Савдо саноат палатаси қошида ташкил этилган бўлиб, халқаро тижорат арбитражи тўғрисидаги қонун 2020 йилда қабул қилинган. Бу қонун халқаро арбитражларнинг фаолиятини тартибга солиш ва ушбу жараёнда халқаро стандартлар ва принципларга риоя этилган ҳолда, барча томонлар учун адолатли ва шаффоф қарорларни қабул қилишга ёрдам беради.

- Хулоса ва таклифлар (Conclusion/Recommendations). Халқаро тижорат арбитражи давлатлараро савдо-иқтисодий муносабатларда юзага келадиган низоларни ҳал этишнинг энг самарали ва адолатли механизмларидан бири

ҳисобланади. Арбитраж жараёни мустақил ва нейтрал бўлиб, томонларнинг хоҳиш-иродасига асосланади. Бу жараён давлат судларига қараганда тезкор ва ихтисослашган мутахассислар томонидан кўриб чиқилади. Халқаро тижорат арбитражининг фаолияти Нью-Йорк, Вашингтон, Женева ва бошқа халқаро конвенциялар, шунингдек, миллий қонунчилик меъёрлари асосида тартибга солинади. Ўзбекистонда ҳам халқаро тижорат арбитражи ташкил этилган бўлиб, у Савдо-саноат палатаси қошида иш юритади ва 2020-йилда қабул қилинган қонунчиликка асосланади. Бу тизим халқаро стандартларга мос равишда низоларни ҳал қилишга ва адолатли қарорлар қабул қилинишига хизмат қилади.

REFERENCES:

1. Халқаро савдо ҳуқуқи. Дарслик // Муаллифлар жамоаси / ю.ф.д., проф. С.Гулямов умумий таҳрири остида. –Т.: ТДЮУ, 2016.
2. <http://lex.uz//en/docs/5294106> Халқаро тижорат арбитражи тўғрисида.
3. <http://lex.uz//docs/185986> Ўзбекистон Республикасининг Хўжаликпроцессуал кодекси.

Research Science and Innovation House



**CONFLICT PREVENTION STRATEGIES
(METHODS FOR REACHING AGREEMENTS AND NEGOTIATION
TECHNIQUES; IMPROVING IJTIMOIY KO'NIKMALARAND
ALIGNMENT; MONITORING CONFLICTS IN PROJECT
MANAGEMENT SYSTEMS)**

Nizamova Shahnoza Erkinovna

Abstract

This article discusses conflict prevention strategies, methods for reaching agreements and conducting negotiations, improving ijtimoiy ko'nikmalarand alignment, as well as monitoring conflicts in project management systems. Reducing conflicts within project teams and implementing effective measures against them can enhance project outcomes and improve the teamwork environment. The article presents the necessary methods and approaches for applying these strategies in practice.

Basic words and concepts: Conflict prevention, agreement reaching, negotiation, soft skills, alignment, project management systems, monitoring, teamwork.

**СТРАТЕГИИ ПРЕДОТВРАЩЕНИЯ КОНФЛИКТОВ
(МЕТОДЫ ДОСТИЖЕНИЯ СОГЛАШЕНИЙ И ВЕДЕНИЯ
ПЕРЕГОВОРОВ; УЛУЧШЕНИЕ МЯГКИХ НАВЫКОВ И
СОГЛАСОВАННОСТИ; МОНИТОРИНГ КОНФЛИКТОВ В
СИСТЕМАХ УПРАВЛЕНИЯ ПРОЕКТАМИ)**

Аннотация

В данной статье рассматриваются стратегии предотвращения конфликтов, методы достижения соглашений и ведения переговоров, улучшение мягких навыков и согласованности, а также мониторинг конфликтов в системах управления проектами. Снижение конфликтов в проектных командах и принятие эффективных мер против них способствует улучшению результатов проекта и оптимизации работы в команде. В статье представлены необходимые методы и подходы для применения этих стратегий на практике.

Ключевые слова и понятия: предотвращение конфликтов, достижение соглашений, переговоры, мягкие навыки, согласованность, системы управления проектами, мониторинг, командная работа.

**NIZOLARNI OLDINI OLISH STRATEGIYALARI
(KELISHUVGA ERISHISH VA MUZOKARA OLIB BORISH
USULLARI;
SOFT SKILLS VA MUVOFIQLIKNI OSHIRISH;
LOYIHA BOSHQARUV TIZIMLARIDA NIZOLARNI MONITORING
QILISH)**

Nizamova Shahnoza Erkinovna

Annotatsiya:

Ushbu maqolada nizolarni oldini olish strategiyalari, kelishuvga erishish va muzokara olib borish usullari, ijtimoiy ko'nikmalarva muvofiqlikni oshirish, shuningdek, loyiha boshqaruv tizimlarida nizolarni monitoring qilishning samarali usullari tahlil etiladi. Loyiha jamoalaridagi nizolarni kamaytirish va ularga qarshi samarali choralar ko'rish, loyiha natijalarini yaxshilash va jamoaviy ish muhitini optimallashtirishga yordam beradi. Maqolada ushbu strategiyalarni amaliyotda qo'llash uchun zarur bo'lgan metodlar va yondashuvlar taqdim etiladi.

Tayanch soʻzlar va tushunchalar: Nizolarni oldini olish, kelishuvga erishish, muzokara, ijtimoiy ko'nikma, muvofiqlik, loyiha boshqaruv tizimlari, monitoring, jamoaviy ish.

Kirish. Loyiha boshqaruvining muvaffaqiyati ko'p jihatdan jamoa a'zolarining o'zaro munosabatlariga bog'liq. Loyiha jarayonida yuzaga keladigan nizolarni samarali boshqarish va ularning oldini olish, loyiha natijalarining muvaffaqiyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Nizolarni oldini olish uchun muhim omillardan biri – jamoa a'zolarining kommunikatsiya, kelishuvga erishish va muzokaralardagi yondashuvlarini yaxshilashdir. Ushbu maqolada, nizolarni oldini olish uchun qo'llaniladigan asosiy strategiyalar, kelishuvga erishish va muzokara olib borish usullari, ijtimoiy ko'nikmalarva muvofiqlikni oshirish, shuningdek, loyiha boshqaruv tizimlarida nizolarni monitoring qilish metodlari batafsil tahlil qilinadi.



- **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review).** Loyiha boshqaruvida nizolarni oldini olish va samarali boshqarish masalasi zamonaviy boshqaruv adabiyotlarida keng o'rganilmoqda. Bu masala nafaqat loyiha jamoalarining samarali ishlashini ta'minlash, balki loyiha maqsadlariga erishishni maksimal darajada ta'minlash uchun ham muhimdir. Nizolarni oldini olish strategiyalari sohasidagi ilmiy ishlar va tadqiqotlar turli xil metod va yondashuvlarni ko'rib chiqadi, ular orasida kelishuvga erishish, muzokaralar olib borish, soft skillsni rivojlantirish, va loyiha boshqaruv tizimlarida monitoringni o'rganish kabi muhim omillar mavjud.

1. Loyiha boshqaruvida kelishuvga erishish va muzokara olib borish:

Raiffa, Richardson va Metcalfning (2002) "The Art and Science of Negotiation" asarida muzokara olib borish jarayoni tahlil qilingan. Ular muzokara qilishda ikkita asosiy strategiyani – integrativ va distributiv strategiyalarni ta'kidlaydilar. Integrativ strategiya tomonlarning manfaatlarini hisobga olgan holda hamkorlikni kuchaytirishga asoslangan bo'lsa, distributiv strategiya qarama-qarshilikni bartaraf etishga yo'naltirilgan. Ushbu yondashuvlar loyiha boshqaruv tizimlarida ham nizolarni hal qilishda samarali vosita sifatida ishlatiladi.

2. Ijtimoiy ko'nikmalar va muvofiqlikni oshirish:

Ijtimoiy ko'nikmalar– jamoaviy ish, muloqot va etakchilik kabi ko'nikmalarni rivojlantirish ham jiddiy ahamiyatga ega. Goleman (1995) "Emotional Intelligence" asarida emosional intellekt va soft skillsning ahamiyatini yoritadi. U ta'kidlashicha, loyiha boshqaruvchilarining soft skillsga ega bo'lishi loyiha jamoalaridagi nizolarni oldini olish va samarali boshqarish uchun zarurdir. Bundan tashqari, loyiha boshqaruvidagi muvaffaqiyatli muvofiqlik va jamoaviy ishning ahamiyati haqida tahlillarni Elder va Paul (2009) "Critical Thinking: Tools for Taking Charge of Your Learning and Your Life" asarida keltiradi. Ular jamoa ichidagi o'zaro muvofiqlik va muloqotning samarali bo'lishi loyiha natijalariga ta'sir etishini ta'kidlaydilar.

3. Loyiha boshqaruv tizimlarida nizolarni monitoring qilish:

Loyiha boshqaruv tizimlarida nizolarni monitoring qilish ham muvaffaqiyatli boshqaruvning muhim elementidir. Turner va Keegan (2000) "The Management of Project and Programmes" asarida loyiha boshqaruv tizimlarida monitoring qilishning o'ni haqida so'z yuritiladi. Ular, loyiha jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni oldindan bashorat qilish va ularni tezda aniqlashning muhimligini ta'kidlaydilar. Monitoring jarayoni loyihani muvaffaqiyatli boshqarish

va nizolarni oldini olish uchun zarurdir. Ma'lumotlar yig'ish va tahlil qilish orqali loyiha boshqaruvchilari nizolarni vaqtida aniqlab, samarali chora-tadbirlarni ko'rishlari mumkin.

4. Nizolarni kamaytirish va boshqarish strategiyalari:

Nizolarni kamaytirish va boshqarish strategiyalari ham ko'plab tadqiqotlarda yoritilgan. Jeong (2009) "Conflict Management in Project Teams" asarida loyiha jamoalarida yuzaga keladigan nizolarni kamaytirish uchun integratsiya va kollaborativ yondashuvlarni o'rganadi. U loyiha boshqaruvidagi nizolarni oldini olish uchun qo'llaniladigan eng samarali usullar sifatida ochiq muloqot, aniq vazifalarni belgilash va muntazam ravishda nazorat qilishni ta'kidlaydi.

Shuningdek, Wilson va Anumba (2003) "Managing Project Risks and Issues" asarida loyiha jamoalarida yuzaga keladigan nizolarni oldini olish uchun risklarni boshqarishning muhimligini ta'kidlaydilar. Ular risklarni oldindan aniqlash va ular bilan ishlash orqali nizolarni kamaytirish mumkinligini ko'rsatadilar.

- **Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Nizolarni Oldini Olish Strategiyalari:

1. Kelishuvga Erishish va Muzokara Olib Borish Usullari:

Kelishuvga erishish va muzokara olib borish – loyiha boshqaruvining muhim qismidir. Nizolarni oldini olish uchun, loyiha jamoasi o'rtasida samarali kelishuvlar o'rnatilishi zarur. Bu usulda quyidagi yondashuvlar qo'llanilishi mumkin:

Zamonaviy muzokara usullari: Muzokaralar jarayonida har bir tomonning fikrlarini tinglash va ularning nuqtai nazarini hurmat qilish muhim ahamiyatga ega. Ziddiyatlar yuzaga kelganda, "Win-Win" strategiyasi qo'llaniladi, ya'ni barcha tomonlar manfaatlarini hisobga olgan holda hamkorlikka erishiladi. Bu usul, nizolarni oldini olish uchun jamoaning muammolarni birgalikda hal qilishiga yordam beradi.

Aktiv tinglash: Muzokaralarda faol tinglash usulini qo'llash muhimdir. Bunda, har bir ishtirokchi o'z fikrini aniq va ravon ifodalash bilan birga, boshqa tomonning fikrini tinglab, ularning nuqtai nazarini tushunishga harakat qiladi. Bu yondashuv, kelishuvga erishishda va nizolarni oldini olishda samarali bo'ladi.

Xulosa va kelishuvga erishish: Muzokaralarning muvaffaqiyatli yakunlanishi uchun tomonlar o'zaro kelishuvga erishishlari lozim. Ushbu kelishuv jamoaning ishlash jarayonini aniq va to'g'ri yo'nalishda davom ettirishini ta'minlaydi.



2. Ijtimoiy ko'nikmalarva Muvofiqlikni Oshirish:

Ijtimoiy ko'nikmalar– bu insonlararo munosabatlar, kommunikatsiya va jamoaviy ishdagi qobiliyatlarni o'z ichiga oladi. Ularning yuksalishi loyiha jamoasida nizolarni oldini olish va samarali ishlash uchun juda muhimdir. Quyidagi ijtimoiy ko'nikmalarko'nikmalarini rivojlantirish zarur:

Emotsional intellekt (EQ): Emotsional intellekt o'z his-tuyg'ularini boshqarish, boshqalar bilan yaxshi munosabatlar o'rnatish va ziddiyatlarni samarali hal etish qobiliyatidir. Bu ko'nikma, loyiha jamoasining muammolarga moslashuvchanligini oshiradi va nizolarni oldini oladi.

Komandada ishlash: Loyiha jamoasida ishlash qobiliyati, har bir a'zoning o'z rolini tushunishi va umumiy maqsadga erishish uchun birgalikda ishlashga tayyor bo'lishi zarur. Komanda a'zolari o'rtasida o'zaro hurmat va muvofiqlik, loyihalarning muvaffaqiyatli bajarilishiga katta hissa qo'shadi.

Moslashuvchanlik va ochiqlik: Loyiha jamoasi a'zolari o'rtasida ochiq va shaffof kommunikatsiya, har bir ishtirokchining fikrlarini hurmat qilishga asoslanadi. Muvofiqlik va moslashuvchanlik jamoaning nizolarni oldini olish va samarali ishlashiga yordam beradi.

3. Loyiha Boshqaruv Tizimlarida Nizolarni Monitoring Qilish:

Loyiha boshqaruv tizimlarida nizolarni monitoring qilish – muhim bir jarayon bo'lib, uning yordamida jamoada yuzaga kelgan nizolar tezkorlik bilan aniqlanadi va bartaraf etiladi. Quyidagi metodlar yordamida nizolarni monitoring qilish mumkin:

Risklarni boshqarish rejasi: Loyiha boshlanishidan oldin risklarni aniqlash va ularga qarshi choralar ko'rish zarur. Risklarni baholash, ularning oldini olish va ularni nazorat qilish orqali nizolarni kamaytirish mumkin. Risklarni monitoring qilish davomida, loyihaning har bir bosqichida yuzaga keladigan potensial nizolar va muammolarni aniqlash imkoniyati bo'ladi.

Kommunikatsiya va hujjatlarni monitoring qilish: Loyihadagi kommunikatsiya jarayonlarini nazorat qilish va hujjatlarni tizimli ravishda boshqarish orqali nizolarni monitoring qilish mumkin. Loyihaning har bir bosqichida hujjatlar orqali jamoa a'zolari o'rtasidagi aloqalarni, kelishuvlarni va amalga oshirilgan ishlarni kuzatish mumkin.

Interaktiv platformalar va platformalar orqali monitoring: Texnologik rivojlanish bilan loyihalarni boshqarishning yangi imkoniyatlari paydo bo'ldi.



Loyiha boshqarish tizimlarida (masalan, Trello, Asana, JIRA kabi) jamoa a'zolari o'rtasida aloqalarni doimiy ravishda monitoring qilish, yuzaga keladigan nizolarni oldini olish va ular bilan tezkor ishlash imkonini beradi.

- Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).

Loyiha boshqaruvida nizolarni oldini olishning eng samarali usullari, jamoaning o'zaro muvofiqligi, kommunikatsiya va muzokaralardagi qobiliyatlarni oshirishga asoslanadi. Muzokara usullari, ijtimoiy ko'nikmalarrivojlanishi, va monitoring tizimlari jamoaning nizolarni samarali hal qilish va loyiha muvaffaqiyatini ta'minlashga yordam beradi. Nizolarni aniqlash va ularni hal qilishning samarali strategiyalari, loyiha maqsadlariga erishishda asosiy omillardan biridir. Yangi texnologiyalar yordamida nizolarni monitoring qilish va boshqarish jarayonlari esa, jamoaning muvaffaqiyatli va uzluksiz ishlashiga imkon yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Schilling, M. A. (2017). "Strategic Management of Technological Innovation." McGraw-Hill Education.
- 2.Pinto, J. K. (2013). "Project Management: Achieving Competitive Advantage." Pearson.
- 3.Müller, R., & Turner, R. (2010). "Leadership in Project Management: A Research Perspective." *International Journal of Project Management*, 28(3), 271-279.
- 4.Buchanan, D. A., & Huczynski, A. A. (2017). "Organizational Behaviour." Pearson Education.
- 5.Fisher, R. (2000). "The 3D's of Conflict Resolution: Strategy, Skills, and Tactics." *International Journal of Conflict Management*, 11(1), 19-36.
- 6.Tucker, M. L., & Westervelt, M. (2010). "The Impact of Organizational Conflict on Project Success." *Project Management Journal*, 41(5), 29-41.

Research Science and
Innovation House



UZBEKISTAN'S ACCESSION TO THE WTO IN THE GLOBAL ECONOMIC ENVIRONMENT: RISKS AND OPPORTUNITIES

Mislimbekova Namuna Mamurjon qizi

Abstract

This article analyzes the process of Uzbekistan's accession to the World Trade Organization (WTO) and its impact on the country's economy. Uzbekistan's accession to the WTO creates opportunities for integration into the global economy, entering the international trade environment, and enhancing competitiveness. However, this process also has both positive and negative aspects, which are examined as risks and opportunities. The article analyzes the risks, strategies, and necessary political, economic, and institutional measures for the successful implementation of Uzbekistan's accession to the WTO.

Basic words and concepts: World Trade Organization, Uzbekistan, economic integration, international trade, competitiveness, risks, opportunities, economic policy, economic development, trade liberalization.

ПРИСОЕДИНЕНИЕ УЗБЕКИСТАНА К ВТО В ГЛОБАЛЬНОЙ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СРЕДЕ: РИСКИ И ВОЗМОЖНОСТИ

Аннотация

В данной статье анализируется процесс вступления Узбекистана в Всемирную торговую организацию (ВТО) и его влияние на экономику страны. Вступление Узбекистана в ВТО создаёт возможности для интеграции в мировую экономику, вступления в международную торговую среду и повышения конкурентоспособности. Однако этот процесс также имеет как положительные, так и отрицательные стороны, которые рассматриваются как риски и возможности. В статье анализируются риски, стратегии и необходимые политические, экономические и институциональные меры для успешной реализации процесса вступления Узбекистана в ВТО.

Ключевые слова и понятия: Всемирная торговая организация, Узбекистан, экономическая интеграция, международная торговля,



конкуренентоспособность, риски, возможности, экономическая политика, экономическое развитие, либерализация торговли.

GLOBAL IQTISODIY MUHITDA O‘ZBEKISTONNING JSTGA QO‘SHILISHI: RISKLAR VA IMKONIYATLAR

Mislimbekova Namuna Mamurjon qizi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada O‘zbekistonning Jahon Savdo Tashkilotiga (JST) qo‘shilishi jarayoni va bu jarayonning mamlakat iqtisodiyotiga ta‘siri tahlil etiladi. O‘zbekistonning JSTga qo‘shilishi, jahon iqtisodiyoti bilan integratsiya qilish, xalqaro savdo muhitiga kirishish va raqobatbardoshlikni oshirish imkoniyatlarini yaratadi. Biroq, bu jarayonning ijobiy va salbiy tomonlari ham mavjud bo‘lib, ular risklar va imkoniyatlar sifatida ko‘rib chiqiladi. Maqolada O‘zbekistonning JSTga qo‘shilishi bilan bog‘liq risklar, strategiyalar va bu jarayonning samarali amalga oshirilishi uchun zarur bo‘lgan siyosiy, iqtisodiy va institutsional chora-tadbirlar tahlil qilinadi.

Tayanch so‘zlar va tushunchalar: Jahon Savdo Tashkiloti, O‘zbekiston, iqtisodiy integratsiya, xalqaro savdo, raqobatbardoshlik, risklar, imkoniyatlar, iqtisodiy siyosat, iqtisodiy rivojlanish, savdo liberallasuvi.

Kirish. O‘zbekistonning Jahon Savdo Tashkilotiga qo‘shilishi — mamlakatning global iqtisodiyotga integratsiyalashuvi yo‘lida katta qadamdir. Ushbu jarayon nafaqat tashqi savdo aloqalarini kengaytirish, balki mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga yangi imkoniyatlar yaratishi kutilmoqda. Biroq, JSTga qo‘shilish jarayoni bir qator iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy o‘zgarishlarni talab qiladi. Ushbu maqola O‘zbekistonning JSTga qo‘shilishi bilan bog‘liq risklar va imkoniyatlarni, shu bilan birga, mamlakat iqtisodiyoti uchun bunday integratsiyaning qanday ta‘sir qilishini tahlil etadi.

- **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review).** O‘zbekistonning JSTga qo‘shilishi masalasi ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan. Ayniqsa, 1990-yillardan boshlab, JSTga qo‘shilish jarayonining iqtisodiy va siyosiy ta‘siri to‘g‘risida bir qator ilmiy ishlanmalar mavjud. Bular orasida, Xusanov (2015) va Raxmonov (2018) o‘zining tadqiqotlarida O‘zbekistonning JSTga qo‘shilishining iqtisodiy samaralarini tahlil qilib, mamlakatning savdo sektori va qishloq xo‘jaligiga



bo‘lgan ta‘sirini ko‘rsatgan.[1,39] Shu bilan birga, Nurmatov (2017) va Qodirov (2020) o‘z tadqiqotlarida JSTga qo‘shilishning davlat iqtisodiyotidagi risklarni kamaytirish va raqobatni oshirishga qanday imkoniyatlar yaratishini ko‘rib chiqishgan. Shuningdek, xalqaro tajriba asosida, Xitoy, Indoneziya va Vyetnamning JSTga qo‘shilishidagi tajribalari tahlil qilinib, O‘zbekiston uchun tavsiyalar berilgan.[2,41]

- **Tahlil va natijalar (Analysis and results).** O‘zbekistonning JSTga qo‘shilishining ijobiy va salbiy tomonlarini tahlil qilish orqali, mamlakat uchun turli imkoniyatlar va risklar aniqlanishi mumkin.

Imkoniyatlar

Global bozorga kirish: JSTga qo‘shilish orqali O‘zbekistonning eksport salohiyati kengayadi. Mamlakat o‘z mahsulotlarini JSTga a‘zo davlatlar bozorlariga erkin kirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa eksportning diversifikatsiyasiga olib keladi va iqtisodiy o‘shishni tezlashtiradi.

Sarmoyalar va investitsiyalar: JSTga a‘zo bo‘lish orqali O‘zbekiston xalqaro investorlar uchun jozibador bo‘ladi. Sarmoyalar va investitsiyalar oqimining oshishi, yangi texnologiyalar va innovatsion yechimlarning mamlakatga kirishiga yordam beradi.

Tashqi savdoda liberallashtirish: Savdo tariflari va tarif bo‘lmagan to‘siqlarni kamaytirish orqali O‘zbekiston jahon bozorida yanada raqobatbardosh bo‘ladi. Bu iqtisodiy islohotlarni jadallashtiradi.

Texnologik va bilim transferi: JSTga qo‘shilish mamlakatga zamonaviy texnologiyalarni va ilmiy-texnikaviy bilimlarni olib keladi. Bu esa mahalliy ishlab chiqarish va sanoatni modernizatsiya qilish imkoniyatini yaratadi.

Risklar

Mahalliy sanoatning zaiflashishi: JSTga qo‘shilish bilan birga, ba‘zi mahalliy sanoat tarmoqlari raqobatga dosh bera olmaydi. Bu esa importning o‘shishi va ba‘zi sanoat tarmoqlarining yopilishiga olib kelishi mumkin.

Ishlab chiqarish sektorining yomonlashishi: O‘zbekistonning ba‘zi sanoat tarmoqlari hali ham ilg‘or texnologiyalar va zamonaviy ishlab chiqarish usullariga ega emas. JSTga qo‘shilish ushbu tarmoqlarda raqobatni kuchaytirishi va ishlab chiqarish sifati yomonlashishiga olib kelishi mumkin.

Xalqaro bozordagi narxlarning o‘zgarishi: JSTga qo‘shilish, ayniqsa, xalqaro narxlar bo‘yicha barqarorlikni saqlashni qiyinlashtirishi mumkin. Mamlakatda

bozor narxlarining o'zgarishi ijtimoiy tengsizlikni kuchaytirishi va ijtimoiy taranglikka olib kelishi mumkin.

Xalqaro siyosiy va iqtisodiy risklar: Jahon bozorida siyosiy va iqtisodiy beqarorlik, valyuta kurslarining o'zgarishi, savdo urushlari va boshqa tashqi omillar O'zbekistonning iqtisodiy holatiga ta'sir qilishi mumkin.

Davlat Siyosati va Strategiyalar

Yuqori malakali kadrlar tayyorlash: JSTga qo'shilish jarayonida O'zbekiston o'zining mehnat bozorini tayyorlashga e'tibor qaratishi kerak. Xalqaro mehnat bozoriga kirish uchun malakali ishchi kuchi zarur.

Sanoatni modernizatsiya qilish: Mamlakatning sanoat tarmoqlarini raqobatbardosh qilish uchun yangi texnologiyalar va ishlab chiqarish usullarini joriy etish kerak. Bu esa eksport imkoniyatlarini oshiradi.

Iqtisodiy islohotlarni davom ettirish: O'zbekistonning iqtisodiy islohotlari JSTga qo'shilish jarayonida davom ettirilishi kerak. Iqtisodiy liberallashtirish, davlat tomonidan o'rnatilgan to'siqlarni kamaytirish va erkin bozorni rivojlantirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar zarur.

- Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).

O'zbekistonning JSTga qo'shinishi mamlakat iqtisodiyotining global bozorga integratsiyasiga yangi imkoniyatlar yaratadi. Biroq, bu jarayonning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy sohalarda keng ko'lamli islohotlar talab etiladi.

Takliflar:

Mahalliy sanoatni qo'llab-quvvatlash: JSTga qo'shilish jarayonida mahalliy sanoatni himoya qilish uchun davlat tomonidan qo'llab-quvvatlovchi chora-tadbirlar joriy etilishi kerak.

Iqtisodiy diversifikatsiya: O'zbekiston iqtisodiyotini diversifikatsiya qilishni davom ettirishi kerak. Bu yangi sanoat tarmoqlarini rivojlantirish va mamlakatning eksport salohiyatini oshirishga yordam beradi.

Ijtimoiy himoya choralari: JSTga qo'shilish jarayonida ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash uchun ijtimoiy himoya choralari, shu jumladan, ta'lim va ish bilan ta'minlash dasturlarini ishlab chiqish zarur.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Xusanov, M. (2015). "O‘zbekistonning Jahon Savdo Tashkilotiga qo‘shilishining iqtisodiy ta’siri." Tijorat va iqtisodiy tahlil jurnali.

2.Raxmonov, S. (2018). "Savdo liberallasuvi va O‘zbekistonning JSTga qo‘shilishi." O‘zbekiston iqtisodiyoti.

3.Nurmatov, T. (2017). "Jahon Savdo Tashkilotiga a’zo bo‘lishning O‘zbekiston iqtisodiyotiga ta’siri." Xalqaro iqtisodiyot.

4.Qodirov, A. (2020). "Jahon Savdo Tashkilotiga qo‘shilish va yangi iqtisodiy imkoniyatlar." Global iqtisodiy taraqqiyot.



Research Science and
Innovation House

МИКРОЭЛЕМЕНТЫ И ЗДОРОВЬЕ

МУХАМЕДЖАНОВА ДИЛОРОМ ИСМОИЛОВНА

PhD, ЦКДП ГМУ при АП РУз

Аннотация: В нашем организме непрерывно происходят сотни процессов, и в каждом из них участвуют макро- и микроэлементы. Они содержатся в костях, коже, крови, стимулируют выработку ферментов и синтез гормонов. Малейшая нехватка биологически значимых веществ способна вызвать развитие множества заболеваний, поэтому следить за их потреблением крайне важно. В этой статье расскажем о роли макро- и микроэлементов в организме человека, нормах их потребления и способах восполнения дефицита.

Ключевые слова: макроэлементы, важнейшую роль, важнейшую роль, функцию ЖКТ

ЧТО ТАКОЕ МАКРО- И МИКРОЭЛЕМЕНТЫ

В организме человека содержится около 90 элементов таблицы Менделеева. По объему вещества они делятся:

на макроэлементы — от сотен до десятков граммов, но не более 0,01% от массы тела;

микроэлементы — от нескольких граммов до нескольких миллиграммов, 0,001-0,00001% от массы тела;

ультрамикроэлементы, которые часто относят к микроэлементам — составляют нескольких миллиграммов и не более 0,00001% от массы тела.

Макро- и микроэлементы не производятся клетками организма и попадают в него из внешней среды. Недостаток этих веществ имеет для здоровья исключительно негативные последствия, степень тяжести которых определяется функцией каждого элемента.

КАКУЮ РОЛЬ МАКРО- И МИКРОЭЛЕМЕНТЫ ИГРАЮТ В ОРГАНИЗМЕ ЧЕЛОВЕКА

Макро- и микроэлементы играют важнейшую роль в организме человека, а некоторые и вовсе составляют основу жизни. Они обеспечивают нормальный кислотно-щелочной баланс, участвуют в процессах кроветворения и костеобразования, поддерживают осмотическое давление на постоянном уровне, налаживают внутриклеточное дыхание. Влияют на иммунную систему, обеспечивают полноценное сокращение мышц, входят в состав гормонов и т.д.



Магний нормализует процесс пищеварения, обеспечивая расщепление и усвоение белков, участвует в синтезе иммунных клеток и необходим для усвоения кальция. Отвечает за работу мышц, нервной, сердечно-сосудистой и эндокринной систем.

Фосфор поддерживает работу мышц, стимулирует деление клеток костной ткани, регулирует уровень pH, улучшает усвояемость глюкозы. Составляет минеральную основу костной и зубной ткани.



Калий важен для нормализации кислотно-щелочного баланса, поддержания плотности костей и работы мышц. Он также влияет на деятельность сердечно-сосудистой системы, почек и надпочечников. Кальций обеспечивает передачу нервных импульсов и сокращение мышц, участвует в синтезе гормонов, сокращении мышц, работе головного мозга. Именно этот элемент формирует костный каркас.

Сера является органомным элементом и присутствует в составе гемоглобина, принимает участие в синтезе гормонов и формировании кератина, необходима для регенерации тканей и выработки желчи. Является детокс-минералом и структурным компонентом белковых соединений.

Железо поддерживает теплообмен, иммунитет, функцию ЖКТ и работу мозга. 2/3 железа, присутствующего в организме, содержится в гемоглобине. Железо необходимо для транспортировки кислорода к клеткам всего организма. Нейтрализует токсины, участвует в создании красных кровяных телец и ферментов, в синтезе гормонов щитовидной железы. Влияет на состояние кожи, волос, ногтей.

Йод обеспечивает синтез гормонов щитовидной железы и нормальное развитие внутренних органов. Влияет на функцию гипофиза. Отвечает за состояние кожи, волос, ногтей. Стимулирует сжигание жировой ткани и мозговую активность. Предупреждает накопление радиоактивного йода. Кремний нужен для нормальной работы мышц и всего опорно-двигательного аппарата. Он повышает устойчивость организма к вирусам, ускоряет вывод токсинов, активизирует выработку «белков молодости» — коллагена и эластина. Предотвращает выпадение волос и деформации в костях. Играет ключевую роль в защите от многих заболеваний, связанных со слизистыми оболочками (например, туберкулез).

Марганец задействован в делении клеток и синтезе белков, присутствует в костной ткани, помогает усилить антиоксидантную защиту организма. Отвечает за синтез и обмен холестерина, усвоение железа.

Медь называют микроэлементом красоты и здоровья. Она участвует в образовании гемоглобина, коллагеновых волокон, пигментов, необходима для замедления окислительных процессов и поддержания тонуса сосудов.

Цинк регулирует обмен веществ (участвует в работе более 20 ферментов), стимулирует процессы регенерации, нормализует деятельность мозга и нервной системы, усиливает иммунный ответ организма. Важен для мужчин: участвует в процессах сперматогенеза.

Селен позитивно воздействует на работу мочеполовой системы, купирует воспалительные процессы, повышает эластичность сосудов и стимулирует

вывод токсинов. Поддерживает остроту зрения, обеспечивает стабильную работу нервной системы, нормализует работу эндокринной системы. Является прекрасным антиоксидантом.

Фтор важен для здоровья зубов и костей. Он ускоряет процессы восстановления организма, снижает риск развития заболеваний ротовой полости, улучшает усвояемость кальция и работу ЖКТ.

Хром усиливает антиоксидантную защиту, предупреждает образование холестериновых бляшек. Играет важную роль в углеводном и жировом обмене. Участвует в образовании инсулина, регулирует сахар в крови. Защищает сосуды сердца от склерозирования.

ПРИЧИНЫ ДЕФИЦИТА БИОЛОГИЧЕСКИ ЗНАЧИМЫХ ЭЛЕМЕНТОВ

Наиболее распространенными причинами дефицита макро- и микроэлементов в организме являются:

неправильное или недостаточное питание;

низкое качество питьевой воды;

прием лекарств;

раны, травмы, потеря крови;

наличие патологий, мешающих усвоению полезных веществ;

возросшая потребность в макро- и микроэлементах при прежнем уровне потребления (катализатором могут стать занятия спортом, беременность, стресс, джетлаг и пр.).

ПРИЗНАКИ НЕХВАТКИ ПОЛЕЗНЫХ ВЕЩЕСТВ

Биологически значимые элементы участвуют во множестве внутренних процессов, поэтому их нехватка может проявляться разной симптоматикой:

наличие лишних килограммов способно указывать на дефицит хрома, цинка и магния;

ухудшение состояния кожи и ее придатков (волос и ногтей) нередко вызвано нехваткой селена;

кариес, воспалительные процессы в ротовой полости, бледность кожного покрова и изменение гастрономических предпочтений могут говорить о недостатке фтора и железа;

среди признаков дефицита меди встречаются анемия, мышечная слабость, поражение костей, нарушение пигментации, работы сердечной мышцы, нервной системы;

проблемы с зачатием и вынашиванием ребенка, гормональный сбой, образование коллоидного зоба указывает на дефицит йода в организме;

медленное заживление ран, ухудшение состояния кожи, эмоциональное истощение могут быть вызваны недостатком серы;

общая слабость, рвота, обезвоживание — дефицит калия может иметь симптомы интоксикации;


недостаток кальция отражается на состоянии кожи, волос, ногтей, зубов. Могут возникать боли в суставах, судороги, кровотечения.

Признаки дефицита макро- и микроэлементов появляются не сразу. Первое время организм использует резервные источники — берет полезные вещества из костей, тканей органов, крови. Когда они иссякают, симптоматика становится более явной.

СУТОЧНАЯ НОРМА ПОТРЕБЛЕНИЯ БИОЛОГИЧЕСКИ АКТИВНЫХ ВЕЩЕСТВ

Суточные нормы потребления пищевых и биологически активных веществ установлены федеральной службой по надзору в сфере защиты прав потребителей и благополучия человека и изложены в методических рекомендациях МР 2.3.1.1915-04.

Элемент	Продукты	Адекватный уровень потребления	Верхний допустимый уровень потребления
Магний	Крупы, рыба, соя, мясо, яйца, хлеб, бобовые, орехи, курага, брокколи, орехи	400 мг	800 мг
Фосфор	Сыр, бобовые, крупы, рыба, хлеб, яйца, птица, мясо, грибы, орехи	800 мг	1600 мг
Калий	Бобовые, картофель, мясо, морская рыба, грибы, хлеб, яблоки, абрикосы, смородина, курага, изюм	2500 мг	3500 мг



Кальций	Сыр, творог, молоко, яйца, кисломолочные продукты, бобовые (фасоль, соя), орехи	1250 мг	2500 мг
Железо	Мясо, печень, почки, яйца, картофель, белые грибы, персики, абрикосы	15 мг для женщин 10 мг для мужчин	45 мг
Йод	Морская рыба, ламинария (морская капуста), молочные продукты, гречневая крупа, картофель, арония	150 мкг	300 мкг (из морских водорослей — 1000 мкг с учетом низкой усвояемости)
Кремний	Цельное зерно, свекла, морковь, репа, бобовые, редис, кукуруза, банан, капуста, абрикос	20 мг	30 мг
Марганец	Печень, крупы, фасоль, горох, гречиха, арахис, чай, кофе, зеленые листья овощей	2,5 мг	5 м
Медь	Мясо, морепродукты, орехи, зерновые, какао, отруби	1 мг	3 мг



Цинк	Мясо, рыба, устрицы, субпродукты, яйца, бобовые, семечки тыквенные, отруби пищевые	15 мг	30 мг
Селен	Зерновые, морепродукты, печень, почки, сердце, чеснок	100 мкг	200 мкг
Фтор	Морская рыба, чай	1,5 мг	4 мг
Хром	Печень, сыр, бобы, горох, цельное зерно, черный перец	50 мкг	200 мкг

ИЗБЫТОК МАКРО- И МИКРОЭЛЕМЕНТОВ

Избыток полезных веществ также вреден, как и их нехватка. При чрезмерной концентрации в организме макро- и микроэлементы становятся токсичными и начинают конфликтовать. Например, профицит цинка провоцирует желудочно-кишечные расстройства, а избыточный объем кальция снижает абсорбцию железа.

Признаками избытка биологически активных веществ в организме являются: ухудшение общего самочувствия (тошнота, слабость, головокружение); ухудшение состояния волос, ногтей, кожи; нарушение работы внутренних органов и развивающиеся на фоне этого патологии (затрудненное дыхание, камни в почках, гормональный сбой и пр.).

КАК УСТРАНИТЬ НЕХВАТКУ МАКРО- И МИКРОЭЛЕМЕНТОВ

Восстановление баланса полезных веществ в организме — это комплексный процесс, который предполагает коррекцию всего образа жизни. Следует поддерживать физическую активность, чаще бывать на свежем воздухе, отказаться от вредных привычек, заботиться о здоровье. В восполнении



дефицита макро- и микроэлементов особую роль играют питание и биологически активные добавки.

Питание

Главный принцип здорового питания — разнообразие. Однако за последние 100 лет рацион человека сильно изменился — продовольственное разнообразие снизилось в разы, а современные технологии производства и обеднение почвы не лучшим образом сказались на качестве продуктов. Это, а также стресс, плохая экология и перекусы на бегу приводят к тому, что большинство людей годами живет с хроническим дефицитом минералов и даже не знает об этом.

Биологически активные добавки (БАДы)

Получить все необходимые полезные вещества исключительно из пищи почти невозможно. Дело не только в качестве продуктов, но и в потребностях организма. Они формировались на заре человечества и с тех пор не сильно изменились, чего нельзя сказать о самих людях и их образе жизни.

Биологически активные добавки (БАДы) позволяют просто и безопасно восполнить дефицит макро- и микроэлементов в организме. В витаминно-минеральных комплексах все элементы сбалансированы, что способствует их усвоению и повышает общую эффективность средства.

Роль макро- и микроэлементов в организме человека колоссальна — они поддерживают его систему жизнедеятельности, обеспечивают здоровье и красоту. Начните заботиться об их потреблении, и отличное самочувствие не заставит себя ждать!

Список использованной литературы

1. В.С. Камышников Справочник по клинико-биохимическим исследованиям и лабораторной диагностике.
2. А.А. Кишкун Руководство по лабораторным методам диагностики.
3. В.Г. Колб, В.С. Камышников Справочник по клинической химии.
4. Р.А. Сабирова, Н.М. Юлдашев, Ф.Х. Иноятова, М.У. Кулманова Медицинская биохимия

Research Science and
Innovation House

Amudaryo to'qaylari va uning bioxilma-xilligining o'zgarib borishini o'rganish

Bobojonova Kumush Iskandar qizi
Urganch davlat universiteti magistranti

Annotatsiya: Amudaryo, O'rta Osiyo mintaqasidagi eng yirik daryolardan biri bo'lib, o'zining o'zgarmas ekologik ahamiyatiga ega. Daryoning suvlari va unga yaqin hududlarda joylashgan to'qaylar turli xil o'simliklar va hayvonlar uchun yashash joyi yaratadi. Biroq, inson faoliyati, jumladan, qishloq xo'jaligi, sanoat ishlab chiqarish va suv resurslarini boshqarish to'qaylarning bioxilma-xilligi va ekologik holatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu maqolada Amudaryo to'qaylarining o'zgarib borishi, uning bioxilma-xilligiga ta'siri, va ekologik holatni saqlash uchun zarur bo'lgan chora-tadbirlar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Amudaryo, to'qaylar, bioxilma-xillik, o'zgarish, ekologiya, inson faoliyati, suv resurslari.

Аннотация: Амударья — одна из крупнейших рек Центральной Азии, имеющая важное экологическое значение. Воды реки и прилегающие территории образуют место обитания для множества растений и животных. Однако деятельность человека, включая сельское хозяйство, промышленное производство и управление водными ресурсами, оказывает негативное влияние на биоразнообразие и экологическое состояние амударинских лесов. В данной статье анализируются изменения в амударинских лесах, их влияние на биоразнообразие, а также мероприятия, необходимые для сохранения экологического состояния.

Ключевые слова: Амударья, леса, биоразнообразие, изменения, экология, деятельность человека, водные ресурсы.

Abstract: The Amu Darya is one of the largest rivers in Central Asia, holding significant ecological value. The waters of the river and the surrounding areas create habitats for a variety of plants and animals. However, human activities, including agriculture, industrial production, and water resource management, have negatively impacted the biodiversity and ecological state of the Amu Darya forests. This article analyzes the changes in the Amu Darya forests, their impact on biodiversity, and the necessary measures to preserve ecological stability.


Keywords: Amu Darya, forests, biodiversity, changes, ecology, human activity, water resources.

Kirish: Amudaryo to'qay landshaftlarini maydonini qisqarishi, uning komponentlariga insonlar o'rtasidagi a'loqadorlikka katta ta'sir ko'rsatadi. Albatta bu ta'sirga ham inson faoliyati sezilarli bo'lib, murakkab salbiy oqibatarni yuzaga keltiradi. To'qay landshaftlari komponentlarini inson xo'jalik faoliyatita'siriga uchrashi va uning oqibatlarini har bir komponentga bo'lgan ta'sir misolida ko'rib chiqamiz. To'qay landshaftini hosilqiluvchi komponentlar –yer o'sti, suv, mikroiklim, o'simlik vahayvonotdunyosi, tuproqlaridir. Bular barcha landshaftlarga ham hos komponentlardir. To'qay landshaftlari hayotida ham yer po'stining yuza qatlamlari va tashqi hamda ichki kuchlar hosilasi bo'lgan relief, atmosferaning barcha hususiyatlari, havo tsirkulyatsiyasi hosilasi bo'lgan iqlim juda katta rol o'ynaydi. Shuning uchun ham relief, tog' jinslari va iqlim landshaftining asosiy komponentlaridir. Landshaftning geologik komponenti albatta bir hildagi tog' jinslaridan iborat bo'lishi shart emas. Zaminni litologik tarkibi deb, ma'lum bir hil sharoitda yuzaga kelgan hamda hududiy jihatdan bog'langan jinslarning genetik komplekslarini hosil qiluvchi biologik formatsiyani tushunish mumkin.

To'qay landshafti geologik zamini asosan Amudaryo olib kelgan alyuvial jinslar evaziga shakllangan. Inson xo'jalik faoliyati bilan geologik zaminga ta'sir qila olmaydi. Yer osti suvlarini sug'orish orqali vujudga kelishi ham geologik zaminga bog'liq. Umuman olganda to'qayzor landshafti geologik zamini inson ta'siriga uchramagan, lekin bu landshaftda yuza relief shakllari inson ta'siriga uchragan. To'qay landshaftining relief komponentining o'zgarishi boshqa komponentlarning o'zgarishi bilan bog'liq. Masalan; cho'lga, qumli yerlarga tutash to'qayzorlarda mollarning boqilishi o'simlik olamini kamyishiga, bu esa qumlarni ko'chishiga olib keladi. Yuza relief shaklining o'zgarishi shu yerdagi o'simlik va hayvonot olamiga ham ta'sir ko'rsatadi.

Asosiy qism: To'qayzorlar hududida kanal va zahkashlar qazilganligi dambalar ko'tarilganligi natijasida ham yuza relief qismlari o'zgargan. Ekin maydonlarining to'qayzor hududida tashkil qilinishi ham relefga ta'sir ko'rsatgan. Umuman olganda to'qay landshaftni geologik komponenti yuza relief shakllari tabiiy ravishda sekin va inson faoliyati natijasida tez o'zgarib turadi.

Inson faoliyati bilan yuza relief shakllarining o'zgarishi landshaftning boshqa komponentlariga ta'sir ko'rsatadi. Masalan : to'qay hududidan kanal qazib o'tkazish



orqali shuyerga hos o'simliklarga ta'sir kuchayadi. Hayvonot olami ko'chib ketadi, botqoqlashish yoki namlikni kuchayishi kuzatiladi. To'qay landshafti geologik komponentiga inson o'ziga hos tarzda ta'sir etib salbiy oqibatlarini yuzaga keltiradi. Viloyat to'qay landshaftining suv komponenti hozirgi kunga kelib inson ta'siriga kuchli darajada berilgan. Ma'lumki to'qay landshaftini suv komponenti boshqa landshaftdagi suvlardan havzasining holati, suv harakati, kimyaviy tarkibi termik rejimi va boshqa xususiyatlari bilan farq qiladi. Tuyamo'yin suv ombori qurilmasdan oldin suv komponentga quyidagi xususiyatlar hos bo'lgan to'qay hududida shakllangan barcha suvlar Amudaryo faoliyatiga bog'liq holda bo'lgan. Daryo suvi o'zi olib kelgan yotqizilarni yotqizib, o'simlik qoplamini rivojlanishini va tuproq komponentining shakllanishini tartibga solgan, ya'ni to'qay landshaftini rivojlanish evolyutsiyasi bevosita daryo suvi oqimiga bog'liq bo'lgan.

Daryodan 20-30 km uzoqlikdagi yoki asosiy to'qay landshaftlari hududidagi grunt suvlarning sathi 7-8 m pastda bo'lgan tuyamo'yin suv omborining qurilishi bilan bu suvlar sathi oshdi. Oldin daryo bo'yidagi 10 km.gacha bo'lgan yerlardagi suv sathi 2-6 m dan 1-3 m gacha o'zgardi. Yer osti suvlari sathibevosita Amudaryo suv rejimi bilan bog'liq bo'lib, bug'lanish sezilarli ta'sir ko'rsatmagan. O'z o'rnidayer osti suvlarining minerallik darajasi to'qay evolyutsiyasi rivojlanishiga mos bo'lgan.

Amudaryo suvining ko'plab sug'orishga olinishi hamda Tuyamo'yin suv omborining qurilishi natijasida to'qay landshafti suv komponenti inson ta'siriga berildi. Birinchidan, loyqa yotqizilarni miqdori kamaydi. Bu o'z o'rnida o'simliklarni o'sishiga ta'sir qildi. O'sish mumkin bo'lgan 20% o'simliklar rivojlanishi kamaydi. Daryo suv rejimi tabiiy holatdan, suniy suv rejimiga bo'y sundurildi. Dastlabiy osti suvlari sathipasaydi, kuchli issiqlik evaziga bo'lgan bug'lanish bu suvlarning menarallik darajasini oshirib yubordi. Bu esa o'simliklar o'sish sharoitini yomonlashishi bilan birga tuproq tarkibini buzilishi va sho'rlanishini kuchayishiga olib keldi. Tuyamo'yin suv ombori to'qaylar hududidan balandligi sababli asta sekin butun viloyat hududidayer osti suvlari sathini ko'tarilishi boshlandi. Suv omborga yaqin hududlarda sho'rlanish miqdori oshdi. Suv komponenti inson ta'siriga uchrashi boshqa komponentlarining ham o'zgarishiga olib keldi.

Muhokama: To'qay voha joy tipi. Bu tipdagi voha landshaftlar Xorazm viloyati hududida qadimiy delta voha landshaftlariga nisbatan kam tarqalgan bo'lib, ular asosan Amudaryoning chap sohilidagi qayirlarda rivojlangan. To'qay voha

landshaftlari inson xo'jalik faoliyati ta'sirida qadimda keng tarqalgan to'qayzorlarni o'zlashtirish va madaniylashtirish hisobiga barpo etilgan antropogen landshaftlardir. To'qay voha joy tipining asosiy relef shakli gilli va qumoq mayda zarrachali allyuvial yotqiziqlardan tarkib topgan qayir tekisliklardan iborat. Qayir allyuvial tekisliklarning asosiy relef shakli pastqam botiqlar, qum do'ngliklari va qoldiqli o'zan mezorelef elementlari bilan murakkablashgan. To'qay voha joy tipining 72% maydonini agrolandshaftlar, 14% ini shahar va qishloq seliteb landshaftlar, 8 % ini ixota daraxtzorlari va 6% ini irrigatsion landshaftlar tashkil etadi.

To'qay voha joy tipining morfologik strukturasi Amudaryo qayirining mezorelef shakllari bilan uzviy bog'liq. Har qaysi hududning xarakterli xususiyatlarini belgilovchi turli xil mezorelef elementlari, ularning asosini tashkil etuvchi ona jinslar, tuproq turlari, mexanik tarkibi va boshqa omillar antropogen urochishalarning tarkib topishida va ularning rang-barang bo'lishida indikatorlik rolini bajaradi. Ana shu tamoyillarga asoslangan holda to'qay voha joy tipi doirasida quyidagi antropogen voha urochishalar tipini ajratilgan:

1. pastki qayirdagi sug'oriladigan allyuvial tuproqlarda tashkil topgan agrolandshaftlar;
2. . pastki qayirdagi sug'oriladigan botqoq tuproqlarda tarqalgan kuchli namlangan agrolandshaftlar;
3. o'rta qayirdagi sug'oriladigan o'tloq tuproqlarda rivojlangan agrolandshaftlar
4. o'rta qayirdagi sug'oriladigan kam sho'rlangan o'tloq-botqoq tuproqlarda shakllangan agrolandshaftlar;
5. o'rta qayirning pastqam joylaridagi sug'oriladigan botqoq-o'tloq tuproqlarda vujudga kelgan agrolandshaftlar; 6.
6. baland qayirning sug'oriladigan o'rtacha sho'rlangan o'tloq tuproqlarida keng tarqalgan agrolandshaftlar;
7. baland qayirning sug'oriladigan taqirsimon o'tloq tuproqlarida barpo etilgan agrolandshaftlar;
8. qayirning barcha hududlari uchun xarakterli bo'lgan mevali bog', tut plantatsiyalari va manzarali daraxtlardan tashkil topgan agrolandshaftlar.

Makon va zamonda doimiy ravishda sodir bo'lib turadigan va xilma-xil tabiiy geografik jarayonlarni yuzaga keltiradigan sabab-oqibat hodisalarining o'zaro uzviy bog'liqligiga inson o'zining butun xo'jalik faoliyati davomida izchillik bilan e'tibor

bermog'i lozim. Chunki, hozirgi fan-texnika taraqqiyoti davrida hamda ishlab chiqarishning jadallashuvi oqibatida geoekologik vaziyat kun sayin murakkablashib, yangi-yangi global, regional va mahalliy sotsial-ekologik, landshaft-ekologik, tibbiy-ekologik muammolar vujudga kelmoqda. Shuning uchun atrof-muhitda vujudga kelgan ekologik vaziyatni va uning ta'sirida yuz berayotgan salbiy o'zgarishlarni landshaft-ekologik va atrof-muhitni muhofaza qilish nuqtai nazardan kompleks tadqiq etish hozirgi zamon talablaridan va dolzarb muammolaridan biridir.

O'zbekiston Respublikasida ekologik muvozanatning keskin buzilishi va buning natijasida vujudga kelgan sotsial va tibbiy ekologik tanglik Quyi Amudaryo regionida, jumladan Xorazm viloyatida bir necha yildan beri hukmronlik qilib kelmoqda. Xorazm viloyati hozirgi landshaftlarining ekologik holati va uning keskinlik darajasi ham Quyi Amudaryoning boshqa hududlarida vujudga kelgan ekologik tanglik bilan uzviy bog'liq.

Dinamik rivojlanib borayotgan geoekologik vaziyatlarni tadqiq qilish, optimallashtirish va ekologik ekspertiza qilish masalalari M.P.Tolstov (1984), V.M.Chupaxin (1990), X.Vaxobov, O.T.Mirzamaxmudov (2006), A.N.Nigmatov (2005), N.Komilova (2006, 2007), S.B.Abbosov (2007), A.R.Raxmatullayev (2018), A.X.Ravshanov (2020), Q.S.Yarashev (2018, 2022), K.M.Boymirzayev (2020), O.M.Qo'ziboyeva (2022), N.R.Alimqulov (2024) va boshqalarning ilmiy ishlarida o'z ifodasini topgan. Quyi Amudaryo regionida, jumladan Xorazm viloyati voha landshaftlarida vujudga kelgan ekologik vaziyat, hozirgi landshaftlarni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan foydalanishning geografik asoslari kabi masalalar V.P.Kostin (1962), V.A.Popov (1982), A.Baxiyev (1985), P.Baratov (1991), A.A.Abdulqosimov (1997, 2000), A.Rafiqov (2001), S.I.Abdullayev (2000, 2001), P.G'ulomov, M.Mirakmalov (2001), I.Q.Nazarov, X.R.Toshev (2003), V.A.Rafiqov (2018), Z.A.G'aniyev (2022), E.A.Fayziyev (2024) va boshqalarning ishlarida ma'lum darajada yoritilgan. Binobarin, Xorazm viloyatining ekologik holatini kompleks tahlil qilish, uni yaxshilash chora-tadbirlarni ishlab chiqish, hozirgi landshaftlarni muhofaza qilishni tashkil etish va boshqarish kabi masalalarni yechimini topib hayotga tadbiq etish maqsadga muvofiqdir.

Inson o'zining xo'jalik faoliyati davomida tabiatdan va uning resurslaridan maqsadga muvofiq foydalanar ekan, geografik komponentlarning o'zaro bog'liqligi va aloqadorligi, bir-biriga ta'sir etish, paragenetik landshaft komplekslar doirasida

modda va energiya almashinish jarayoni hamda uning yo'nalish xarakteri, tabiiy va antropogen geosistemalarning ekologik vaziyati hamda ularni ifloslantiruvchi manbalar to'g'risida sifat va miqdor ko'rsatkichlarga, ya'ni geografik informatsion sistemaga ega bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Xulosa va takliflar: Amudaryo to'qaylari va uning bioxilma-xilligi o'zgarmas ekologik ahamiyatga ega bo'lib, bu hududlar ko'plab o'simlik va hayvon turlari uchun yashash joyi hisoblanadi. Ammo inson faoliyati, ayniqsa qishloq xo'jaligi, sanoat ishlab chiqarish, suv resurslarini noto'g'ri boshqarish va iqlim o'zgarishi kabi omillar bu hududlarning ekologik holatiga sezilarli zarar etkazmoqda. To'qaylar va ularning bioxilma-xilligi yo'qolib borishi, erkin suv resurslarining kamayishi, turli xil biologik turlarni yo'q qilish xavfini tug'dirmoqda. Shu bois, Amudaryo mintaqasida ekologik muvozanatni tiklash va saqlash uchun aniq chora-tadbirlar zarur.

Takliflar:

1. **Suv Resurslarini Tejamkor Boshqarish:** Amudaryo va uning atrofidagi hududlardagi suv resurslari boshqaruvini yanada samarali qilish zarur. Suvni tejash va uni muvozanatli taqsimlash uchun yangi texnologiyalar va boshqaruv tizimlari joriy etilishi lozim.
2. **Ekologik Barqarorlikni Ta'minlash:** Amudaryo to'qaylarining saqlanishi va tiklanishini ta'minlash uchun hududlarda ekotizimni qo'llab-quvvatlovchi dasturlar ishlab chiqilishi kerak. Bunga ekosistemalarning tiklanishiga yordam beradigan rehabilitatsiya va konservatsiya tashabbuslarini kiritish mumkin.
3. **Iqlim O'zgarishiga Moslashish:** Iqlim o'zgarishining Amudaryo mintaqasidagi ekologik tizimlarga ta'sirini tahlil qilish va unga moslashish uchun innovatsion yondashuvlar ishlab chiqish zarur. Bu yerda issiqxona gazlari emissiyasini kamaytirish va yashil texnologiyalarni joriy etish muhimdir.
4. **Ommaviy Axborot va Ta'lim:** Amudaryo atrofidagi jamoatchilikni ekologik muammolar va ularni hal qilish yo'llari haqida xabardor qilish uchun ta'lim dasturlarini yaratish zarur. Ayniqsa, yosh avlodga ekologiya haqida to'g'ri tushuncha berish kerak.
5. **Xalqaro Hamkorlikni Kuchaytirish:** Amudaryo daryosi bir nechta davlatlarni o'z ichiga olgan mintaqada joylashganligi sababli,

mintaqaviy va xalqaro darajada hamkorlikni mustahkamlash lozim. Faqat birgalikda olib boriladigan sa'y-harakatlar Amudaryo to'qaylarini va uning bioxilma-xilligini saqlashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Axmadaliyev, B. (2018). Amudaryo ekosistemi va uning ekologik muammolari. Tashkent: O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Noshirligi.
2. Mahmudov, A. (2015). O'rta Osiyo daryolarining ekologik holati va bioxilma-xilligi. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va Atrof-muhitni muhofaza qilish qo'mitasi.
3. Jalilov, U., & Usmonov, K. (2020). Amudaryo va Sirdaryo daryolarining ekologik holatini saqlash va boshqarish. Tashkent: O'zbekiston davlat ekologiya universiteti.
4. Sultonov, A. (2017). Qishloq xo'jaligi va ekologiya: Amudaryo hududidagi o'zgarishlar. Samarqand: Samarqand Davlat Universiteti Noshirligi.
5. Kurbanov, F. (2019). Iqlim o'zgarishining O'rta Osiyo ekosistemalariga ta'siri. Tashkent: Yangi asr avlodi.
6. Ismoilov, R. (2021). Amudaryo havzasidagi suv resurslarini boshqarish va ekologik muvozanatni saqlash. Tashkent: O'zbekiston ekologiya va resurslar instituti.
7. Raxmonov, B. (2020). Amudaryo daryosining bioxilma-xilligiga ta'sir etuvchi omillar. Tashkent: O'zbekiston milliy universiteti nashriyoti.

Research Science and
Innovation House



O‘ZBEK SAN’ATI AN’ANALAR JILOSI VA ZAMONAVIY NAFOSAT

Axatova Zohira Aktam qizi, Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti, San’atshunoslik va muzeyshunoslik fakulteti, San’atshunoslik (tasviriy va amaliy san’at) yo‘nalishi 3 bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada 2025-yil 12-mart kuni Ikuo Xirayama Xalqaro madaniyat karvon saroyida tashkil etilgan “Zar qadrini zargar bilar” ko‘rgazmasi tahlil qilinadi. Ushbu ko‘rgazma o‘zbek zargarlik san’ati an’analari va zamonaviy tendensiyalarining uyg‘unligini namoyish etdi. Ko‘rgazmada taniqli ustalar, jumladan, Fasixiddin Dadamuhamedov va Bobur Dadamuxamedov va yana ko‘plab hunarmandlarning milliy zargarlik merosini zamonaviy uslubda talqin etgan asarlari taqdim etildi. Maqolada “Tanga jevak”, “Panjara bo‘yin bezagi”, “Baldoq” va “Bodom” kabi taqinchoqlarning badiiy, texnik va ramziy xususiyatlari o‘rganilgan. Bundan tashqari, O‘zbekistonda zargarlik sohasini rivojlantirishga qaratilgan huquqiy asoslar ham yoritilgan. Ushbu tadqiqot milliy zargarlik san’atining jahon miqyosidagi rivoji va yosh avlod uchun ahamiyatini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: O‘zbek zargarlik san’ati, an’ana va innovatsiya, milliy meros, zamonaviy tendensiyalar, Fasixiddin Dadamuhamedov, Bobur Dadamuxamedov, Xurshida Xayitboboyeva, “Zar qadrini zargar bilar”, filigran, hunarmandchilik.

UZBEK ART: THE RADIANCE OF TRADITIONS AND MODERN ELEGANCE

Axatova Zohira Aktam qizi, Kamoliddin Behzod National Institute of Art and Design, Faculty of Art History and Museology, 3rd-year student in Art Studies (Visual and Applied Arts)

Abstract: This article analyzes the exhibition “Zar Qadrini Zargar Bilar” (Only a Jeweler Knows the Value of Gold), held on March 12, 2025, at the Ikuo Hirayama International Caravanserai of Culture. The exhibition demonstrated the harmony between Uzbek jewelry-making traditions and contemporary trends. Renowned artisans, including Fasixiddin Dadamuhamedov and Bobur Dadamuxamedov, presented works that interpret national jewelry heritage in a modern style. The article examines the artistic, technical, and symbolic features of

jewelry pieces such as “Tanga Jevak”, “Panjara Necklace”, “Baldoq”, and “Bodom”. Additionally, the legal framework for the development of jewelry craftsmanship in Uzbekistan is discussed. This study highlights the global significance of Uzbek jewelry art and its importance for future generations.

Keywords: Uzbek jewelry art, tradition and innovation, national heritage, modern trends, Fasxiddin Dadamuxammedov, Bobur Dadamuxamedov, Xurshida Khayitboboyeva, Zar Qadrini Zargar Bilar, filigree, craftsmanship.

УЗБЕКСКОЕ ИСКУССТВО: СИЯНИЕ ТРАДИЦИЙ И СОВРЕМЕННАЯ ЭЛЕГАНТНОСТЬ

Ахатова Зохира Актам дочъ, Национальный институт искусства и дизайна имени Камолиддина Бехзода, Факультет искусствоведения и музееведения, Студентка 3-го курса направления «Искусствоведение (изобразительное и прикладное искусство)

Аннотация: В данной статье анализируется выставка «Zar Qadrini Zargar Bilar» (Только ювелир знает цену золоту), прошедшая 12 марта 2025 года в Международном караван-сарая культуры имени Икуо Хираямы. Выставка продемонстрировала гармонию между традициями узбекского ювелирного искусства и современными тенденциями. Известные мастера, такие как Фасхиддин Дадамухамедов и Бобур Дадамухамедов, представили свои работы, сочетающие национальное ювелирное наследие с современными стилями. В статье рассматриваются художественные, технические и символические особенности таких украшений, как «Танга Джевак», «Ожерелье Панжара», «Балдак» и «Бодом». Кроме того, освещаются правовые основы развития ювелирного искусства в Узбекистане. Данное исследование подчеркивает мировую значимость узбекского ювелирного искусства и его важность для будущих поколений.

Ключевые слова: узбекское ювелирное искусство, традиции и инновации, национальное наследие, современные тенденции, Фасхиддин Дадамухамедов, Бобур Дадамухамедов, Хуршида Хаитбобоева, Zar Qadrini Zargar Bilar, филигрань, ремесленное мастерство.

KIRISH

O‘zbekistonda zargarlik san’ati asrlar davomida shakllanib, milliy hunarmandchilikning muhim qismi sifatida rivojlanib kelmoqda. Tarixiy jarayon davomida u nafaqat estetik, balki ma’naviy ahamiyat kasb etib, turli naqsh va ramzlar orqali xalqning madaniyati va dunyoqarashini aks ettirgan. Bugungi kunda zargarlik san’ati an’anaviy uslublarni saqlagan holda zamonaviy texnologiyalar bilan boyitilmoqda. Ushbu maqolada 2025-yil mart oyida Toshkentda tashkil etilgan “Zar qadrini zargar bilar” ko‘rgazmasi misolida o‘zbek zargarlik san’atining an’anaviy va zamonaviy jihatlari tahlil qilinadi.

O‘zbekistonda zargarlik san’ati asrlar davomida shakllangan, milliy meros va zamonaviy tendensiyalar uyg‘unligida rivojlanib kelmoqda. 12-mart kuni Ikuo Xirayama Xalqaro madaniyat karvon saroyida Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti, “San’at tarixi va nazariyasi” kafedrasida katta o‘qituvchisi (s.f.f.d) PhD, Xurshida Xayitboboyeva kuratorligi ostida tashkil etilgan “Zar qadrini zargar bilar” ko‘rgazmasi ochildi. Mazkur ko‘rgazma o‘zbek zargarlik san’atining asriy an’analarini va zamonaviy yondashuvlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni chuqur ochib beruvchi muhim badiiy voqea bo‘ldi. Xurshida Xayitboboyeva kurator sifatida ko‘rgazmaning konsepsiyasini yaratishda zargarlik san’atidagi davomiylik va innovatsiyaning uyg‘unligi masalasiga alohida e’tibor qaratdi. Uning ilmiy yondashuvi tufayli ko‘rgazma faqatgina zargarlik namunalari ko‘rgazmasi bo‘lib qolmay, balki badiiy tafakkur, hunarmandchilik falsafasi va milliy merosni zamonaviy tendensiyalar bilan bog‘lovchi ilmiy-tahliliy maydon ham bo‘ldi. Ko‘rgazmada O‘zbekistonda an’anaviylikni saqlagan holda ijod qilib kelayotgan zargarlar o‘z ijodiy ishlari bilan ishtirok etishdi. Ularning ijodi an’anaviy texnika va bezak shakllarining modern kompozitsiyalar bilan uyg‘unlashuvi bilan ajralib turadi. Ko‘rgazmada Fashiddin Dadamuhamedovning o‘rni alohida bo‘lib, u o‘zbek zargarlik san’atida yangi bosqichni boshlab bergan ustalardan biri hisoblanadi. Uning yaratgan “Girih”, “Panjara”, “Gumbaz”, “Bodom” va boshqalar kabi kolleksiyalari an’anaviy naqsh va metall ishlov berish usullarini modern tafakkur bilan boyitib, milliy san’atimizni xalqaro maydonga olib chiqishda muhim rol o‘ynadi. Shuningdek, Bobur Dadamuhamedov, Mehridin Xoliqov, Odil Tojmuratov, Fanis Axmetzyanov, Anel Ulumbekova, Ibrat Yusupov, Ramz Azizov, Yuliya Kutovaya va boshqa mohir ustalar tomonidan yaratilgan milliy ruhdagi zamonaviy taqinchoqlar ham namoyish etildi. Xurshida Xayitboboyeva ushbu ustalarning an’ana va zamonaviylikni uyg‘unlashtirish borasidagi izlanishlari haqida to‘xtalib, ularning ijodiy yondashuvini “o‘zbek zargarlik

san'atining XXI asrdagi rivojlanish yo'nalishi" sifatida baholadi. Xurshida Xayitboboyeva ularning ijodini tahlil qilib, yosh zargarlarning milliy an'analarni qanday yangicha talqin qilayotgani haqida fikr bildirdi. Davlat tomonidan qabul qilingan 2021-yilgi "Qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar to'g'risida"gi Qonun va 2024-yilgi Prezident farmoni orqali zargarlik sohasiga ko'rsatilayotgan rasmiy e'tibor ham ushbu avlodning kasbiy shakllanishida muhim rol o'ynamoqda. O'zbek zargarlik san'ati asrlar davomida o'ziga xos naqshlar, ramziy shakllar va hunarmandlik uslublari bilan boyib borgan bo'lib Fasxiddin Dadamammedovning "Tanga jevak", "Panjara bo'yin bezagi", "Baldoq" va milliy uslubdagi tumorlar ana shunday bebaho zargarlik namunalaridan bo'lib, ularning har biri o'ziga xos badiiy va semantik shaklga ega. "Tanga jevak" bo'yinga taqiladigan an'anaviy taqinchoq bo'lib, o'zbek zargarlik san'atining qadimiy an'analarni zamonaviy texnikalar bilan uyg'unlashtirgan holda ishlangan. Ushbu nafis asar melxior materiali yordamida bosma, qoliplash, to'qish va payvandlash texnikalarida foydalangan bo'lib, u kompozitsion jihatdan mukammal tuzilishga ega. Tangalar ritmik tartibda joylashtirilgan. Ular o'zbek madaniyatida farovonlik, baraka va himoya timsoli sifatida qaraladi. Zargarlik san'atida keng qo'llanilgan bu shakllar qadimdan ayollar taqinchoqlarida uchrab, ularning estetik jozibasini oshiribgina qolmay, ramziy ma'noga ham ega bo'lgan. Ushbu bezak san'at tarixida o'z o'rniga ega bo'lib, u hunarmandchilikning an'anaviy usullaridan foydalangan holda zamonaviy yondashuvlar bilan boyitilgan. O'zining nafisligi, texnik murakkabligi va badiiy qiymati bilan o'zbek milliy zargarlik merosining yorqin namunasidir. "Panjara bo'yin bezagi", Zargarlik san'atida "panjara" naqshlari ko'pincha jismoniy va ruhiy himoya ramzi sifatida qo'llanilgan. Ushbu bo'yin bezagi murakkab metall to'r uslubida ishlangan bo'lib, uning har bir bo'g'ini muayyan ritm va simmetriyaga asoslanadi. Bu esa o'z navbatida an'anaviy islom san'atida ko'p qo'llaniladigan geometrik naqshlarga yaqin. "Baldoq", Ushbu taqinchoq shakl jihatdan sodda bo'lsa-da, naqsh, tosh qo'yish va gravirovka usullari bilan bezatilgan. O'zbek milliy zargarligida baldoq ko'pincha oilaviy an'analarga bog'liq holda bezatiladi va turli ma'naviy ma'nolarga ega bo'lgan naqshlar bilan ishlanadi. "Baldoq" qadimdan himoya va sadoqat ramzi sifatida qaralgan. 2020-2021-yillarda yaratilgan ushbu tumor feruza, marvarid, sadaf va marjon bilan bezatilgan bo'lib, zig'irak, bolg'alash va payvandlash usullari qo'llangan. Tumor an'anaviy o'zbek zargarligida himoya va ezgulik ramzi sifatida qadrlanadi. Kompozitsiyasida geometrik naqshlar va filigran usuli uyg'unlashgan bo'lib, u estetik

va semantik jihatdan boy badiiy obraz yaratadi. F. Dadamammedov ijodidagi tumorlar ko‘pincha tug‘ma an‘anaviylikni saqlagan holda nozik filigran texnikasi bilan ishlangan bo‘lib, ular Rossiya, Germaniya va O‘zbekistonning turli muzeylarida namoyish etilgan. Yuqoridagi tumor ham ana shu maktab an‘analariga mos kelib, o‘zbek zargarligining nafisligi va badiiy yuksakligini namoyon etadi. Dadamammedov tumorlarining aksariyati tilla, kumush, feruza va boshqa qimmatbaho toshlar bilan bezalib, ular naqsh va shakllar orqali himoya va madaniy ramziy ma‘nolarga ega bo‘lgan va an‘anaviy o‘zbek zargarlik san‘ati asoslariga tayanib, milliy uslublarni zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirgan. Fasxiddin Dadamammedovning o‘g‘li Bobur Dadamuxamedov ishlagan tumorlar an‘anaviy zargarlik uslublari va zamonaviy elementlarning uyg‘unligi bilan ajralib turadi. Ushbu tumorlar asosan melxior, feruza, marvarid, sadaf va marjon kabi materiallardan yasalgan bo‘lib, filigran, bolg‘alash, zig‘irak va payvandlash kabi an‘anaviy texnikalar qo‘llangan. Tumorlarning shakli, naqshlari va bezaklari o‘zbek zargarlik maktablarining o‘ziga xosligini aks ettiradi. Uning “Bodom-1” to‘plami, “Milliylik” to‘plami, “Bodom-2” to‘plami, “Bozband” to‘plami, “Uchburchak” tumor kabi asarlarini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak “Bodom-1” to‘plami – an‘anaviy zargarlik san‘ati namunasida bajarilgan. Ushbu to‘plamda milliy naqshinkorlik uslublari va kompozitsiyaviy uyg‘unlik o‘z aksini topgan. Asosiy material sifatida melxior ishlatilgan bo‘lib, filigran texnikasi orqali nafis bezaklar namoyish etilgan. Feruza toshlari kompozitsiyaga yorqinlik bag‘ishlab, qadimiy zargarlik uslublariga ishora qiladi. Payvandlash texnikasi elementlarni mustahkamlash va tafsilotlarni nozik tarzda bog‘lash imkonini bergan. “Milliylik” to‘plami – shakliy va dekorativ jihatdan o‘ziga xos kompozitsiyaga ega bo‘lib, unda milliy bezak san‘atining qadimiy unsurlari mujassam. Uchburchak shakldagi asosiy element dinamik kompozitsiyani hosil qilib, filigran va bosma texnikalari orqali bezatilgan. Feruza va marjon toshlarining uyg‘unligi milliy zargarlik san‘ati uslublariga xos bo‘lib, tilla va kumush taqinchoqlar an‘analarini eslatadi. To‘qima usuli yordamida shakllangan elementlar kompozitsiyaning yaxlitligini ta‘minlagan. “Bodom” to‘plami – an‘anaviy filigran texnikasida ishlangan ushbu to‘plam nafisligi va kompozitsiyaviy muvozanati bilan ajralib turadi. Markaziy element sifatida murakkab simmetrik naqsh qo‘llanilib, u feruza toshlari bilan bezatilgan. Sirg‘alar va marjonlarning shakliy uyg‘unligi milliy zargarlik an‘analari asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, ularning tuzilishi o‘zbek ayollar bezaklari tarixiy namunalari bilan uyg‘unlik kasb etadi. “Bozband” to‘plami – o‘zbek

xalqining zargarlik san'atiga xos shakl va naqshlar asosida ishlangan bo'lib, unda turli materiallarning uyg'unligi ko'zga tashlanadi. Markaziy qismdagi bezak an'anaviy marosim taqinchoqlariga xos bo'lib, feruza va aqiq toshlari bilan boyitilgan. Filigran, bosma va to'qima texnikalarining o'zaro uyg'unlashuvi murakkab dekorativ kompozitsiyani ishlab chiqqan. Osilib turgan mayda elementlar harakatlanish dinamikasini ta'minlab, zargarlik san'atining estetik yuksakligini namoyish etadi. “Uchburchak” tumor – milliy zargarlik san'atining betakror namunasi bo'lib, uchburchak shaklida yaratilgan kompozitsiyasi bilan ajralib turadi. Filigran texnikasining mahorat bilan qo'llanilishi naqshlarning nafisligi va murakkabligini oshirgan. Feruza, marjon va ko'zmunchoqning uyg'unligi tumorning nafaqat estetikasini, balki ramziy ma'nosini ham boyitgan. O'zaro bog'langan osilma elementlar dinamik kompozitsiyani hosil qilib, uni an'anaviy marosim bezaklari ruhida mujassamlashtirgan. Umuman olganda, Bobur Dadamuxamedov ijodi an'anaviy va zamonaviy zargarlik san'atini uyg'unlashtirishga qaratilgan bo'lib, uning ishlari xalqaro maydonda ham tan olingan. U o'z ishlarida o'tmishning estetik uslublarini saqlagan holda, yangi texnologiyalar va dizayn yechimlaridan foydalangan.

Xurshida Xayitboboyeva kuratorligidagi “Zar qadrini zargar bilar” ko'rgazmasi zargarlik san'ati merosini saqlash va zamonaviy talqinlarni yaratish o'rtasida muhim ilmiy va badiiy tajribaga aylandi. Bu loyiha milliy hunarmandchilikning xalqaro miqyosdagi rivoji, yosh avlodga an'analarni yetkazish va zargarlik san'atini yangi bosqichga olib chiqishga turtki bo'lishi bilan ahamiyatlidir.


ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Xakimov A.A, Xayitboboyeva X.P. Badiiy tanqid tarixi va nazariyasi. O'quv qo'llanma/ T.:“D iM al” nashriyoti - 2024. -148bet.
<https://lib.cspu.uz/index.php?newsid=11669>
2. Khayitboboeva KPA Study Of The Problems Of Tradition And Innovation In Modern Uzbek Folk Art The American Journal of Social Science and Education Innovations -2021-T3-№ 11-C 14-20
3. Kultashev, B., Sadikova, S., & Kultasheva, N. (2021). Development of portrait of Uzbekistan during the early 20th century. Melbrun. Australia. Swinburne University of Technology.–2021.

4. Хаитбобаева, К.П. и Гаффаров, Х.Р. (2023). РОЛЬ ВЫШИВКИ
НУРОТА В ПРИКЛАДНОМ ИСКУССТВЕ
УЗБЕКИСТАНА. Искусство и дизайн: Социальные науки , 3 (03), 3-5.

5. Bozorov Asror Botirovich. Zargarlik san'atining dunyo xalqlari hayotidagi
o'rni va ahamiyati. Ta'lim va Innovatsion tadqiqotlar. 2023yil №4.

6. https://ifazo.uz/o%CA%BBzbek-zargarlik-san%CA%BCati-tarix-va-hozirgi-kun/?utm_source=chatgpt.com



Research Science and
Innovation House



OLIY TA'LIM TIZIMIGA XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Almardanov Ulug'bek Qudrat o'g'li

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Xorijiy investitsiyalar va grantlar bilan
ishlash bo'limi bosh mutaxassisi

Annotatsiya: Mazkur tezisda O'zbekiston oliy ta'lim tizimiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish jarayoni va uning samaradorligini baholash mexanizmlarini takomillashtirish masalasi yoritilgan. Xorijiy investitsiyalar ta'lim sifatini oshirish, ilmiy-innovatsion loyihalarni rivojlantirish hamda universitetlarning xalqaro reytinglardagi o'rnini mustahkamlashga xizmat qilishi ta'kidlangan. Investitsiyalarning ta'lim tizimiga ta'sirini baholashda xalqaro tajribadan foydalanish, investitsiyalarni shaffof taqsimlash va ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirish muhimligi ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: Oliy ta'lim, xorijiy investitsiyalar, investitsion samaradorlik, baholash mexanizmi, xalqaro reyting, ilmiy-innovatsion loyihalar.

Oliy ta'lim tizimi mamlakatning ilmiy va iqtisodiy taraqqiyotida hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Shu sababli, dunyoning rivojlangan davlatlari oliy ta'limni modernizatsiya qilish, innovatsion ta'lim dasturlarini joriy etish va xalqaro investitsiyalarni jalb qilishga alohida e'tibor qaratmoqda. O'zbekiston ham mustaqillik yillaridan boshlab oliy ta'lim tizimini tubdan isloh qilish va uni xalqaro standartlarga moslashtirishga intilmoqda. Bunda xorijiy investitsiyalar muhim ahamiyat kasb etadi, chunki u moliyaviy resurslar bilan ta'minlash, ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bois, oliy ta'lim tizimida xorijiy investitsiyalar samaradorligini baholash va uni takomillashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb masala hisoblanadi.

Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish jarayonida bir qator omillar e'tiborga olinishi lozim. Avvalo, mamlakatning oliy ta'lim sohasidagi investitsion jozibadorligi muhim rol o'ynaydi. Bu borada ta'lim muassasalarining reytingi, akademik muhit, ilmiy tadqiqot infratuzilmasi va xalqaro hamkorlik imkoniyatlari asosiy ko'rsatkichlar hisoblanadi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, investitsiyalar samaradorligini ta'minlash uchun, avvalo, aniq va shaffof qonunchilik bazasi yaratilishi, xorijiy investorlar uchun qulay ishbilarmonlik



muhiti shakllantirilishi zarur. Buning uchun davlat tomonidan tegishli imtiyozlar va grantlar taqdim etilishi, soliqqa tortish shartlari yengillashtirilishi mumkin.

Xorijiy investitsiyalarni samarali boshqarish va natijalarini baholash uchun maxsus tizimlar ishlab chiqilishi lozim. Bu tizimlar yordamida investitsiyalarning ta'lim sifati va innovatsion faoliyatga ta'siri doimiy ravishda monitoring qilib boriladi. Zamonaviy iqtisodiy tahlil usullari asosida investitsiyalar ta'sirini aniqlash imkonini beruvchi baholash mezonlari ishlab chiqilishi kerak. Masalan, investitsiyalar jalb qilingan oliy ta'lim muassasasida o'quv dasturlarining yangilanish darajasi, ilmiy maqolalar soni, xalqaro grantlar va loyihalar ko'lamida hamda bitiruvchilarning ishga joylashish ko'rsatkichi kabi mezonlar asosida baholash amalga oshirilishi mumkin.

Shuningdek, xorijiy investitsiyalar natijasida vujudga kelayotgan ta'lim muhitining samaradorligini oshirish maqsadida xalqaro ekspertlar va professor-o'qituvchilarni jalb qilish ham muhim omil hisoblanadi. Ko'plab rivojlangan davlatlar, xususan AQSh, Buyuk Britaniya va Germaniya tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, xorijiy mutaxassislarning ta'lim jarayoniga jalb etilishi oliy ta'lim sifatini oshirishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. O'zbekistonda ham xorijiy investorlarning ta'lim sohasiga qiziqishini oshirish maqsadida ular uchun maxsus dasturlar ishlab chiqilishi va manfaatli hamkorlik shartlari taklif etilishi lozim.

Investitsiyalar samaradorligini baholashning muhim yo'nalishlaridan biri bu – oliy ta'lim muassasalarining xalqaro reytinglardagi o'rnidir. O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari Times Higher Education, QS World University Rankings va boshqa xalqaro reytinglarda yuqori o'rinlarni egallashga intilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, xorijiy investitsiyalar ta'sirida universitetlarning reytingi qanday o'zgarayotgani va bu o'zgarishlarning sifat jihatdan qanday natijalarga olib kelayotgani o'rganilishi lozim.

Bundan tashqari, xorijiy investitsiyalarning samaradorligini oshirish uchun ularni aniq va shaffof mexanizmlar asosida taqsimlash ham muhimdir. Investitsiyalar faqatgina infratuzilmani yaxshilashga emas, balki ilmiy-innovatsion loyihalarni moliyalashtirishga, yosh olimlarni qo'llab-quvvatlashga va ilg'or texnologiyalarni joriy etishga yo'naltirilishi lozim. Shundagina xorijiy investitsiyalar ta'lim tizimi rivojiga haqiqiy hissa qo'sha oladi.

Oliy ta'lim tizimidagi investitsiyalar natijasida yaratilayotgan innovatsion muhit va yangi ta'lim dasturlari iqtisodiy rivojlanishga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Xususan, oliy ta’lim muassasalarida ilmiy tadqiqotlar va startap loyihalar rivojlanib, ular natijasida iqtisodiyotning turli sohalarida yangi texnologiyalar paydo bo’ladi. Natijada esa mamlakatga intellektual salohiyat va texnologik mustaqillikni oshirish imkoniyati yaratiladi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish jarayoni jadallashib bormoqda va uning samaradorligini oshirish dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Xorijiy investitsiyalarni baholash va boshqarishning samarali mexanizmlarini yaratish orqali oliy ta’lim tizimini rivojlantirish, xalqaro reytinglarda yuqori o‘rinlarni egallash va mamlakatning ilmiy-innovatsion salohiyatini oshirish mumkin. Shu bois, davlat siyosatida xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va ulardan unumli foydalanish masalalariga alohida e’tibor qaratish talab etiladi. Oliy ta’lim tizimining globallasuvi sharoitida investitsiyalarni to‘g‘ri yo‘naltirish va natijalarini chuqur tahlil qilish nafaqat ta’lim sohasini, balki umuman mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Altbach, P. G., & Salmi, J. (Eds.). (2011). The road to academic excellence: The making of world-class research universities. World Bank Publications.
2. Knight, J. (2013). The changing landscape of higher education internationalization—for better or worse?. Perspectives: Policy and Practice in Higher Education, 17(3), 84-90.
3. Marginson, S. (2016). Higher education and the common good. Melbourne University Publishing.
4. OECD. (2021). Education at a Glance 2021: OECD Indicators. OECD Publishing.
5. World Bank. (2020). The impact of foreign direct investment on education systems: Trends and policy implications. World Bank Reports.

Research Science and
Innovation House



UO‘T: 633.111.1; 631.527.3

DON TARKIBIDAGI GILIADIN OQSILLARINING POLIMORFIZMI

Boysunov Nurzod Bekmurodovish,

*qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
katta ilmiy xodim.*

Jo‘rayev Kamoljon Xayrulla o‘g‘li,

kichik ilmiy xodim.

G‘aniyev Alisher Meliqul o‘g‘li,

kichik ilmiy xodim.

Janubiy dehqonchilik ilmiy tadqiqot instituti. Qarshi Sh.


E-mail: nurzod.noysunov@mail.ru Tel: +998 97 316 55 11.

ORCID: 0000-0003-2948-7513

Olingan natijalarga ko‘ra, bug‘doy navlarining genetik muhiti bug‘doy donining sifat belgilarini namoyon bo‘lishiga katta ta‘sir ko‘rsatadi. Odatda, bitta xromosomada yuzaga keluvchi eliminatsiya muhim ahamiyatga ega bo‘lgan genlarning yo‘qotilishini anglatmaydi, chunki bug‘doyda gomeologik genomlar mavjud hisoblanadi va yo‘qotilgan genetik materialning kompensatsiyalanishi gomeologlar hisobiga amalga oshadi.


Hozirgi vaqtda bug‘doy navlari va genotiplarini identifikatsiyalash va qayd qilish uchun dunyo miqyosida ilmiy markazlarda gliadinlarning elektrofez spektrlarini o‘rganishning alohida uslublari ishlab chiqilgan.

Shu bilan birgalikda, seleksiyada bug‘doy donining sifat darajasini aniqlash uchun yangi va barqaror tavsifdagi oqsil markerlarni aniqlash talab qilinadi. Bug‘doy doni tarkibida nisbatan batafsil o‘rganilgan oqsillar – bu, zahira oqsillari, ya‘ni gliadin va glyutenin hisoblanadi.



1-rasm. Gliadin oqsillarining elektroforetik spektri 4 ta zonaga ajralalishi.

Gliadin oqsillarining elektroforetik spektri 4 ta zonaga ajraladi, jumladan ular α -, β -, γ - va ω - zonalar bilan belgilangan. Bunda har bir zonada bir qator bandlar mavjudligi qayd qilinib, ular asosida nav ichidagi va navlararo farqlanishlar belgilanadi.



Innovation House

2.2-rasm. “TURKISTON” navi lektroforegrammasi



Tajribalarimizda yumshoq bug‘doyning SHUKRONA, TURKISTON va YAKSART navlarini gliadin oqsillarini elektroforetik spektridagi bandlar soni, jadalligi, minor, o‘rtacha faol yoki major guruhlarga ajratgan holda tahlil qilindi. Morfologik belgilari bo‘yicha taxlil qilinib, alohida nav namunasi sifatida ajratilib olingan 3 ta navning elektroforetik spektrlari nazorat sifatida olingan Bezostaya-1 navining elektroforetik spektriga solishtirma holda tahlil qilinganda bir biridan farq qiluvchi 27 xil spektr namoyon bo‘ldi. Bunda o‘rganilgan nav namunalarning har biridan 100 tadan doni tahlil qilinganda 2 ta navda elektroforetik spektrlari bir xil ekanligi kuzatilib, ular gliadin oqsillari spektri bo‘yicha gomogen ekanligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Dilmurodovich D. S. et al. CREATION OF NEW DROUGHT-RESISTANT, HIGH-YIELDING AND HIGH-QUALITY VARIETIES OF BREAD WHEAT FOR RAINFED AREAS //British Journal of Global Ecology and Sustainable Development. – 2022. – T. 2. – C. 61-73.
2. Dilmurodovich D. S. CREATION OF NEW DROUGHT-RESISTANT, HIGH-YIELDING AND HIGH-QUALITY VARIETIES OF BREAD WHEAT FOR RAINFED AREAS //World scientific research journal. – 2023. – T. 13. – №. 1. – C. 117-125.
3. Boysunov N. B. et al. DIALLEL ANALYSIS FOR 1000-KERNEL WEIGHT IN WINTER WHEAT //Фундаментальные и прикладные научные исследования: актуальные вопросы, достижения и инновации. – 2021. – С. 52-54.
4. Dilmurodovich D. S. et al. SELECTION OF NEW LINES OF EARLY MATURING AND PRODUCTIVE WINTER BREAD WHEAT FOR RAINFED AREAS //Conference Zone. – 2022. – С. 45-54.
5. Dilmurodov S. D. et al. SELECTION OF BREAD WHEAT LINES SUITABLE FOR RAINFED AREAS WITH LOW RAIN IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN //Моя профессиональная карьера. – 2021. – Т. 1. – №. 20. – С. 90-96.
6. Dilmurodovich D. S. et al. SELECTION OF BREAD WHEAT LINES SUITABLE FOR RAINFED AREAS WITH LOW RAIN IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN //Conference Zone. – 2022. – С. 36-44.

7. Bekmurodovich B. N. et al. " RESISTANT TO THE COMPLEX STRESS FACTORS (SALT, DROUGHT, DISEASE) OF THE" OROLBO'YI" REGION, THE YIELD OF SPRING WHEAT, THE QUALITY INDICATORS OF THE GRAIN WILL BE STABLE HIGHER. ACTIVITY IMPLEMENTED WITHIN THE FRAMEWORK OF DEVELOPMENT OF TECHNOLOGY //Intent Research Scientific Journal. – 2023. – T. 2. – №. 6. – C. 193-200.

8. Boysunov N. B. et al. OROLBO 'YI HUDUDIGA MOS SHO 'RGA BARDOSHLI BAHORGI BUG 'DOY NAVLARNI TANLASH //Iqlimning davom etayotgan o'zgarishi sharoitida oziq-ovqat xavfsizligiga erishish uchun agrobiologik xilma-xillikni o'rganish, saqlash va barqaror foydalanish muammolari. – 2023. – C. 574-577.



Research Science and
Innovation House

Xalqaro valyuta tizimini shakllanishi va rivojlanishi

**Ma'mun Universiteti Iqtisodiyot Fakulteti Iqtisodiyot Yo'nalishi Talabasi
Xudoyberganov Javohir Umidbek o'g'li**

Annotatsiya mazkur maqolada xalqaro valyuta tizimining shakllanishi va rivojlanishi xususiyatlarini o'rganish va ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Xalqaro valyuta tizimining shakllanishi va rivojlanishi, uning rivojlanish qonuniyatlari, Xalqaro valyuta aylanishi, haqida talabalarga bilim ko'nikma.

Mavzuning dolzarbligi: O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini zamonaviy modernizatsiyalash bosqichida mamlakatning xalqaro valyuta-kredit munosabatlarini tashkil qilish va tartibga solish borasida katta yutuqlarga erishildi. Xususan, tashqi savdo aylanmasining ijobiy sal'dosi ta'minlandi, xalqaro moliya institutlari bilan samarali hamkorlik yo'lga qo'yildi. Eng muhimi - davlat tashqi qarzining me'yoriy darajadan oshib ketishiga yo'l qo'yilmadi. Bozor iqtisodiyotini asoslarini yaratish va rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar tobora rivojlanish va byudjet munosabatlariga ta'sir etishining muhim omili bo'lgan byudjet va moliya tizimi ham shu tarzda isloh etishni, uning barqarorligi va samaradorligini oshirishni talab qiladi. Dunyo miqyosida xalqaro valyuta-kredit munosabatlari sohasida jiddiy, olamshumul o'zgarishlar yuz bermoqdaki, mazkur holat xalqaro valyuta-kredit munosabatlariga bag'ishlangan yangi ilmiy tadqiqotlar olib borish, darsliklar va o'quv qo'llanmalar yozish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda. So'nggi yillarda xalqaro valyuta munosabatlarida sezilarli o'zgarishlar kuzatildi: jumladan, tashqi bozorlardagi valyutalar va ularning tovar ta'minoti o'rtasidagi aloqadorlik yo'qoldi; bozor ishtirokchilari uchun valyutalarning likvidliligi, ularning tovarga ayirboshlash qobiliyatidan ko'ra muhimroq ahamiyat kasb eta boshladi; mamlakatlarning to'lov balansidagi kapitallar va kreditlar harakati joriy operatsiyalar harakatidan hajm bo'yicha ko'payib, o'rnini almashtirdi; rezerv valyuta maqomi uchun rivojlangan mamlakatlar o'rtasida raqobat kuchaygani kuzatildi. Har bir davlat o'z valyuta kursi rejimini barqarorligini ta'minlash uchun yuqori likvidlilikka ega bo'lgan xorijiy valyutalarni zaxira sifatida yig'ishlariga, zarurat tug'ilganda esa, ular hisobidan kurs shakllanishi jarayoniga aralashishlariga to'g'ri keldi. Shu kabi holatlar xalqaro

valyuta tizimida keskin islohotlarni taqozo etadi. Hozirgi kunda, jahon moliya tizimiga kriptovalyutalarni ta'sirini, ularni tebranuvchanligini prognoz qilish va kelajakdagi istiqbolini o'rganish maqsadida o'nlab, yuzlab tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

Valyuta va valyuta munosabatlari tushunchasi, ularning asosiy ishtirokchilari

Har qanday davlat iqtisodiyotida pul muhim ahamiyat kasb etadi. Pul munosabatlari jamiyatning ishlab chiqarish, taqsimot, muomala va iste'mol singari jarayonlarini qamrab oladi, kengaytirilgan takror ishlab chiqarish uchun sharoit yaratib beradi. Pul va iqtisod o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan elementlardir. Agar jamiyat iqtisodiyotida muammolar paydo bo'lsa, albatta bunday muammolar jamiyatning pul muomalasida o'zining salbiy aks ta'sirini topadi. Shuning uchun pulni jamiyat iqtisodiy hayotining barometri deb bejiz aytishmagan. Iqtisodiy nazariyada haqiqiy pul tovar ekvivalenti sifatida mavjud bo'lib, iste'molchilarni muomalaga bo'lgan ehtiyojlarini qondiradi. qog'oz pullar esa haqiqiy pullar qiymatining muomaladagi ifodachisi yoki vakilidir. Har qanday mustaqil davlat o'z puliga ega va bunday pul shu davlat uchun milliy pul birligi hisoblanadi. Milliy pul birligi o'zining nomi va ma'lum bir muomala tarixiga ega. Ushbu kursimizni o'rganishda doim pul va valyuta atamalariga murojaat etishga to'g'ri keladi. Shu sababli boshidanoq pul va valyuta qanday kategoriyalar, ikkalasi ham bir narsami yoki har xil narsa ekanligini aniqlab olish zarur. Iqtisodiy nazariyadan biz "pul" nima ekanligini yaxshi bilamiz. Valyuta ham pul, ammo hamma vaqt ham pul valyuta bo'lavermaydi. Agarda muayyan bir davlatning milliy pul birligi jahon bozorida davlatlar o'rtasida pul (muomala, to'lov va jamg'arish vositasi) sifatida ishlatilsa, ya'ni pulning funksiyalarini bajarsa, u valyutaga aylanadi. Valyuta - jahon bozorida, davlatlar o'rtasida pul vazifalarini bajaruvchi davlatlarning milliy pul birliklaridir. Masalan, Amerika Qo'shma Shtatlari "dollari", Buyuk Britaniya "funt sterlingi", Kanada "dollari", Yapon "ienasi" va boshqa shu kabilar. Muayyan bir davlatning milliy puli - uning milliy valyutasi bo'ladi. Shu davlat uchun boshqa davlatlarning milliy pul birliklari esa - xorijiy valyutalardir. Masalan, AQSh "dollari", Buyuk Britaniya "funt sterlingi", Kanada "dollari", Fransiya "yevro", Yapon "ienasi", Turkiya "lira"si va shu kabi erkin muomalada yuradigan valyutalar O'zbekiston Respublikasida xorijiy valyuta bo'ladi, o'z navbatida O'zbekiston "so'm"i bu davlatlar uchun xorijiy valyuta bo'lib

hisoblanadi. Har bir suveren davlat o'z pul birligiga ega bo'lib, faqat shu mamlakatdagina bu pul birligiga muayyan ne'matlarni sotib olish mumkin. Boshqa mamlakatlarning ham o'z pul birliklari mavjud va faqat shu davlatlarda ular qonuniy harakatda bo'ladi. Qolgan barcha boshqa **valyuta** deb nomlanuvchi pullar maxsus nazorat ostida amal qiladilar. Rus iqtisodchi olimi V.S. Safonovning ta'rifiga ko'ra, «**currency**» atamasi banknotalar va tangalar ko'rinishidagi pullar ma'nosini anglatadi. Xorijiy valyuta uchun **foreign currency** atamasi ishlatiladi. Jahon valyuta bozori – bu **foreign currency exchange market** dir, yoki oddiy qilib aytganda, **FOREX**. Valyutalarning turli klassifikatsiyasi mavjud bo'lib, asosan ularni uch guruhga ajratishadi. Bular jahon valyuta bozorining barcha segmentlarida hech qanday cheklovlarsiz amal qiladigan valyutalaridir. Ular cheklanmagan miqdorda va turli joriy va muddatli bitimlar bo'yicha to'liq konvertirlana oladilar. Bunday turdagi valyutalar ichida **katta beshlikni** ajratib ko'rsatish lozim. Ularga AQSh dollari (USD), Yevro (EUR), Shveysariya franki (CHF), Yaponiya ienasi (JPY) va Angliya funti (GBP) kiradi.

Asosiy valyutalarga shuningdek, Kanada dollari (CAN) va boshqa bir nechta valyutalar (masalan, Avstraliya dollari AUD) ham kiritiladi. Ikkilamchi valyutalar odatda erkin muomalada bo'ladi, biroq vaqti-vaqti bilan ba'zi muammolar yuzaga kelishi mumkin. Masalan, bularga likvidlikning yetarli darajada emasligi (ya'ni, xarid qilish va sotish bilan bog'liq qiyinchiliklar), hosilaviy moliyaviy instrumentlarning (xususan, fyucherslarning) qo'llanilishi bilan bog'liq boshqa to'siqlarni kiritish mumkin.

Xalqaro valyuta tizimining shakllanishi va rivojlanishi tarixiy jarayon sifatida bir necha muhim bosqichlarni o'z ichiga oladi. Quyida ushbu tizimning asosiy bosqichlari va rivojlanishiga ta'sir qilgan omillar keltirilgan:

1. Birinchi bosqich: Klassik monetarizm (19-asr oxiri - 20-asr boshlari)
 - Oltin standart: Ushbu davrda ko'plab mamlakatlar oltin standartiga asoslangan. Bu, valyutalar o'rtasidagi almashinuv kurslarini barqarorlashtirishga yordam berdi va xalqaro savdoni osonlashtirdi.
 - Xalqaro savdo: Oltin standart xalqaro savdoni rivojlantirdi, chunki mamlakatlar o'rtasida tovarlar va xizmatlar almashinuvi osonlashdi.
2. Ikkinchi bosqich: Birinchi jahon urushidan keyingi davr (1918-1939)

- Oltin standartning inqirozi: Birinchi jahon urushi va uning natijalari oltin standartini zaiflashtirdi. Mamlakatlar iqtisodiy qiyinchiliklar bilan duch kelishdi va valyutalar o'rtasidagi kurslar beqaror bo'lib qoldi.

- Valyuta kurslari: Davlatlar o'z valyutalarining kurslarini nazorat qilishga harakat qildilar, bu esa xalqaro savdoga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

3. Uchinchi bosqich: Bretton Woods tizimi (1944-1971)

- Bretton Woods konferensiyasi: 1944 yilda AQSh va boshqa 44 mamlakat ishtirokida o'tkazilgan konferensiyada xalqaro valyuta tizimining yangi asoslari belgilandi. Dollar oltin bilan bog'langan va boshqa valyutalar dollar bilan almashinuvi belgilandi.

- Xalqaro moliya institutlari: Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (IMF) va Jahon Banki tashkil etildi, bu esa mamlakatlarga iqtisodiy yordam ko'rsatishga imkon berdi.

| 4. To'rtinchi bosqich: Post-Bretton Woods davri (1971-hozirgi kungacha)

- Erkin almashinuvi rejimi: 1971 yilda dollar oltin bilan bog'lanishdan voz kechildi va erkin almashinuvi rejimiga o'tildi. Bu, valyutalar o'rtasidagi kurslarning bozor tomonidan belgilanishini anglatadi.

- Globalizatsiya: Xalqaro savdo va investitsiyalarning kengayishi, shuningdek, moliyaviy bozorlarning global integratsiyasi xalqaro valyuta tizimining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi.

- Valyuta inqirozlari: Ushbu davrda bir nechta valyuta inqirozlari yuz berdi, bu esa xalqaro moliya tizimining barqarorligini ta'minlash zaruratini keltirib chiqardi.

| 5. Hozirgi davr: Xalqaro valyuta tizimining yangi tendensiyalari

- Raqamli valyutalar: Raqamli valyutalar va kriptovalyutalarning paydo bo'lishi xalqaro moliya tizimiga yangi qiziqishlarni olib keldi.

- Xalqaro hamkorlik: Mamlakatlar o'rtasida iqtisodiy hamkorlik va muammolarni birgalikda hal qilish uchun yangi mexanizmlar ishlab chiqilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, xalqaro valyuta tizimi tarix davomida ko'plab o'zgarishlarga duch kelgan va hozirgi kunda ham rivojlanishda davom etmoqda. Bu tizimning kelajagi global iqtisodiyotning holati, texnologik innovatsiyalar va siyosiy qarorlar bilan chambarchas bog'liqdir.



1. Valyuta va ularning asosiy ishtirokchilari

Valyutalarning mazkur sirasiga Irlandiya, Singapur, Grestiya, Shvestiya, Daniya, Oman, Quvayt, Hindiston kabi davlatlar valyutalari kiritiladi. Ekzotik valyutalar bo'yicha doimo kotirovkalar mavjud, biroq ba'zida operatsiyalar miqyosi, muddatli bitimlar bozori bo'yicha (agar u umuman mavjud bo'lsa) katta cheklovlarning bo'lishi ehtimoli bor; shuningdek, muayyan davlatlar tomonidan ularning keng savdosiga qarshi qonuniy cheklovlar ham o'rnatiladi. Mazkur guruhga Indoneziya, Tailand, Gonkong, Malayziya, Vetnam, Fillipinalar kabi mamlakatlar valyutalarini kiritish mumkin. Hozirgi kunda **yangi paydo bo'luvchi bozorlar** valyutalari ham yuzaga keldi. Bular Chexiya, Slovakiya, Polsha, Rossiya, Janubiy Amerika va JAR mamlakatlari pul birliklaridir. Qavslar ichidagi valyutalarning belgilanishi SWIFT tizimi foydalanuvchilari tomonidan qabul qilingan kodirovka bo'yicha amalga oshiriladi. Qisqacha aytganda, banklar tomonidan foydalaniladigan mazkur axborot tizimi xizmat xabarlarining xavfsiz yetkazilishini ta'minlaydi. Jahon amaliyotida moliyaviy bozorlar faoliyatida standartlashtirish xalqaro tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan, lotin tilidagi uchta harfdan iborat valyutalarning quyidagi belgilanishlari qabul qilingan bo'lib, ular xalqaro va mahalliy amaliyotda keng qo'llaniladi (ISO 4217 standarti – International Organization for Standardization):

1. jadval Valyutalarning xalqaro amaliyotda belgilanishi

AUD	Avstraliya dollari
BRL	Braziliya reali
BYR	Belorussiya rubli
CAD	Kanada dollari
CHF (SFR)	Shveysariya franki

CNY	Xitoy yuani (renminbi)
EUR	Yevro
GBP (STG)	Angliya funt sterlingi
ILS	Isroil shekeli
INR	Hindiston rupiyasi
JPY	Yaponiya ienasi
KZT	Qozog'iston tengesi
MXP	Meksika pesosi
NZD	Yangi Zelandiya dollari
RUB	Rossiya rubli
SGD	Singapur dollari
TRL	Turkiya lirasi
UAH	Ukraina grivnasi
USD	AQSh dollari
UZS	O'zbekiston so'mi
ZAR	Janubiy Afrika rendi

Xorijiy valyuta bilan deviz tushunchasi bog'liqdir. Deviz - bu, xorijiy valyutadagi har qanday vositadir. Qabul qilingan Xalqaro qoidalarga asosan har bir davlatning valyutasi 3 harf bilan belgilanadi. Bunda ushbu harflarning birinchi 2 tasi mamlakatni, 3- esa valyuta nomini belgilaydi. Masalan, US - Qo'shma Shtatlar, D - dollar yoki GB - Buyuk Britaniya, P - paund. Ushbu belgilanishlar valyutalar kodlari deb ataladi. Ayrim davlatlar valyutalarining SVIFT kodlari ushbu mavzuning ilovasida keltirilgan. Valyutalar jahon bozorida o'zlarining muomalada bo'lish xususiyatlariga ko'ra erkin muomalada yuradigan, muomalasi qisman yoki butunlay cheklangan, yopiq yoki ekzotik valyutalarga bo'linadi. Ba'zi bir davlatlarning milliy pul birliklarini mazkur davlatlarda valyuta munosabatlari borasida mavjud va harakatda bo'lgan qonun-qoidalariga asosan xorijga chiqishi hamda u yerda muomalada bo'lishi chegaralanadi. Jahon bozorining paydo bo'lishi, xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashishi, ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi, jahon xo'jaligi tizimining shakllanishi, xo'jalik aloqalarining baynalminallashuvi va globallashuvi sharoitida xalqaro valyuta munosabatlari rivojlandi. Xalqaro valyuta munosabatlari - bu, valyutani jahon xo'jaligida amal qilishi borasida shakllanadigan va milliy xo'jaliklar faoliyat natijalarining o'zaro almashuviga xizmat ko'rsatadigan ijtimoiy munosabatlar yig'indisidir. Valyuta munosabatlarining ayrim elementlari qadimgi dunyoda, qadimgi Gretsiya va Rimda veksel hamda sarroflik ishi shakllarida paydo bo'lgan. Ushbu munosabatlar hisob-kitoblar o'tkaziladigan veksellar (tratta) bilan amalga oshgan Lion, Antverpen o'rta asr "veksel yarmarkalari" va G'arbiy Yevropaning boshqa savdo markazlarida rivojlandi. Feodalizm va kapitalistik ishlab chiqarish uslubining shakllanishi davrlarida banklar orqali amalga oshadigan xalqaro hisob-kitoblar tizimi shakllana boshladi. Xalqaro valyuta munosabatlari moddiy ishlab chiqarish jarayoniga, ya'ni birlamchi ishlab chiqarish munosabatlariga hamda taqsimot, almashuv va iste'mol jarayonlariga aloqador bo'lgan xalqaro iqtisodiy munosabatlarni o'z ichiga oladi. Valyuta munosabatlari va takror ishlab chiqarish o'rtasida bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) hamda oqibat xarakteridagi (qaytma) aloqalar mavjud. Ularning obyektiv asosi bo'lib tovarlar, kapitallar, xizmatlar bilan xalqaro almashuvni vujudga keltiruvchi ijtimoiy ishlab chiqarish jarayoni hisoblanadi. Valyuta munosabatlari - bu, valyutani jahon xo'jaligi muomalasida amal qilish jarayonida va xalqaro aloqalar sohasiga xizmat ko'rsatishda o'ziga hos pul munosabatlarining yig'indisidir, yoki davlatlar, jahon

valyuta bozorining subyektlari, muayyan davlatning rezident yoki norezident shaxslari o'rtasida valyutalarni sotish, sotib olish, majburiyatlarni bajarish hamda boshqa shu kabi jarayonlarda vujudga keladigan munosabatlardir. Valyuta munosabatlari - bu xalqaro aloqalarga xizmat ko'rsatuvchi va jahon xo'jaligida valyuta muomalasi jarayonida vujudga keladigan o'ziga hos pul munosabatlarning majmuidir. Valyuta munosabatlari jahon valyuta tizimining asosi bo'lib xizmat qiladi. Ularning shakllanish jarayonlarini o'rganish O'zbekiston uchun nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham egadir. Valyuta munosabatlarning paydo bo'lishi, o'zgartirilishi yoki tugatilishining huquqiy asoslari bo'lib xalqaro kelishuvlar va ichki davlat qonun-qoidalari hisoblanadi. Valyuta munosabatlari nisbatan mustaqil munosabatlar bo'lgani holda to'lov balansi, valyuta kursi, hisob-kitob operatsiyalari orqali dunyo iqtisodiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Valyuta munosabatlarning ahvoli quyidagilarga bog'liq bo'ladi:

- milliy va jahon iqtisodiyotining rivojlanganlik darajasiga;
- siyosiy ahvolga;
- jahon bozorida davlatlararo munosabatlar borasidagi muammolarga va ushbu muammolarning rivojlanish tendensiyalariga.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Xalqaro valyuta munosabatlari valyutalarning xalqaro miqyosdagi harakati natijasida yuzaga keladigan moliyaviy munosabatlardir.

Xalqaro valyuta munosabatlarning subyektlari bo'lib, davlat, kompaniyalar, banklar, jismoniy shaxslar va xalqaro moliya institutlari hisoblanadi. Xalqaro mehnat taqsimotining yuzaga kelishi davlatlar o'rtasida tashqi savdo munosabatlarning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. O'z navbatida, tashqi savdoni amalga oshirish turli mamlakatlarning valyutalarini bir-biriga ayirboshlash zaruriyatini yuzaga keltirdi. Xalqaro iqtisodiy integratsiya va globallashtirish jarayonlari- ning chuqurlashishi natijasida tadbirkorlik kapitali (to'g'ri va portfelli xorijiy investitsiyalar) va ssuda kapitalining (xalqaro kreditlar) xalqaro miqyosdagi oqimi kuchaydi. Bu esa, xalqaro valyuta munosabatlarni rivojlantirishga kuchli turtki berdi. Komission to'lovlar bu qarz beruvchi bankka belgilangan muddat mobaynida zarur kredit resurslarini qarz oluvchi ixtiyoriga berish va rezervda

saqlash majburiyati uchun to‘lanadi. Shuningdek, komission to‘lovlar agar kredit alohida banklar tomonidan emas, balki banklar uyushmasi tomonidan berilsa, kredit operatsiyalarini o‘tkazishni boshqarish uchun ham to‘lanadi. So‘nggi holda yetakchi bank yoki uyushma ishni tashkil etuvchi menejer kreditlashda qatnashish hissasini hamda qarzni uzishdan, foizlami to‘lashdan tushadigan mablag‘larni uyushma a‘zolari o‘rtasida taqsimlaydi. Buning uchun qarz oluvchidan boshqarish uchun bir martalik tartibda komission to‘lovlar oladi. Ichki bozorda joylashtirilmagan qismi yevroval- yutalar bozoriga yo‘naltirildi. Bu esa, transmilliy banklarning kreditlash imkoniyatini sezilarli darajada oshirdi. Ammo transmilliy banklarning kreditlaridan doimiy ravishda foydalanib kelgan va ushbu kreditlarga nisbatan talabning asosiy qismini shakllantirgan rivojlangan mamlakatlarning mazkur banklarning kreditlariga boigan talabi keskin kamaydi. Buning asosiy sababi neft bahosining keskin oshishi natijasida yuz bergan iqtisodiy konyunkturaning yomonlashganligi edi. Natijada, rivojlanayot- gan mamlakatlarning transmilliy banklarning kreditlaridan foydalanish imkoniyati oshdi. Ular o‘z hukumatlarining kafolati asosida transmilliy banklarning kreditlarini keng ko‘lamda jalb qila boshladilar. Xalqaro valyuta munosabatlari o‘ta beqaror, noaniq va tez o‘zgaruvchi jarayon bo‘lib, uni har bir mamlakat hukumatlari bilan bir qatorda valyuta-moliya sohasidagi davlatlararo tashkilotlar ham tar- tibga solishga harakat qiladilar. Bunday tashkilotlar qatoriga Xalqaro valyuta fondi (XVF), Xalqaro taraqqiyot va tiklanish banki (XTTB), Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (IHRT), Xalqaro rivoj- lanish assotsiatsiyasi (XRA) kabilami kiritish mumkin. Xalqaro valyuta fondi (XVF) o‘ziga a‘zo mamlakatlarning valyuta kursi va to‘lov balanslarini tartibga soladi, ularning valyuta- moliyaviy muammolarini hal etish maqsadida kreditlar ajratadi, rivojlanayotgan mamlakatlarning ko‘p tomonlama to‘lovlari tizimini va tashqi qarzlarni nazorat qiladi.

Research Science and
Innovation House



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Xodiyev B.Yu., Shodmonov Sh. Iqtisodiyot nazariyasi. T.:2018
2. Shodmonov. Sh., Mamaraximov Iqtisodiyot nazariyasi. T.:2016
3. Xudoyberdiyev Z. va boshq. Xalqaro valyuta- kredit munosabatlari. T.: Iqtisod-Moliya. 2012. 200b
4. Bobakulov T.I., Abdullayev U.A. Xalqaro valyuta- kredit munosabatlari. T.:Sano-standart.2014.231b
5. Tojiyev R.Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari.T.:2006
6. Vaxobov A.V., Rasulov T.S. Valyuta munosabatlari nazariyasi.T.:Fan va texnologiya.2013
7. Internet saytlari.
<http://www.press-service.uz> - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti axborot markazi sayti
<http://www.gov.uz> - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi rasmiy sayti
<http://fayllar.org>

Research Science and Innovation House

Cultural Differences in Work-Life Balance

Gulnoza Xusanova Akram qizi

Student of the International Business in Tourism and Hospitality Faculty
Management Development Institute of Singapore in Tashkent

Abstract

This article delves into the cultural differences in work-life balance across Western and Eastern countries, as well as Uzbekistan, examining how cultural values, social norms, and economic conditions shape people's approach to balancing work and personal life. In Western countries like the New Zealand and those in Western Europe, there is a strong focus on personal freedom, efficiency, and structured work hours, with an increasing shift towards flexible work options and mental well-being. On the other hand, Eastern countries such as Japan, China, and India often emphasize dedication and long working hours, though there is a growing awareness of the need for rest and balance. Uzbekistan offers a distinctive perspective, combining deep-rooted traditions with evolving modern work practices. Family and community play a central role in shaping work-life balance, while economic progress continues to influence workplace dynamics. Recognizing these cultural differences is crucial for building inclusive, supportive work environments and encouraging global organizational growth.

Key words: Cultural Differences, Work-Life Balance, Western, Eastern Countries and Uzbekistan, Cultural Values, Social Norms, Work Culture, Family and Community, Professional Commitment, Flexible Work Arrangements, Traditional Values, Modern Work Practices, Economic Well-Being and Organizational Success.

1.Introduction

Different cultures have different conceptions of and approaches to the concept of work-life balance, despite the fact that it is an essential component of modern existence. The value of working long hours and being dedicated to one's career is higher than the importance of enjoying one's personal life and being healthy in general in some societies. How individuals manage their personal and professional lives is impacted by a wide range of circumstances, including legislation, occupational norms, and societal mores.



By comparing and contrasting Eastern and Western work ethics, addressing the function of legislation such as paid leave, and drawing attention to the contrasts between these two systems, this article will shed light on the cultural influences that have an impact on work-life balance.

Entities that operate within a global culture may gain critical insights if they have a better understanding of these differences. One of the most challenging concepts is that of preserving a constant balance. Please refer to Wayne, Butts, Casper, and Allen (2016) for a review of the work.

In the beginning, scholars believed that the phrase meant that there would be a low amount of friction between work and non-work responsibilities. It is important to note that individuals handle their numerous responsibilities in a variety of ways, not all of which lead to equilibrium (Clark, 2000; Gambles et al., 2006; Hobson, 2014). The term "balance" implies that the goal is to engage in equal amounts of both professional and personal activities. The chaotic interplay between families and communities, as well as the blurry borders that she discovered in her research on Indian call centers, are not taken into consideration by Western concepts of work-life balance, as stated by Rajan-Rankin (2016). These definitions, according to the growing body of critical scholarship (Gamble et al., 2006; Lewis et al., 2007), imply that there is a dichotomy that is not real.

The purpose of this article is to research and analyze the cultural differences in work-life balance by focusing on how different cultural norms, attitudes, and practices influence people's strategies for balancing their personal and professional duties. Some of the primary characteristics that this study intends to identify as characterizing work-life balance across a variety of cultural contexts are attitudes toward work, family responsibilities, leisure activities, and societal expectations. A variety of cultural perspectives on the concept of work-life balance will be utilized in order to investigate the factors that influence employee productivity, job satisfaction, and overall well-being. Furthermore, it will explore how various cultures in light of globalization and remote employment perceive the concept of work-life balance. This article tries to discover effective strategies and best practices for achieving work-life balance, while simultaneously respecting and appreciating the varying cultural backgrounds of its readers. This material will be helpful to businesses who are working toward the goal of creating diverse and inclusive

workplaces that are committed to welcoming all employees. The workplace will experience a boost in both productivity and morale because of this.

2 Literature Review

2.1 Work-Life Balance in Western Countries

There is a substantial amount of variation in the work-life balance that exists amongst Western countries, with different approaches and outcomes being formed by cultural norms, labor regulations, and societal ideals. Some fascinating trends emerge from recent studies about the way in which different countries prioritize personal time over professional obligations. World's Best-Performing Countries From the perspective of the 2024 Global Life-Work Balance Index, the Western nations that are considered to have the best work-life balance are as follows:

New Zealand

With 26 paid weeks of maternity leave, New Zealand is at the top of the table for Remote. This is made possible by the country's relatively high minimum wage, 32 days of statutory yearly leave, and a minimum statutory sick pay rate of 80%. According to Erin Parry, a Canadian who currently resides in New Zealand and works in marketing, the overall culture is the most important factor in making work a more relaxed affair. This is more so than any specific policy the company may have. "As a Canadian, you have such a 'do-or-die' attitude about work," she stated in response. "I just did not know how I was going to survive that." When she went to New Zealand in 2015, it appeared to provide a fresh approach, one that, ever since she moved there permanently in the same year, has mostly lived up to expectations during her time there.

Without a doubt, New Zealand is not without its flaws.



According to data provided by the OECD, fourteen percent of workers put in more than fifty hours of labor per week, which is higher than the average leave rate prescribed by the OECD, which is ten percent. When it comes to personal care (such as eating and sleeping) and leisure (which includes spending time with family and friends, hobbies, and watching television), they spend 14.9 hours per day, which is slightly less than the average of the Organization for Economic Co-operation and Development (OECD). Parry observes that New Zealand does not provide some of the government assistance that other wealthy countries do, such as worker insurance in the event of unemployment, and that the expenses of childcare are considerable and continue to climb.

Denmark

Tevarak-atrofdan sodir bo'layotgan ekologik o'zgarishlarni ko'ra olish uchun har bir shaxsda fikrlash qobiliyati, tafakkur yuqori darajada rivojlangan bo'lishi kerak. Bunga erishish uchun ta'lim jarayonini ilmiy-metodik jihatdan to'g'ri tashkil etish, eng samarali bo'lgan o'qitish metodlaridan foydalanish talab etiladi. O'qituvchi shuni ham inobatga olishi lozimki, ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan har

bir metod o‘quvchilarida mustaqil fikrlash, o‘quv va ijtimoiy faollik ko‘nikmalarini shakllantira olishiga e‘tibor qaratishi maqsadga muvofiqdir.

Asosiy qism. Talabalar insoniyatning atrof-muhitga salbiy ta‘sir etish darajasi va ularning oqibatlarini aniq tasavvur eta olishlari lozim. Bu esa talabalarning kundalik faoliyatlarida atrof-muhitga zarar etkazmaydigan tarzda harakat qilishlariga imkon beradi. Xalqimiz tarixiy taraqqiyotining ilk davrlaridayoq tabiat va inson munosabatlarini tashkil etishga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lingan. Qadimgi manbalar – zardushtiylilik dinining muqaddas kitobi – “Avesto” hamda islom ta‘limotining muqaddas manbalari – Qur‘oni karim va Hadisi sharifda ham insonning tabiat bilan birligi va o‘zaro uyg‘unligi alohida yoritilgan bo‘lib, ularda tabiatni asrash, atrof-muhitni toza saqlash g‘oyalari etakchi o‘rin tutgan. Shuningdek, Sharq mutafakkirlari – Muhammad Muso al-Xorazmiy, Imom Ismoil al-Buxoriy, Imom Iso at-Termiziy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Amir Temur, Alisher Navoiy, Mahmud az-Zamaxshariy va boshqalarning asarlarida ham tabiatga nisbatan oqilona, ehtiyotkorona mas‘uliyatli yondashuv inson salomatligi va hayoti xavfsizligini ta‘minlovchi omil ekanligi yoritilgan [3].

Geografiya ta‘limi jarayonida talabalar o‘rtasida ekologik bilimlarni targ‘ib qilish quyidagi natijalarga erishishni kafolatlaydi:

- 1) talabalarning geokologik bilimlarni mustahkamlash va boyitish;
- 2) ularda geokologik bilimlarni o‘zlashtirishga nisbatan qiziqish yuzaga keltiriladi;
- 3) talabalar tabiat va atrof-muhitga ongli, mas‘uliyatli va oqilona yondashuv inson hayoti va salomatligini muhofazalashning muhim shartlaridan biri ekanligini chuqur anglab etadilar;
- 4) ularning ekologik majmualarga tizimli yondashuvi qaror toptiriladi va mavjud ekologik bilimlarni amalda qo‘llay olish ko‘nikma, malakalari, shuningdek, ularning birligi negizida ekologik madaniyatlari shakllantiriladi.

Talabalar ekologik madaniyatni shakllantirishda, ekologik bilimlarni o‘rganish jarayonida tarixiylik, ilmiylik, insonparvarlik, uzluksizlik, vorislik, respublikada tabiatni muhofaza qilish ishiga barchaning mas‘ulligi hamda atrof-muhitga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish fuqarolarning burchi ekanligi, ekologik bilimlarni o‘rganishning, shuningdek, bunday ma‘lumotlar olishning barcha uchun ochiqligi, ekologik ta‘lim-tarbiya mazmunining asoslanganligi geografiya yo‘nalishi talabalari uchun yanada ko‘proq ekologik bilim olishga yordam beradi.



Shu sababli xam ekologik madaniyatni shakllantirish bo'yicha oila, mahalla, ta'lim muassasalari, tabiatni muhofaza qilish o'rganlari va davlat o'rtasida o'zaro mustahkam aloqa va hamkorlikni o'rnatish muxim ahamiyatga egadir[1].

Xulosa. Geografiya yo'nalishida ekologik madaniyatni shakllantirishning asosiy vazifasi talabalarni tabiiy muhitni muhofaza qilish va yaxshilash, tabiatdan oqilona foydalanish, aholiga ma'naviy-ekologik bilim berish, ona tabiat boyliklarini saqlash va ko'paytirish harakatida ishtirok etishga tayyorlashdan iborat. Ekologik madaniyatni shakllantirishda tabiiy resurslar to'g'risida bilim, ekologik tafakkur, atrof-muhitni nazorat qilish kabi tushunchalarning mohiyati va ularning uzviyligi yoritib berish lozim. Buning natijasida talabalarda tabiatga munosabat bildirish, tabiat muhofazasi yo'lida shaxsiy namuna va tashabbus ko'rsatish, mustaqil ekologik faoliyatni tashkil etish qobiliyatlarining rivojlantirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Джураев Р.Х., Турдикулов Э.О. Экологик таълимнинг долзарб муаммолари ва уларни ҳал этиш йўллари //Узлуксиз таълим. –Тошкент: 2004. -№6. –Б. 3-9.
2. Зиёмуҳаммадов Б. Экология ва маънавият.–Тошкент:Меҳнат,1997.–104б.
3. Бўриева М. Ёшларда табиатни муҳофаза қилиш ҳиссини тарбиялаш //Халқ таълими. –Тошкент: 1992. -№2. –Б. 12-14.

Research Science and
Innovation House



ZANGIOTA TUMANI AHOLISI VA UNING JOYLASHUV XUSUSIYATLARI

Nurmatova Muhabbat Yoqubjon qizi– Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zMU
Geografiya magistranti. muhabbatnurmatova341@mail.com

Egamberdieva Matluba Mamanazarovna - Mirzo Ulug‘bek nomidagi
O‘zMU Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya kafedrasida dotsenti, g.f.n.
egamberdiyevam@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada Toshkent viloyati Zangiota tumanida kechayotgan demografik vaziyat, xususan aholi takror barpo bo‘lish xususiyatlari, shuningdek migratsiya jarayonlariga qisqacha to‘xtalib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: Aholi soni, yosh tarkibi, demografik jarayonlar, tug‘ilish, o‘lim, nikoh, ajralish, migratsiya.

POPULATION OF ZANGIOTA DISTRICT AND ITS LOCATION FEATURES

Annotation: This article briefly discusses the demographic situation in Zangiota district of Tashkent region, in particular the characteristics of population growth, as well as migration processes.

Keywords: Population, age structure, demographic processes, birth, death, marriage, divorce, migration.

НАСЕЛЕНИЕ ЗАНГИОТСКОГО РАЙОНА И ХАРАКТЕРИСТИКИ ЕГО РАСПОЛОЖЕНИЯ

Аннотация: В данной статье будет кратко рассмотрена демографическая ситуация в Зангиотинском районе Ташкентской области, в частности, особенности воспроизводства населения, а также миграционные процессы.


Ключевые слова: Население, возрастная структура, демографические процессы, рождение, смерть, брак, развод, миграция. Ma‘lumki jahon mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida aholi soni va dinamikasi asosiy omillardan biridir. Aholi soni va tarkibi davlatning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatiga, uning innovatsion rivojlanish va faoliyatning turli sohalarida ixtisoslashuviga bevosita ta‘sir qiladi. Aholining bandligi mamlakatning iqtisodiy o‘shish

sur’atlarini, turmush darajasi ko’rsatkichlarini, jahon bozoridagi kuchi va raqobatbardoshligini belgilaydi.

Toshkent viloyatining Zangiota tumanidagi demografik jarayonlarni tadqiq etish katta ahamiyatga ega. Xususan, aholi soni, tuzilishi va tarkibidagi o’zgarishlarni aniqlash tuman iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishini rejalashtirish, jumladan, yangi turar-joy majmualari, infratuzilma, ta’lim va tibbiyot muassasalarini qurish uchun asos bo’lib xizmat qiladi. Aholining demografik rivojlanishini tahlil qilish, aholining kelajakdagi ehtiyojlarini prognozlash va shunga mos ravishda rivojlanish rejalarini ishlab chiqish imkonini beradi. Masalan, aholining yosh tarkibini ko’rsatkichlarini oldindan prognozlash orqali, turli yosh guruhlarining - bolalar, mehnat yoshidagilar va keksalar uchun qanday ishlab chiqarish, xizmatlar va dasturlarni ishlab chiqish kerakligini aniqlash mumkin. Bu esa aholining barcha qatlamlarini ehtiyojlarini ta’minlashga xizmat qiladi.

Ma’lumki, hududlar aholisi sonining ortib borishida asosan ikki manba aholining tabiiy ko’payishi, migratsiya muhim rol o’ynaydi.

2024-yil holatiga ko’ra doimiy aholi soni 174 304 kishini tashkil qildi va o’tgan yilga nisbatan 3 119 kishiga yoki 101,8 % ga ko’paydi.




1-rasm. Zangiota tumani aholisining joylashuvi

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari.



Zangiota tumani aholisi joylashuviga ko'ra shaharliklar 59,2 foizni, qishloq aholisi esa 40,8 foizni tashkil etadi (1-rasm). O'rganilayotgan tumanning Toshkent shahriga yaqinligi sababli tumanga aholiga xizmat ko'rsatish infratuzilmalarining jadal kirib kelishiga sabab bo'lmoqda. Bu esa aholining turmush darajasining yaxshilanishiga aholi bandligining oshishiga, doimiy aholi sonining ko'payishiga olib kelmoqda.

Shuningdek, 2024- yil holatiga ko'ra tuman aholisining 51,9 foizi erkaklar va 48,1 foizi ayollar tashkil etgan. Demak, bu yerda erkaklar soni ayollar soniga nisbatan ko'proq ekanligini kuzatishimiz mumkin.



2-rasm. Zangiota tumani jami aholi soni (ming kishi)

Manba: Toshkent viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari


Tahlillarga ko'ra, hozirgi vaqtda mamlakatimizning kichik hududlarida demografik jarayonlar o'ziga xos kechmoqda. Jumladan, Zangiota tumanining demografik rivojlanishidagi xarakterli xususiyatlardan bir respublikaning boshqa tumanlariga nisbatan aholi soni o'sish sur'atining pastligi bilan ifodalanadi.

Aholi soning tadrijiy o'zgarishi shuni ko'rsatadiki, o'rganilayotgan hududda 2010-yildan 2017-yilgacha aholi soni muntazam ko'payib borgan. Bunda aholi turmush darajasining oshishi, xususan, sog'liqni saqlash, sanoat, qishloq xo'jaligi tarmoqlarining rivojlanishi tabiiy o'sishiga katta ta'sir ko'rsatgan. 2018-yilda

tuman aholisi 193 ming kishini tashkil etgan holda, 2024-yilga kelib umumiy aholi miqdori 21,4 ming kishiga kamayganini kuzatish mumkin (2-rasm). Buning sababini Zangiota tuman hududidan ba’zi yerlarning Toshkent shahriga o’tkazilishi hisoblanadi. Mazkur holat tumanda 2018- yildan aholi sonining kamayishiga ta’sir ko’rsatgan.

Mamlakatda tabiiy o’sishni yuqori bo’lishi iqtisodiy tarmoq sohalarning rivojlanishiga, mehnat resurslari va mehnat bozori faoliyatida asosiy omil hisoblanadi.

Shu o’rinda takidlash joizki, O’zbekistonda tug’ilish koeffitsientining pasayishi dastavval Toshkent shahri va Toshkent viloyatidan boshlanib, respublikaning janubiy mintaqalarida tugaydi yoki so’nadi. Bu o’ziga xos “geodemografik to’lqinlar” tarzida namoyon bo’ladi (prof.A.Soliyev iborasi). Tahlillarga ko’ra tumanda tug’ilish darajasi so’nggi yillarda keskin kamayganini kuzatish mumkin. Bunga tuman aholisi tabiiy o’sishning pasayishi ham sezilarli ta’sir ko’rsatgan. 2024- yilning tug’ilganlar soni 3 014 ta ni tashkil etgan holda, 2023-yilning shu davriga mos keladi (3070 bola) ushbu ko’rsatkich 56 taga kamaygan. Tug’ilish koeffitsiyenti mos ravishda 23,3 promilleni tashkil qilib, 2023- yilning shu davriga (24,3 promille) nisbatan 1,0 promillega kamayganligini ko’rish mumkin (3-rasm).



3-rasm. Zangiota tumanida tug`ilganlar soni (yilda; kishi)


Manba: Toshkent viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari.



Umuman aholining tabiiy ko‘payishida, tug‘ilish darajasi, shuningdek o‘lim ko‘rsatkichining past yoki barqaror holatda saqlanib turishi muhim rol o‘ynaydi. Zangiota tumanida o‘lim darajasining o‘zgarishi tug‘ilishdek aholining yosh tarkibiga katta ta‘sir qiladi. Qayd etilgan o‘lim holatining asosiy qismi – qon aylanish tizimi kasalliklaridan, o‘simtalardan, nafas olish a‘zolari kasalliklaridan vafot etganlar hissasiga to‘g‘ri keladi.

O‘lim ko‘rsatkichi aholining yosh tarkibi va tug‘ilish bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, turli yoshda ularning o‘zgarishi har xil. Bundan tashqari, o‘lim hajmi shaharlar aholisi soni, urbanizatsiya darajasi, shuningdek ekologik, ijtimoiy va iqtisodi omillar bilan ham bevosita bog‘liq.

2022-yil ma‘lumotlarga ko‘ra tumanda 1095 ta o‘lim qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga nisbatan o‘lim koeffitsiyenti 6,5 promilleni tashkil etdi. 2020-yildagi pandemiya sababli viloyatning boshqa tumanlaridagi kabi o‘lim ko‘rsatkichi ancha ortgan va 1405 kishini tashkil qilgan. Eng kam o‘lim ko‘rsatkichi 2024-yilga to‘g‘ri keladi (746 kishi) yoki har 1000 aholiga nisbatan 5,7 promilleni tashkil etmoqda (4-rasm). Bunga asosiy sabab aholi turmush darajasining yaxshilanishi, xizmatlar, xususan sog‘liqni saqlash sohasining rivojlanishidir.



4-rasm. Zangiota tumanida o‘lganlar soni (yilda; kishi)


Manba: Toshkent viloyati statistika boshqarmasi ma‘lumotlari.

Ma‘lumki, jamiyatning barqarorligini ta‘minlashda oilaning o‘rni beqiyos. Mustahkam nikohlar jamiyatning barqarorligi va rivoji uchun asos bo‘lib xizmat



qiladi. Oilalar orqali madaniyat qadriyatlar va axloqiy me’yorlar avloddan-avlodga o’tkaziladi. Nikoh nasl-nasabning davomiyligi, insonlar orasida qarindosh-urug’chilik, mehr-oqibatni mukammal bo’lishi kabi insoniyat uchun manfaatli maqsadlarga xizmat qiladi.

2024-yilda tahlil qilinayotgan tuman FHDYO organida 827 ta nikohlar va 162 ta ajralishlar ro’yxatga olindi (5-rasm). Shuningdek har 1000 aholiga nisbatan 6,4 ta nikoh (2023- yilning tegishli davrida 6,2 ta) va 1,3 ta ajralish (2023- yilda – 2,1 ta) qayd etildi. Tumanda ajralishlar asosan ijtimoiy-iqtisodiy omillar, oilaviy nizolar, shuningdek, tuman aholisining etnik tarkibi ham ta’sir ko’rsatmoqda.



5-rasm. Zangiota tumanida nikoh tuzish va nikohdan ajralishlar bo’yicha ma’lumot (birlikda)

Manba: Toshkent viloyati statistika qo’mitasi ma’lumotlari

Tahlil etilayotgan hududning demografik vaziyatga migratsiya, xususan ichki va tashqi migratsiya ham katta ta’sir ko’rsatmoqda. 2024-yil ma’lumotlariga ko’ra tumanga ko’chib kelganlar soni 3 005 kishini, shu davr mobaynida ko’chib ketganlar soni esa 2 157 kishini tashkil qildi (6-rasm).

Migratsiya oqimi aholi dinamikasi o’zgarishiga ta’sir qiladi. Boshqa mintaqalardan kelgan migrantlar oqimi tumanning milliy tarkibiga, yosh tarkibi va



demografik holatiga ta'sir etuvchi muhim sanaladi. Bu aholining hudud bo'ylab bir tekis taqsimlanishiga va ijtimoiy xizmatlarga bo'lgan ehtiyojga ham ta'sir qiladi.


O'rganilayotgan tumanning poytaxt Toshkent shahriga chegaradosh ekanligi, migratsiyaning doimo ijobiy o'zgarish xususiyatiga egaligi bilan ahamiyatlidir.

Zangiota tumaniga ko'chib kelayotganlarning asosiy qismi qo'shni viloyatlardan shuningdek, Markaziy Osiyo davlatlaridan, xususan, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston kabi davlatlaridan kelganlar hisoblanadi.

Yoshlarning qishloq hududlaridan Toshkent shahar atrofiga ko'chishi ham tuman aholisining yosh tarkibiga ta'sir etuvchi muhim omil hisoblanadi. Buning sababi, yoshlarning katta shaharlarda bilim olishga intilishi va mehnat bozori bilan izohlanadi.

Migratsiya jarayonlari tuman aholisining tabiiy harakatiga, ayniqsa tug'ilish va o'lim koeffitsiyentiga ham ta'sir ko'rsatadi. Masalan, migrantlar ulushi yuqori bo'lgan hududlarda tug'ilishning ko'payishi yoki pasayish holatlari kuzatilishi mumkin.

Demak, migratsiya jarayonlari Zangiota tumani aholi yosh tarkibi va demografik jarayonlarni tahlil qilishda e'tiborga olinishi lozim bo'lgan muhim omil hisoblanadi.



6-rasm. Zangiota tumaniga ko'chib kelganlar soni (yil, kishi)

Manba: Toshkent viloyati boshqarmasi ma'lumotlari



Zangiota tumani migratsiya jarayonlarini tahlilga ko‘ra ko‘chib keluvchilar 2010-2011- yillarda juda kam bo‘lgan holda 2021- yildan bu ko‘rsatkich birmuncha oshgan (3084 kishi).

Xulosa qilib aytganda, tahlil etilayotgan tumanning demografik vaziyati o‘ziga xos bo‘lib, bu holat kelajakda respublikaning boshqa kichik hududlarida ham, biroz vaqt o‘tgandandan so‘ng sodir bo‘lishi mumkin. Bunga hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va demografik vaziyati, o‘z navbatida, bu yerda poytaxt Toshkent shahrining yaqinligi ham sezilarli ta‘sir ko‘rsatgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Abdullaeva R, Ata-Mirzayev O., Umarova.N. O‘zbekiston demografik jarayonlari va aholi bandligi. -T.: “Universitet”, 2006.
2. Bo‘riyeva M.R. O‘zbekistonda oila demografiyasi. -Toshkent,1997.
3. Soliyev.A., Qarshiboyeva L. Iqtisodiy geografiyaning nazariy va amaliy masalalari. -Toshkent,1999.
4. Soliyev.A, Mahamadaliyev.R “Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya asoslari”. -Toshkent, 2005.
5. Tojiyeva Z.N. Aholi geografiyasi.Darslik. -Toshkent.: «Innovatsiya/Ziyo”, 2020, 298- bet.
6. <https://mehnat.uz>.
7. <https://stat.uz/>

Research Science and Innovation House

HOMILADOR AYOLLAR ORASIDAGI QIZILCHA: XUSUSIYATLARI, XAVFLARI VA OLDINI OLISH

¹Yusupov Sh.R., ¹Sadullayev S.E., ¹Yoqubov Q.Y.,

¹Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali, Urganch, O‘zbekiston

²Ibragimov U.M.

²Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali Stomatologiya fakulteti
4-bosqich talabasi, Urganch, O‘zbekiston

Annotatsiya. Qizilcha - bu, ayniqsa, homiladorlikning dastlabki bosqichlarida jiddiy oqibatlariga olib kelishi mumkin bo‘lgan virusli infeksiya. Asosiy xavf tug‘ma qizilcha sindromi (TQS) bo‘lib, homilaning ko‘rish, eshitish, yurak tug‘ma nuqsonlari va markaziy asab tizimining jiddiy nuqsonlari bilan tavsiflanadi. Maqolada homilador ayollarda infeksiyaning kechishi, homila uchun xavflar, diagnostika va profilaktika usullari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Homiladorlik, virus, patologiya, asorat, xavf, simptomlar, o‘lim.

Аннотация. Краснуха — это вирусная инфекция, которая может иметь серьезные последствия для беременности, особенно на ранних сроках. Основной угрозой является врожденный синдром краснухи (ВСК), характеризующийся серьезными пороками развития плода, включая поражения зрения, слуха, сердца и центральной нервной системы. В статье рассматриваются особенности течения инфекции у беременных, риски для плода, методы диагностики и профилактики.

Ключевые слова: Беременность, вирус, патология, осложнение, риск, симптомами, летальность.

Annotation

Rubella is a viral infection that can have serious consequences for pregnancy, especially in the early stages. The main threat is congenital rubella syndrome (VSC), characterized by serious malformations of the fetus, including damage to vision, hearing, heart and central nervous system. The article discusses the features of the course of infection in pregnant women, risks to the fetus, methods of diagnosis and prevention.

Keywords: Pregnancy, virus, pathology, complication, risk, symptoms, mortality.

Kirish. Qizilcha yuqumliligi yuqori bo‘lgan virusli infeksiyon kasalligidir. Qizilcha virusi nafas olish, yo‘talish yoki aksirish orqali osonlik bilan tarqaladi. Qizilchaqa chalingan aksariyat bolalar va kattalarda tana haroratining yengil ko‘tarilishi va toshma kuzatiladi.

Agar ayol homiladorlikning dastlabki bosqichlarida qizilcha virusini yuqtirib olsa, virusning homilaga o‘tish ehtimoli 90% ni tashkil qiladi. Homiladorlik paytida qizilcha, ayniqsa, birinchi uch oylikda homilaning tushishi, o‘lishi, o‘lik tug‘ilishi yoki chaqaloqda tug‘ma nuqsonlar, ya’ni tug‘ma qizilcha sindromiga (TQS) olib kelishi mumkin.

Qizilcha va uning tarqalishining oldini olishning eng samarali usuli vaksinatsiya hisoblanadi. Vaksina xavfsiz va organizmga virusga qarshi kurashishga yordam beradi.

Hisob-kitoblarga ko‘ra, 2022 yilda xavfsiz va tejamkor vaktsina mavjudligiga qaramay, 78 mamlakatda 17 865 ta qizilcha kasalligi qayd etilgan.

2000 yildan beri Qizilcha va qizilchaga qarshi kurash bo‘yicha sheriklik (QQKK), avval Qizilcha va qizilchaga qarshi tashabbus deb nomlangan, qizilcha va qizilchaga qarshi vaktsinalarni dunyo bo‘ylab bolalarga yetkazishga yordam beradi, bu esa 57 million hayotni saqlab qolishga va TQS tufayli tug‘ma nuqsonlarni sezilarli darajada kamaytirishga yordam berdi.

Ishning maqsadi. Homilador ayollar orasidagi qizilcha kasalligining klinik kechish xususiyatlarini, homilaga bo‘lgan xavfini va oldini olish chora-tadbirlarini o‘rganish.

Rubella virusidan keltirib chiqaradigan qizilcha kasalligi havo-tomchi yo‘li bilan yuqadi va yuqumliligi yuqori. Infeksiya mavsumiy xarakterga ega bo‘lib, qish va bahor oylarida kasallanish ko‘payadi. Kattalarda, ayniqsa, homilador ayollarda infeksiya homilaga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi tufayli alohida ahamiyatga ega. Qizilchaning patogenezi va oldini olish usullarini tushunish jamoat salomatligi uchun muhim bo‘lib qolmoqda.

Homiladorlikning dastlabki bosqichlari homiladorlikning birinchi uch oyligida infeksiya eng xavfli hisoblanadi, chunki bu davrda homilaning organlari va tizimlari shakllanadi. Bu davrda virus yo‘ldosh to‘sig‘idan osonlik bilan o‘tadi va rivojlanayotgan to‘qimalarga zarar yetkazadi, bu quyidagilarga olib kelishi mumkin:

- Katarakta va boshqa ko‘rish nuqsonlari.
- Karlik.
- Yurakning tug‘ma nuqsonlari.
- Mikrotsefaliya va aqliy zaiflik.

Homiladorlikning birinchi 12 haftasida infeksiya yuqtirganda tug‘ma anomaliyalar xavfi 85% gacha yetadi.

Ikkinchi uch oylik 13 haftadan 20 haftagacha xavf sezilarli darajada kamayadi, ammo eshitish va boshqa organlarning shikastlanish ehtimoli saqlanib qoladi.

Uchinchi uch oylik homiladorlikning kechki bosqichlarida infeksiya kamdan-kam hollarda jiddiy oqibatlariga olib keladi, garchi ba’zi hollarda homilaning normal rivojlanishi buzilishi mumkin.

Homilador ayollarda qizilcha quyidagi alomatlar bilan namoyon bo‘lishi mumkin:

- Yengil isitma.
- Yuzda paydo bo‘ladigan va tanaga va qo‘llarga tarqaladigan mayda toshma.
- Ensa va bo‘yin limfa tugunlarining kattalashishi va og‘rishi.
- Umumiy holsizlik.

Shuni ta’kidlash kerakki, infeksiya holatlarining 50% gacha simptomlarsiz kechadi, bu esa kechki tashxis qo‘yish va kasallikni aniqlamaslik xavfini oshiradi.

Tashxis. Serologik usullar, O‘tkir infeksiyani aniqlash uchun qizilcha virusiga qarshi IgM antitanalarni aniqlash, Immunitetning mavjudligini baholash uchun IgG darajasini aniqlash, Polimeraz zanjirli reaksiya (PZR) PZR qon, siydik yoki amniotik suyuqlikda virus RNKsini aniqlash imkonini beradi.

Prenatal tashxis. Amniotsentez va kordotsentez, ayniqsa, tug‘ma qizilcha sindromiga shubha qilinganda, homiladagi virusni aniqlash uchun ishlatilishi mumkin.

Profilaktika. Vaksinatsiya Qizilchaqa qarshi vaksinatsiya - profilaktikaning asosiy usuli. Qizilcha virusiga qarshi tirik vakcina homiladorlikni rejalashtirishdan 1-3 oy oldin yuboriladi. Homilador ayollarga vaksinatsiya mumkin emas. Immunitetni skrining qilish Homiladorlikni rejalashtirish bosqichida qizilcha virusiga qarshi IgG antitanalarni skrining qilish tavsiya etiladi. Immuniteti bo‘lmagan ayollar emlanishi kerak.

Alohidalash va kontakt orqali yuqishning oldini olish Homilador ayollar, ayniqsa, infeksiya tarqalgan paytda, infeksiyalangan odamlar bilan aloqa qilishdan qochishlari kerak.

Qizilchani davolashning maxsus viruslarga qarshi vositasi mavjud emas. Homiladorlikni boshqarish infeksiya yuqtirish muddatiga bog‘liq: Birinchi, ikkinchi va uchinchi uch oyliklarda: homila UTT va boshqa prenatal diagnostika usullari yordamida dinamik kuzatib boriladi.

Xulosa.

Qizilcha homilador ayollar va ularning avlodlari uchun jiddiy xavf bo‘lib qolmoqda. Kasallikning oldini olishning asosiy choralari - samarali emlash va o‘z vaqtida skrining qilish. Reproduktiv yoshdagi ayollar o‘rtasida qizilcha xavflari haqida xabardorlikni oshirish va profilaktika dasturlarini takomillashtirish onalar va bolalar salomatligiga ta’sirini kamaytirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Masharipov, S., Sadullaev, S. E., & Sh, M. D. (2023). THE COURSE OF CORONAVIRUS AGAINST THE BACKGROUND OF CHRONIC HEPATITIS. Scientific Impulse, 2(15), 65-70.
2. Masharipova Sh.S, Masharipov S, Sadullaev S.E, & Matyakubova D.Sh. (2023). THE COURSE OF CORONAVIRUS AGAINST THE BACKGROUND OF CHRONIC HEPATITIS. Scientific Impulse, 2(15), 65–70. Retrieved from
3. Sadullayev S. E. et al. THE COURSE OF NOSOCOMIAL PNEUMONIA IN PATIENTS ON LONG-TERM ARTIFICIAL LUNG VENTILATION //O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. – 2024. – T. 2. – №. 26. – С. 80-84.
4. Машарипова Шохиста Сабировна, Артиков Икром Ахмеджанович, Матякубова Ойша Уриновна РАСТРОЙСТВА ПСИХИКИ У БОЛЬНЫХ ДЕСТРУКТИВНЫМИ ФОРМАМИ ТУБЕРКУЛЕЗА В УСЛОВИЯХ ПАНДЕМИИ COVID-19 // JCRR. 2021. №3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/rastroystva-psihihi-u-bolnyh-destruktivnymi-formami-tuberkuleza-v-usloviyah-pandemii-covid-19>
5. Машарипова Шохиста Сабировна МОРФОЛОГИЧЕСКОЕ СТРОЕНИЕ ЛЕГОЧНЫХ АРТЕРИЙ ПОД ВЛИЯНИЕМ САХАРНОГО ДИАБЕТА // JCRR. 2022. №1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/morfologicheskoe-stroenie-legochnyh-arteriy-pod-vliyaniem-saharnogo-diabeta>

6. Туйчиев Л. Н. и др. A study of the factors affecting the effectiveness of COVID-19 rehabilitation. – 2023.
7. Машарипова Ш. С. О ‘PKA ARTERIYALARINING QANDLI DIABET TA’ SIRIDA MORFOLOGIK TUZILISHI //Журнал кардиореспираторных исследований. – 2022. – Т. 3. – №. 1.
8. Yusupov Sh.Sh, Ibrakhimova H.R, & Masharipova Sh.S. (2023). IMMUNOLOGICAL CHARACTERISTICS OF PATIENTS WHOSE BODY IS INFECTED WITH CATTLE SOLITAIRE. Новости образования: исследование в XXI веке, 2(15), 120–124. извлечено от <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/noiv/article/view/12430>
9. Ibrakhimova H.R, Masharipova Sh.S, & Artikov I.A. (2023). CHANGES IN THE IMMUNE STATUS OF PATIENTS WITH PARASITIC DISEASE. Новости образования: исследование в XXI веке, 2(15), 103–108. извлечено от <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/noiv/article/view/12427>
10. Masharipova Sh.S, Masharipov S, & Matyakubova D.Sh. (2023). UDC:616.36-005:75-642 TUBERCULOSIS AND ITS COURSE IN PATIENTS WITH HEPATITIS B. Scientific Impulse, 2(14), 95–99. Retrieved from <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/ni/article/view/12215>
11. Masharipova Sh.S, Ibrakhimova H.R, & Nurllayev R.R. (2023). A METHOD FOR OBTAINING PRECIPITATING SERUMS FOR THE DETECTION OF HUMAN SEMINAL FLUID USED IN THE STUDY OF PHYSICAL EVIDENCE IN FORENSIC BIOLOGICAL LABORATORIES. World Bulletin of Management and Law, 19, 42-44. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbml/article/view/2119>
12. IMMUNE STATUS IN PATIENTS WITH PARASITIC DISEASES IN KHOREZM REGION. (2025). Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 5(1), 514-517. <http://www.mjstjournal.com/index.php/mjst/article/view/2518>
13. Машарипов С.М., Юсупов Ш.Р., Машарипова Ш.С., Матякубова О.У. КЛИНИЧЕСКОЕ ТЕЧЕНИЕ ТУБЕРКУЛЕЗА У БОЛЬНЫХ ГЕПАТИТОМ В / Вестник ТМА.uz. 2023 г. № 3 (2) – стр. 155-157.
14. Аскарова Р.И., Юсупов Ш.Р., Машарипова Ш.С., Машарипова Х.К. Эпидемиология легочного туберкулеза/EUROPEAN RESEARCH: INNOVATION IN SCIENCE, EDUCATION AND TECHNOLOGY LVII

International correspondence scientific and practical conference.
2019/Издательство: PROBLEMS OF SCIENCE / United Kingdom, 06–07 ноября
2019 год, стр. 96-100

15. S., M. S., E., S. S. ., J., I. S. ., I., Q. N. ., & B., B. Y. . (2024). THE SPREAD OF CHICKENPOX AMONG THE POPULATION. Research Journal of Trauma and Disability Studies, 3(3), 48–54. Retrieved from <http://journals.academiczone.net/index.php/rjtds/article/view/2302>

16. Masharipova Sh.S, Ibadullayeva S.S, Yakubov K.Y, & Artikov I.A. (2024). FEATURES OF INFECTIOUS MONONUCLEOSIS IN CHILDREN. Scientific Impulse, 2(16), 1165–1171. Retrieved from <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/ni/article/view/14208>

17. Masharipova Sh.S, Ibadullayeva S.S, Yakubov K.Y and Artikov I.A 2024. FEATURES OF INFECTIOUS MONONUCLEOSIS IN CHILDREN. Scientific Impulse. 2, 16 (Jan. 2024), 1165–1171.

18. Садуллаев, С. Е., Машарипова, Ш. С., & Машарипов, С. (2023). КЛИНИКО-ЛАБОРАТОРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ТЕЧЕНИЯ ПНЕВМОНИИ, АССОЦИИРОВАННОЙ С COVID-19, У ДЕТЕЙ РАННЕГО ВОЗРАСТА. Международный журнал образования, социальных и гуманитарных наук. Finland Academic Research Science Publishers, 11(9), 851-856.

19. Сабирипова, Ш., & Машарипова, А. И. А. Садуллаев Сирож Эрназарович, и Абдуллаева Дилфуза Кадамовна. 2022.«ТЕЧЕНИЕ КОРОНАВИРУСНОЙ ИНФЕКЦИИ НА ФОНЕ ГЕПАТИТОВ». Новости образования: исследование в XXI веке 1 (5): 573-77. ТЕЧЕНИЕ КОРОНАВИРУСНОЙ ИНФЕКЦИИ НА ФОНЕ ГЕПАТИТОВ». Новости образования.

20. Masharipova Sh.S, Masharipov S, & Matyakubova D.Sh. (2023). UDC:616.36-005:75-642 TUBERCULOSIS AND ITS COURSE IN PATIENTS WITH HEPATITIS B. Scientific Impulse, 2(14), 95–99. Retrieved from <https://nauchniyimpuls.ru/index.php/ni/article/view/12215>

21. Masharipova Sh.S, Masharipov S, & Matyakubova D.Sh. (2023). UDC:616.36-005:75-642 TUBERCULOSIS AND ITS COURSE IN PATIENTS WITH HEPATITIS B. Scientific Impulse, 2(14), 95–99. Retrieved from <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/ni/article/view/12215>

22. Masharipova Shokhista Sabirovna, & Masharipov Sobir. (2023). UDC: 619:616.995.132.6 IMMUNE STATUS OF ADULTS AND CHILDREN WITH

- AN ALLERGIC BACKGROUND DIAGNOSED WITH ENTEROBIOSIS. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 2(14), 24–28. извлечено от <https://nauchniyimpuls.ru/index.php/noiv/article/view/11911>
23. CHARACTERISTICS OF PATHOMORPHOLOGICAL CHANGES IN LYMPHOCYTIC LEUKOSIS IN CHILDREN. (2023). *Western European Journal of Medicine and Medical Science*, 1(4), 21-26. <https://westerneuropenstudies.com/index.php/3/article/view/122>
24. RESULTS OF STUDIES ON THE LEVEL OF POPULATION KNOWLEDGE ABOUT PARASITIC DISEASES AND ITS PREVENTION. (2023). *Western European Journal of Medicine and Medical Science*, 1(4), 15-20. <https://westerneuropenstudies.com/index.php/3/article/view/121>
25. THE STRUCTURE OF COMORBID PATHOLOGY IN CHILDREN WITH COVID-19. (2024). *CONFERENCE ON THE ROLE AND IMPORTANCE OF SCIENCE IN THE MODERN WORLD*, 1(2), 27-28.
26. Sadullaev S. E., Sh M. D. THE COURSE OF CORONAVIRUS AGAINST THE BACKGROUND OF CHRONIC HEPATITIS *Masharipova Sh. S Masharipov S //Научный импульс. – 2023. – С. 78.*
27. Ibrakhimova, H. R., Sadullaev, S. E., & Nurllayev, R. R. (2023). SPREAD OF MYOCARDIAL INFARCTION AMONG THE POPULATION OF THE KHOREZM REGION. *IMRAS*, 6(7), 328-332.
28. Ibraximova H. R., Sadullayev S. E. AHOLI ORASIDA O ‘TKIR ICHAK KASALLIKLARINING TARQALISHI //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2023. – Т. 2. – №. 15. – С. 115-119.
29. Ибрахимова ХР, Матъякубова ОУ, Садуллаев СЭ и Абдуллаева ДК (2023). ГЕЛЬМИНТЫ У ДЕТЕЙ СРЕДИ НАСЕЛЕНИЯ УЗБЕКИСТАНА. *IMRAS*, 6(7), 323–327. Получено с <https://journal.imras.org/index.php/sps/article/view/521>
30. Artikov, I. A., Sadullaev, S. E., Ibrakhimova, H. R., & Abdullayeva, D. K. (2023). *RELEVANCE OF VIRAL HEPATITIS EPIDEMIOLOGY. IMRAS*, 6 (7), 316–322.
31. Tuychiev, L. N., Khudaykulova, G. K., Eraliev, U. E., Djuraeva, N. K., & Sadullaev, S. E. (2023). A STUDY OF THE FACTORS AFFECTING THE EFFECTIVENESS OF COVID-19 REHABILITATION.

32. Sadullaev S. E., Sh M. D. THE COURSE OF CORONAVIRUS AGAINST THE BACKGROUND OF CHRONIC HEPATITIS Masharipova Sh. S Masharipov S //Научный импульс. – 2023. – С. 78.
33. Туйчиев, Л. Н., Худайкулова, Г. К., Джураева, Н., & Эралиев, У. Э. (2023). A study of the factors affecting the effectiveness of COVID-19 rehabilitation.
34. Sadullaev M., Sh S. M. D. THE COURSE OF CORONAVIRUS AGAINST THE BACKGROUND OF CHRONIC HEPATITIS. – 2023.
35. Nurullayev R. R., Sadullayev S. E. DIAREYALI KASALLIKLARNING EPIDYEMIOLOGIK XUSUSIYATLARI //World of Science. – 2023. – Т. 6. – №. 9. – С. 64-67.
36. Эралиев, У. Э., & Садуллаев, С. Э. (2020). Molecular genetic characteristics of rotavirus infection in children. Молодой ученый, (38), 46-48.
37. ANALYSIS OF THE EPIDEMIOLOGICAL FEATURES OF DIARRHEAL DISEASES IN CHILDREN IN THE SOUTHERN ARAL REGION. (2024). *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(2), 345-351. <http://www.mjstjournal.com/index.php/mjst/article/view/870>
38. Рахматуллаева, Ш.Б. Особенности течения COVID-19 у детей с коморбидной патологией // Ш.Б. Рахматуллаева, М.Т. Муминова, А.Х. Нурматов и др. // Педиатрия. Восточная Европа. - 2023. № 3 12. - 436-442. - https://recipe.by/wp-content/uploads/2024/10/436-442_ped_3-2024-v12.pdf (дата обращения: 26.03.2025). doi: 10.34883/PI.2024.12.3.006
39. INTESTINAL IMMUNITY. (2025). *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 5(2), 485-488. <https://mjstjournal.com/index.php/mjst/article/view/2691>
40. PSYCHOLOGICAL REHABILITATION DURING THE CORONAVIRUS PANDEMIC. (2025). *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 5(2), 429-433. <http://www.mjstjournal.com/index.php/mjst/article/view/2678>
41. THE STRUCTURE OF COMORBID PATHOLOGY IN CHILDREN WITH COVID-19. (2024). *CONFERENCE ON THE ROLE AND IMPORTANCE OF SCIENCE IN THE MODERN WORLD*, 1(2), 27-28. <https://universalconference.us/universalconference/index.php/crismw/article/view/641>

GEPATITLAR FONIDA KORONAVIRUS INFEKSIYASINING KECHISHI

**Yusupov Sh.R., Sadullayev S.E., Yoqubov Q.Y.,
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali, Urganch, O‘zbekiston**

Annotatsiya. Jigar hayotiy muhim organdir. Jigar inson organizmida ko‘plab funksiyalarni bajaradi, immunitet tizimi reaksiyalarida ishtirok etadi, infeksiyalarga umumiy qarshilik darajasini belgilaydi va viruslar va bakteriyalarga qarshi antitanalar ishlab chiqarish uchun javobgardir. Jigar kasalliklari dunyoda eng ko‘p tarqalgan kasalliklardan biri hisoblanadi, ayniqsa COVID-19 pandemiyasi sharoitida. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti 2020 yil 11 fevralda yangi koronavirus infeksiyasining rasmiy nomi COVID-19 deb e‘lon qildi.

Kalit so‘zlar: COVID-19, surunkali gepatit, koronavirus, klinik kechish.

Аннотация. Печень является жизненно важным органом. Печень в организме человека выполняет множество функций. Участвует в реакциях иммунной системы. Кроме того определяет общий уровень сопротивляемости инфекциям и отвечает за производство антител для борьбы с вирусами и бактериями. Заболевания печени являются самыми распространенными в мире. Особенно в условиях пандемии COVID-19. Всемирная организация здравоохранения 11 февраля 2020 г.

Ключевые слова: COVID, хронический гепатит, короновирус, клиническое течение.

Annotation. The liver is a vital organ. The liver has many functions in the human body. Participates in the reactions of the immune system. In addition, it determines the overall level of resistance to infections and is responsible for the production of antibodies to fight viruses and bacteria. Liver diseases are the most common in the world. Especially in the context of the COVID-19 pandemic. World Health Organization February 11, 2020.

Keywords: COVID-19, chronic hepatitis, coronavirus, clinical course, the liver infectious diseases.

Dolzarbliigi: 2019 yilning oxirida Xitoy Xalq Respublikasida noma‘lum pnevmoniya holatlarining paydo bo‘lishi haqidagi xabar barchaning e‘tiborini tortdi. Pnevmoniya SARS-CoV-2 yangi koronavirusi (o‘tkir respirator sindrom koronavirusi 2) tomonidan qo‘zg‘atilgan. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti 2020 yil

11 fevralda SARS-CoV-2 infeksiyasiga COVID-19 ("CoronaVirus Disease 2019" - 2019 yilda yangi koronavirus tomonidan qo'zg'atilgan kasallik) rasmiy nomini berdi.

Pnevmoniya COVID-19ning asosiy klinik shakli hisoblanadi. Shunday bo'lsada, COVID-19 pandemiyasi tarqalishi va kasallanganlardagi klinik ma'lumotlarni tahlil qilish natijasida "atipik" pnevmoniya uchun xos bo'lmagan alomatlar aniqlana boshlandi. Nevrologik ko'rinishlar, teri o'zgarishlari, ko'z shikastlanishlari va boshqalar tasvirlangan. SARS-CoV-2ning o'pkadan tashqari mavjudligi xolangiotsitlarda ham aniqlangan. Jigar shikastlanishining ehtimoliy omillari orasida viruslar tomonidan keltirib chiqarilgan ta'sir, tizimli yallig'lanish ("tsitokin bo'roni"), gipoksiya, gipovolemiya, shok holatidagi gipotoniya, dori gepatotoksikligi va boshqalar ko'rib chiqiladi.

COVID-19 bilan kasallangan bemorlarning 14-53% da bioximiyaviy ko'rsatkichlarda o'zgarishlar qayd etilishi mumkin, bu odatda dori-darmon bilan davolashni talab qilmaydi. O'tkir hepatit juda kam hollarda rivojlanadi. Ammo, xavf ostida bo'lgan COVID-19 bilan kasallangan bemorlarga alohida e'tibor qaratish kerak - jigar transplantatsiyasini o'tkazganlar, immunosuppressantlarni qabul qilayotganlar, shuningdek, tsirroz dekompensatsiyasi, surunkali gepatotsellyulyar karsinoma fonida o'tkir jigar yetishmovchiligi, viruslarga qarshi terapiya o'tkazilayotgan holatlarda. Ilmiy ma'lumotlar, yangi texnologiyalar va yangilanib turadigan qo'llanmalar bilan doimiy almashinuv va ochiq kirish zarur.

Koronaviruslar tabiatda keng tarqalgan bo'lib, turli xil shamollash kasalliklarining sababchisidir (25% gacha). Ularning aksariyati sog'liqqa jiddiy zarar yetkazmaydigan virusli infeksiyani keltirib chiqaradi, ammo SARS-CoV (og'ir o'tkir respirator sindrom koronavirusi) va MERS-CoV (Yaqin Sharq respirator sindromi koronavirusi) kabi ba'zilar yuqori o'lim darajasi bilan og'ir respirator sindromning rivojlanishiga olib keladi [1, 2].

Tabiatda ko'rshapalaklarning ko'p turlari koronaviruslar uchun tabiiy egadir. Mutatsiya va adaptatsiya jarayonlari natijasida rivojlanib, ular vaqti-vaqti bilan inson populyatsiyalarida epidemiyalarni keltirib chiqaradi. Shunday qilib, 2019 yil dekabr oyi oxirida Xitoyda boshlangan noma'lum pnevmoniyaning tarqalishi jamoat sog'lig'i sohasida favqulodda vaziyatning rivojlanishiga sabab bo'ldi, keyinchalik SARS-CoV-2 yangi koronavirusi (og'ir o'tkir respirator sindrom koronavirusi 2) tomonidan qo'zg'atilgan pandemiyaga olib keldi [2, 3]. Jahon sog'liqni saqlash

tashkiloti (JSST) 2020 yil 11 fevralda SARS-CoV-2 infeksiyasiga COVID-19 ("CoronaVirus Disease 2019" - 2019 yilda yangi koronavirus tomonidan qo'zg'atilgan kasallik) rasmiy nomini berdi. Ushbu infeksiyadan o'lim darajasi 0,5-3% ni tashkil qiladi [4].

SARS-CoV-2 va COVID-19 patogenezining ehtimoliy mexanizmlari. Yangi koronavirus - bir zanjirli RNK saqlovchi virus bo'lib, Coronaviridae oilasi, Betacoronavirus turiga mansub. SARS-CoV-2 - bu zoonozli virus, bu filogenetik tahlildan kelib chiqadi, bu esa SARSga o'xshash ko'rshapalaklar koronavirusining BM48-31/BGR/2008 izolyati bilan eng yaqin aloqani ko'rsatdi (o'xshashlik - 96%). Ko'rinadiki, ko'rshapalaklar SARS-CoV-2 uchun rezervuar hisoblanadi, boshqa kichik sut emizuvchilar, xususan, pangolinlar esa oraliq egalar bo'lib, ehtimol "nolinchi bemorni" yuqtirgan [1]. Bundan tashqari, SARS-CoV-2ning filogenetik tahlilida SARS-CoV bilan 88% va MERS-CoV bilan 50% ga yaqin ketma-ketlik o'xshashligini ko'rsatuvchi ma'lumotlar olingan [1, 5].

Respirator sindromlar koronaviruslarining tuzilishi juda o'xshash. SARS-CoV-2ning tuzilmaviy oqsillari orasida S-oqsillari yoki "oqsil tikalari" (inglizcha Spike - tikan), membrana oqsili, E oqsili va nukleokapsid ajratiladi. S oqsili virusning hujayralarga birikishi, qo'shilishi va kirishida muhim rol o'ynaydi, bu esa uni antitanalar va vaksina ishlab chiqarish uchun ehtimoliy nishon sifatida ko'rib chiqishga imkon beradi. Yangi koronavirus infeksiyasining patogenezini yetarlicha o'rganilmagan [6, 7].

Virulentlikning asosiy omili bu SARS-CoV-2ning tashqi membranasida joylashgan S oqsilining retseptor bilan bog'lanish domeni (receptor-binding domain – RBD)ning angiotenzin-o'zgartiruvchi ferment 2 (angiotensin-converting enzyme 2 receptors – ACE2) retseptori bilan o'zaro ta'siri hisoblanadi, u odamning transmembranali serin proteazalari (TMPRSS2 – Transmembrane protease, serine 2) tomonidan faollashtiriladi [8]. ACE2 qon plazmasi komponentlaridan II tipdagi alveolotsitlar tomonidan ajratiladigan surfaktantda ifodalanadi. Surfaktant - bu alveolalar, alveolyar o'tish joylari va 1-3-darajali respirator bronxiolalarda havosuzlik fazalari chegarasida joylashgan va nafas olish paytida alveolalar devorlarining qulashiga (yopishishiga) to'sqinlik qiladigan yuzaki faol monomolekulyar plyonkadir.

ACE2ning ifodasi o'pkaning shikastlanishidan himoya qiladi, ammo u SARS-CoVning tikansimon oqsili bilan bog'lanishi natijasida kamayadi, bu esa infeksiya



xavfini oshiradi. Shu bilan birga, tajribada ACE2 ifodasining kuchayishi SARS-CoV bilan bog‘lanishning ko‘payish ehtimolini istisno qilmasligi ko‘rsatilgan. Bitta nishonga uchtagacha virus birikishi mumkin. ACE2 va TMPRSS2 Yevropa va Osiyo kelib chiqishiga ega bemorlar orasida bir tekis taqsimlanmagan, bu ham infeksiyaning intensivligiga ta‘sir qilishi mumkin. SARS-CoVning tuzilmaviy bo‘lmagan oqsillari eritrotsitdagi gemoglobin tuzilishini o‘zgartirishga qodir, bu esa kislorod tashilishini buzadi, temirning dissotsiatsiyasiga, porfirin hosil bo‘lishiga va ferritinning ko‘payishiga olib keladi, degan taxmin mavjud.

Bunday ta‘sir o‘pkadagi yallig‘lanish jarayonlarini kuchaytirishi, oksidativ stress, gipoksemiya, gipoksiya, o‘tkir respirator distress sindromi (O‘RDS) va ko‘p organli kislorod yetishmovchiligi alomatlarining rivojlanishiga olib kelishi mumkin [5]. Biroq, ushbu gipotezaning asosi eksperiment va klinik tadqiqotlar o‘tkazmasdan biotransformatsiya modelini yaratish edi. SARS-CoV-2 nafas yo‘llari shilliq qavatida, ichakda, ko‘z kon’yunktivasida, oshqozon osti va okoloushnyye slyunnye bezlarida joylashgan qadahsimon hujayralarga tropdir.

Virusning faol replikatsiyasi qadahsimon hujayralarning (shilimshiq hosil bo‘lishi) himoya funksiyalarini sezilarli darajada kamaytiradi, bu ham virusning inson organizmiga kirishiga yordam beradi.

Koronavirusning tarqalishiga javoban giper-immun reaksiya rivojlanishi kuzatiladi - bu "tsitokin bo‘roni" deb ataladi, u bir vaqtning o‘zida qondagi T-limfotsitlarning miqdori kamayishi bilan birga yallig‘lanishga qarshi interleykinlarning (IL-1 β , IL-6, o‘sma nekrozi omili va boshqalar) va xemokinlarning sezilarli (anomal) miqdori sintezi bilan tavsiflanadi [1]. Bundan tashqari, SARS-CoV-2 qon tomirlari endoteliysini yuqtirib, u yerda joylashgan ACE2 bilan o‘zaro ta‘sir qiladi va endotelial disfunktsiya, giperpronitsayemost, mikrosirkulyatsiyaning buzilishi, tomir trombofiliyasi va tromb hosil bo‘lishining rivojlanishiga olib keladi [1].

COVID-19ning progresslashishi gialin membranalar hosil bo‘lishi va o‘pka shishining rivojlanishi bilan kechadigan diffuz alveolyar shikastlanish bilan aniqlanadi. O‘pkaning autopsiyasidagi gistologik manzarasi alveolyar eksudatlar va interstitsial fibrozning tashkillanishi, gialin membranalar hosil bo‘lishi, interstitsial mononuklear yallig‘lanish infiltratlarining mavjudligi, ko‘plab fibrin mikrotromblari, sezilarli shish, II tipdagi alveolotsitlarning giperplaziyasi va o‘choqli deskvamatsiyasi, alveolyar eksudatda virusli kiritmalar bilan



makrofaglarining sezilarli miqdori bilan tavsiflanadi. Ko‘proq zararlangan sohalarda qon ketishi, nekroz va gemorragik infarkt kuzatiladi [2, 3].

COVID-19ning klinik manzarasi va tashxisi: insonning SARS-CoV-2 bilan yuqtirilishi inkubatsiya davrining oxirgi kunlarida va kasallik boshlanganidan keyingi birinchi uch kunda maksimal darajada sodir bo‘ladi. Aksariyat hollarda yuqtirish klinik jihatdan namoyon bo‘lgan kasallik holatlarida COVID-19 bilan kasallangan bemor bilan aloqa qilish natijasida yuzaga keladi (75-85% gacha - oila muhitidagi yuqtirilgan qarindoshlar bilan aloqa qilishda). Ta’kidlash joizki, virus ajralishi, odatda, yengil/o‘rtacha hollarda 12 kungacha va og‘ir hollarda 14 kundan ortiq davom etadi. Biroq, COVID-19 dan tuzalib ketgan bemorlarda yangi koronavirus RNKsi klinik alomatlar yo‘qolganidan keyin ham ijobiy bo‘lishi mumkin. COVID-19 bilan kasallangan odam atrofdagi 3-5 kishini, gripp bilan kasallangan odam esa atigi 1-2 kishini yuqtirishi mumkin [4-6].

Epidemiologik dalillar shuni ko‘rsatadiki, yurak-qon tomir kasalliklari, arterial gipertenziya, qandli diabet, xavfli o‘smalar bilan og‘rigan bemorlar SARS-CoV-2 ga ko‘proq sezgir.

Xulosa. COVID-19 bilan kasallanganlar soni 3,5 milliondan oshgan bo‘lib, 250 mingdan ortiq bemor vafot etgan. Hozirda samarali maxsus davolash usullari mavjud emas, lekin turli terapevtik strategiyalar bo‘yicha klinik tadqiqotlar davom etmoqda. SARS-CoV-2 ga antitana hosil qilgan shaxslarni uzoq muddat monitoring qilish zarur. Jigar kasalliklari bo‘lgan bemorlar og‘ir kechish xavfiga ega bo‘lgani sababli, ularni nazorat qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Pandemiya qarshi kurashda ilmiy ma’lumotlarga ochiq kirish va xalqaro hamkorlik muhim rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Masharipov, S., Sadullaev, S. E., & Sh, M. D. (2023). THE COURSE OF CORONAVIRUS AGAINST THE BACKGROUND OF CHRONIC HEPATITIS. *Scientific Impulse*, 2(15), 65-70.
2. Masharipova Sh.S, Masharipov S, Sadullaev S.E, & Matyakubova D.Sh. (2023). THE COURSE OF CORONAVIRUS AGAINST THE BACKGROUND OF CHRONIC HEPATITIS. *Scientific Impulse*, 2(15), 65–70. Retrieved from
3. Sadullayev S. E. et al. THE COURSE OF NOSOCOMIAL PNEUMONIA IN PATIENTS ON LONG-TERM ARTIFICIAL LUNG VENTILATION



//O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. – 2024. – T. 2. – №. 26. – С. 80-84.

4. Машарипова Шохиста Сабировна, Артиков Икром Ахмеджанович, Матякубова Ойша Уриновна РАСТРОЙСТВА ПСИХИКИ У БОЛЬНЫХ ДЕСТРУКТИВНЫМИ ФОРМАМИ ТУБЕРКУЛЕЗА В УСЛОВИЯХ ПАНДЕМИИ COVID-19 // JCR. 2021. №3.

URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/rastroystva-psihi-ki-u-bolnyh-destruktivnymi-formami-tuberkuleza-v-usloviyah-pandemii-covid-19>

5. Машарипова Шохиста Сабировна МОРФОЛОГИЧЕСКОЕ СТРОЕНИЕ ЛЕГОЧНЫХ АРТЕРИЙ ПОД ВЛИЯНИЕМ САХАРНОГО ДИАБЕТА // JCR. 2022. №1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/morfologicheskoe-stroenie-legochnyh-arteriy-pod-vliyaniem-saharnogo-diabeta>

6. Туйчиев Л. Н. и др. A study of the factors affecting the effectiveness of COVID-19 rehabilitation. – 2023.

7. Машарипова Ш. С. О ‘РКА АРТЕРИЯЛАРИНИНГ ҚАНДИ ДИАБЕТ ТА’СИРИДА МОРФОЛОГИК ТУЗИЛИШИ //Журнал кардиореспираторных исследований. – 2022. – Т. 3. – №. 1.

8. Yusupov Sh.Sh, Ibrakhimova H.R, & Masharipova Sh.S. (2023). IMMUNOLOGICAL CHARACTERISTICS OF PATIENTS WHOSE BODY IS INFECTED WITH CATTLE SOLITAIRE. Новости образования: исследование в XXI веке, 2(15), 120–124. извлечено от <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/noiv/article/view/12430>

